

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUXANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



«YERUSTI TRANSPORT TIZIMLARI» KAFEDRASI

AVTOTRANSPOST VOSITALARI DETALLARINI QAYTA TIKLASH
METODLARI
fani bo'yicha



O'QUV-USLUBIY MAJMUA

| | |
|-------------------|---|
| Bilim sohasi | 600000- Xizmatlar |
| Ta'lif sohasi | 610000-Xizmat ko`rsatish sohasi |
| Ta'lif yo'nalishi | 5610100-Xizmatlar sohasi (Avtomobil transporti) |

Namangan 2021 йил

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUXANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

«YERUSTI TRANSPORT TIZIMLARI» KAFEDRASI



NamMQI
o'quv-uslubiy ha'limi

Ro'yxatga olindi:
№ _____
2020 yil. « ____ » 457

“TASDIQLAYMAN”
O'quvishlari bo'yicha prorektor
M. Dadamirzayev
2021 yil

“26” 08 2021

AVTOTRANSport VOSITALARI DETALLARINI QAYTA TIKLASH
METODLARI
fani bo'yicha

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

| | |
|-------------------|--|
| Bilim sohasi | 600000- Xizmatlar |
| Ta'lif sohasi | 610000-Xizmat ko'rsatish sohasi |
| Ta'lif yo'nalishi | 5610100-Xizmatlar sohasi (Avtomobil transporti) |

Namangan 2021 йил

Fanning o'quv uslubiy majmuasi OO'MTV ning 5610100 o'quv rejasi va NamMQI ilmiy Kengashining 31.08 2021 yildagi № 86 sonli yig'ilishida tasdiqlangan ishchi o'quv reja asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar

Razokov Alisher Yakubjonovich, Yer usti transport tizimlari kafedrasi katta o'qituvchisi
Imomnazarov Sarvarbek Qoviljonovich, Yer usti transport tizimlari kafedrasi o'qituvchisi
Nasriddinov Azizbek Shamsiddinovich, Yer usti transport tizimlari kafedrasi PhD katta o'qituvchisi

Taqrizchi

Polvonov Abdujalil Sattorovich Yer usti transport tizimlari kafedrasi dotsenti

O'quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-uslubiy kengashining 31.08 2021-yil yig'ilishida (86-sonli majlis bayoni) ko'rib chiqildi va foydalanishga tavsiya etildi. (ruyhat raqami № 45+)

MUNDARIJA

| I | O'QUV MATERIALLAR |
|----------|---|
| 1 | Transport vositalari detallarining ish qobilyatini qayta tiklash texnologiyalari fanining maqsadi va vazifalari |
| 2 | Transport vositalari detallarini ishlash sharoitlari va ulardagi sodir bo'layotgan jarayonlar. |
| 3 | Transport vosita detallarini tiklash tizimi va vositalari |
| 4 | Transport vosita detallarini yuvish va tozalash. |
| 5 | Transport vosita detallarning texnik holatini aniqlash |
| 6 | Transport vosita detallarning tiklash uslublari. |
| 7 | Transport vosita detallarini tiklash jarayonlari. |
| 8 | Transport vosita detallarini tiklashdagi texnologik jarayonlarni loyihalash |

7-semestr

| | |
|-----------|--|
| 1 | Transport vositalari detaliarini payvandlash usulida ta'mirlash |
| 2 | Uzel va mexanizmlarni komplektlash. Mashinalarni yig'ish texnologiyasi. |
| 3 | Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash. |
| 4 | Detallarni elektr yoyi vositasida payvandlash yo'li bilan ta'mirlash |
| 5 | Payvandlashdagi termik ta'sir va unga qarshi kurashishning texnologik usullari |
| 6 | Detallarni payvandlash va suyuqlantirib qoplash jarayonlarini avtomatlashtirish |
| 7 | Detallarni metallash yo'li bilan tamirlash. Metallash turlari |
| 8 | Metallangan qatlamning strukturasi qattiqligini yeyilishga chidamliligi va mustaxkamligi |
| 9 | Detallarni galvanik qoplama qoplash yo'li bilan ta'mirlash |
| 10 | Polimer materiallar. Elimli materiallar |
| 11 | Detallarni ta'mirlashning qulay usullarini tanlash |
| 12 | Val va o'qlarni ta'mirlash |

LABARATORIYA MASHG'ULOTIMATERIALLARI

| | |
|----------|---|
| 1 | Gilza slindrlarining nuqsonlarini aniqlash. Gilza slindrlarini ta'mir o'lchamlarga tiklash. |
| 2 | Tirsakli vallarning nuqsonlarini aniqlash |
| 3 | Taqsimlash vallarinig nuqsonlarini aniqlash. |
| 4 | Shatunlarining nuqsonlarini aniqlash. |
| 5 | Tirsakli vallarning shatun va tayanch bo'yinlarini ta'mir o'lchamlariga tiklash |
| 6 | Tirsakli vallarni elektroyoy yordamida metal eritib flyus qatlami |

| | | |
|---------------------------------------|---|--|
| | ostida tiklash | |
| AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI | | |
| 1 | Yerusti transport tizim detallarining konstruktsion – texnologik hususiyatlari | |
| 2 | Transport tizim detallarini ishlash sharoitlari. Ishlashdagi sodir bo'layotgan jarayonlar va ularni ish qobiliyatini belgilovchi omillar. | |
| 3 | Detallarni ta'mirbopligi va chegaraviy holatlari. | |
| 4 | Detallarni yuvish va tozalash jarayonlari. | |
| 5 | Detallarni texnik holatini aniqlash | |
| 6 | Detallarni tiklash usullari va ularni tanlash | |
| 7 | Detallarni tiklashda mexanik ishlov berish. | |
| 8 | Tiklashda texnologik operatsiyalarni me'yorlash va rasmiylashtirish. | |
| 7-semestr | | |
| 1 | Detallarni flyus oqimi ostida eritib va himoya gazlari muhitida changlatib qayta tiklash | |
| 2 | Elektrod va uning qoplamasи, qoplamaga qo'yilgan talablarni o'rganish | |
| 3 | Payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun mo'ljallangan elektrodlarni tanlashni o'rganish | |
| 4 | Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash jarayonini o'rganish | |
| 5 | Cho'yan va alumin qotishmalarini payvandlashdagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish | |
| 6 | Detallarni sintetik materiallardan foydalanib ta'mirlash texnologiyasini o'rganish | |
| 7 | Hosilni yig'uvchi mashinalarning asosiy ishchi organlarini ta'mirlash | |
| 8 | Mashinalardagi nuqsonlar va ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish | |
| 9 | Mashinalarni ta'mirlash usullari va ularni tahlil qilish | |
| 10 | Detallarni ta'mirlash usullarini tasnifini tahlil qilish | |
| 11 | Detallarni plastik deformatsiya bilan ta'mirlash usullarini tahlil qilish | |
| 12 | Traktorlarning tipavoy detallarini ta'mirlash usullarini o'rganish | |
| II. | MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI | |
| III. | GLOSSARIY | |
| IV. | ILOVALAR | |

O'QUV
MATERIALLAR

I. O'QUV MATERIALLAR

1- MAVZU TRANSPORT VOSITALARI DETALLARINING ISH QOBILYATINI QAYTA TIKLASH TEKNOLOGIYALARI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Transport vositalari detallarini ish qobilyatini tiklash texnologiyalari fanining maqsadi va vazifalari
2. Transport vositalari detallarida sodir bo'ladigan qaytmas jarayonlar

Tayanch iboralar: *yeyilish, korroziyalanish, toliqish, material magnit xossalaring yo'qolishi, materialning strukturaviy o'zgarishi, deformatsiyalanish, yeyilish, sinish, korroziyalanish*

Avtomobil detallarini ish qobilyatini tiklash texnologiyalari fanining maqsadi va vazifalari.

Hozirgi zamon sanoat uchun mashinalar tizimi zarur. Oldiga qo'yilgan vazifalarni to'g'ri, sifatlari va o'z vaqtida hal etish uchun mashinalar ishonchliligin oshirish, mashinalarni tarkibini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish hamda saqlash bazasini yaratish zarur. Yuqorida ta'kidlangan mashinalar parki tarkibini doimo shay holda tutib turish va undan samarali foydalanish uchun milliardlarcha mablag' sarf bo'lmoqda. Shu bois mashinalarning ishonchliligin oshirish, ta'mirlash sifatini yaxshilash va texnika sifatini hamda unga ko'rsatiladigan texnikaviy xizmat, TXKga ketadigan sarflarni kamaytirish davlat ahamiyatiga molik vazifalardan xisoblanadi. Mazqur fan talabalarga quyidagilarni o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi:

- 1.Mashinalar ishonchlilagini nazariy asoslarini, ularni oshirish yo'llari va baxolash usullarini;
- 2.Ishlamay qolish, nuqsonlar paydo bo'lish sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etish usullari;
- 3.Mashinalarni buzilmay ishlashi va ta'mirlashga yaroqliligin oshirish yo'llari;
- 4.Mashina va uskunalarni ta'mirlashning ishlab chiqarish jarayonlari;
- 5.Mashina qismlarini tiklashning zamonaviy texnologik jarayonlari;
- 6.Texnologik jarayonlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish hamda mexnat xavfsizligi qoidalari;
- 7.Ta'mirlashda mehnatni tashkil etishni zamonaviy shakllari;
- 8.Ta'mirlash va TXK sifatini baxolash usullari;
- 9.Ta'mirlash samaradorligini baholash va uni sifatini boshqarish usullari;
- 10.Ta'mirlashning maqsadga muvofiqligini va uni amalga oshirish shart – sharoitlarini aniqlash;
- 11.Ta'mirlash va TXK bazasini ishlab chiqish hamda loyihalash;
- 12.Muhandislik yechim va qabo'l qilingan qarorlarni texnik iqtisodiy jihatdan baholash;
- 13.Fanni nazariy va amaliy mashg'ulotlar asosida kolledj talabalariga o'qita bilish.

Ta'mirlash chog'ida mashinalarning ishonchlilagini oshirish maqsadida firmaviy va xususiy korxonalarda, xo'jaliklararo birlashmalarda, turli vazirliliklarga qarashli korxonalarda ta'mirlash hamda texnik xizmat ko'rsatish bazalari rivojlantirilmoqda va mustahkamlanmoqda. Yangi ta'mirlash ustaxonalari, texnikaviy servis xizmati ko'rsatish maskanlari, stantsiyalar, statsionlari ko'rilib mavjudlari qayta ko'rib chiqilmoqda, ular yangi ta'mirlash – texnologik uskunalar bilan jihozlanmoqda.

Avtomobil detallarida sodir bo'ladigan qaytmas jarayonlar. Mashinalardan foydalanishda ularning tarkibiy qismlari detallarning ish tavsif (xarakteristika)larining yomonlashuvi yuz beradi, buni detallarning **eskirishi deyiladi**. Detallar ish tavsiflarining yomonlashuvi mashinalarda sodir bo'ladigan qaytmas jarayonlar: **yevilish, korroziyalanish, toliqish, material magnit xossalaringin yo'qolishi, materialning strukturaviy o'zgarishi** va boshqa jarayonlar bilan bog'liq. Buning oqibatida mashina ishslash qobiliyatini yo'qotadi va undan foydalanishning texnik imkoniyati qolmaydi yoki iqtisodiy jixatdan maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Mashinalarning ishslash qobiliyatini talab etilgan sifat bilan tiklashga **deformatsiyalanish, yeyilish, sinish, korroziyalanish** va boshqa shikastlanishlarning yuzaga kelish sabablarini bilmasdan turib erishib bo'lmaydi. Eskirish qonunlarini, ya'ni shikastlanish darajasining vaqtga bog'liqligini bilish ishonchlilik masalasini hal etishning asosidir. Bu eskirish jarayonini oldindan belgilash, uning jadal o'tishga ta'sir etuvchi muhim omillarni aniqlashga imkon beradi.

Bunday bog'liqliklarning o'ziga xos misoli materiallarning **yevilish qonunidir**. Yeyilishning vaqt mobaynida o'zgarishi, odatda, uchta uchastkadan iborat egri chiziq bilan tavirlanadi. Sirtning boshlang'ich (texnologik) relefi foydalanish relefiga aylanganidagi miqreyilish davri I da yeyilish tezligi $\approx \text{const}$ qiymatgacha bir maromda kamayadi, bu xol turg'un (me'yoriy) yeyilish davri II ga xosdir.

Ta'mirlash — ishslash qobiliyatini tiklash maqsadida mashinaning (yoki ayrim qismlarining) nuqsonlarini bartaraf etish ishlari majmuidir. Mashinalar ta'mirlashkorxonasida ta'mirlashlanadi. Bu korxona mashinasozlik korxonasing bir turi bo'lib, unda mashinaning yaxshi ishslash qobiliyatini yo'qotgan, ammo xali ta'mirlash qilishga yaroqli bo'lgan hamda ushbu ishlab chiqarish uchun asosiy detallar vazifasini bajaradigan qismlari (agregatlar, uzellar, detallar va hokazo) texnik shartlarga muvofiq tarzda ta'mirlashlanadi. Mashinasozlikdan farqli o'laroq, ta'mirlashkorxonasi o'ziga xos texnologik jarayonlar: mashina qismlarini yuvish, qismlarga hamda nuqsonli-nuqsonsizga ajratish va ta'mirlash qilishni o'z ichiga oladi. Mashinani ta'mirlashishlab chiqarishi rivojlanishi bilan yangi atamalar va tushunchalar (GOST 13377—67) yuzaga keldi, ular bilan tanishish ana shu ishlab chiqarishdagi jarayonlarning mohiyatini to'laroq va to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Joriy tamirlash. Mashina, agregat, uzelning ishslash qobiliyatini ta'minlash yoki tiklash uchun hamda ularning ayrim qismlarini almashtirish (tiklash) maqsadida joriy ta'mirlash o'shilishi kerak. Oldini olish xarakteridagi joriy ta'mirlash hasosan berilgan

rusumdag'i mashinalar uchun belgilangan texnik xizmat ko'rsatishning muayyan turi bilan birga bajariladi. Ishlamay qolish oqibatlari esa bu nuqson paydo bo'lganidan va sabablari aniqlanganidan keyin bartaraf etiladi. Joriy ta'mirlashuning murakkabligiga qarab mashinadan foydalaniladigan joyning o'zida ham, maxsus texnik xizmat ko'rsatish ustaxonalari va punklarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta'mirlash qilishda asosan agregat usulidan foydalaniladi. Bu usulda mashina ayrim qismlarining nuqsonlari ularni yangilari yoki ta'mirlashlab qo'yilganlari bilan almashtirish orqali bartaraf etiladi. Bunda agar mashinaning qolgan asosiy aggregatlari ancha katta resurs zaxirasiga ega bo'lsagina uning ishdan chiqqan aggregatlari yangilari yoki kapital ta'mirlanganlari bilan almashtiriladi.

Kapital tamirlash. Kapital ta'mirlash deganda mashinaning istalgan qismlarini, shu jumladan, bazi qismlarini almashtirish yoki tiklash yo'li bilan buyumning resursini to'lik yoki shunga yaqin darajada tiklash hamda sozligini tiklash uchun butun mashinani (yoki agregati, uzelini) ta'mirlash tushuniladi. Mashinani, agregat yoki boshqa tarkibiy qismni kapital ta'mirlash shunga ko'ra farq qilinadi. Kapital ta'mirlash qilishda quyidagi ishlar bajariladi: mashina, uning aggregatlari va uzellari detallarga ajratiladi. Nuqsonli detallar ta'mirlash qilinadi yoki almashtiriladi, mashina yig'iladi, rostlanadi, asta-sekin ishga solinadi, bo'yaladi, sinaladi.

Ishonchlilik — mashinaning berilgan vazifalarni belgilangan ish ko'rsatkichlari qiymatlarini saqlagan holda texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va tashish tartibotlari (rejimlari) shartlariga mos kelgan holda bajarish xususiyati. Ishonchlilik kompleks xususiyat bo'lib, ob'ektning vazifasiga va undan foydalanish sharoitiga qarab buzilmasdan ishlash, chidamlilik, ta'mirlash qilishga yaroqlilik va saqlovchanlikni alohida-alohida yoki birgalikda o'z ichiga olishi mumkin. Ishonchlilikka oid atamalar GOST — 27, 002—83 da belgilangan.

Buzilmasdan ishslash — mashinaning qandaydir xajmdagi ishni bajargunga qadar o'zining ishslash qobiliyatini majburiy tanaffuslarsiz saqlash xususiyati. Ishlamay qolish deganda ishslash qibiliyatining buzilishidan iborat bo'lган hodisa tushuniladi.

CHidamlilik — mashina, agregat, uzel, tutashmaning o'zining ishslash qibiliyatini oxirgi holatgacha saqlash xususiyati. Buyumning oxirgi holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi, samaradorligining pasayishi yoki xavfsizlik talablarining buzilishi bilan belgilanadi va texnik xujjatlarda izohlanadi. CHidamlilik ko'rsatkichlariga mashinaning undan foydalanila boshlangandan to hisobdan chiqarilgunga qadar bo'lган xizmat muddati yoki resursi (gektarlarda, soatlarda yoki bosib o'tgan yo'lining kilometrlarida) kiradi.

Ta'mirlashga yaroqlilik — mashina (agregat, uzel)ning texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashyo'li bilan ishlamay qolishi hamda nuqsonlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moslashganligidan iborat bo'lган xususiyati.

Saqlovchanlik — buyumning o'z ish ko'rsatkichlarini saqlashi va saqlanish muddati davomida va bu muddat tugagandan keyin ham texnik xujjatlarda (GOST 27.002—83) ko'rsatilgan qiymatlarda saqlanib turish xususiyati.

Bajargan ishi — ob'ektning ishslash davomliligi yoki xajmi. Agar ob'ekt tanaffuslar bilan ishlaydigan bo'lsa, u holda jami bajargan ishi hisobga olinadi. Ob'ektning bajargan ishi vaqt, uzunlik, maydon (gektarda), xajm, massa va boshqa birlklarda o'lchanishi mumkin. Ushbu atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan

Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi — ta'mirlashlanayotgan buyumning ishlamay qolishlar oralig'ida bajargan ishining o'rtacha qiymati. Mazqur atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Nosozlik — buyumning shunday holatiki, bunda u texnik xujjatlardagi talablarning loaqlal bittasiga ham mos kelmaydi. Bu atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Ishlamay qolish — ob'ektning ishlash qobiliyati buzilishidan iborat bo'lgan hodisa. Ishlamay qolish mezonlari me'yor belgilovchi — texnik xujjatlarda keltiriladi. To'satdan, konstruktiv, asta-sekin. ishlab chiqarish, ekspluatatsion va boshqa ishlamay qolishlar, shuningdek, muntazam, qisman hamda butqul ishlamay qolishlar bo'ladi. Turli kamchiliklar (GOST 17102—71), foydalanish qoidalari va me'yorlarining buzilishi (GOST 17527—72), turli xil shikastlanishlar, shuningdek, tabiiy yejilish va eskirish jarayonlari ishlamay qolishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Xizmat muddati — ob'ekt ishlatila boshlangandan yoki kapital ta'mirlangandan to texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga kelgunga (GOST 27.002—83) yoki hisobdan chiqarilgunga qadar kalendar ishlash davomliligi.

Resurs — buyumning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga qadar bajaradigan ishi. Birinchi ta'mirlashgacha bo'lgan resurs, ta'mirlararo resurs, belgilangan resurs va boshqa resurslar farq qilinadi. Ta'mirlararo resurs birinchi ta'mirlashgacha bo'lgan resursdan kamroq bo'ladi.

Ta'mirlararo xizmat muddati yoki ta'mirlararo resurs — ta'mirlangan mashinaning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holat yuzaga kelgunga qadar bajaradigan ishi. Oxirgi holat yuzaga kelganda mashinalar ta'mirlanadi yoki agregatlari almashtiriladi.

Detal nomi va rusumi bir xil bo'lgan ashyodan yig'ish ishlarini bajarmasdan tayyorlangan buyumdir. Lemex, tirsakli val, porshen barmog'i, porshen xalqasi, bolt, gayka va shu kabilar detallarga misol bo'la oladi.

Yig'ish birligi — yig'ish jarayonida tarkibiy qismlari o'zaro biriktirilgan buyum. Yig'ish birliklariga dvigatel, uzatmalar qutisi va boshqalar misol bo'la oladi. Ishonchlikning tushunchalari, ta'riflari va asosiy ko'rsatkichlarini bilish uni baholash uchun ob'ektiv mezonlarni tanlash imkonini beradi.

Buyum (mashina yoki uning detali) ning oxirgi (chekli) holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi yoki samaradorligining pasayishi yoxud xavfsizlik talablariga ko'ra belgilanadi va texnik xujjatlarda izohlanadi (GOST 13377—67).

Nazorat uchun savollar

1. Mashinalar ishonchligini nazariy asoslarini, ularni oshirish yo'llari qanday?
2. Transport vositalarida sodir bo'ladigan qaytmas jarayonlarni sanab bering?
3. Yeyilish qonunini aytib bering

2-MAVZU TRANSPORT VOSITALARI DETALLARINI ISHLASH SHAROITLARI VA ULARDAGI SODIR BO'LAYOTGAN JARAYONLAR.

Reja:

- 1.Mashinalarni ishonchligini ta'minlashda TXK va ta'mirlashning roli.
- 2.TXK va ta'mirlashlar turi, xamda tizimi.
- 3.Ta'mirlashlarning turlari va ularning maqsad xamda vazifalari.

4.Ish qobiliyati, ishonchlilik, xizmat muddati, resurs kabi tushunchalar va ularning tavsifi.

Tayanch iboralar: *Texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, joriy ta'mirlash, mukammal tamirlash, yeyilish, chidamlilik, deformatsiyalanish, yeyilish, sinish, korroziyalanish*

Mashinalarni ishonchliligini ta'minlashda TXK va ta'mirlashning roli. Transport vositalari foydalanish chogida ular xar xil tashqi ta'sirlarga uchraydi. Natijada loyixalash va tayyorlash jarayonida kiritilgan ishonchlilik buzilmasdan ishlash, chidamlilik, ta'mirlashga yaroqlilik xamda saqlanuvchanlik ko'rsatkichlari pasayadi. Bunga mashina detallarida turli xil nuqsonlar paydo bo'lishi va ularning yeyilishi sabab bo'ladi.

Texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlashning rejali – oldini olish tizimi mashinalarni ishga yaroqli xolatda tutib turish uchun xizmat qiladi. TXK va ta'mirlash tizimi deganda ilmiy asoslangan tashkiliy, texnologik va iqtisodiy tadbirlar majmui, shuningdek, transport vositalarining ishga yaroqli xolatda tutib turish xamda tiklashni ta'minlaydigan vositalar tushiniladi.

Meyorlar va qoidalarga amal qilish, texnikani soz xolda tutib turish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarini mumkin qadar kamaytirgan xolda texnikaning ishonchli ishlashini ishirish imkonini beradi.

TXK va ta'mirlash tizimi texnik xizmat ko'rsatadigan va uni ta'minlaydigan xizmatlar xamda korxonalarni tegishli ishlarni okilona tashkil etishga da'vat etadi. Ta'mirlashning eng makbo'l sifatini belgilab beradi, ta'mirlash bazasini rivojlantirishga ketadigan mablag'larni ishlab chiqarishni bir yerga to'plash, ixtisoslashtirish evaziga kamaytirishga yordam beradi.

Tizim, mashinalarni quyidagi guruxlarga bo'lishni taqozo etadi: yuk avtomobilari; yengil avtomobilari; boshqa turdag'i transport vositalari. Tizim asosan texnika ishlamay qolishining olibini olish va mashinalarning ishonchli ishlashi imkonini oshirishni ko'zda tutadi.

Mashinalarning texnik axvolini boshqarishda asosiy ko'rsatkichlar xisoblanib quyidagilar kiradi:

- ishlarning davriyiligi;
- bajargan ishi;
- ta'mirlash – xizmat ko'rsatish ishlarisiz mashinaning texnik imkonyatlaridan ruxsat etilgan darajada chetga chiqishlar;
- TXK va ta'mirlashda mashinalarning xolat parametrlarini tiklash darajasi;
- ta'mirlashga, almashtirishga qadar mashinadan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lgan qoldik resurs.

TXK va ta'mirlash tizimi, butun foydalanish davri mobaynida mashinalarning texnik axvoli va ishslash qobiliyatini zarur darajada tutib turish imkonini beruvchi ishlarning quyidagi turlarini nazarda tutadi: texnik xizmat ko'rsatish; joriy ta'mirlash; kapital ta'mirlash.

TXK va ta'mirlashlar turi, xamda tizimi. Texnik xizmat ko'rsatish. TXK mashinalardan foydalanish va ularni saqlash chog'ida soz xolatda tutib turish maqsadida bajariladigan ishlar majmuidir. Bu ishlar oldini olish xarakteriga ega bo'lib, mashinadan foydalanish davrida, davriy ravishda amalga oshiriladi.

TXK yuvish, tozalash, nazorat qilish, diagnostika (tashxislash), texnik kamchiligini aniqlash, rostlash, moylash, montaj – demontaj qilish va saqlashga tayyorlash ishlarini o’z ichiga oladi. Texnik xizmat ko’rsatishda mashinaning ayrim tarkibiy qismlari almashtirilishi mumkin.

Ta’mirlash — ishlash qobiliyatini tiklash maqsadida mashinaning (yoki ayrim qismlarining) nuqsonlarini bartaraf etish ishlari majmuidir. Mashinalar ta’mirlash korxonasida ta’mirlanadi. Bu korxona mashinasozlik korxonasining bir turi bo’lib, unda mashinaning yaxshi ishlash qobiliyatini yo’qotgan, ammo xali ta’mirlash qilishga yaroqli bo’lgan hamda ushbu ishlab chiqarish uchun asosiy detallar vazifasini bajaradigan qismlari (agregatlar, uzellar, detallar va hokazo) texnik shartlarga muvofiq tarzda ta’mirlanadi. Mashinasozlikdan farqli o’laroq, ta’mirlash korxonasi o’ziga xos texnologik jarayonlar: mashina qismlarini yuvish, qismlarga hamda nuqsonli-nuqsonsizga ajratish va ta’mirlash qilishni o’z ichiga oladi. Mashinani ta’mirlashishlab chiqarishi rivojlanishi bilan yangi atamalar va tushunchalar (GOST 13377—67) yuzaga keldi, ular bilan tanishish ana shu ishlab chiqarishdagi jarayonlarning mohiyatini to’laroq va to’g’ri tushunish imkonini beradi.

Joriy ta’mirlash Mashina, agregat, uzelning ishlash qobiliyatini ta’minalash yoki tiklash uchun hamda ularning ayrim qismlarini almashtirish (tiklash) maqsadida joriy ta’mirlasho’tkaziladi. Oldini olish xarakteridagi joriy ta’mirlash asosan berilgan rusumdagи mashinalar uchun belgilangan texnik xizmat ko’rsatishning muayyan turi bilan birga bajariladi. Ishlamay qolish oqibatlari esa bu nuqson paydo bo’lganidan va sabablari aniqlanganidan keyin bartaraf etiladi. Joriy ta’mirlashuning murakkabligiga qarab mashinadan foydalaniladigan joyning o’zida ham, maxsus texnik xizmat ko’rsatish ustaxonlari va punklarida ham amalga oshirilishi mumkin. Joriy ta’mirlash qilishda asosan agregat usulidan foydalaniladi. Bu usulda mashina ayrim qismlarining nuqsonlari ularni yangilari yoki ta’mirlashlab qo’ylganlari bilan almashtirish orqali bartaraf etiladi. Bunda agar mashinaning qolgan asosiy agregatlar ancha katta resurs zahirasiga ega bo’lsagina uning ishdan chiqqan agregatlar yangilari yoki kapital ta’mirlashlanganlari bilan almashtiriladi.

Kapital ta’mirlash. Kapital ta’mirlash deganda mashinaning istalgan qismlarini, shu jumladan, bazi qismlarini almashtirish yoki tiklash yo’li bilan buyumning resursini to’lik yoki shunga yaqin darajada tiklash hamda sozligini tiklash uchun butun mashinani (yoki agregati, uzelini) ta’mirlashtushuniladi. Mashinani, agregat yoki boshqa tarkibiy qismni kapital ta’mirlashshunga ko’ra farq qilinadi. Kapital ta’mirlash qilishda quyidagi ishlar bajariladi: mashina, uning agregatlar va uzellari detallarga ajratiladi. Nuqsonli detallar ta’mirlash qilinadi yoki almashtiriladi, mashina yig’iladi, rostlanadi, asta-sekin ishga solinadi, bo’yaladi, sinaladi.

Ishonchlilik — mashinaning berilgan vazifalarni belgilangan ish ko’rsatkichlari qiymatlarini saqlagan holda texnik xizmat ko’rsatish, ta’mirlashva tashish tartibotlari (rejimlari) shartlariga mos kelgan holda bajarish xususiyati. Ishonchlilik kompleks xususiyat bo’lib, ob’ektning vazifasiga va undan foydalanish sharoitiga qarab buzilmasdan ishlash, chidamlilik, ta’mirlash qilishga yaroqlilik va saqlovchanlikni alohida-alohida yoki birgalikda o’z ichiga olishi mumkin. Ishonchlilikka oid atamalar GOST — 27, 002—83 da belgilangan.

Buzilmasdan ishlash — mashinaning qandaydir xajmdagi ishni bajargunga qadar o’zining ishlash qobiliyatini majburiy tanaffuslarsiz saqlash xususiyati.

Ishlamay qolish deganda ishlash qobiliyatining buzilishidan iborat bo'lgan hodisa tushuniladi.

Chidamlilik — mashina, agregat, uzel, tutashmaning o'zining ishlash qobiliyatini oxirgi holatgacha saqlash xususiyati. Buyumning oxirgi holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi, samaradorligining pasayishi yoki xavfsizlik talablarining buzilishi bilan belgilanadi va texnik xujjatlarda izohlanadi. Chidamlilik ko'rsatkichlariga mashinaning undan foydalanila boshlangandan to hisobdan chiqarilgunga qadar bo'lgan xizmat muddati yoki resursi (gektarlarda, soatlarda yoki bosib o'tgan yo'lining kilometrlarida) kiradi.

Ta'mirlashga yaroqlilik — mashina (agregat, uzel)ning texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'li bilan ishlamay qolishi hamda nuqsonlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moslashganligidan iborat bo'lgan xususiyati.

Saqlovchanlik — buyumning o'z ish ko'rsatkichlarini saqlashi va saqlanish muddati davomida va bu muddat tugagandan keyin ham texnik xujjatlarda (GOST 27.002—83) ko'rsatilgan qiymatlarda saqlanib turish xususiyati.

Bajargan ishi — ob'ektning ishlash davomliligi yoki xajmi. Agar ob'ekt tanaffuslar bilan ishlaydigan bo'lsa, u holda jami bajargan ishi hisobga olinadi. Ob'ektning bajargan ishi vaqt, uzunlik, maydon (gektarda), xajm, massa va boshqa birliklarda o'lchanishi mumkin. Ushbu atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi — ta'mirlanayotgan buyumning ishlamay qolishlar oralig'ida bajargan ishining o'rtacha qiymati. Mazqur atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Nosozlik — buyumning shunday holatiki, bunda u texnik xujjatlardagi talablarining loaqla bittasiga ham mos kelmaydi. Bu atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Ishlamay qolish — ob'ektning ishlash qobiliyati buzilishidan iborat bo'lgan hodisa. Ishlamay qolish mezonlari me'yor belgilovchi — texnik xujjatlarda keltiriladi. To'satdan, konstruktiv, asta-sekin. ishlab chiqarish, ekspluatatsion va boshqa ishlamay qolishlar, shuningdek, muntazam, qisman hamda butqul ishlamay qolishlar bo'ladi. Turli kamchiliklar (GOST 17102—71), foydalanish qoidalari va me'yorlarining buzilishi (GOST 17527—72), turli xil shikastlanishlar, shuningdek, tabiiy yeyilish va eskirish jarayonlari ishlamay qolishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Xizmat muddati — ob'ekt ishlatila boshlangandan yoki kapital ta'mirlashlangandan to texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga kelgunga (GOST 27.002—83) yoki hisobdan chiqarilgunga qadar kalendar ishlash davomliligi.

Resurs — buyumning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga qadar bajaradigan ishi. Birinchi ta'mirlash qilishgacha bo'lgan resurs, ta'mirlash qilishlararo resurs, belgilangan resurs va boshqa resurslar farq qilinadi. Ta'mirlash qilishlararo resurs birinchi ta'mirlash qilishgacha bo'lgan resursdan kamroq bo'ladi.

Ta'mirlash qilishlararo xizmat muddati yoki ta'mirlash qilishlararo resurs — ta'mirlashlangan mashinaning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holat yuzaga kelgunga qadar bajaradigan ishi. Oxirgi holat yuzaga kelganda mashinalar ta'mirlashlanadi yoki agregatlari almashtiriladi.

Detal nomi va rusumi bir xil bo'lgan ashyodan yig'ish ishlarini bajarmasdan tayyorlangan buyumdir. Lemex, tirsakli val, porshen barmog'i, porshen xalqasi, bolt, gayka va shu kabilar detallarga misol bo'la oladi.

Yig'ish birligi — yig'ish jarayonida tarkibiy qismlari o'zaro biriktirilgan buyum. Yig'ish birliklariga dvigatel, uzatmalar qutisi va boshqalar misol bo'la oladi. Ishonchlikning tushunchalari, ta'riflari va asosiy ko'rsatkichlarini bilish uni baholash uchun ob'ektiv mezonlarni tanlash imkonini beradi.

Buyum (mashina yoki uning detali) ning oxirgi (chekli) holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi yoki samaradorligining pasayishi yoxud xavfsizlik talablariga ko'ra belgilanadi va texnik xujjatlarda izohlanadi (GOST 13377— 67).

Nazorat uchun savollar

- 1 Ishonchlik nima?
2. Ta'mirlashga yaroqlilik nima?
3. Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi
4. Nosozlik nima?
5. Resurs nima?

3-MAVZU TRANSPORT VOSITA DETALLARINI TIKLASH TIZIMI VA VOSITALARI

Reja:

1. Detallarni turlanishi chegaraviy holati, ularni tiklash nazariyasi va ta'mirlash strategiyasi.
2. Detallarni tiklashning tashkiliy shakllari.
3. Detallarni tiklashning iqtisodiy samaradorligi va chet - el tajribalari.

Tayanch iboralar: *detalning chetli holati, ta'mirlash, joriy ta'mirlash, mukammal tamirlash, chekli yeyilish, chidamlilik, deformatsiyalanish, yeyilish, sinish, korroziyalanish*

Buyum, mashina yoki uning detalining oxirgi chekli holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi yoki samaradorligining pasayishi yoxud xavfsizlik talablariga qura belgilanadi va texnik xujjatlarda izoxlanadi.

Ko'plab ilmiy ishlarda detallar mashinalarning oxirgi holati mezonlarini ilmiy aniklashga harakat qilingan. Bu ishlar ishlamay qolishlarni va konstruktiv muloxozalarni muxandisona oddiy taxlil qilishga xamda murakkab texnik – iqtisodiy ishlanmalarga asoslangan.

Detallar o'lchamlarining va geometrik shaklning o'zgarishi mexanizmdagi ana shu detallarning ishlashiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar detal mashinaning ish organi bo'lsa, bu o'zgarishlar mashinaning ish sifati, ishslash sifati va hokazolarni pasayishi, shuningdek, ishkalanuvchi detallarning jadal yeyilishiga olib keladi. SHu bilan birga mashinaning mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflaydigan quvvati, ashyolarni sarflashi va shu kabi ish ko'rsatkichlari xam uzgarishi mumkin. Odatda oxirgi xolat ishlamay qolishdan iborat bo'lib, ularning ro'y berishi u yoki bu mexanizm yoki agregatning resurslari tugaganligini bildiradi. Kamida shunday ikki xolat mavjudki, bu holatlarga ko'ra mezonlarni birmuncha umumlashgan tarzda berish mumkin.


Birinchi xolat shu bilan bog'liqliki, oxirgi holat mezoni yig'im birlikni kapital tamirlashga jo'natish zarurligini bildiruvchi mezondan boshqa narsa emas. Transport vositalari agregatlari uchun ular bajargan ishning shunday miqdori

mezon bo'lib xizmat qiladiki, shu paytda kapital ta'mirga jo'natilsa, butun xizmat muddati mobaynidagi qilinadigan xarajatlar eng kam bo'ladi.

Ikkinci xolat esa shu bilan bog'likki, muayyan agregatning oxirgi holati mezonini aniqlash uchun undan foydalana boshlangandan beri jami qilingan harajatlar funktsiyasini bilish kerak bo'ladi. O'z navbatida, bunday funktsiya oxirgi holat tushunchasini yangicha talqin qiladi. Masalan, qandaydir agregatda bir qancha istalgan ishlamay qolishlar yuz bersayu, ammo birorta ham resurs bo'yicha ishlamay qolish sodir bo'lmasa, u holda ana shu ishlamay qolishlarni va bekor turib qolishidan ko'rilgan zararlarni bartaraf etishga qilinadigan jami harajatlar shunday katta bo'lar ediki, bunday paytda oxirgi holat kelganini va agregatni kapital ta'mirlash lozimligini ta'kidlash maqsadga muvofik bo'lar edi. Qisqa qilib aytganda, bir qancha istalgan ishlamay qolishlar o'zining oqibatlariga ko'ra resurs bo'yicha ishlamay qolishga tengdir, ya'ni oxirgi holat boshlanganini bildiradi.

SHunday qilib, oxirgi xolat mezonlari sinovlar yoki quzatuvarlar natijalari asosida muayyan yigish birligining resursini, shuningdek, muayyan yigish birligining axvolini baxolashga muljallangan.

Aytib o'tilgan mezonlardan xar qaysisi maxsus iqtisodiy – matematik model bo'yicha ishlab chiqilgan. Quyida shunday mezonlarning mazmuni transport vositalarini agregatlaridan biri misolida keltirilgan. Bajarilgan ishga bog'lik bo'lgan xarajatlar xajmi ko'rsatilgan. Strelka bilan bajarilgan ish T ko'rsatilgan bo'lib, u agregatni ishga yaroqli xolatda saklashga qilingan eng kam xarajatlarga tugri keladi. T ning bu qiymati agregat uchun oxirgi xolatning umulashtirilgan mezoni bo'ladi va rejadagi xamda boshka yiriklashtirilgan vazifalarni xal etish uchun yaraydi.



3.1-rasm. Xizmat muddati mobaynidagi xarajatlar to'plangan chetli xarajatlar darajasiga bog'liqligini ifodalovchi grafik

Ta'mirlararo optimal bajarilgan ish miqdorini aniqlash uchun mashinalar bajargan ish miqdori – T ga bog'lik ravishdagi ekspluatatsion xarajatlar – Ex qiymatlarining statistik ma'lumotlari berilgan bo'lishi kerak.

Bu berilgan ma'lumotlarni abtsissa o'qlariga – bajarilgan ish miqdorini soatlarda. Ordinata o'qi bo'yicha esa – shu qiymatlarga mos keladigan ekspluatatsion xarajatlar qiymatlarini qo'yib, qulay grafik usulida ko'rsatish mumkin.


Ekspluatatsion xarajatlarning minimal qiymatlarini bilgan xolda, uncha qiyin bo'limgan grafiklar ko'rsh yo'li bilan ta'mirlararo bajarilgan ish miqdorini topish mumkin (4 – rasmga qarang).

Demak, agar $E_{x\min.}=X$ sum bo'lsa, u xolda optimal bajarilgan ish miqdori T moto – soatni tashkil etadi.

Bu topshirikni matematik usulda quyidagicha yechish mumkin.

Ko'p turli ko'rnishdagi matematik boglanishlar ichida ekspluatatsion xarajatlar Ex ning mashinalar bajargan ish miqdori T ga boglikligini ifodalovchi va qullanilishi mumkin bo'lgan funksiya bu $Ex = AxTp$ ko'rnishdagi darajali funktsiyadir. Bu bog'lanishda A va p koeffitsientlarining mos ravishda tanlash xisobiga ekspluatatsion xarajatlarning bajarilgan ish miqdoriga bog'likligini ko'p xajmdagi o'zgarishlarini ifodalash mumkin. Bitta tutashmani xosil qiluvchi ikki detalning yeyilishini ko'rsatuvchi egri chiziqlar keltirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, tirkish chekli qiymatigacha kattalashgan tutashma yaroqsizga chiqariladi, chunki bunday uzel yoki yig'ish birliklarining biror ish xolati, xarakteristikasi keskin yomonlashadi.

Eyilish kattaligi ortib borgani sari tutashmaning qoldik resursi Ttut kamayadi. Yeyilish «N» ning kattaligi yoki «N» ning qiymati chekli qiymatlariga yetganda detal yoki tutashmaning resursi batamom tugaydi va bundan keyin undan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.



3.2-rasm. Mashina detallari yeyilishining umumiy holda qabul qilinga egri chizig'i elementlari

Transport vositalarining barcha detallarini ish xarakteriga ko'ra ikkita mustaqil guruxga ajratish mumkin:

O'zining brakka chiqarish ko'rsatkichiga va yeyilishning chekli kattaligiga ega bo'lgan detallar. Detallar bundan ortik yeyilsa, ular sinib, falokat ro'y berishi mumkin.

Bunday detallarga vtulkalar, shariqli va rolikli podshipniklar, radial tirkishning kattalashuvi, shesternyalar, yulduzchalar tishining yeyilishi, traktorlarning yurish qismi detallari va boshqalar misol bo'lishi mumkin.

Oxirgi xolati, ya'ni ishqalanuvchi detallar orasidagi tirkishning chekli qiymati, odatda, detallarning sinishiga olib kelmasdan, uzel, agregat yoki butun mashinaning texnik yoxud iqtisodiy tavsiflari buzilishiga sabab bo'ladigan yigish birligi, tutashma.

Chekli yeyilish - Ich yoki chekli tirkish - CH deb shunday yeyilish yoki tirkishga aytildiği, bunda detal yoki tutashma oxirgi xolatga keladi. Mashinaning texnik yoki iqtisodiy ko'rsatkichlari keskin yomonlashuvining oldini olish uchun detal yoki tutashmadan bundan keyin foydalanmaslik kerak.

Avtomobil detallarining oxirgi xolati xamda yig'ish birliklari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Mashinaning birinchi yoki navbatdagi ta'mirlashga bo'lган talabi bilan;
2. Mashinani xisobdan chiqarishning maqsadga muvofiqligi bilan;
3. Mashina tuzilishining ma'naviy eskirishi bilan.

SHunga qura mashinaning yoki yig'ish birligining chidamliligi, resursi va xizmat muddati quyidagi turlarga bo'linadi:

- ta'mirlashgacha, ya'ni foydalanila boshlangandan to birinchi ta'mirlashgacha bo'lган chidamlilik;
- ta'mirlashlararo, ya'ni avvalgi ta'mirlashdan to navbatdagi ta'mirlashgacha bo'lган chidamlilik;
- to'liq, ya'ni foydalanila boshlangandan to xisobdan chikargungacha bo'lган chidamlilik.

Nazorat uchun savollar

1. Detallarni turlanishi chegaraviy holatini ma'nosi nima?
2. Chekli yeyilish nima?
3. Avtomobil detallarining oxirgi xolati xamda yigish birliklari nima bilan ifodalanadi?

4- MAVZU TRANSPORT VOSITA DETALLARINI YUVISH VA TOZALASH..

Reja:

1. Mashinalarni ta'mirlashda yuvish va tozalashning axamiyati.
2. Sirdan yuvish jarayoni.
3. Kirlarning turlari.
4. Tozalashlar turlari.
5. Tozalashlar usullari va uskunalari.

Tayanch iboralar: *sirdan yuvish, iflosliklarning turlari, texnologik kirlar, makrotozalash, miqrotozalash, faol tozalash, qaynatib tozalash.*

Ta'mirlanadigan ob'ektlarni tozalash – ishlatiladigan mashinalar va uskunalarning texnik xolatini boshkarishda muxim tadbir bo'lib xisoblanadi. Mashina qismlari va aggregatlari chala tozalangan yoki kir bo'lsa, ish muddati 25...30%ga kamayadi.

Sirdan yuvish. Avtomashinalar va ularning agregatlari ta'mirlash fondi maydonchasida sirdan yuvish joyiga keltiriladi. Tashqi yuvish joylari avtomobilni siljitudigan konveyerli yuvish uskunasi bilan jixozlanadi. Uskunada ikkita – yuvish va quriritish xonalari bor. Uskuna soatiga 10 ta avtomobilni yuvish imkoniyatiga ega.

Mashinalar va ular agregatlarining sirtini yuvishda Labomid – 101 va Labomid – 102 yuvish vositasidan foydalanadi. Yuvish vositalarining vazniy kontsentratsiyasi: 1m³ suvgaga 10kg yuvish vositasi solinadi. Eritma harorati 65...70 gradus. Sirtni yuvishda agregatlar karteridagi moy to'kiladi va suv bug'i bilan eritib butunlay ketkaziladi. Eski buyoqlar SP-6, AFT-1, SD yoki SP kabi yuvish vositalari xamda №646, 647, 648, 651 va R – 10 eritgichlar yordamida ketkaziladi. Yuvuvchilar detal sirtiga purkab yoki kirchutka bilan yotkiziladi. SHundan keyin yuvgichning navigatsiya karab 5...20 min. vaqt o'tkandan so'ng eski bo'yoqlar qirgichlar bilan olib tashlanadi, tozalangan sirt uayt – spirt yoki erituvchi modda eritmasiga xo'llangan latta bilan artib tashlanadi.

Avtomobillarni tozalashga sarflanadigan mehnat asosiy ta'mirlashga sarflanadigan barcha mehnatning taxminan 5%ni tashkil etadi. Masalan, dvigatel silindrler blokini va ularning kallaklarini qurumdan, o'tirib qolgan tuzlardan chala tozalash dvigatel quvvatini 5...8%ga kamaytiradi, yonilgi sarfini 10...20%ga oshiradi, yig'ma qismlarning ta'mirlararo ishlash muddatini 30%gacha kamaytiradi. Avtomobillar va ularning detallari yuvilmaganda ta'mirlashdagi ish unumi 15...20%gacha kamayadi.

Dvigatelning sovitish tizimida suyo'likka aralashgan loy, qum, zang va organik modallar loyka cho'kindilar xosil kiladi. CHang, kirindi, jilvirlar, ishkalash pastalarining qoldiqlari, quyindilar texnologik kirlar deb yuritiladi.


Detallar sirtini tozalash ular sirtidagi kirlarni turli usullar bilan ketkazishidan iborat.

Mashina chang, kir va loylardan tozalanadi, so'ngra maxsus yuvish maydonchasiga keltiriladi, yuviladi, siqilgan havo bilan puflab quritiladi. SHundan keyin mashina ko'zdan kechiriladi va uning texnik holati aniqlanadi.

Mashina qismlari va detallarni tozalash va yuvish texnologik jarayonida oqava suvlarni neytrallash va zaxarli modallar yopishgan qattiq chiqindilardan qayta foydalanishni ko'zda tutish lozim. Buning uchun yuvish mashinalaridan ishlatilgan eritmalar qabul qudug'iga to'planadi. Bu quduqda oqava suvlar kimyoviy reagentlar: xlorli oxak, oxak suvi bilan yog'sizlantiriladi. Oqava suv qabul qilish qudug'ida 2 kun saklangandan so'ng metall bak - neytralizatorlarga olinadi. Oqava suvlardan qolgan kimyoviy elementlar quyosh nuri va neytralovchi vositalar ta'sirida yumshaydi. Oqava suvlar bak- neytralizatorlarda 5 kun mobaynida saqlanadi, so'ngra bug'latish maydoniga okiziladi. Bu maydonchada suv tabiy yo'l bilan bug'lanadi

Ta'mirlash korxonalarida traktorlarning tozalash texnologik jarayoni rasmida qursatilgan. Bunday kirlar uch guruxga bo'linadi: cho'kindilar, cho'kindi tuzlar va qurumlar.

Kirlarning turi. Traktorlarda, kishlok xujalik mashinalari va avtomobillardagi kirlar yo'lda sachragan loy, yopishgan usimlik qoldiqlari, zaxarli kimyoviy moddalar qoldig'i, moy-kir cho'kindilari, lak-bo'yoqlar, zang maxsullari, cho'kindi tuzlar, moylar, uglerodli cho'kindilar, qurumlar va boshqa turlarga bo'linadi. Sirtlarning turiga qarab moslanishi rasmida ko'rsatilgan kirlar fizik – mexanika xossalari va paydo bo'lish sharoitlariga qarab ish vaqtida paydo bo'ladigan ekspluatatsion va texnologik kirlarga bo'linadi.



4.1-rasm. Avtomobilarning ifloslanishi.

Ekspluatatsion kirlar, uz navbatida, tashiladigan ashyolar koldigi, yo'l-tuprokdan utgan kirlar: yonilgi-moymalar va eskirgan moymalar koldigi: smolali cho'kindilar, lak qoldiqlari, qurum, cho'kindi tuzlar, zang maxsulotlari, eski buyoqlar, zichlovchi mastika, pasta va kistirmalarning qoldiqlariga bo'linadi.

Texnologik kirlar – detalni quyishda ishlatilgan tuprok qoldiqlari, kuyindilar, ishqalash va yetiltirishda ishlatilgan pastalar, chang, kirindi va moy yo'llarida qolgan qattiq jilvir zarrachalar yoki detallar sirtiga yopishgan jilvirlardan iborat.

Jilvir zarrachalar ayniqsa, alyuminiydan ishlangan detallarda uchraydi. Bunday kirlar chala tozalansa, detal ishqalab moslash davrida tez yeyiladi, shuningdek sirtlarda tiralangan joylar paydo bo'ladi.

Detal sirtida texnologik jarayonlarni bajarishga, ya'ni yarokli-yaroksizga ajratish, tiklash va yig'ishga xalakit bermaydigan miqdorda kir qolgan bo'lsa, bunday sirt toza deyiladi. Odatda qoldiq kirlar miqdori bilan farqlanadigan uch daraja tozalash: makrotozalash, mikrotozalash va faol tozalash bo'ladi.

Makrotozalash – detalning asosiy sirtidagi, yarokli-yaroksizga ajratish va mexanik ishlov berishga xalakit beradigan kirlarni ketkazish jarayonidir. Bunday detal sirti uzining g'adur-budurlik darajasigacha tozalanadi.

Mikrotozalash – sirtning mikronotekisliklardagi kirni ketkazish. Mikrotozalash detallarga so'nggi ishlov berish va yig'ishdan oldingi muxim axamiyatga ega, chunki birikmaning ish muddati erishilgan tozalik darajasiga bog'lik bo'ladi.

Faol tozalash – detal sirtini faol holatiga kelgunga qadar kislota bilan dorilashdan iborat. Detallarni tiklashda tozalashning bu turi mustaqil axamiyatga ega emas, balki detalni tiklovchi qoplamanı galvanik usulda qoplash oldindan bajariladigan tayyorgarchilik ishidir.

Detallar, agregatlar va mashinalarni tozalash usullari. Ta'mirlash korxonalarida tozalashning asosan oqimli, titratib, pnevmatik, ultratovush, kimyoviy-termik va elektr kimyoviy usullari qo'llaniladi.

Detallarni qaynatish. Detallar joyidan ko'zg'atilmaydigan tog'aralarda ishqorli eritma yoki sintetik yuvish vositalarini AM – 15, ML – 52 va boshqa, 80 – 90 gradus darajagacha isitilib yuviladi.

Suyuklik purkab, oqimli tozalash. Sintetik yuvish vositalarining kirga fizik – kimyoviy ta'siri suyuklikni katta bosim bilan purkaganda yanada kuchayadi. Bu usulda tozalangan mashinalarni ikki toifaga bo'lish mumkin: monitorli va oqimli mashinalar. Monitorli mashinalarga shlang bilan SUV purkaydigan tozalagichlar va

monitorli yuqori bosimli yuvish uskunalarini kiradi. Agregatlarni, qismlarni va texnologik kir qoldiqlardan tozalashda purkab tozalash mashinalaridan foydalaniladi. Konveyerli purkab tozalash mashinalari bir – ikki va uch xonali bo’lishi mumkin. Uch xonali yuvish mashinalarining birinchi xonasida detallar eritma bilan yuviladi, ikkinchi xonasida su bilan chayqab olinadi, uchunchi xonasida esa 100gradusgacha qizdirilgan havo bilan ko’rtiladi.

Botirib tozalash. Murakkab shaklli detallarining va ichki tashqi sirtlarini tozalashda ularni botirib tozalash usulidan foydalaniladi. Bu usulning salbiy tomoni shundaki, yuvuvchi eritmalaridan foydalangan sari ularning iflosligi oshib boradi va kir cho’kindilaridan chiqarib tashlash qiyin. Shuning uchun botirib yuvish usullari vositalarini tozalovchilarni suyuklik ichida suyuklik purkab, tozalashni jadallashtirish qurulmalari bilan jixozlanadi. Suyuklik ichida suyuklik purkalganda detallar xam botirib, xam suyuklik purkab tozalanadi.

Labomid – 203 va MS – 8 sintetik yuvish vositalarining eritmalarida botirib va purkab tozalash usullari birgalikda qullanilganda sirtlar sifatli tozalanadi, mehnat unumдорлиги ошади ва энергия сарфи камаяди.

Detallarni tozalashda ishlataladigan uskuna. Yuvish ishlarida olti xil yuvish-tozalash mashinalaridan monitorli, purkaydigan, botirma, aralash, maxsus mashinalar, avtomatlashtirilgan tozalash yo’llaridan foydalaniladi.

Ishlab chiqarish dasturi unchalik katta bo’lmagan ta’mirlash korxonalarida yuvish togaralari ishlataladi. Bu xolda tozalash jarayoni tog’aradagi suyuklikning haroratini va eritmaning kontsentratsiyasini oshirish yo’li bilan jadallashtiriladi. Kattaroq avtota’mirlash korxonalarida detallar isitgich tog’aralarda yuviladi. Bunday istgichli tog’aralarda detallarni tozalash jarayoni tebranma yoki titranma platformalarni qo’llanib detallar platformalarning kassetalariga joylanadi, shuningdek yuvish eritmasini qo’shimcha ravishda aylantirib jadallashtiriladi. Tog’oradagi eritma maxsus parraklar bilan aralashtiriladi, detallar siljililadi, shuningdek ultratovush tebranishlar xosil qiladigan maxsus nurlangich o’rnatiladi.

Rotorli yuvish mashinalarida konteynerga joylangan detallar tog’orada yaxshi siljiydi. Tog’aradagi eritma issiklik almashtirgich bilan isitiladi. Tog’ara tubiga cho’kkan kirlar vintli konveyer yordamida kir to’plagichga chiqariladi. Aralash yuvish mashinalarida detallar aralash usulda yuviladi, bu esa tozalash samaradoligini oshiradi.

Maxsus yuvish mashinalaridan yuqorida ko’rsatib o’tilgan usullar bilan sifatli tozalash mumkin balmagan detallarining sirtlarini tozalashda foydalaniladi. Masalan, shatunlar, silindrlar bloki, tirsakli vallardagi moy yo’llarini fakat maxsus yuvish mashinalari yordamidagina tulik tozalash mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Mashinalarni ta’mirlashda yuvish va tozalashning axamiyati qanday?
2. Sirtdan yuvish jarayoni qanday amalga oshiriladi?
3. Tozalash turlarini sanab bering
4. Tozalash uskunalarini ishlash jarayonini tushuntirib bering?

5 MAVZU TRANSPORT VOSITA DETALLARNING TEXNIK HOLATINI ANIQLASH

Reja:

1. Mashinadagi elementlarning oxirgi xolati.
2. Chekli yeyilish.
3. Detallarni yaroqsizga chiqarish o'lchamlarini aniqlashning usullari.
4. Chekli yeyilishni aniqlash usullari.

Tayanch iboralar: *chekli yeyilish, oxirgi holat, to'liq resurs, texnologik usul, texnik iqtisodiy usul.*

Mashina yoki undagi elementlarning oxirgi xolati deb shunday xolatga aytiladiki, bunda xavfsizlikning bartaraf etib bo'lmaydigan darajada bo'lishi yoki belgilangan parametrlarning bartaraf etib bo'lmaydigan darajada o'zgarishi, yoxud ish samaradorligi ruxsat etilganidan xam kamayib ketishi tufayli, mashina yoki detaldan bundan keyin foydalanish to'xtatiladi. Oxirgi xolat mashinaning chidamliligini cheklaydi.

Chekli yeyilish yoki tirqish deb shunday yeyilish yoki tirqishga aytiladiki, bunda detal yoki tutashmaning oxirgi xolati boshlanadi va falokat yuz bermasligi xamda mashinaning texnik yoki iqtisodiy tavsiflari keskin yomonlashmasligi uchun bundan keyin undan foydalanish to'xtalishi yoki texnik qarov o'tkazilishi zarur.

Ishlatish va ta'mirlash jarayonida detallarni rostlash yoki yaroqsizga chiqarish uchun ularning chekli darajada yeyilgan – yeyilmaganligini aniqlash kerak.

Ishlatila boshlangandan to oxirgi xolatga kelgunga qadar bajaradigan ishi detal yoki tutashmaning to'liq resursi deb ataladi. Ruxsat etilgan yeyilish yoki tirkish deb shunday yeyilish yoki tirkishga aytiladiki, bunda detal yoki tutashmaning qoldik resursi butun mashinaning yoki yig'ish birligining ta'mirlararo resursiga teng bo'ladi.

Chekli va ruxsat etilgan yeyilishlar xamda tirkishlarning qiymatlari va mashina elementlarining texnik xolatini ko'rsatuvchi boshqa belgilarning kattaligi detal xamda tutashmalarni nuqsonli – nuqsonislarga chiqarishga doir texnik shartlarda keltiriladi.

Ma'lumki transport vositalarini shesternya tishlarining yeyilishi ortishi bilan ularning foydali ish koeffisenti yomonlashadi. SHu sababli chekli yeyilish qiymatlarini aniqlash xam nazariy, xam amaliy axamiyatga ega. Buning ustiga, ishlab chiqarish sharoitida shesternya yaroqsizga chiqarish uchun xech qanday texnik shart – sharoit bo'lmaydi.

Quyidagi detallarni yaroqsizga chiqarish o'lchamlarini aniqlashning ushbu usullari taklif etiladi:

1. Texnologik usul – bunda yaroqsizga chiqarish o'lchamlari ish sifatiga, detallarning mutaxkamlik zaxirasi koeffitsienti, mexanizm yoki mashinaning f.i.k va boshqa ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi.
2. Texnik – iqtisodiy usul – bunda amortizatsiyaga va ishlatishga sarflangan xarajatlar taqqoslanadi.
3. Aralash, kombinatsion usul – bunda yaroqsizga chiqarish o'lchamlari xajmini amaliy kuzatish, ish ko'rsatkichlarining o'zgarishi jadvali, iqtisodiy samaraga doir egri chiziq ma'lumotlari bo'yicha taqqoslash orqali aniqlandi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rnatdiki, xozirgi vaqtida mashinalar detallari yeyilishining chekli qiymatini aniqlashning quyidagi to'rt usuli mavjud:

1. Statistik;
2. Texnik;
3. Texnologik;

4.Iqtisodiy.

Statistik usulni qo'llashning asosiy shartlaridan biri shundaki, avvalo o'lhashlar yetarli miqdorda o'tkazilishi va eng ko'p uchraydigan ish sharoitlari mumkin qadar xisobga olinib borilishi zarur. Bu usuldan faqat tekshiruv usuli sifatidagina foydalanish mumkin.

Texnik usul texnik mezondan foydalanib chekli kattaliklarni topishning umumiy usuli bo'lib, fizik xodisalarning rivojlanish qonunlaridan kelib chiqadi.

Unda abtsissalar o'qi bo'ylab juftlikning ishlagan vaqt, ordinatalar o'qi bo'ylab esa yeyilish yoki tirkishning qiymati qo'yilgan. Bu chiziq yaqqol ifodalangan uchta qismdan tashkil topgan. Egri chiziqnı 1 qismi tutashmaning siyqalanish darajasini ifodalaydi. To'gri chiziqli eng uzun 2 qismli tutashmaning me'yorida ishslash davriga tug'ri keladi. Bu davr davomida tutashma tabiiy yeyiladi. Yeyilish sur'ati yoki tezligi ushbu davrning asosiy tavsifi xisoblanadi, egri chiziqning 3 qismi esa tutashmaning ruxsat etilganidan ortiq yeyilishi oqibatida yemirilishi davriga mos keladi.

Detal yoki uzel ishining uchinchi davrida yeyilish yoki tirkishning son qiymatlarini aniklash texnik usulning asosiy vazifasidir

Texnologik usuldan asosan uzel yeyilishi yoki me'yordagi rostlashlar buzilishi bilan uzgaradigan mashinaning ish sifatini belgilangan chegaralarda aniklashda foydalilanadi. Masalan, qultivatorlarning kirquvchi korrisi yeyilganda begona utlarni kirkish sifati agrotexnika talablariga mos kelmasligi mumkin. SHu sabali bunday xolda yeyilishning chekli qiymatlarini mashina bajaradigan ish sifatining ruxsat etilgan chekli chetlashishlari buyicha topish mumkin.

Iktisodiy usulda mashina ishining iktisodiy ko'rsatkichlari chekli yeyilishga asos qilib olingan. Sifatni belgilangan chegarada saklab kolgan maxsulot birligini ishlab chiqarishga eng kam xarajat qilish mashina ish organi yoki uzel eng makbo'l xizmat muddatining, ta'mirlashlararo davrning iktisodiy mezoni bo'lib xisoblanadi. Ish sifatini belgilangan chegaralarda saklab kolgan xolda mashinaning eng yuqori unum bilan ishlashi mezonining ikkinchi ta'rifidir.

Detallarning chekli yeyilganini aniklashning birnechta usullari bor. Ulardan birinchisi, eng ko'p tarqalgani yeyilishning klassik egri chizig'ini taxlil qilishga asoslangan. Bu usul siqkalanish o'tganidan so'ng detallar ma'lum vaqtgacha bir tekis yeyilishiga va grafikdagi egri chiziq tarmog'i qandaydir o'zgarmas ko'tarilish burchagiga ega bo'lishiga asoslangan. Ammo xamma detallar uchun xam bu usuldan foydalanish mumkin emas, chunki yeyilishning egri chizigi barcha detallar uchun xam uzgarmas ko'rnishga ega emas. Bundan tashqari, mazkur usulda ishning sifati e'tiborga olinmaydi.

Detallarning xizmat muddatini aniqlashning ikkinchi usuli quyidagi qonunga asoslangan: agar detal mavsumda to'liq ishlay olmasa, yeyilish grafigidan qat'iy nazar detal almashtiriladi. Bu usulni bitta detal butun agregatning uzoq vaqt bekor turib qolishiga olib keladigan xollar uchungina tavsiya etish mumkin.

Transport vositalari detallarining xizmat muddatini anilashniqng uchinchi usuli, yeyilganda ularning ishslash qobiliyatini o'zgarishiga asoslangan, ya'ni agar mashina detali ish jarayonida zarur agrotexnika talablarini bajarmay qo'ysa u almashtiriladi. Bu ko'p xollarda eng tug'ri yo'l bo'ladi, chunki u zarur miqdordagi ishning bajarilishini ta'minlaydi.

Transport vositalarini detallari chekli yeyilganini aniqlashning to'rtinchi usuli shunga asoslanganki, detallarni barvaqt almashtirish xam, kech almashtirish xam qilinadigan sarf xarajatlarini oshiradi. Mazkur usul foydalanishning tejamkorligini xisobga oladi va detal narxi bilan foydalanish xarajatlari narxining mosligi asosida xal etadi. Bu usulda bajariladigan asosiy ishning sifati mutlaqo e'tiborga olinmaydi, bu esa uning kamchiligidir.

Nazorat uchun savollar

1. Mashinadagi elementlarning oxirgi xolati deb nimaga aytildi?
2. CHekli yeyilish yoki tirkish deb nimaga aytildi?
3. Yaroqsizga chiqarish o'lchamlarini aniqlash usullari?

6- MAVZU TRANSPORT VOSITA DETALLARNING TIKLASH USLUBLARI.

Reja:

- 1.Detal materialining fizik-mexanik xossalari puxtalash yo'li bilan tiklash.
- 2.Termiq ishlov berish.
3. Termiq-kimyoviy deformatsiyalash.
4. Elektr-fizikaviy usuli bilan tiklash.

Tayanch iboralar: *termik ishlov berish, termik kimyoviy ishlov berish, galvanik cho'ktirish, to'zitish, ishqalab ishlov berish.*

O'z xizmat burchini o'tab bo'lgan va ish sirtlaridan nuqsonlar paydo bo'lgan mashina detallari turli usullar bilan tiklanadi. Tiklash usulini tanlashda yeyilish miqdori, sirtning shikastlanish xususiyatini, detal materialining qattiqligi, detal o'lchamlari, qo'yim qiymatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Detallarning geometrik shakli va o'lchamlarini tiklash uchun yeyilgan material qatlami o'miga yangi qatlam qoplash usulidan, plastik deformatsiyalash usulidan (mavjud hajmdagi metallni qayta taqsimlash hisobiga detal shaklini o'zgartirish), detalning yeyilgan qismini yangisi bilan almashtirish usulidan, yeyilgan sirtga mexanik ishlov berib, nuqsonli qatlamni ketkazib, detalga to'g'ri geometrik shakl berish usulidan foydalilanadi.

Detal materialining fizik-mexanik xossalari puxtalash yo'li bilan (termiq ishlov berish, termiq-kimyoviy deformatsiyalash, elektro-fizikaviy va b. usuli bilan) tiklanadi.

Detalning yeyilgan sirtqi qatlami o'rniga yangi qoplama hosil qilish payvandlash, eritib qoplash, Galvanik, polimer va gazotermiq qoplamlar hosil qilish hamda plastik deformatsiyalash kabi usullar bilan amalga oshiriladi. Detallarning sirtqi qatlamida Galvanik usul bilan qoplama qatlamlar hosil qilish texnologik jarayonlarining murakkabligi, ekologik hamda energiya iste'moli bilan bog'liq bo'lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Mashina detallarini tiklashning asosiy texnologik usullari 6.1-jadvalda keltirilgan

Mashina detallarining tiklashning asosiy texnologik usullari:

6.1-jadval

| Tiklash usullari | Tiklashning texnologik usullari |
|-------------------------------|--|
| 1 | 2 |
| Payvandlash va eritib qoplash | Yoy bilan qo'lda, flyus qatlami ostida elektr yoy bilan, himoya gazlari muhitida, elektroshlak bilan, qukun sim bilan yoy vositasida, titrma yoy bilan, argonli yoy bilan, induksion usul bilan, gaz alangasida, plazmali usul bilan, lazer yordamida. |
| To'zitish | Gaz alangasida, elektr yoy bilan, plazmali usul bilan, detonatsion usul bilan, lazer yordamida, ion-plazmali usul bilan. |
| Galvanik cho'ktirish | Xromlash, temirlash, nikellash, ruxlash |
| Elektrofizik ishlov berish | Elektro-uchkunli, magnit-impulslari |
| Ishqalab ishlov berish | Antifriktsion |
| Kimyoviy-termiq ishlov berish | Azotlash, tsyementatsiyalash, tsianlash, bor bilan qoplash |
| Polimerlardan foydalanish | Elimlash, soxta eritilgan qatlamda qoplama hosil qilish va gaz alangasi yordamida to'zish |

Payvandlash va eritib qoplashning elektr yoy usulida eritish zonasida paydo bo'ladigan elektr yoyi materialni eritish uchun asosiy zonasida paydo bo'ladigan elektr yoyi gazli muhitda ikkita elektrodlar orasida paydo bo'ladigan quchli elektr razryaddan iborat, elektr razryad uchun past kuchlanish katta tok, yoy oralig'ida gazlarning ionlashishi xosdir. Gazlarning ionlashish natijasida erkin elektronlar va ionlar paydo bo'ladi, gazli muhit yuqori elektr o'tkazuvchan bo'lib qoladi va payvand yoyning barqaror yonishini ta'minlaydi. Payvandlash yoyi hosil qilish uchun o'zgarmas va o'zgaruvchan toklardan foydalaniladi.

Yoy ustunidagi harorat $6000-7500^{\circ}\text{S}$ gacha, po'lat elektrodlarda $2200-2500^{\circ}\text{S}$ gacha ko'tariladi; bunda katod dog'iga nisbatan anod dog'ida harorat yuqori bo'ladi.

Elektrojni eritish jarayoni eritish koeffitsienti bilan baholanadi, bu koeffitsient quyidagiga teng bo'ladi:

$$\alpha_p = Q_r / I_t,$$

bu yerda Q_r -eritilgan metall massasi; I -payvandlovchi tok kuchi; t -eritish vaqt. O'rtacha va kam uglerodli po'latlarni payvandlash hamda eritib qoplama hosil qilish rejimi

Alyuminiyni gaz va moy bilan payvandlashdaqo'llaniladigan flyuslar tarkibi(massaning ulushi hisobida, %da)

Gaz alangasida payvandlash va eritib qoplashda metallarni eritish uchun kislorod muhitida yonuvchi gazlar (atsetilen, metal propan va b.) alangasidan foydalaniladi. Yonuvchi gazlar ichida atsetilen keng tarqaldi, chunki u yongandagi alangasi $3100-3300^{\circ}\text{S}$ gacha harorat beradi.

Galvanik qoplamlar yoyilgan sirtda, detalni deyarli qizdirmasdan turib, metall qatlamini qoplab uni dastlabki o'lchamigacha tiklash imkonini beradi. Ular kam yeyilgan sirtlarga (0,10-0,20 mm gacha) metall qoplab, detalning yeyilishi va korroziya bardoshligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Metall konstruktsiyalar va ramalarni tiklash texnologiyasi.

Mashinalarning metall konstruktsiyalari profilli (shvillerlar, burchakliklardan) va tunuka (list) materiallardan yasaladi. **Nuqul metall konstruktsiyalar** asosan payvandlab va kamdan-kam xolda parchalanib tayyorlanadi. Payvand choklarda darzlar paydo bo'lishi payvand konstruktsiyalarining asosiy nuqsoni xisoblanadi, parchinlar tayyorlangan konstruktsiyalarda birikmalar bo'shashib qoladi, parchinlar uzilib, parchin mix o'tgan teshiklar yeyilib ketadi. Pavandlab tayorlangan metallokonstruktsiyalarda ham, parchinlab tayyorlangan konstruktsiyalarda ham bo'ylama to'sinlarda, ko'ndalang bruslarda va tirgovuchlarda darzlar, o'zaro tutashadigan detallar uchun mo'ljallangan (o'qlar, barmoqlar, vallar o'tadigan) tashiklarning yeyilishi, tob tashlashi, egilish va buralishlar uchraydi.

Listlardan yasalgan metall konstruktsiyalarda (kabina, kuzov, sisternalar, barabanlar va b.da) zanglash va mexanik shikastlanish (darzlar, ezilishlar, uzilishlar)

| Detalning qalinligi, mm | Elektrod dinametri, mm | Tok kuchi, A |
|--------------------------------|-------------------------------|---------------------|
| 2...4 | 3...4 | 75...125 |
| 4...6 | 4...5 | 180...200 |
| 6...10 | 5...5 | 200....400 |

lar uchraydi.

- Bo'shashib qolgan parchinlar olib tashlanadi, buning uchun ularning kallagi oddiy yoki pnevmatik zubilo bilan, yoki gaz alangasida kesib tashlanadi yoki maxsus uchlik o'rnatilgan drel bilan o'yiladi. Parchin mix o'tadigan yeyilgan teshik parmalanadi va kattalashtirilgan o'lchamda yo'nib kengaytiriladi yoki teshik payvandlab to'ldiriladi va qaytadan teshik ochilib nominal o'lcham bilan yo'nib kengaytiriladi. Birikmadagi barcha parchin mixlar almashtirilganda barcha teshiklar parmalanib, konduktorlar yordamida yo'nib kengaytiriladi.

Korpus detallarini tiklash texnologiyasi.

Mashinaning korpus detallari o'zining murakkab konstruktiv shakli bilan farq qiladi va unda podshipniklar, vallar, vtulkalar, gilzalar, shtivlar, shpilka kabi detallarni o'rnatish va maxkamlash uchun juda ko'p teshik va tekisliklar bor.

Korpus detallar bolg'alanuvchan va qulrang cho'yandan, alyuminiy qotishmalaridan xamda konstruktsiv po'latlardan tayyorlanadi.

| Parametrlar nomi | Parametrlar qiymati |
|---|--|
| Tekislilikdan og'ishi, mm: Blokning 100mm uzunlikdagi yuqori va pastki sirtlari, ko'pi bilan Oldingi va ketingi torets sirtlari (50mm uzunlikdagi), ko'pi bilan Yon sirtlar, ko'pi bilan | 0,02...0,08 0,05 0,015 |
| O'lchamlar aniqligi, kvalitet: Gilza uyasi O'zak tayanchlarning teshiklari Taqsimlash vali uchun teshiklar Elementlarning yo'naltirish vtulkalari uchun teshiklar | 7...8 6 7...8 7...8 |
| Konussimonlik va ovallik: TSilindrlar gilzasi uchun teshiklar, mm O'zak tayanchlar teshiklari, % | 0,01...0,025 50...70 |

Detallarni mexanik ishlov berib tiklash

Detalni ta'mirlash o'lchamiga moslab tiklash ancha keng tarqalgan usuldir. Uning mohiyati asosiy, ancha murakkab detalga ixtiyoriy o'lchamgacha emas, balki normal o'lchamdan farqlanuvchi oldindan belgilangan o'lchamgacha mexanik ishlov berishdan iborat. Ikkinci tutashtiriluvchi detal yangi detal qo'yimlarini saqlagan holda shu o'lchamga muvofiq tayyorlanadi. Ta'mirlash o'lchamlari oldindan belgilanganligi va ma'lumligi sababli ikkinchi detalni birinchi detalga bog'liq bo'lмаган holda boshqa korxonada ham tayyorlash mumkin. Detallarning o'zaro almashinuvchanligi bir muncha murakkablashsa ham, biroq ta'mirlash o'lchamlari chegarasida saqlanadi. Bu xol sanoatda qo'llaniladigan usullarni ta'mirlashda qo'llash imkonini beradi? ta'mirlashni arzonlashtiradi va uning sifatini yaxshilaydi.

Detallarni plastik deformatsiyalash (bosim ostida) usuli bilan tiklash.

Detallarning ishlash imkoniyatini bosim ostida ishlash yo'li bilan tiklash materiallarning plastiklik xossasidan foydalishga asoslangan. Metalning ma'lum sharoitda tashki kuch ta'sirida yemirilmay qoldiq (plastik) deformatsiyalanish xossasi ularning plastikligi deb ataladi.

Bosim ostida ishlangan detalning shakli va o'lchamlarigina o'zgarib qolmay, balki uning strukturasi va mexanikaviy xossalari ham o'zgaradi.

Metalning elastik deformatsiyalanishida uning kristal panjarasidagi atomlar bir-biriga nisbatan elastik tarzda siljiydi, quch berilganda bu atomlar asli vaziyatiga qaytib, kristal panjara tiklanadi. Quch oshirilsa elastik o'zgarish plastik o'zgarishga aylanadi va quch olingandan keyin kristall panjara o'zining dastlabki xolatiga qaytmaydi, ya'ni metall plastik deformatsiyalanadi.

Plastik deformatsiyalanishda kristalning bir qismi boshqa qismiga nisbatan siljiydi. Siljish natijasida kristall panjarada atomlarning joylashish o'mni o'zgaradi, buning oqibatida kristall panjaraning shakli buziladiyu, lekin kristallning yaxlitligi buzilmaydi.

Detallarning ishlash imkoniyatini tiklashda ular turli usullarda plastik deformatsiyalanishi mumkin. Bu usullar jumlasiga qo'yidagilar kiradi:

- 1.Cho'ktirish;
- 2.To'g'rakash;
- 3.Kengaytirish;
- 4.Toraytirish;
- 5.Botirish;
- 6.Cho'zish;
- 7.Nakatkalash:

1. Detalning ishlash imkoniyatini cho'ktirish usuli bilan tiklash

Detalning uzunligini kamaytirish hisobiga sirtqi diametrini kattalashtirish jarayoni cho'ktirish deyiladi. (1rasm)

Shunga ko'ra vtulkaning ishlash imkoniyatining bu usulda tiklash mumkin yoki mumkin emasligi vtulka balandligining yo'l qo'yiladigan qiskartirishiga bog'liq. Quch juda ko'p tushadigan vtukaning ishlash imkoniyatining faqat bir marta tiklash mumkin; bunda shuni esda tutish keraki, vtukaning balandligini ko'pi bilan 58 % qiskartirish lozim bo'lgan xollardagina uning ishlash imkoniyatini tiklasa bo'ladi. Quch kamroq tushadigan vtulkalarning ishlash imkoniyatining tiklashda balandligini 15% gacha qisqartirish mumkin. Ichi havol bo'lмаган detallarning, masalan dvigatel klapanlari, po'lat turkichlar, yarim o'qlarning ishlash imkoniyatini ham cho'ktirish yo'li bilan tiklash mumkin.

2. Detalning ishlash imkoniyatini botirish usuli bilan tiklash.

Detallarning metalini cheklangan oraliqqa surish hisobiga uning o'lchamini kattalashtirish jarayoni botirish deyiladi.

Bu usuldan foydalanib, dvigatel klapanlarining anchagina yeyilgan kallaklarini, tishlarini, qalinligi yeyilgan tishli g'ildiraklarni tiklash mumkin.

Klapanlar kallaklarining ishlash imkoniyatini botirish usuli bilan tiklashda metal qizdiradi. Bunda klapan metalini fazaviy o'zgarishlar temperaturasidan past temperaturada botirish mumkin bo'lsa, u xolda detalga qayta termiq ishlov bermasa ham bo'ladi. Detal pechda 510 minutdan ortiq turmasligi kerak.

Klapan sterjenining termiq ishlovini saqlab qolish uchun induksion ko'rlnmada yoki maxsus konstruktsiyadagi pechda klapan kallagini o'zigma qizdirib olinadi.

2. Detallarning ishlash imkoniyatini maxalliy toraytirish xisobiga cho'zish usuli bilan tiklash.

Detal o'zunligini kesimini ma'lum joyini toraytirish hisobiga o'zaytirish mahalliy toraytirish hisobiga cho'zish deyiladi.

Bu usul mustaxkamlik zapasi yetarlicha bo'lgan detallar uchun qo'llaniladi. Mustaxkamlik zapasi yetarlicha bo'lgan shatun, turkich, klapan sterjeni va boshqa detallarning ishlash imkoniyati ana shu usulda tiklanadi.

Maxalliy toraytirish xisobiga cho'zish usulida detalning deformatsiyalanadigan joyining o'zigma yuqori chastotali tok bilan qizdiriladi.

3. Detallarning ishlash imkoniyatini kengaytirish usuli bilan tiklash

Vtulkaning ichki diametrini kengaytirish xisobiga sirtki diametrini kattalashtirish kengaytirish deyiladi. Bu usul porshen barmoqlari, kardanli vallarning kristovinalari va yarim o'qlarning kojuxlari hamda trubalari, differential kosachalari va rul kolonkalari trubalarining ishlash imkoniyatini tiklashda qo'llaniladi.

Kengaytirishda detalning balandligi deyarli o'zgartirilmagan xolda tashqi o'lchamlari qatttalashtiriladi.

Kengaytirish usulida detallar ko'pincha qizdirilmaydi. Agar toblangan yoki yuza qatlami puxtalangan detallarning kengaytirish kerak bo'lsa, bunday detallar avval bo'shatiladi yoki yumshatiladi, sovigandan keyingina kengaytiriladi. Detalning qizdirib kengaytirish kam foydalaniladi.

Porshen barmoqlarini sovuqlayin kengaytirishda, dastlab, ular ichki diametrini o'lchamlari jihatidan gruppalarga ajratiladi. Har qaysi gruppaga ichki diametrining o'lchamlari ko'pi bilan 0,3 mm farq qiladigan barmoklar kiritiladi. Shundan keyin saralangan barmoqlar $600-650^{\circ}$ S temperaturagacha qizdirilib bo'shatiladi. So'ngra ular shtampga qo'yilib, sferik moslamalar yordamida press ostida kengaytiriladi.

4. Detallarning ishlash imkoniyatini toraytirish usuli bilan tiklash.

Vtulkaning ichki diametrini tashki diametri xisobiga kichraytirish toraytirish deyiladi. Plastik deformatsiyalashning bu usuldan foydalanib, rangdor metal» lardan yasalgan vtulkalarni, rolikli podshipniklarning roliklari ostidan darchalarining devorlari, yeyilgan separatorlari silliq yoki shlitsali teshigi yeyilgan turli xil richaglarning ishlash imkoniyati tiklanadi.

Vtulkalarning ishlash imkoniyatini siqish usulida tiklash uchun vtulka qizdirilmay, maxsus moslamaga o'rnatilib presslanadi. Bunda matritsaning kirish qismi burchagiga 78°

5. Detallarning ishlash imkoniyatini nakatkalash usuli bilan tiklash,

Detal metalini rolikning tishlari yordamida sikib chiqarish yo'li bilan uning sirtki diametrini kattalashtirish jarayoni nakatkalash deyiladi. Bosim ostida ishlashning bu usuli dumalash podshipnigi o'rnatiladigan joyning ishlash imkoniyatini tiklashda qo'llaniladi. Bunda nakatlash roligining tishlari yordamida metalni siqib chiqarish yo'li bilan detalning sirtki diametri kattalashtiriladi yoki ichki diametri kichiklashtiriladi. Nakatlashda hosil qilingan yangi yuzaning strukturasi buzilmagan xolda yuk ko'tara olish hususiyatining eng kam o'zgarishi, tayanch yuzasi esa iloji boricha saqlanishi kerak.

Nakatkalash usulida plastik materiallardan yasalgan detallarning ishlash imkoniyati tiklanadi. Yuzani nakatkalash uchun tishlarning kadami 1,5-1,8 mm keladigan, dumalash podshipnigida aylanadigan rolik ishlatish tavsiya etiladi

6. Detallarning ishlash imkoniyatini to'g'rilash usuli bilan tiklash.

Dstalning buzilgan shaklini tiklash jarayoni to'g'rilash deyiladi (8- rasm). To'g'rilashning ikki usuli: 1) statikaviy quch ta`sirida (press ostida) to'g'rilash usuli; 2) naklyoplash yo'li bilan to'g'rilash usuli.

Statikaviy quch ta`sirida (press ostida) to'g'rilash usuli. Tirsakli vallar va taksimlash vallari. o'zatmalar qutisining vallari. Yarim o'qlar, shatunlar, tsilindrlar galovkasi, oldingi o'q balkalari va boshqa ko'pgina detallar press ostida yoki maxsus moslamalarda sovuqlayin to'g'rilanadi.

Detallarni naklyoplash yo'li bilan to'g'rilash. To'g'rilashning bu turi statikaviy quch ta`sirida to'g'rilashda butunlay farq qiladi, chunki bu usulda detalni istalgan yo'nalishda to'g'rilash va boshqarish mumkin. Naklyoplash yo'li bilan to'g'rilashning asosiy afzalliklari: to'g'rilangan joy shaklining vaqt o'tishi bilan o'zgarmasligi;

to'g'rilaş aniqligining yuqori bo'lishi; valning har qanday qismini to'g'rilaş mumkinligi; jarayonning oddiyligi va uni tez bajarish mumkinligi.

Naklyoplash yo'li bilan cho'yandan yasalgan vallarni ham to'g'rilaşa bo'ladi. Naklyopplash usulida detalning ishlamaydigan yuzalariga bolg'a bilan sekin asta uriladi. Detalga bolg'a urilgan sari metallning sirtqi qatlami yoyiladi va kattaroq yuzani egallahsha intiladi. Bunda detalning sirtqi qatlamida siuvchi qoldiq quchlanishlar paydo bo'ladi; bu quchlanishlar to'g'rilaşan detalning toliqishdagi puxtaligini pasaytirmaydi.

Detallarni payvadlash va suyuqlantirib qoplash bilan tiklash.

Payvandlash turlari

Metalldan yasalgan detallarning ma'lum qismini suyuqlanish temperaturasigacha qizdirib, molequlyar tishlashish quchlardan foydalangan xolda ajralmas birikma hosil qilish jarayoni payvandlash deyiladi.

Ishlash imkoniyati tiklanayotgan detal yuzasiga s)toklantirilgan metall qatlami qoplash jarayoni suyuqlantirib qoplash deb ataladi. Detal materialini suyuqlantirish usuliga qarab payvandlash ikki turga: Gaz alangasida payvandlash va elektr yoyi vositasida payvandlash turlariga bo'linadi. Payvandlash mexanizatsiyalashgan va mexanizatsiyalashmagan (dastaki) turlariga bo'linadi. Payvandlashning mexanizatsiyalashfirilgan turlariga flyus qatlami ostida, ximoyalovchi gazlar muxitida, suv bug'i muxitida, yarim avtomatik va avtomatik payvandlash, vibro yoy bilan payvandlash, kantaktlab payvandlash, plazma yoy yordamida payvandlash kiradi. Payvandlash turlarining qaysi biri qanday detallar uchun qo'llanilishi detal materiali va undagi darzlar, detalning shakli, detalning ish rejimi va boshqa omillarga bog'lik.

- Dastaki Gaz alangasida payvandlash usulidan 2mm gacha qalinlikdagi, kam uglerodli va kam legirlangan po'latdan, shuningdek, cho'yan va rangli metallardan tayyorlangan detallarni payvandlashda foydalaniadi.

- Dastaki usulda elektr yeyi vositasida po'lat va cho'yandan murakkab shaklli qilib yasalgan detallar," shuningdek alyuminiy qotishmalaridan tayyorlangan detallar payvandlanadi va ular sirtiga boshqa metall yoki qattiq qotishma suyuqlantirib qoplanadi

- Argonyoy vositasida dastaki payvandlash usulidan rangli metallardan yasalgan detallarni payvandlashda foydalaniadi.

- Flyus qatlami ostida elektr yoyi vositasida avtomatik payvandlash usuli po'lat va rangli metallardan yasalgan, diametri 40 mm dan ortiq bo'lган tsilindrik yuzalari bor detallarni payvandlashda qo'llaniladi.

- Ximoyalovchi gazlar muxitida elektr yoyi vositasida yarim avtomatik va avtomatik payvandlash usullari uglerodli, kam legirlangan va yupqa list po'latlardan yasalgan detallarni payvandlashda qo'llaniladi.

- Suv bug'i muxitida elektr yoyi vositasida yarim avtomatik va avtomatik payvandlash usulidan po'lat va cho'yandan yasalgan detallarni payvandlashda foydalaniadi.

- Plazma yoy vositasida yarim avtomatik va avtomatik payvandlash hamda qattiq qotishmalarini suyuqlantirib qoplash usuli qiyin suyuqlanuvchan metall va qotishmalardan tayyorlangan detallar uchun qo'llaniladi.

Vibro yoy vositasida yarim avtomatik va avtomatik payvandlash usulidan uglerodli va kam legirlangan po'latlardan, shuningdek cho'yandan yasalgan detallar uchun foydalaniadi.


Jarayonni mohiyati. Metallash turlari.

Biror usulda juda mayda (3300 mikron o'lchamli) zarralarga aylanguncha suyuqqlantirilgan metallni detalning oldindan tayyorlab qo'yilgan yuzasiga siqilgan havo oqimi yordamida katta (140300 mG'sek) tezlik bilan purkash jarayoni metallash deyiladi. Metallni suyuqqlantirish va purkashda foydalaniladigan mexanizm metalizator deyiladi.

qoplovchi metallni suyuqlantirishda foydalanilgan issiqlik manbaiga ko'ra, metallash Gaz alangasida elektrik va plazmaviy turlarga bo'linadi

Gaz alangasida metallashning ikki usuli; 1) Bosimli gaz ishlatib metallash. 2) bosimli gaz ishlatmay metallash usullari mavjud.

Bosimli gaz ishlatib metallash usuli ta'mirlash ishlarida eng ko'p qo'llaniladi. Bosimli gaz ishlatib metallashda (6.1-rasm) qoplovchi sim yonuvchi gaz bilan kislorod alangasidan suyuqqlantirilib, detalning yuzasiga siqilgan havo yoki inert gaz vositasida purkaladi.




6.1-rasm. Gaz alangasida metallashda ishlatiladigan metalizatorning purkash kallagi sxemsi.

1-sim; 2-simni uzatish mexanizmi; 3-arashtirish kamerasi; 4- gaz metal aralashmasi oqimi.

Gaz alangasida metallashda qoplama juda yuqori sifatlari chiqadi. Gaz alangasida metallash usulining kamchilliklari jumlasiga, detal yuzasiga beriltan qoplama nisbatan kimmatga tushadi, metallash ustanovkasi murakkab bo'ladi.

Chet ellarda kesuvchi asboblar, ulchash asboblari, shuningdek koliplash matritsalari va boshqa muxim detallar ish yuzalarining yeyilishga chidaxmlilagini oshirish maksadida ularni qiyin suyuqqlanuvchan materiallar bilan qoplashda irectivm va portlatma metallash usullari qo'llaniladi.


Bosimi oshirilgan yonuvchi gaz yordamida metallash detallarning yuzasiga qattiq va keramiqaviy kotishmalarning ququnlarini purkashdan iborat. Bunday maksadida ishlatiladigan metalizator sxemasi keltirilgan (6.2-rasm). Bunda siqilgan havo ishlatilmaydi. Siqilgan havo rolini bosimi oshirilgan yonuvchi gaz o'taydi. Shu tufayli metall zarralarining temperaturasi saqlanib, detal yuzasiga yumshoq xolatda yotadi.



6.3-rasm. Yuqori bosimli yonuvchi gazdan foydalanib metallash metalizatorining sxemasi. 1-atsetilen beriladigan kanal; 2-kislarod beriladigan kanal; 3-so'toklantiriladigan ququn beriladigan kanal; 4-yonib turgan gazlar va koplanayotgan metalning yumshagan zarralari oqimi; 5-detalning qoplanayotgan yuzasi.

Elektr metallashda ish unumi va tejamlilik juda yuqori bo'ladi. Ishlash printsipiga ko'ra, elektrik metallash quyidagi ikki turga: elektr yoyi vositasida metallash va yuqori chastotali tok vositasida metallash turlariga bo'linadi.

Elektr yoyi vositasida metallash (6.4-rasm) usuli metallashning barcha turlarini bajarishga mo'ljallangan.



6.4-rasm. Elektr yoyi vositasida metallash metalizatori.

1-sim; 2-sim uzatish mexanizmining roliklari; 3-havo berish kanali; 4-yo'naltiruvchi uchliklar; 5-elektr yoyi.

Bunda diametri 1,22,5mm li bir-biridan elektrik tarzda izolyatsiyalangan ikkita metall sim uzatish mexanizmi yordamida siljiydi. Simlar uchliklardan chiqishi bilan bir-biriga yaqinlashadi va elektr yoyi ta'siri ostida ularning uchlari suyuqlanganadi. Siqilgan havo oqimi suyuqlangan simni bosim ostida juda mayda zarralarga aylantiradi va detal yuzasiga qoplaydi.

Yuqori chastotali tok vositasida metallash induktsion qizdirish printsipidan foydalanishga asoslangan. Yuqori chastotali tok bilan ishlaydigan metalizatorning sxemasi keltirilgan (17-rasm). Sim yuqori chastotali uyurma toklar kontsentratori bor metallizatorda suyuqlantiriladi. Uyurma tok kontsentratori magnitaviy maydonni simning metalizator purkash golovkasidan chiqish joyig'a eng ko'p tuplash uchun mo'ljallangan. Yuqori chastotali tok vositasida metallashda lampaviy LZ37, GZ 46, LGPZ 30, AZ 46, AGLZ 60, LG 60 generatorlaridan foydalaniladi.

Eyilgan detallarning ishlash imkoniyatini metallash yo'li bilan tiklashning texnologik jarayoni ketma-ket o'tkaziladigan uchta asosiy bosqichdan iborat.

- detal yuzasini metallashga tayyorlash.
- detalning tayyorlangan yuzasini metallash detalning metallangan yuzasiga ishlov berish


Elektr yoy bilan qo'lda payvandlash va eritib qoplash.

Gaz alangasida payvandlashda detal yonuvchi gazlarning kislород muxitida yonishidan hosil bo'ladigan issiqlik xisobiga suyuqlantiriladi. Bunda yon> vchi gaz sifatida atsetilen. suo'ltilgan tabiiy gazlar, benzin va benzol bug'lari, vodorod ishlatilishi mumkin. Atsetilen kislород alangasida payvandlash Gaz alangasida payvandlashning eng ko'p ishlatiladigan turidir, bunda alanganing temperaturasi $31003200^{\circ}S$ ga teng.

Detalning payvandlanayotgan joyga yonuvchi gaz bilan kislorod keltirish va normal alanga hosil qilish uchun payvandlash gorelkalaridan foydalaniladi. Avtomobillar ta'mirlash qilinadigan korxonalarda kal tsiy karbiddan atsetilen olish uchun GVR 3, GSD5, GRK10 markali statsionar generatorlar ishlataladi. Payvandlash gorelkasi sifatida past bosimda ishlaydigan SU markali gorelka va o'rtacha bosimda ishlaydigan GS53, GSM53 markali gorelkalardan foydalaniladi.

Detallarning ishlash imkoniyatini elektr yoyi vositasida payvandlash usuli bilan tiklash

Elektr yoyi vositasida payvandlashda detal elektr yoyi ta'sirida suyuqlanadi. Avtomobil detallarining ishlash imkoniyatini tiklashda N.G.Slavyanov usulidan keng foydalaniladi (6.5-rasm).



6.5-rasm. N.N.Slavyanov usulida payvandlash sxemasi. 1-elektrod; 2-elektrod tutqich; 3-sim; 4-tok manbai; payvandlanadigan detal.

Bu usulda metall elektrodlar ishlataladi. Bunda payvandlanadigan detal metall stolga qo'yiladi, Tok manbai 4 dan sim stolga keltirilgan. Boshqa sim 3 elektrond 1 kistirilgan elektrond tutqich 2 ga ulanadi. Tok ulangandan keyin elektrondni payvandlanishi lozim bo'lgan detalga tekizish, keyin esa detal yuzasidan tezda 46 mm uzoqlashtirish kerak. Shunda detal bilan elektrond orasida elektr yoyi hosil bo'ladi.

Elektr yoyi vositasida payvandlashda yoy mumkin qadar qisqa bo'lib turishi kerak. Yoy qisqa bo'lganda havo suyuqlangan metalga kam ta'sir etadi, natijada chokning mexanikaviy puxtaligi ortadi.

Payvandlash tokining qiymati payvandlanayotgan detalning metaliga, uning qalinligiga. elektrondning diametriga, payvandlash tokining turiga, elektrondning tipiga bog'liq bo'ladi.

Dastaki usulda elektr yoyi vositasi bilan payvandlashda payvandlash yoyining uzunligi, tokning qiymati ham vaqt-vaqt bilan o'zgarib turadi. Elektrod metali bilan detal metali bir tekis suyuqlanish payvandlash toki qiymatining ortishi yoki kamayishi uncha katta bo'lmasligi lozim.

Dastaki usulda elektr yoyi vositasi bilan payvandlashda kam uglerodli simdan yasalgan elektrodlar ishlatilib, metalning sachrashini ancha kamaytirsa bo'ladi.

Flyus qatlami ostida avtomatik tarzda eritib qoplash.

Payvandlash va suyuqlantirib qoplashning bu turi progressiv usul xisoblanadi va undan detallarning ishlash imkoniyatini tiklash texnologiyasida juda ko'p foydalaniladi,

Flyus qatlami ostida avtomatik va yarim avtomatik payvandlashda elektr yoyi suyuqlangan shlak ostida yonadi (11rasm), (buni dastaki usuldan farqi shu).

Bunda elektrond sim payvandlanayotgan joyga granulalangan flyus bilan bir vaqtida uzatiladi. Youning temperaturasi baland bo'lganligidan asosiy metall, elektrond metali va qisman flyus sutoklanadi. Sutoklanish protsessida ajralib chiquvchi gazlar ustki tomondan shlak bilan, ostki tomondan esa suyuq metall vannasi bilan chegaralangan qobiq hosil bo'ladi. Payvandlash zonasidagi sutok shlak bilan gazlar payvandlash vannasini havodan ximoya qilib turadi. Temperatura ko'tarilishi bilan payvandlash vannasidagi gazlarning


bosimi ham osha boshlaydi va gazlarning bir qismi sutok shlkni yorib, tashqariga chiqib ketadi. Shunda vannadagi gazning xajmi kamayadi va jarayon takrorlanadi.

Sutok shlk sovib, qobik hosil qiladi Bu qobiq normal chok shakllanishiga imkon beradi, sutok metalning sovishini sekinlashtiradi, zarur strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'lishiga sharoit yaratadi va metalning sachrashiga yo'l qo'ymaydi.

Agar elektrod sim bilan detal surilishi mexanizatsiyalashgan bo'lsa, avtomatik shulardan biri dastaki usulda bajarilsa, yarim avtomatik payvandlash deb ataladi.

Flyus qatlami ostida payvandlashda jarayon ish unumining yuqori bo'lishi va jarayonning avtomatik bajarilishi, chok metalining yuqori sifatli chiqishi, payvandchi mehnat sharoitini yaxshilanishi, elektr energiyasidan va elektrod simdan tularok foydalilanligi, payvandlash ishlari baxosini ancha pasayishiga olib keladi,

Avtomatik payvandlash usuli anchagina uzun to'g'ri choklar va diametri 40 mm dan ortiq tsilindrik yuzalarda xalkasimon choklar hosil qilish uchun' qo'llaniladi. Payvandlashning unumi vaqt birligi ichida suyuqlantirib tushirilgan metalning og'irligi bilan aniqlanadi.



6.6-rasm. Flyus qatlami ostida payvandlashda payvandlash vannasining sxemasi. 1-sovuq metall; 2-sutok shlk; 3-shlk qobiq; 4-suyuqlantirib tushirilgan metall

$$QqK_{CT} \cdot J_{n,t} \cdot gG's$$

K_{st} - suyuqlantirib tushirish koeffitsienti, gG'as,

J_{pt} - payvandlash tokining kuchi, a


Dastaki usulda payvandlashda formuladagi K_{st} bilan J_{pt} ning qiymatlari flyus qatlami ostida payvandlashdagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Dastaki usulda K_{st} q 7 10 gG'a.s atrofida, flyus qatlami ostida payvandlashda esa K_{st} 14 16 gG'a.s .

Avtomatik suyuqlantirib qoplashda ikki xil flyus ishlataladi. Suyuqlantirilgan (AN 348A, AN 20, AN 30) va keramiqaviy (ANK 8, ANK 19)

Avtomobil detallarini suyuqlantirib qoplashda diametri 1,62,5 mm bo'lган simlar ishlataladi. Tok kuchi elektrod diametriga qarab tanlanadi. 1,62,5 mm diametrly elektrod uchun tok kuchi 140360 A bo'ladi.

5. Ximoyalovchi gazlar muxitida yarim avtomatik va avtomatik payvandlash.

Ximoyalovchi gazlar muxitida payvandlash usuli detallarning ishslash imkoniyatini tiklashda ko'p qo'llaniladi. Bunda ximoyalovchi gaz payvandlanayotgan joyga ortiqcha bosim bilan uzatilganligidan, yoy ustuni, shuningdek, suyuqlangan payvandlash vannasi havo kislороди bilan azotidan ajratiladi (6.7-rasm).



6.7-rasm. Yoning ximoyalovchi gaz oqimida yonish sxemasi.
1-elektrod sim; 2-payvandlash gorelkasi; 3-ximoyalovchi gazning oqimi 4-elektr yoy;
5-suyuqqlangan metal

Ta'mirlash ishlarida suyuqqlanuvchi elektrodlar bilan yarim avtomatik va avtomatik payvandlash usuli qo'llanilmokda. Bunda elektrod sim sifatid kompakt yoki qukunli sim ishlatiladi.

Bu usulda uglerodli, kam legrlangan po'lat hamda cho'yanni payvandlashda karbonad angidrid, rangli metallarni va ko'p legirlangan po'latlarni payvandlashda esa argon ishlatiladi. Karbonad angidrid ishlatib payvandlashning (suyuqlantirib qoplashning) dastaki usulda elektr yoyi vositasida v flyus qatlami ostida payvandlashga qaraganda qo'yidagi afzalliklari bor.

Flyus yoki elektrod qoplamiga zarurat qolmaydi. Fazoda har qanday vaziyatda turgan detallarni payvandlash va ularga suyuqlantirib qoplash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish imkoniyati tug'iladi mehnat unumi dastaki usulda elektr yoyi vositasida payvandlashdagiga karaganda 20-70% yuqori bo'ladi.

Umumiy ma'lumotlar. Gaz alangasida payvandlash va suyuqlantirib qoplashga metallarni turli yonuvchi gazlarning (atsetilen, metan, propan va hokazolar) sof texnik kislorodda yonishidan hosil bo'lgan alanga yordamida qizdirish va suyuqlantirish jarayoni kiradi.

Yuqori temperaturali gaz alangasini hosil qilish usuli XIX asr oxirida ishlab chiqildi. Bu davrda atsetilen, kislorod, vodorod sanoatda ishlab chiqarila boshlanib, metallarni gaz alangasida payvandlash metall konstruktsiyalarni puxta biriktirishning asosiy usuli bo'lgan edi.

Keyinchalik elektr yoy yordamida payvandlash va boshqa turdag'i payvandlashning tez rivojlanishi natijasida gaz alangasida payvandlash ikkinchi darajaga tushib qoldi. Shunday bo'lsa ham gaz alangasida payvandlash mashinalarni ta'mirlash qilishda keng qo'llaniladi, ba'zi hollarda esa uning o'rnini hech narsa bosa olmaydi.

Gaz alangasida payvandlashning kamchiliklariga yoy yordamida payvandlashdagiga qaraganda metallning qizish va suyuqlanish tezligining kichikligi, issiqlik ta'sir etish zonasining kattaligi va buning natijasida payvandlanadigan buyumning tob tashlash mumkinligining ortishi kiradi. 6...8 mm dan qalin bo'lgan yirik buyumlarni payvandlashda ish unumi boshqa turdag'i payvanlashdagiga nisbatan ancha pastligi sababli gaz alangasida payvandlash ko'pincha yupqa detallarni biriktirish va suyuqlantirib qoplashda qo'llaniladi. Ishlatiladigan gazlarning narxi elektr energiyasi narxidan baland bo'lganligi uchun

gaz alangasida payvandlash elektr yoy yordamida payvandlashga nisbatan qimmatroq. Gaz alangasida payvandlash elektr yordamida payvandlashga qaraganda qiyinroq bo'lib, uni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish qiyin.

Gaz alangasida payvandlashning afzalliklari nisbatan jihozlarning oddiyligi va arzonligi, payvandlashda quvvatni, alanga tarkibi va yo'nalishini keng boshqarish mumkinligidir. Gaz alangasidan yupqa listdan qilingan po'lat buyumlarni (rezervuarlar, yonilg'i baklari, neft idishlari, avtomobil, traktor kabinalari hamda qanoti va hokazoni) payvandlash va tiklashda foydalaniladi; uning yordamida darzlar payvandlanadi va cho'yan, alyuminiy hamda uning qotishmalar, mis, bronza, latun, rux detallar to'ldirib payvandlanadi, kavsharlash va boshqa ishlar bajariladi.

Gaz alangasida payvandlash va suyuqlantirib qoplashda ko'p hollarda atsetilen ishlatiladi, u kislородда yonganda alanga temperaturasi 3150°S , boshqa gazlar ishlatilganda esa $2000...2300^{\circ}\text{S}$ bo'ladi.

Atsetilen tuzilishi oddiy bo'lgan generatorlar deb ataladigan maxsus apparatlarda kal tsiy karbidni suv bilan o'zaro ta'siri natijasida hosil qilinadi. Biroq atsetilening qimmatligi (boshqa yonuvchi gazlarga nisbatan 15...20 marta qimmat) va portlashga xavfliligi sababli uniishlatish cheklangan. Atsetilen $400...500^{\circ}\text{S}$ temperaturagacha tez qizdirilganda, shuningdek, bosim 0,15 MPa dan oshganda portlaydi. Shuning uchun yo'l qo'yiladigan bosimdan yuqori bosimda atsetilenden foydalanish ta`qiqlanagan. Ayetilenning havo bilan 2,2...81% (hajmi bo'yicha) aralashmasi yoki 2,8...93% atrofida kislород bilan aralashmasi ham portlaydi. ayniqsa, atsetilening vodorod fosfit bilan aralashmasi xavfli, uning tarkibida 0,7% bo'lishi atsetilennen portlash xavfini keskin oshiradi.

Ballonlardagi atsetilenden keng foydalaniladi. Ballonlar maxsus sanoat korxonalarida atsetilen bilan to'ldiriladi, bunda atsetilening atsetonda erish xususiyati hisobga olinadi. Bunday holatdagi atsetilen amalda xavfsiz. Bundan tashqari, ballondagi atsetilenden foydalanish xizmat ko'rsatishni osonlashtiradi va payvandchining ish unumini oshiradi.

Atsetilen va boshqa yonuvchi gazlar payvandlash gorelkalari deb ataluvchi maxsus moslamalarda zarur miqdordagi kislород bilan aralashtiriladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, atsetilening to'la yonishi uchun taxminan 10...30% ko'p kislород (hajmi bo'yicha) talab qilinadi. Atsetilen-kislород alangasida har xil temperaturali uchta ravshan ko'rinishdagi zona bo'ladi va u tashqi ko'rinishi bo'yicha oson rostlanadi (29-rasm). Alanganing yadro deb ataluvchi ichki qismi eng ravshan bo'lib, uning temperaturasi ko'pi bilan 1200°S . Alanganing o'rtaligida qismidagi temperatura eng yuqori- 3150°S . Bu qismini ba'zan payvandlash qismi deb ataladi. Alanganing tashqi qism alanga mash`alini hosil qiladi. Alanga va uning uchala qismining shakli kislород berilishining o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Atsetilening kislородга bo'lgan nisbatini o'zgartirish bilan alanganing uch asosiy turi: nomal yoki tiklovchi (kislород nisbati 1,1...1,2), oksidlovchi (kislород nisbati 1,3 dan ortiqroq) va uglerodlovchi (atsetilen ko'p, nisbati 1,1) alanga hosil qilish mumkin. Normal alanganing uchala qismi ancha ravshan ifolangan. Odatda detallar ana shu alanga bilan payvandlanadi.

Gaz alangasida payvandlash va suyuqlantirib qoplash texnologiyasining xususiyatlari. Gaz alangasida payvandlash texnologiyasining elektr yoy bilan payvandlash texnologiyasidan asosiy farqi-bunda metallning bir tekisda va asta qizishidir. Gaz alangasida payvandlash asosan uchma-uch biriktirib payvandlashda va ba'zan suyuqlantirib qoplash ishlarida qo'llaniladi. Gaz alangasida burchaklik, tavr

va ustma-ust birikmalarni payvandlash, payvandlash vaqtida katta deformatsiyalar sodir bo'lishi sababli juda kam qo'llaniladi. Gaz alangasida payvandlashda qirralarini qo'shilma simsiz qayrib uchma-uch payvandlash juda qulay usuldir. 4 mm dan yupqa bo'lган metallni qirralarini qiyalatmay payvandlash mumkin. Qalanligi 5...15 mm bo'lган metallarni qirralarini V-simon chok uchun 70-90° umumiyl burchak ostida qiyalatib payvandlash, 15 mm dan qalin metallni esa X-simon chok uchun ikkala tomondan xuddi yuqoridagidek burchak ostida qiyalatib payvandlash lozim.

Ko'p markadagi po'latlarni payvandlash va suyuqlantirib qoplash normal alangada bajariladi. Suyuqlantirib qoplangan chok 850...900°S temperaturada qizigan holatda (och qizil rangda) bolg'alanadi va so'ngra normallashtiriladi, ya'ni 900°S gacha qizdiriladi hamda havoda sovitiladi. Ximiyaviy tarkibi jihatidan payvandlanadigan po'latga yaqin bo'lган sim qo'shimcha material sifatida ishlatiladi.

Kam uglevodli po'latlar Sv-08A va Sv-08GA simi bilan payvandlanadi. Ko'p uglevodli va legirlangan po'latlarni payvandlash, shuningdek, mustahkamligi yuqori bo'lган suyuqlantirib qoplash chokini hosil qilish uchun Sv-08G2S, Sv-18XGSA va boshqa simlar ishlatiladi hamda flyuslardan foydalaniladi. Qizdirilgan bura, kremniy hamda borat kislotalar va boshqa moddalardan flyuslaro sifatida foydalaniladi. Detallar payvandlash oldidan 250-300°S temperaturagacha qizdiriladi.

Cho'yanni payvandlash. Atsetilen-kislorod alangasidan foydalanish cho'yanni yuqori sifatlari payvandlashning ancha ishonchli usullaridan biridir. Gaz alangasida payvandlashda detal yoy bilan payvandlashdagiga nisbatan sekinroq hamda bir maromda qiziydi va soviydi. Natijada suyuqlantirib qoplangan metallda va uning chegaralarida uglevodning grafitlanishiga yaxshi sharoit tug'iladi, cho'yanning oqarish ehtimolligi, ichki quchlanshlarning sodir bo'lishi va darzlarning paydo bo'lishi kamayadi. Odatda gaz alangasida payvandlash detalni umumiyl va mahalliy qizdirish bilan quzatiladi. Kichik detallar payvandlash oldidan bevosita gorelka langasida qizdiriladi; yirik detallar maxsus pechlarda yoki ko'rilmalarda qizdiriladi. Diametri 4, 6, 8, 10, va 12 mm bo'lган cho'yan sterjenlardan qo'shilma material sifatida foydalaniladi. Mayda detallarni payvandlashda B markadagi cho'yan sterjenlar, yiriklarini payvandlashda esa A markadagi sterjenlar ishlatiladi. Cho'yan 1 mm qalinlikdagi metallga 100...120 dm³G'soat atsetilen sarflab normal yoki uglerodlovchi alanga bilan payvandlanadi.

Payvandlash vannasidan kremniy temir va marganets oksidlarini ajratib olishda quyidagi aralashma: 56% bura, 22% dan soda va potash yoki 23% qizdirilgan bura, 27% natriy karbonat va 50% natriy nitratdan iborat flyusdan foydalaniladi. Flyus payvandlash vannasiga sepiladi, chiviq esa payvandlash jarayonida ko'pincha flyusga botiriladi.

Cho'yanni L62 latuni, bura yoki bura aralashmasi (50%) va borat kislota (50%) dan foydalanib gaz alangasida payvandlash yaxshi natijalar beradi.

Mis va uning qotishmalarini payvandlash. Mis va bronza faqat nomal alangada payvandlanadi. 10 mm gacha qalanlikdagi misga 150 dm³G'soat, 10 mm dan qalin misni payvandlashda esa 200 dm³G'soat bo'lishi kerak yoki ayni vaqtida ikkita gorelka olish kerak: bittasi metallni qizdirish uchun; ikkinchisi metallni suyuqlantirish va payvandlash uchun kerak.

Missi payvandlashda sof mis yoki tarkibida 0,2% gacha fosfor va 0,3% gacha kremniy bo'lган mis sim, bronzani payvandlashda esa payvandlanadigan bronza tarkibiga yaqin tarkibli sim ishlatiladi.

Oksidlardan oksidlash xususiyatini yo'qotish uchun tarkibida sof bura yoki 50% bura va 50% borat kislota bo'lgan aralashma ishlatiladi. Suyuqlantirib qoplangan chok strukturasini yaxshilash uchun u $200..300^{\circ}\text{S}$ temperaturada qizdiriladi, so'ngra $500...550^{\circ}\text{S}$ temperaturada yumshatiladi va suvda tez sovitiladi.


Latun tarkibida 30...40% gacha kislород bo'lган alangada payvandlanadi. Bunda suyuqlantirilgan metall sirti ruxning keyin bug'lanishidan saqlaydi. Mis va rux oksidlarini ketkazish uchun quyidagi tarkibdagi flyuslar: 35% borat kislota, 15% natriy fosfat, qolganlari suyuqlantirilgan bura, yoki 80% borat kislota va 20% suyuqlantirilgan bura, yoki maxsus suyuq BM-1 va BM-2 flyuslar ishlatiladi. Bu flyuslar atsetilen bilan birga maxsus idish-flyus bilan ta`minlagichdan gorelkaga uzatiladi. Flyuslarning bug'i zaharli bo'lganligi uchun payvandchi respirator taqib ishlashi kerak, payvandlash joyiga esa mahalliy so'rish ventilyatsiyasi o'matilishi lozim. Tarkibi jihatidan payvandlanadigan latunga yaqin bo'lgan sim yoki tarkibida oksidsizlantiruvchi moddalar-qalay va kremniy bo'lgan maxsus qo'shilmalar-LK62-0,5, LO60-1 hamda LOK59-1-03 simlari qo'shilma material sifatida ishlatiladi.

Alyumniy va uning qotishmalarini payvandlash. Alyumniy va uning qotishmali gaz alangasi yordamida faqat nomal alanga bilan yaxshi payvandlanadi. Tarkibi payvandlanuvchi metall tarkibiga yaqin bo'lgan qo'shılma material ishlatiladi. Alyumniy oksid pardasini yo'qotish uchun litiy, natriy, kaliy va bariy ftorid tuzlari bor AF-4A, AN-4A, AN-A201 flyuslaridan foydalaniladi. Payvandlangandan keyin flyus qoldiqlari issiq suv bilan yuvib ketkaziladi. Yoy bilan payvandlashdagi kabi oksid pardani maxsus qirg'ich yordamida qirqib olib tashlash mumkin. Payvandchi bunday holda katta malakaga ega bo'lishi lozim, chunki chokka oksid pardasining qoldiqlari tushib, metall suyuqlanmay qolishi mumkin

Titrama yoy usuli bilan avtomatik tarzda eritib qoplash.

Vibroyoy yordamida suyuqlantirib qoplash jarayoni ancha unumli bo'lib, po'latdan, bolg'alanuvchi va qulrang cho'yanlardan yasalgan detallarning ishslash imkoniyatini tiklashda qalinligi $0,3\text{ mm}$ dan ' $2,5\text{ mm}$ gacha va undan ortiq qoplamlar hosil qilishga imkon beradi. Bu usuldan sirtki va ichki tsilindrik yuzalarni, rezbalni yuzalarni hamda shlitsalarni qalinlashtirishda foydalaniladi.

Avtomatik suyuqlantirib qoplash ko'rmasi (6.8-rasm) tok manban, suyuqlantirib qoplash golovkasi va elektr taksimlash moslamasi, simni uzatish tezligini o'zgartirish asbobi, tokni o'lchash asbobidan iborat.



6.8-rasm. 1-detal; 2-suyuqlantirib qoplash golovkasi; 3-elektromagnitovy vibratord; 4-elektrod sim o'ralgan kasseta; 5-sim uzatish mexanizmi; 6-tok manbai; 7- sovitish suyuqqligi uzatishga mo'ljallangan dvigateli bor nasos; 8-induktiv qarshilik; 9-suyuqqlik bak.

Vibroyoy yordamida suyuqlantirib qoplashda elektrod simning tebranib turishi natijasida yupqa va puxta qatlam termiq ta'sirning uncha chuqur bo'lman zonalari hosil qilinadi va detal ozroq qiziydi. Bundan tashqari yoy qisqa bo'lganligi yoy razryadining davom etish vaqtiga ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini o'zgartirish mumkinligi tufayli elektrod simdagi legirlovchi elementlarning qo'yishi kamayadi. Vibroey yordamida suyuqlantirib qoplashda ish unumi dastaki usuldagiga qaraganda yuqori, ammo flyus qatlamni ostida payvandlashdagiga qaraganda past bo'ladi.

Avtomobil detallariga elektrod suyuqlantirib qoplash ishlari tokarlik stanoklarida bajariladi.


Qul rang va bolg'alanuvchi cho'yandan hamda alyuminiy qoplamlaridan yasalgan detallarning ishlash imkoniyatini tiklash xususiyatlari.

Avtomobil detallari tayyorlashda qul rang va bolg'alanuvchan cho'yan ham ishlatiladi. Qul rang cho'yan barcha murakkab quyma detallar: tsilindrlar bloki, blok golovkalari, maxoviklarning karterlari, suv va moy nasoslarining korpuslari, uzatmalar qo'tisining karteri, old g'ildiraklarning gupchaklari va boshqa detallar tayyorlanadi.

Yuqorida keltirilgan detallarda eng ko'p uchraydigan nuqsonlar har xil darzlar, uchib ketgan joylar, uyiklar, rezba uramining o'zilishi yoki rezbaning yeyilish va shunga o'xshash nuqsonlardir.

Avtomobilning qul rang cho'yandan qo'yilgan murakkab shaklli yupqa devorli detallaridagi darzlarni payvandlab berkitish ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi, Avtomobilning cho'yandan quyilgan detallari Gaz alangasida usulda va elektr yeyi vositasida payvandlanadi.

- Payvandlanadigan detal qizdirib olingandan keyin, payvandlanmasligi lozim bo'lgan joylari azbest listi bilan berkitiladi. Suyuqlangan cho'yan oqib ketmasligi uchun detal gorizontal vaziyatda quyiladi. Elektr yeyi vositasida qul rang cho'yan detallarni qizdirib olib ham qizdirmasdan ham payvandlasa bo'ladi.
- Cho'yanni sovuqlayin payvandlashda kam uglerodli po'latdan, misdan yoki monelmetalldan tayyorlangan elektrod ishlatiladi.
- Detallarning ishlash imkoniyatini elektr yoyi vositasida payvandlash usuli bilan tiklash
- Elektr yoyi vositasida payvandlashda detal elektr yoyi ta'sirida suyuqlanadi. Avtomobil detallarining ishlash imkoniyatini tiklashda N.G.Slavyanov usulidan keng foydalilaniladi.



N.N.Slavyanov usulida payvandlash sxemasi. 1-elektrod; 2-elektrod tutqich; 3-sim; 4-tok manbai; payvandlanadigan detal.

- Bu usulda metall elektrodlar ishlataladi. Bunda payvandlanadigan detal metall stolga qo'yiladi, Tok manbai 4 dan sim stolga keltirilgan. Boshqa sim 3 elektradni payvandlanishi lozim bo'lgan detalga tekizish, keyin esa detal yuzasidan tezda 46 mm uzoqlashtirish kerak. SHunda detal bilan elektrad orasida elektr yoyi hosil bo'ladi.
- Elektr yoyi vositasida payvandlashda yoy mumkin qadar qisqa bo'lib turishi kerak. Yoy qisqa bo'lganda havo suyuqqlangan metalga kam ta'sir etadi, natijada chocning mexanikaviy puxtaligi ortadi.
- Payvandlash tokining qiymati payvandlanayotgan detalning metaliga, uning qalinligiga. elekgrondning diametriga, payvandlash tokining turiga, elektradning tipiga bog'liq bo'ladi.
- Dastaki usulda elektr yoyi vositasi bilan payvandlashda payvandlash yoyining uzunligi, tokning qiymati ham vaqtı-vaqtı bilan o'zgarib turadi. Elektrod metali bilan detal metali bir tekis suyuqqlanish payvandlash toki qiymatining ortishi yoki kamayishi uncha katta bo'lmasligi lozim.
- Dastaki usulda elektr yoyi vositasi bilan payvandlashda kam uglerodli simdan yasalgan elektrodlar ishlatalib, metalning sachrashini ancha kamaytirsa bo'ladi.
- SHu yili boshka rus injeneri N.G. Slavyanov uzgaruvchan va uzgarmas toklarda eruvchan metall elektrad bilan elektr yoyli payvandlash usulini yaratdi. Bu usul xozirgi kunda keng qullaniladi.
- Kirralarni payvandlashga tayyorlash: a – kirralarni chetini nishab kilmasdan; b – ikkala kirrani nishab qilish; v – kirralarni ikki tomonlama simmetrik nishab qilish.

Vibroyoy yordamida suyuqlantirib qoplashda elektrad simning tebranib turishi natijasida yupqa va puxta qatlama termiq ta'sirning uncha chuqur bo'lgan zonalari hosil qilinadi va detal ozroq qiziydi. Bundan tashqari yoy qisqa bo'lganligi yoy razryadining davom etish va ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini o'zgartirish

mumkinligi tufayli elektrod simdagi legirlovchi elementlarning qo'yishi kamayadi. Vibroey yordamida suyuqlantirib qoplashda ish unumi dastaki usuldagiga qaraganda yuqori, ammo flyus qatlami ostida payvandlashdagiga qaraganda past bo'ladi. Avtomobil detallariga elektrod suyuqlantirib qoplash ishlari tokarlik stanoklarida bajariladi.

Kul rang va bolg'alanuvchi cho'yandan hamda alyuminiy qoplamlaridan yasalgan detallarning ishlash imkoniyatini tiklash xususiyatlari.


Avtomobil detallari tayyorlashda qul rang va bolg'alanuvchan cho'yan ham ishlatiladi. Qul rang cho'yan barcha murakkab quyma detallar: tsilindrlar bloki, blok golovkalari, maxoviklarning karterlari, suv va moy nasoslarining korpuslari, uzatmalar qo'tisining karteri, old g'ildiraklarning gupchaklari va boshqa detallar tayyorlanadi.

Yuqorida keltirilgan detallarda eng ko'p uchraydigan nuqsonlar har xil darzlar, uchib ketgan joylar, uyiklar, rezba uramining o'zilishi yoki rezbaning yejilish va shunga o'xshash nuqsonlardir.

Avtomobilning qul rang cho'yandan qo'yiilgan murakkab shaklli yupqa devorli detallaridagi darzlarni payvandlab berkitish ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi, Avtomobilning cho'yandan quyilgan detallari Gaz alangasida usulda va elektr yeyi vositasida payvandlanadi.


- Payvandlanadigan detal qizdirib olingandan keyin, payvandlanmasligi lozim bo'lган joylari azbest listi bilan berkitiladi. Suyuqlangan cho'yan oqib ketmasligi uchun detal gorizontal vaziyatda quyiladi. Elektr yeyi vositasida qul rang cho'yan detallarni qizdirib olib ham qizdirmasdan ham payvandlasa bo'ladi.
- Cho'yanni sovuqlayin payvandlashda kam uglerodli po'latdan, misdan yoki monelmetalldan tayyorlangan elektrod ishlatiladi.

Flyus katlami ostida payvandlash mohiyati shundaki yoyning yonish zonasiga elektrod sim, avtomatik uzliksiz suriladi va bu zonaga sochiluvchan flyus berib turiladi. Flyusning bir kismi suyuklanib yoy atrofida kobik xosil kiladi. Kobik esa suyo'ltirilgan metalni kislород va azotning zararli ta'siridan ximoyalaydi, xamda suyuk metalning sachrashini kamaytiradi. Bu payvandlashda elektr quchlanishi 30 – 40 voltli uzgarmas tok ishlatiladi. Bu usulda payvandlanganda ish unumi yuqori va payvand choklari sifatli bo'ladi.




6.9-rasm. Silindrik buyumni mexanizatsiyalashtirilgan usulda koplash va tekis sirtlarini flyus koplami ostida payvandlash sxemasi: a – suyo’ltirib koplash; b – payvandlash.
1 – suyuk metall, 2 – shlakli vanna, 3 – shlak, 4 – elektrod sim, 5 – elektropayvandlash yoyi, 6 – suyo’ltirib koplangan (payvandlangan) chok, 7 – detal, 8 – ximoya shlakli katlam. A – elektrodning 4 – 6 chegarada siljishi.

- Payvandlash va suyuqlantirib qoplashning bu turi progressiv usul xisoblanadi va undan detallarning ishlash imkoniyatini tiklash texnologiyasida juda ko’p foydalaniladi,
- Flyus qatlami ostida avtomatik va yarim avtomatik payvandlashda elektr yoyi suyuqqlangan shlak ostida yonadi , (buni dastaki usuldan farqi shu).
- Bunda elektrod sim payvandlanayotgan joyga granulalangan flyus bilan bir vaqtida uzatiladi. Yoyning temperaturasi baland bo’lganligidan asosiy metall, elektrod metali va qisman flyus sutoklanadi. Sutoklanish protsessida ajralib chiquvchi gazlar ustki tomondan shlak bilan, ostki tomondan esa suyuq metall vannasi bilan chegaralangan qobiq hosil bo’ladi. Payvandlash zonasidagi sutok shlak bilan gazlar payvandlash vannasini havodan ximoya qilib turadi. Temperatura ko’tarilishi bilan payvandlash vannasidagi gazlarning bosimi Suyuk shlak sovib, qobiq hosil qiladi Bu qobiq normal chok shakllanishiga imkon beradi, sutok metalning sovishini sekinlashtiradi, zarur strukturaviy o’zgarishlar sodir bo’lishiga sharoit yaratadi va metalning sachrashiga yo’l qo’ymaydi.
- Agar elektrod sim bilan detal surilishi mexanizatsiyalashgan bo’lsa, avtomatik shulardan biri dastaki usulda bajarilsa, yarim avtomatik payvandlash deb ataladi.
- Flyus qatlami ostida payvandlashda jarayon ish unumining yuqori bo’lishi va jarayonning avtomatik bajarilishi, chok metalining yuqori sifatli chiqishi, payvandchi mehnat sharoitini yaxshilanishi, elektr energiyasidan va elektrod simdan tularok foydalanilganligy, payvandlash ishlari baxosini ancha pasayishiga olib keladi,
- ham osha boshlaydi va gazlarning bir qismi sutok shlakni yorib, tashqariga chiqib ketadi. SHunda vannadagi gazning xajmi kamayadi va jarayon takrorlanadi.
- Avtomatik payvandlash usuli anchagina uzun to’g’ri choklar va diametri 40 mm dan ortiq tsilindrik yuzalarda xalkasimon choklar hosil qilish uchun’ qo’llaniladi. Payvandlashning unumi vaqt birligi ichida suyuqlantirib tushirilgan metalning og’irligi bilan aniqlanadi.




6.10-rasm. Flyus qatlami ostida payvandlashda payvandlash vannasining sxemasi. 1-sovuq metall; 2-sutok shlak; 3-shlak qobiq; 4-suyuqlantirib tushirilgan metall

- $Q = K_{CT} \cdot J_{n.t}, \text{g/s}$
- K_{st} - suyuqlantirib tushirish koeffitsienti, g/as,
- J_{pt} - payvandlash tokining kuchi, a
- Dastaki usulda payvandlashda formuladagi K_{st} bilan J_{pt} ning qiymatlari flyus qatlami ostida payvandlashdagiga qaraganda ancha past bo'ladi. Dastaki usulda $K_{st} = 7\ 10\ \text{g/a.s}$ atrofida, flyus qatlami ostida payvandlashda esa $K_{st} 14\ 16\ \text{g/a.s}$
- .
- Avtomatik suyuqlantirib qoplashda ikki xil flyus ishlatiladi. Suyuqlantirilgan (AN 348A, AN 20, AN 30) va keramiqaviy (ANK 8, ANK 19)
- Avtomobil detallarini suyuqlantirib qoplashda diametri 1,62,5 mm bo'lgan simlar ishlatiladi. Tok kuchi elektrod diametriga qarab tanlanadi. 1,62,5 mm diametrly elektrod uchun tok kuchi 140360 A bo'ladi.
- Gaz alangasida va purkash yo'li bilan detallarni tiklash
- Gaz alangasida metallashning ikki usuli; 1) Bosimli gaz ishlatib metallash. 2) bosimli gaz ishlatmay metallash usullari mavjud.
- Bosimli gaz ishlatib metallash usuli ta'mirlash ishlarida eng ko'p qo'llaniladi. Bosimli gaz ishlatib metallashda qoplovchi sim yonuvchi gaz bilan kislorod alangasidan suyuqlantirilib, detalning yuzasiga siqilgan havo yoki inert gaz vositasida purkaladi.




6.11-rasm. Gaz alangasida metallashda ishlatiladigan metalizatorning purkash kallagi sxemsi.

- 1-sim; 2-simni uzatish mexanizmi; 3-alarashtirish kamerasi; 4- gaz metal aralashmasi oqimi.
- Gaz alangasida metallashda qoplama juda yuqori sifatli chiqadi. Gaz alangasida metallash usulining kamchilliklari jumlasiga, detal yuzasiga beriltan qoplama nisbatan kimmata tushadi, metallash ustaganovkasi murakkab bo'ladi.
- CHet ellarda kesuvchi asboblar, ulchash asboblari, shuningdek koliplash matritsalari va boshqa muxim detallar ish yuzalarining yeyilishga chidaxmlilagini oshirish maksadida ularni qiyin suyuqlanuvchan materiallar bilan qoplashda ireaktivm va portlatma metallash usullari qo'llaniladi.
- Bosimi oshirilgan yonuvchi gaz yordamida metallash detallarning yuzasiga qattiq va keramiqaviy kotishmalarning qukonlarini purkashdan iborat. Bunday maksadda ishlatiladigan metalizator sxemasi keltirilgan (15rasm). Bunda siqilgan havo ishlatilmaydi. Siqilgan havo rolini bosimi oshirilgan yonuvchi gaz o'taydi. SHu tufayli metall zarralarining temperaturasi saqlanib, detal yuzasiga yumshoq xolatda yotadi



- Yuqori bosimli yonuvchi gazdan foydalanib metallash metalizatorining sxemasi. 1-atsetilen beriladigan kanal; 2-kislardan beriladigan kanal; 3-so'toklantiriladigan qukon beriladigan kanal; 4-yonib turgan gazlar va koplanayotgan metalning yumshagan zarralari oqimi; 5-detalning qoplanayotgan yuzasi.
- Elektrik metallashda ish unumi va tejamlilik juda yuqori bo'ladi. Ishlash printsipiiga ko'ra, elektrik metallash quyidagi ikki turga: elektr yoyi vositasida metallash va yuqori chastotali tok vositasida metallash turlariga bo'linadi.
- Elektr yoyi vositasida metallash usuli metallashning barcha turlarini bajarishga mo'ljallangan.



6.12-rasm. Elektr yoyi vositasida metallash metalizatori.

1-sim; 2-sim uzatish mexanizmining roliklari; 3-havo berish kanali; 4-yo'naltiruvchi uchliklar; 5-elektr yoyi.

Bunda diametri 1,2...2,5 mm li bir-biridan elektrik tarzda izolyatsiyalangan ikkita metall sim uzatish mexanizmi yordamida siljiydi. Simlar uchliklardan chiqishi bilan bir-biriga yaqinlashadi va elektr yoyi ta'siri ostida ularning uchlari suyuqlanganadi. Siqilgan havo oqimi suyuqlangan simni bosim ostida juda mayda zarralarga aylantiradi va detal yuzasiga qoplaydi.

Yuqori chastotali tok vositasida metallash induksion qizdirish printsipidan foydalanishga asoslangan. Yuqori chastotali tok bilan ishlaydigan metalizatorning sxemasi keltirilgan (17-rasm). Sim yuqori chastotali uyurma toklar kontsentratori bor metallizatorda suyuqlantiriladi. Uyurma tok kontsentratori magnitaviy maydonni simning metalizator purkash golovkasidan chiqish joyig'a eng ko'p tuplash uchun mo'ljallangan. Yuqori chastotali tok vositasida metallashda lampaviy LZ37, GZ 46, LGPZ 30, AZ 46, AGLZ 60, LG 60 generatorlaridan foydalaniladi.

Eyilgan detallarning ishlash imkoniyatini metallash yo'li bilan tiklashning texnologik jarayoni ketma-ket o'tkaziladigan uchta asosiy bosqichdan iborat.

detal yuzasini metallashga tayyorlash.

detalning tayyorlangan yuzasini metallash detalning metallangan yuzasiga ishlov berish

Nazorat uchun savollar

1. Vibroyoy usulidagi qoplash qaysi maqsadlarda ishlartiladi.
2. Kulrang cho'yandan qaysi detallar yasaladi?
3. Avtomobil detallariga elektrod suyuqlantirib qoplash ishlari qayerda bajariladi?
4. Detal materialining fizik-mexanik xossalari puxtalash yo'li bilan tiklash ning ahamiyati?
5. Detalning yejilgan sirtqi qatlami o'rniiga yangi qoplama hosil qilish qanday amalga oshiriladi?
6. Metallning elastik deformatsiyalanishi qanday jarayon.
7. Detalning ishlash imkoniyatini botirish usuli bilan tiklash mohiyati?
8. Cho'zish usuli bilan tiklash jarayoni mohiyatini tushuntirib bering?

7-MAVZU TRANSPORT VOSITA DETALLARINI TIKLASH JARAYONLARI.


1. Golvanik – kimyo tiplash usuli.
 2. Metallarni elektroliz yo’li bilan tiplash sxemasi.
 3. Elektroliz jarayonini bajarishda ishlar boskichi.
 4. Xromlash, ruxlash, nikellash va mislash jarayonlari.

Tayanch iboralar: *elektroliz, xromlash, ruxlash, nikellash, mislash*

Golvanik qoplash elektr tok ta'sirida metall tuzlarining eritmasidan metallarning ajralib chikish xossasiga asoslangan. Ta'mirlanadigan detal tok manbaining manfiy qutbiga (katodga) ulanganda, uning yegilgan sirtigametall utiradi. Tok manbaining musbat qutbiga ulangan anol – ikkinchi elektrod sifatida xizmat kiladi. Xar ikkala elektrod metall tuzlarining eritmasi quyilgan idishga joylashtiriladi. Bu usul detallarning yegilgan kismini ta'mirlash, ularni zanglashdan saklash yoki pardoz koplamalar koplash sifatida foydalaniladi. Bunda detal katod, metall plastinka anod vazifasini bajargan xolda anod eriydi. Ajralib chikkan ionlar katodga utiradi. Bu usuldan xromlash, temirlash, nikellash, ruxlash va mislash jarayonlarida keng qo'llanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda ta'mirlanadigan detallarni tayyorlash ya'ni ularni kislota va ishkorlar yordamida tozalash, koplamalar yotkizish va koplangan detalga ishlov berish kabi boskichma boskich ishlar bajariladi. Bu sulni afzalligi ortikcha issiklik bermay, detalni deformatsiyalamay, yegilgan sirtlarini tuldirish va ularni boshlangich ulchamlariga keltirish imkonini beradi.

Elektrik metallashda ish unumi va tejamlilik juda yuqori bo'ladi. Ishlash printsipliga ko'ra, elektrik metallash quyidagi ikki turga: elektr yoyi vositasida metallash va yuqori chastotali tok vositasida metallash turlariga bo'linadi.

Elektr yoyi vositasida metallash (7.1-rasm) usuli metallashning barcha turlarini bajarishga mo'ljallangan.



7.1-rasm. Elektr yoyi vositasida metallash metalizatori.

1-sim; 2-sim uzatish mexanizmining roliklari; 3-havo berish kanali; 4-yo'naltiruvchi uchliklar; 5-elektr yoyi.

Bunda diametri 1,2...2,5 mm li bir-biridan elektrik tarzda izolyatsiyalangan ikkita metall sim uzatish mexanizmi yordamida siljiydi. Simlar uchliklardan chiqishi bilan bir-biriga yaqinlashadi va elektr yovi ta'siri ostida ularning uchlari

suyuqlanadi. Sinqilgan havo oqimi suyuqlangan simni bosim ostida juda mayda zarralarga aylantiradi va detal yuzasiga qoplaydi.


Yuqori chastotali tok vositasida metallash induktsion qizdirish printsipidan foydalanishga asoslangan. Yuqori chastotali tok bilan ishlaydigan metalizatorning sxemasi keltirilgan (17-rasm). Sim yuqori chastotali uyurma toklar kontsentratori bor metallizatorda suyuqlantiriladi. Uyurma tok kontsentratori magnitaviy maydonni simning metalizator purkash golovkasidan chiqish joyig'a eng ko'p tuplash uchun mo'ljallangan. Yuqori chastotali tok vositasida metallashda lampaviy LZ37, GZ 46, LGPZ 30, AZ 46, AGLZ 60, LG 60 generatorlaridan foydalaniladi.

Eyilgan detallarning ishlash imkoniyatini metallash yo'li bilan tiklashning texnologik jarayoni ketma-ket o'tkaziladigan uchta asosiy bosqichdan iborat.

- detal yuzasini metallashga tayyorlash.
- detalning tayyorlangan yuzasini metallash detalning metallangan yuzasiga ishlov berish

Detallarni galvanik – ximik qoplamlar bilan detallarni tiklash.

Galvanik qoplash elektr tok ta'sirida metall tuzlarining eritmasidan metallarning ajralib chikish xossasiga asoslangan. Ta'mirlanadigan detal tok manbaining manfiy qutbiga (katodga) ulanganda, uning yeyilgan sirtiga metall utiradi. Tok manbaining musbat qutbiga ulangan anod – ikkinchi elektrod sifatida xizmat kiladi. Xar ikkala elektrod metall tuzlarining eritmasi quyilgan idishga joylashtiriladi.



7.2-rasm. Metallarni galvanik – kimyoviy usulda tiklash.

Bu usul detallarning yeyilgan kismini ta'mirlash, ularni zanglashdan saklash yoki pardoz koplamalar koplash sifatida foydalaniladi. Bunda detal katod, metall plastinka anod vazifasini bajargan xolda anod eriydi. Ajralib chikkan ionlar katodga utiradi. Bu usuldan xromlash, temirlash, nikellash, ruxlash va mislash jarayonlarida keng qo'llanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda ta'mirlanadigan detallarni tayyorlash ya'ni ularni kislota va ishkorlar yordamida tozalash, koplamalar yotkizish va koplangan detalga ishlov berish kabi boskichma boskich ishlar bajariladi. Bu sulni afzalligi ortikcha issiklik bermay, detalni deformatsiyalamay, yeyilgan sirtlarini tuldirish va ularni boshlangich ulchamlariga keltirish imkonini beradi.

1.Xromlash – xromni yeyilgan sirtlarga yotqizish jarayoni ko'pi bilan 0,25 – 0,30 ni yeyilgan detallarni tiklashda shuningdek zanglashdan saklash uchun qullaniladi. Buni texnologik jarayoni detalni tayyorlash, xromlash, xromlangan detalni yuvish va unga ishlov berish, kerak bo'lsa mexanik ishlov berishdan iborat. Xromlash tartibi ikki qursatkichga, ya'ni tok zichligi va elektrolit xaroratiga karab aniklanadi. Bu qursatkichlar nisbatini uzgartirish xrom koplamasini xossalari bilan farklanuvchi uch turini ya'ni xira (qulrang), yaltirok va sut rang xrom koplamasini xosil qilish mumkin. Bunday koplama juda kattik bo'lib, uning yeyilishga chidamliligi 45

markali toblangan pulatnikiga nisbatan 2 – 3 marta ortik bo’ladi. Ammo tayyorlash ishlarining murakkabligi, jarayonning uzok davom etishi, 0,3 ni ortik koplamaga erishib bo’lmasligi, tokning qup sarflanishi, xromlangan yuzani yomon moylanishi, bu usulni kam qullanishiga sabab bo’lmokda.

2.Temirlash – bu usul xlorli elektrolitlardan yeyilishga chidamli kattik koplamlar xosil qilish jarayonidir. Xromlashga nisbatan 5 – 6 marta kam tok sarf kiladi, soatiga 0,5 mm gacha koplama xosil kiladi (10 – 15 marta katta). 1,5 mm gacha koplash mumkin, shu afzalliklar tufayli bu usul traktor va avtomobillar ta’mirida keng qullaniladi. Ta’mirlashda elektrolit sifatida oz miqdorda xlorid kislota qushilgan xlorli temirning suvdagi eritmasi ishlatiladi. Xlorli temir kontsentratsiyasi 200 – 700 gramm/litr, xlorid kislotaniki esa 1 – 3 gramm/litrni tashkil etadi. Temirlashda past sortli ya’ni kam uglerodli pulatdan tayyorlangan anodlar ishlatiladi. Jarayon davomida pulat anod eriydi. Koplamaning miqrokattikligi tok kuchining zichligini oshishini va elektrolit xaroratini pasayishi bilan aniklanadi.

3.Ruxlash – bunda traktor va avtomobilarni ta’mirlashda, mayda maxkamlash detallari ruxlanib, zanglashdan ximoyalaydi. Ruxlash sulfat kislotali elektrolitlarda bajariladi. Ruxlash jarayonida elektroit xarorati uy xaroratiga teng va tok kuchi zichligi 3- 5 l/di? bo’ladi.

4.Nikellash – elektroit va kimyoviy nikellash, detallarni yeyilishga chidamliligini oshirish, zanglashdan ximoyalash va dekarativ koplama xosil qilishda qo’llanadi. Yonilgi nasoslari, gidravlik asboblarnin pulat, mis, alyumindan tayyorlangan detallarini ta’mirlashda bu usuldan foydalanish tavsiya etiladi. CHunki yuqori unumli va arzonga tushadi.

5.Mislash – yeyilgan va sikilgan bronza vtulkalarini tiklashda, elektr asboblari kontaktlarini ta’mirlashda va xromlash xamda nikkelashdan oldin quyi katlam sifatida foydalaniladi.

6.Plastik deformatsiyalash usuli – metallarningsovuk va issik xolatlarda plastik deformatsiyalanaolish xossasiga asoslangan. Uglerodli po’latlar, rangli metallar, ularning kotishmalaridan tayyorlangan detallar sovuqlayin, tarkibida ko’pi bilan 0,3% uglerod bo’lgan pulat detallar issik xolatlarda plastik deformatsiya usullarida tiklanadi. Amalda detallar cho’ktirib, bosib, kirgizib, kengaytirib, aylanasiga siqib, cho’zib va tug’irlab, tiklanadi. Bu usullarning qaysi birini qo’llash korxonani uskunalar bilan ta’mirlanadigan detallarning nuqsonlariga va ularni bajaradigan ishlariga karab tanlab olinadi.

Mashinalarni ta’mirlashda detallardagi mexanik nuqsonlar, darzlar, yorilgan, singan joylar va xokazolar bartaraf etishda detallarning yelimlab birlashtirishda, turli sintetik ashyolar (plastmassalar) keng qo’llanadi. Bundagi texnologik jarayon va uskunalarni oddiyligi, mexnat kamsarfligi, plastmassa fizik – mexanik xossaniningyuqoriligi, ularni arzonligi bu usulni afzalligini tashkil etadi. Polimer ashyolar tabiiy gaz, neftni qayta ishlashdagi gaz maxsulotlari, yaroqsiz yog’ochlarni qayta ishslash kabi chiqindilardan olinadi. Ularni muxim xossalari: vazni kam, mustaxkam, yeyilishga chidamli, ishqalanishni kamaytirish xossasi yuqori, tok o’tkazmaslik xususiyati va titrashga chidamlilik, plastmassalr tirkibini tashkil etuvchi, sun’iy yoki tabiiy smola boglovchi ashyo vazifasini bajaradi. Uning tarkibiga bu elementdan tashqari to’ldirgichlar, plastefikatorlar, ko’tirgichlar, rang beruvchilar, katolizatorlar (tezlatgichlar) deb ataladi va maxsus xossalalar beruvchi boshqa qo’shimchalar kiradi. Polimerlar ikkita katta guruxga bo’linadi. Reaktoplastlar (termoreaktiv) – ular

me'yoriy xaroratda suyuk yoki kattik xolatda bo'lishi mumkin. Ular ma'lum xaroratgacha qizdarilganda qovushoq ya'ni oquvchan xolatga keladi. Qizdirish yana davom ettirilsa, ular qotadi va xar qanday xaroratda o'z xolatini o'zgartirmaydi. Ularni qaytadan plastik xolatga o'tkazish bo'lmaydi. Termoplastlar – normal xolatda qattiq bo'ladi, qizdirganda yumshaydi, ularga istalgan shakl berish mumkin, sovutilganda qotadi, qayta qizdirilganda plastik xolatga keladi.

Detallarni tiklashda reaktoplastlardan ED – 16 va ED – 20 epoksil smolalar keng qo'llanadi. Ular och sariq rangli qovushoq suyuqlikdan iborat. Ularni zarur fizik – mexanik xossalari oshirish uchun po'lat yoki cho'yan kukunlari, alyuminiy upasi, talk, asbest va grafit kukunlari qo'shiladi. Termoplastlardan polietilenlar, polistrollar, poliamidlar va ftoroplastlar ishlataladi. Bu ashyolar metallar bilan yopiladi, yetarli darajada mustaxkam, yejilishna chidamli va sanoatda donador shaklda ishlab chiqiladi.

Epoksidli smola yordamida korpus detallaridagi darzlar, yorik, teshilgan va boshqa mexanik shkastlangan joylar ta'mirlanadi. SHuningdek podshipniklar o'tkaziladigan sirtlar tiklanadi. Ish bajarish oldidan epoksidli pasta tayyorlanadi. Buning uchun epoksidli smola 50 – 60 gradusgacha qizdiriladi, platfikator qo'shilib yaxshilab aralashtiriladi va tayyor bo'lgan pastaga zarur bo'lgan miqdorda to'ldirgichlar qo'shiladi. Olingan tarkib uy xaroratigacha sovutiladi. Epoksid smolani ishlatishdan 30 – 40 minut oldin, unga qotirgich qo'shiladi. Korpus detallaridagi darzlarni yamashdan oldin, bu sirtlar tayyorlanadi. Buning uchun darzning ikki qirrasi 90 – 120 gradus burchak xosil qilib yo'niladi. Darzning oxirlarida teshiklar parmalanadi. Qirralar oksidlardan tozalanadi. Atseton va benzin kabilar yordamida yog'dan tozalanadi. Parmalangan teshiklar asbest tiqinlar yordamida berkitilib va kapgirsimon asbob yordamida chokka ikki qavat epoksid smola surtiladi. Birinchi bo'lib yupqa epoksid qatlami surtiladi. Ikkinci qatlam bilan esa choc butunlay yopiladi va uni ikki cheti 5 – 10 mm ga kengroq bo'ladi. Yamalgan detal 60 – 70 gradus xaroratda 4-5 soat davomida ko'rtildi. Yelimlashdan oldin detallar sirti yaxshilab kirdan tozalanadi va eritgichlar yordamida yog'sizlantiriladi, xamda biroz gadir – budir qilinadi. SHundan keyin yelimlab yopishtiriladigan sirtlarga qalinligi 0,1 mm qilib 2-3 qatlam yelim surtiladi. Yelimalar tarkibida epoksiddan tashqari bug'lanuvchan eritgichlar borligi sababli xar bir qatlam surtilgandan so'ng ularni tortib olish qulay bo'ladi. Detal korpusidagi darzlanı epoksid smola bilan ta'mirlashda darzning atrofi shilish – siliklash mashinasida yoki jilvir kogoz yordamida tozalanadi va darz yuqoriga karatilib gorizontal joylashtirilib, jarayon amalga oshiriladi. Ta'mirlash korxonalarida plastmasani kayta ishslashning va ularni ta'mirlashda qo'llashning quyidagi usullaridan foydalaniladi.

- 1.Bosim ostida quyish.
- 2.Taxtakachlovchi shakl berish.
- 3.Markazdan kochirma usulda quyish.
- 4.Metal buyumlarga yupqa quyish yoki surtish.
- 5.Detallarni kavsharlab tiklash.

Bu usulda birikmalarning mustaxkamligi va sifati kavsharlash usulini tug'ri tanlashga, bajarish tartibiga, detallar sirtini tayyorlashga, biriktiriladigan detallar orasidagi tirqishlarning kattaligiga, kavshar va flyusdan to'g'ri foydalanishga bog'lik. Kavsharanadigan sirtlar tozalangandan keyin bir biriga moslanadi, 3 – 4 barobar kattalikda ochiladi. Asosan yumshoq va kattik kavsharlar ishlataladi. Yumshoq

kavsharlar 300 gradusgacha. Kattik kavsharlash esa 450 gradusgacha qizdirilib bajariladi. Yuqoridagi usullar bilan ta'mirlangan detallar maxsus moslamalar yordamida silliqlanadi va zarur bo'lsa puxtalanadi.

Detallarni tiklashda qo'llanadigan ilg'or texnologiyalar.

So'nggi yillarda avtomobilarning detallarini ta'mirlash qilishda sintetik materiallar ko'p ishlatilmoqda. Sintetik materiallar ishlatilganda mehnat unumi oshadi, detallar ta'mirlashiga ketadigan mehnat va ta'mirlashning tannarxi pasayadi. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, sintetik materiallar ishqalanish koeffitsientining pastligi, yaxshi ishlovdan o'tuvchanligi va yeyilishga yuqori darajada chidamliligi kabi ko'rsatkichlari tufayli ularni qimmatbaho rangdor metallar va qorishmalar o'rniga ishlatish sohalari borgan sari kengaymokda.

1-gruppa turli kompozitsiyadagi (ED-5 va ED-6 epoksid smolalari) termoreaktiv plastmassalar kiradi, Ulardan quzovlarning metall qoplamlaridagi pachoq joylarni tekislashda ishlatiladigan har-xil pastalar tayyorlashda, korpus detallaridagi yoriqlarni berkitish uchun ishlatiladigan yelim kompozitsiyadir,

2-gruppa turli detallar yasash va ularning ishlash imkoniyatini tiklashda ishlatiladigan plastmassalar kiradi. Bo'lar jumlasiga(kapron), P-68, AK-7 va boshqalar kiradi. Termoreaktiv plastmassalardan ED-5 va ED-6 epoksid smolalari ta'mirlash qilishda eng ko'p ishlatiladi. Smola och-jigar rang tusli, kovushok modda bo'lib, turli kompozitsiyalarda asosiy bog'lovchi modda vazifasini o'taydi. Smolaning suyuqq xolatdan suyuqlanmaydigan xolatga o'tishi uchun unga qotiruvchi moddalar ko'shiladi.

Ta'mirlash ishlarda termoplastlardan poliamid smolalari ishlatiladi, Poliamidlar yaxshi antifriktsion materiallar bo'lib, har-xil podshipniklar uchun vtulkalar tayyorlashga ketadi, rangli metallar va qotishmalar o'rniga ishlatiladi.

Avtomobilarni ta'mirlash qilishda korpus detallaridagi yoriqlarni berkitish va korpus detallaridagi dumalash podshipniklari bor tutashmalarning va sirpanish podshipniklarning ishlash imkoniyatini tiklash, shuningdek quzovlardagi yoriqlarni berkitish va ezilgan joylarni tekislash ishlarida sintetik materiallar keng ko'lamma ishlatiladi. Korpus detallaridagi darzlarni berkitish va teshiklarni tiklashda epoksid smolalar asosida tayyorlangan yelimli kompozitsiyalar ishlatiladi.

Epoksid smola asosida tayyorlangan yelimli kompozitsiya bilan boshqa detallardagi: tishlashish muftasi karteri, uzatmalar qutisi, reduktorlar, suv va moy nasoslari, tishlashish muftasi karteri va uzatmalar qutisinig qopqoqlaridagi darzlarni ham berkitish mumkin.

Vkladishlarning ishlash imkoniyati koprolaktam yordamida ikki usul bilan: bosim ostida qo'yish va purkash usullari bilan tiklanishi mumkin.

Detallarning ishlash imkoniyatini tiklashda sintetik materiallardan ham keng ko'lamma foydalilanadi.

Elim yordamida metall, friktsion materiallar, plastmassalar, shisha va boshqalarni turli kompozitsiyalarda birlashtirish mumkin. Bunda hosil bo'ladigan birikma germetik, surkov joylari va benzin ta'siriga chidamlili bo'ladi.

Elimlangan birikmalarni kamchilliklari jumlasiga issiqqa chidamliligining pastligi bir detal bilan ikkinchi detalning yopishish xususiyati, jism molekulalarining tortishish ta'siri kiradi. SHuning uchun, yelim tanlashda yelimlanayotgan detallarning materialini, tutashuv detallari ishlaydigan temperatura sharoitini, yelimlangan

birikmaga tushadigan quch xarakterini, yonilg'i, moy va nam ta'sirini hisobga olish zarur

Detallarni tiklashda reaktoplastlardan ED – 16 va ED – 20 epoksil smolalar keng qo'llanadi. Ular och sariq rangli kovushoq suyuqlikdan iborat. Ularni zarur fizik – mexanik xossalarini oshirish uchun po'lat yoki cho'yan kukunlari, alyuminiy upasi, talk, asbest va grafit kukunlari qo'shiladi. Termoplastlardan polietilenlar, polistrollar, poliamidlar va ftoroplastlar ishlataladi. Bu ashyolar metallar bilan yopiladi, yetarli darajada mustaxkam, yeyilishna chidamli va sanoatda donador shaklda ishlab chiqiladi.

Nazorat uchun savollar

1. Termoplastlarni qo'llanish sohalari.
2. Epoksidlarni ishlatalishi.
3. Detallarning ishlash imkoniyatini tiklashda sintetik materiallarning ahamiyati.

8-MAVZU: TRANSPORT VOSITA DETALLARINI TIKLASHDAGI TEXNOLOGIK JARAYONLARNI LOYIHALASH

Reja:

1. Rezbali birikmalarni ta'mirlash.
2. SHlitsli va shponkali birikmalarni ta'mirlash.
3. SHesternyalarni ta'mirlash.

Tayanch iboralar: *parmalash, shlitsalar, parchinlash, botirish yo'li bilan tiklash*

Rezbali birikmalarni ta'mirlash.

Korpus va boshqa cho'yan detallar teshiklaridagi yeyilgan (brak qilingan) rezba katta o'lchamli yangi rezba qirqib, qo'shimcha detal qo'yib va yangi joyda rezba qirqib tiklanadi.

Po'lat detallarda yeyilgan rezbali teshiklar, bundan tashqari, elektr payvandlash va nominal o'lchamli rezba qirqish mashinalarida foydalaniladi. Val va o'qlardagi sirtqi rezba kichik o'lchamli rezba qirqish, shuningdek suyuqlantirib qoplash va normal o'lchamli rezba qirqish bilan tiklanadi.

Kattalashtirilgan o'lchamga moslab tiklash. Yeyilgan rezbali teshik parmalash stanogida yoki elektr drel bilan navbatdagi o'lchamda parmalab kengaytiriladi, keyingi yangi rezba qirqiladi. Tiklashning oddiyligi va ishonchliliga qaramay bu usul har vaqt teshiklarini parmalab kengaytirish va katta o'lchamli bolni ishlatish talab ilinadi. Natijada detallarning o'zaro almashinuvchanligi buziladi va navbatdagi ta'mirlash qiyinlashadi.

Qo'shimcha detal qo'yib ta'mirlash.. Yeyilgan rezbali teshik parmalab kengaytiriladi, unda oldinda tayyorlangan probka uchun chala (ikkita birinchi metchik bilan) qirqiladi. Probka maxsus kalit yordamida teshikka tiralguncha burab kirgio'iladi, probkaning o'tish qismi kesiladi va detal tekisligi bilan bir xil sathda tozalanadi. Burab kirgizilgan probka diametri 3 mm va uzunligi kamida 10 mm bo'lgan yassi shtift bilan mahkamlanadi arobkani unga BF-2 tipidagi yelim surkab yoki epoksidli asos bilan mahkamlash mumkin. O'rmatilgan probkada tutash detal yoki yaxshisi konduktor bo'yicha teshik parmalab, normal o'lchamli rezba qirqiladi. rezba qirqilgandan keyin probka devorining qalinligi kamida 4 mm bo'lishi kerak.

Yangi joyda rezba qirqib tiklash shundan iboratki, bunda agar detal konstruktsiyasi yo'l qo'ysa, yeyilgan rezbali teshik yonidan yangi teshik parmalab, normal o'lchamli rezba qirqiladi. Bu usul traktor va avtomobillarni ta'mirlash qilishda keng qo'llaniladi. Avtomobillar g'ildiraklari gupchagidagi yarim o'qni mahkamlash shpilkasiga mo'ljallangan rezbalar va boshqa detallardagi rezbalar ana shu yo'l bilan tiklanadi. Yangi teshiklar parmalashda tutash detal yoki konduktorli maxsus moslamalardan foydalaniladi.

Kichraygan o'lchamga moslab tiklash. Val (o'q) dagi yeyilgan rezba yo'nalib, kichik diametrli yangi rezba qirqiladi va shunga moslab yangi gayka yasaladi. Bu usul ichki rezbani tiklashdagi kabi o'zaro almashuvchanlikni buzadi va bundan tashqari, diametri kichrayishi bilan rezbali birikmaning mustahkamligi kamayadi. SHu sababli bir rezbaning o'zini ko'pi bilan bir marta shu usulni qo'llab tiklash tavsiya etiladi.

Suyuqlantirib qoplab tiklash. Bu usul bilan val (o'q) dagi kichraygan o'lchamni yoki nominal o'lchamni tiklagan ma'qul, 40 sm dan kichik diametrli rezba sovitish suyuqligi ishlatilmay 1,2...1,6 mm diametrli Np-30 simini ishlatib vibroyoy vositasida suyuqlantirib qoplanadi yoki shu simni ishlatib karbonat angidrid muhitida avtomatik suyuqlantirib qoplanadi. Yeyilgan rezba bir o'tishda va detal bir marta aylanganda suyuqlantirib qoplashni ta'minlaydigan qukon hamda tebratkichdan foydalangan holda plazmaviy oqim bilan muvaffaqiyatli suyuqlantirib qoplanadi. Qoplash oldidan shikastlangan rezba yaltiraguncha po'lat cho'tka bilan tozalanadi yoki yo'naladi. Suyuqlantirib qoplangach detal yo'nilib, nominal o'lchamda rezba qirqiladi.

40 mm dan ortiq diametrli vallardagi rezba flyus qatlami ostida yoki plazmaviy oqim vositasida suyuqlantirib qoplab tiklanadi.

Shlitsli va shponkali birikmalarni ta'mirlash.

Qalinligi jihatidan yeyilgan shlitslar (sirtqi) dastaki yoki avtomatik suyuqlantirib qoplanadi, shuningdek yeyilgan shlitsli qismi odatda payvandlanib biriktirilladigan yangi qism bilan almashtiriladi. 50 mm dan kichik diametrli vallarning shlitsli ariqchalari payvandlanib, nominal o'lchamli shlitslar qirqiladi. Ariqchalarni dastaki yoki vibroyoy vositasida suyuqlantirib qoplab payvandlashda vallar tob tashlamasligi uchun valiklar shlitslar bo'y lab diametal qarama-qarshi tomondangalma-galdan shlitsli ariqchalarga qo'yiladi. Dastaki suyuqlantirib qoplashda sifatli qoplamlari OZN-300U, OZN-350U va boshqa E42A va E46A tipidagi elektrodlar, vibroyoy yordamida suyuqlantirib qoplashda Np-30 simi va sovitish suyuqligi ishlatiladi.

Shesternyalarni ta'mirlash.

Tishlar yeyilganda yoki yaroqsiz holatga kelguncha shikastlanganda shesternyalar nisbatan kam tiklanadi. Tishlarni tiklashjarayoni juda murakkab bo'lib, faqat yirik ixtisoslashtirilgan korxonalarda qo'llaniladi. Ba'zi traktor va avtomobillar transmissiyalaridagi gupchaklarga parchin mixlar bilan mahkamlangan tishli ayrim shesternyalar gardish shaklida yasalgan. Ishlatish jarayonida gardishlarning tishlari yeyilib, parchin mixlar bo'shashadi. Bunday shesternyalar almashtirilib yoki gardishlar parchinlab tiklanadi. Qo'zg'aluvchan shesternyalarda almashlab o'tqazish vilkasiga mo'ljallangan halqa ariqchalar yeyiladi.

Shesternya tishlarini tiklash.

Tishlari yeyilgan yoki shikastlangan shesternyalar gaz yoki elektr yoy yordamida suyuqlantirib qoplab, botirish yo'li bilan va detal qismlarini almashtirib tiklanadi.

Suyuqlantirib tiklash. Tishlarni suyuqlantirib qoplashda termiq ishlov bermay suyuqlantirib qoplangan qatlamning yuqori mustahkamligini ta'minlovchi elektrodlar ishlatiladi. Tishlarni suyuqlantirib qoplash ko'pda qoniqarli natijalar bermasligi sababli u ayrim hollarda ishlatiladi va ko'pincha toretslari bo'ylab yeyilgan tishlar suyuqlantirib qoplanadi.

Botirish yo'li bilan tiklash. Kichik shesternyalar gardishida zarur metall zapas qoldirib, botirish yo'li bilan tiklanadi. Shesternya neytral muhitda (ishlatilgan karbyurizatorda yoki tuz vannasida) 900...950⁰S temperaturagacha qizdiriladi va press yoki to'qmoq ostida maxsus matriksalar hamda puanson yordamida bir yoki ikki tomondan sirtqi diametrini kattalashtirib halqa ariqchalar botirish yo'li bilan hosil qilinadi. Botirilgandan so'ng detal qumda sovitiladi va so'ngra unga mexanik hamda termiq ishlov beriladi. Teshiklar yo'nib hosil qilinib, shesternya toretsi qirqiladi, tsilindrrik sirt yo'niladi, tishlar qirqiladi, ularga yangi shesternya kabi termiq ishlov beriladi.

Detal qismini almashtirish. SHesternya bloklari va ikki-uch gardishli qo'zg'aluvchi shesternyalar ana shu usulda tiklanadi. Gardishlardan biri yaroqsizga chiqariladi, qolganlari esa yaxshi holatda bo'ladi.

Eyilgan gardish elektr uchqun bilan ishlov berilib, trubali asbob-eletrod yordamida ketkaziladi yoki yumshatilib, tish bo'yi h dan 2...2,5 marta katta bo'lgan yangi gardish qalinligini hosil qilish imkonini beruvchi zarur D o'lchamgacha yo'naladi. Presslab kiritilgan nardish ikki-uchta vint bilan stoporlab payvandlanadi.

Shesternya gardishlarini almashtirish va parchin mix bilan qayta parchinlash. Eyilgan tishli gardishlarning parchin mixlari qirqib tushiriladi, gardishlar esa chiqarib olinib, yangisiga almashtiriladi. Tishlar bir tomonlama yeyilganda simmetrik gardishlar 180⁰ ga burilib, tishlari yeyilmagan tomoni bilan ishlash uchun gupchakka mahkamlanadi. Ularning toretslaridagi qo'zg'aluvchan shesternyani qo'shish tomonidan faska qilinadi. Presslab kiritishni osonlashtirish uchun gardishlar suvdan yoki yaxshisi moyda 95...100⁰S temperaturagacha isitiladi. Presslab kiritishda ariqchalarni gardish va gupchakdagi parchin mixga kamida 0,1 mm aniqlikda to'g'ri keltirishga erishiladi. Agar tor gardishlarni gupchakka mahkamlashda parchin mix uzunligining uning diametriga nisbatiga ko'pi bilan 4 ga teng bo'lishiga erishilsa, unda parchinni sovuq xolatda parchinlagan ma'qul.

Nazorat uchun savollar:

1. Kattalashtirilgan o'lchamga moslab tiklash usuli qanday amalga oshiriladi?
2. Qo'shimcha detal qo'yib ta'mirlash qanday amalga oshiriladi?
3. Suyuqlantirib qoplab tiklash qaysi detallarda ishlatiladi?
4. Shlitsali birikmalarni tiklash jarayonini tavsiflab bering.

7-SEMESTR UCHUN

1-ma'ruza

Transport vositalari detaliarini payvandlash usulida ta'mirlash

Reja

1. Payvandlash turlari
2. Detallarni gaz alangasida payvandlasb yo'li bilan ta'mirlash
3. Detallarni elektr yoyi vositasida payvandlash

Payvandlash turlari

Qattiq metailardan yasalgan detallami mahalfiy eritish yoki plastik deformatsiya natijasida ularning atomlari orasida hosil bo'lgan bog'lanish kuchlaridan foydalanish yo'li bilan ajralmas birikma hosil qilish jarayoni *payvandlash* deyiladi. Binobarin, payvandlash, asosan, ikki (urga; material qismlarini erish haroratigacha mahalliy qizdirish yo'li bilan eritib payvandlashga va payvandlanadigan detaliarni erish haroratidan pastroq haroratga qizdirib, tashqi kuch ta'siri ostida siqish natijasida payvand choki hosii qilishga (bosim ostida payvandlashga) bo'linadi. Eritib qoplash payvandlashning bir turi bo'lib, unda detaf yuzasi eritilgan metall yoki qotishma bilan qoplanadi.

Ta'mirlash korxonalarida detallami ta'mirlashda payvandlashning qo'Ida bajariladigan va mexanizatstyalashgan (avtomatik yarim avtomatik) turlari qo'llaniladi. Qo'Ida bajariladigan payvandlashga gaz, elektr yoki argon yoyi vositasida payvandtashlar kiradl. Mexanizatsiyalashgan payvandtash usullari flyus qatlami ostida, karboiat angidrid muhttida, suv bug'i muhitida payvandlashni, plazma-yoyli, tebranma yoyli va ishqalanish bilan payvandlashni o'z ichiga oladi.

Ish utiumining nisbatan pastligi va payvand sifatining payvandchi malakasiga uzviy bog'liqligi, detaliarni payvandiash usulida ta'mirlash jarayonini keng mexanizatsiyalashni taqozo qiladi.

Agar elektrod simini lektr yoyi hosil bo'ladigan oraliqqa uzatish, ta'mirlanadigan detain! harakatlantirish ham mexanizatsiyafashgan bo'lsa, bunday payvandlashni *avtomatlashgan payvandiash* deyjiadi. *Yarim avtomatlashgan payvandlashda*, odalda, payvandiash jarayoni qisman mexanizatsiyalashtiriladi. Bunda lektrod simini elektr yoyi hosil bo'ladigan oraliqqa uzatishgina mexanizatsiyalashgan bo'lib, elektr yoyini ta'mirlanayotgan detalga nisbatan yoki, aksincha detalni elektr yoyiga nisbatan harakatlantirish qo'lda bajariladi.

Payvandiash rurlaridan ayrimlarini va ulardan foydalanish sohalarini ko'rib chiqamiz,

Gaz yordamida payvandlashda detai qismini va biriktiruvchi materialni eritish uchun yonuvchi gazning texnik kisiorod bilan aralashmasi yonishi tufayli ajralib chiqqan issiqlik nergiyasi qo'Haniladi. Yonuvchi gaz sifatida atsetilen, metan, propanlardan foydalanish mumkin. Gaz yordamida payvandiash, asosan, kam uglerod.li po'latlardan yasalgan detallarni, qalinJigi 2 mm gaiia bo'lgan iegirlangan po'latlarni. cho'yandan yasalgan detallarni, rangli mlallarni va qattiq qotishmalarni eritib qoplashda qo'Haniladi.

Elektr yoyi yordamida payvandlashda material qismini Eeritish uchun yuqori haroratga ega bo'lgan (7000° gacha) elektr yoyning issiqligidaii foydalaniladi. Elektr yoyi vositasida payvandiash po'latdan, murakkab shaklga ega bo'lgan cho'yandan, alyuminiy qotishmaiaridan yasalgan detallarni payvandiash va suyuqlantirib qoplashda qo'Haniladi.

Detailarni flyus ostida avlomatlashgan va yarim avtomatlashgan holda payvandiash (eritib qoplash) ilg'or usullardan hisoblanadi va detallarni ta'mirlash texnologiyasida keng qo'llaniadi. Bu turdag'i payvandiash fly us qatlami ostida amalga oshiriladi, ya'ni efektr yoyi rigan shlak bilan cheklangan muhitda yonadi, bu esa payvand choklarini havo ta'siridan himoya qiladi. Mazkur usul po'latdan, rangli metallardan yasalgan detallarni payvflndlashda va eritib qoplashda qo'llaniladi. f-lyus

qatlami oslida payvandlashning iloji bo‘lmasa yoki uni bajarish juda qimmatga tushsa, payvand fihokni havoning ta’stridan himoya qilish uchun argon, karbonat angidrid, suv bug'i va boshqa gazlar ishlataladi. Ishlatiladigan gazlarning turi esa ta’mirlanadigan detallaming materialiga bog’liq. Masalan, argon gazi muhitida payvandiash rangli metatlarni, karbonat angidrid gazi muhitida payvandiash va eritib qoplash uglerodli va yupqa po‘la’t listlardan yasalgan detallarni, suv bug'i muhitida payvandiash po‘lat va cho‘yan detallarni ta’mirlashia qo‘Haniladi.

Plazma-yoy vositasida payvandiash (eritib qoplash) elektr yoyi plazmasining issiqligidan tbydalanishga asoslangan. Bu usul, asosan, qattiq qotishmalardan yasalgan detallarni ta’mirlashda ishlataladi.

Tebranma yoy vostiasida suyuqlantirib qoplash flyus va himoya gazlari yordamida avtomatik eritib qoplashning bir turi hisoblanadi. Bunday eritib qopish usuli elektr yordamida sekundiga 50...110 tebranish chastotasida amalga oshiriladi. Bu usul uglerodli va kam uglerodli po‘lat va cho‘ylami suyullirib qoplashda qo‘llaniladi.

Kontaktli payvandiash detaldan elektr toki o‘tkazilganda uning elektrod bilan tutashuv sohasida issiqlik ajralib chiqishi hisobiga amalga oshiriladi. Bu iftuldan yupqa dvorli va rangli metallardan yasalgan detallarni payvandlashda foydalaniladi.



Ishqalanish nalijasida payvandlashda detallaming payvandlanadigan sirtlarini bir-biriga ishqalash natijasida hosil bo‘lgan issiqlikdan foydalaniladi. Payvandlashning bu turi po‘lat va rangli metallardan yasalgan sterjentarni payvandiash uchun qo‘llaniladi.

Detallarni ta’mirlashda ko‘proq qo‘lianiladigan payvandiash usullarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Detallarni gaz alangasida payvandlasb yo‘li bilan ta’mirlash

Gaz alangasida payvandlashda metallni eritish gazlarning yoki suyuq yonilg'i bug'larining kislород vositasida yonishi tutayli ajralib chiqqan issiqlik hisobiga amalga oshiriladi. Detallarni ta’mirlash amaliyotida gaz yordamida payvandlashning asosan, atsetilen-kislород alangasi yordamida payvandiash usuli qo‘llaniladi.

Alsetilen generatori deb nomlangan maxsus apparatda kalsiy karbidi suv bilan reaksiyaga kirishib, atsetiln hosil bo‘ladi:



1.1-rasm. Atsetilen-kislород alangasi yordamida payvandlashda alanganing tuzilishi va haroraiining o‘zgansh sxemasi:

1-alanganing yadrosi: 2 alanganing payvandish sohasi; 3~alanga mashalasi

Atsetilen olishda 1 kg CaC₂ uchun 0,56 1 suv darkor. Atsetilen 400...500°S gacha tez qizitilganda va bosimi 0,15 MPa dan oshganda portlashini hisobga olib, undan foydalanishda kislorod ballonlari singari ballonlar keyingi vaqtarda ko‘proq ishlatilmoqda.

Atsetilen shlang orqali maxsus payvandlash gorelkasiga yuboriladi, u yerda ikkinchi shlangdan yuborilgan kislorod bilan aralashadi. Hosil bo‘igan aralashma yondirilib, gaz (atsetilen-kislorod) alangasi hosil qiladi. Atsetilen-kislorod alangasi uch turga, ya’ni normal, tiklovchi va oksidlovchi alangalarga bo‘linadi.


Normal alangada kislorodning atselilenga hajm bo‘yicha nisbati O₂/C₂H₂=1...1,2 ga teng.

Tiklovchi alanga atsetilenning ko‘proqiigi bilan xarakterlanadi. Bunda O₂/C₂H₂=0,8...1,1.

Oksidlovchi alanga kislorodning normadan ko‘proqligi bilan xarakterlanadi, bunda O₂/C₂H₂=1,3...1,5.


Tiklovchi alanga bilan payvandlash metallning qattiqligi va mo‘rtligi oshishiga olib keladi. Undan (am uglerodli po‘latdan yasalgan delailarni payvandlashda va qattiq qotishmaJar bilan suyuqlantirib qoplashda foydalaniladi).

10.1-rasnida atsetilen-kislorod alangasi yordainida payvandlashda alanganing tuzilishi va haroratirting o‘zgarishi kellarilgau. Normal alanga uch sohaga bo‘linadi. Birinchi soha alanganing yadrosi deyiladi va u atsetilen bilan kislorod aralashmasidan iborat bo‘lib, u yerda atsetilen yuqori harorat ta’sirida uglerod va vodorodga parchalanadi:



Mazkur soha ko‘zni qamashtiradigan oq rangda bo‘lib, harorati 1200°S ni tashkil qiladi. Alangadagi bu sohaning yorug’ bo‘lishi unda yuqori haroratgacha qizigan uglerod zarrachalarining borligidadir.

Ikkinci soha, odatda, payvandlash sohasi deyilib, bunda alanga yadrosidagi uglerod gorelkadan chiqqan kislorod hisobiga yonadi:



Bu sohaning o‘rta qismida alanganing harorati o‘zining maksimumiga (3150° gacha) yetadi. Bu soha rangstz bo‘ladi.

Alanganing uchinchi sohasida birinchi va ikkinchi soha mahsulotlari havo kislorodi yordamida yonadi:



Uchinchi soha sarg’ish qizil rangda bo‘lib, alanga mash’alasini tashkil qiladi.

Gaz alanganing uchinchi sohasida payvandlashda kislorod maxsus ballonlarda 15 MPa bosim ostida saqlanadi, bunday ballonlar ko‘k rangga bo‘yaladi. Kislrorod bosimini 0,3...0,4 MPa gacha pasaytirish uchun teskari ta’sirli reduktorlardan foydalaniladi.

Gaz alanganing uchinchi sohasida payvand simining materiali va flyuslar payvand I anadigan buyum materialiga bog’liq holda tanlanadi. Kam ugierodli po‘latdan yasalgan detallarni payvandlashda kam legirlangan, xromli payvand simi keng qo‘llanifadi. Kam uglerodli po‘latlarni payvandlash, odatda Св-08А ва Св-08ГА srmulari yordamida amalga oshiriladi. Ko‘p uglerodli va legirlangan po‘latlarni payvandlash hamda suyuqfantirib qoplangan choklarning qattiqligi yuqori bo‘lishi

uchun CB-08ГС, CB-12ГС, CB-18ГСА simlar hamda fljoislar qo'llaniladi. Flyus sifatida kuydirilgan tanakor, kremniy va borat kislotasidan foydalaniladi.

Po'latning tarkibi payvandlash jarayoniga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Agar detal po'latidagi uglerod miqdori 0,2...0,3% dan ortiq bo'lsa, uning payvandlanish xususiyati yomonlashadi. Uglerod miqdorining ko'pligi payvandlashda gaz ajralib chiqishiga va metall donachalarining kattalashuviga sabab bo'ladi. Marganes detalining payvandlanish xususiyatiga deyarli ta'sir qilmagani holda payvandlash unumdorligini oshiradi. Odalda, kani uglerodli po'latlarni payvandlashda ishlatiladigan simlarning tarkibida marganesning miqdori 0,8...1,1% bo'ladi. Payvandlash simi tarkibidagi kremniyning oshishi silikat birikmalar ($FeO \cdot SiO_2$, $MnO \cdot SiO_2$) ning hosil bo'lishiga olib keiadi, ular detal yuzasida qiyin eriydigan vanna va qovushqoq shlakli parda hosil qiladi. Bular payvandlash vannasidan gazlarning chiqishiga xalaqil berib, payvand chokiarda gaz g'ovaklarining hosil bo'lishiga olib keiadi. Shuning uchun ham payvandlash simidagi kremniyning miqdori 0,03% dan oshmasligi kerak. Oltangiigurt po'latda erimaydigan temir oltingugurti (FeS) ni hosii qiladi. Shuning uchun oftingugurtning payvandlash simidagi miqdori 0,3—0,04% bilan chegaralangan. Fosfor metall po'latligini oshirib, payvand chokning plastiklik xususiyatini keskin pasaytiradi. Odalda, uning miqdori ko'pi bilan 0,03...0,04% bo'ladi. Nikel po'latning mustahkamligini va tebranuvchanligini oshiradi, plastikligini biroz ko'paytiradi va shuning uchun uglerodli po'latlarni payvandlashda payvand simida uning miqdori 0,2...0,3% bo'lishi kerak. Xrom-nikelli, zanglamaydigan va issiqliga chidamli po'latlarni payvandlash uchun qo'llanifadigan payvandlash simlari tarkibida nikelning miqdori 8...10% gacha yetadi. Uglerodli po'latlarni payvandlasiida ishlatiladigan payvandlash simlarida xromning miqdori 0,1...0,2% atrofida bo'ladi, Kam legirlangan xrom-molibdnli po'latlarni payvandlash uchun ishlatiladigan elektrodlarda xromning miqdori 0,8...1,1% dan yuqori bo'ladi. Xromii, xram-nikelli, zanjiamaydigan va issiqlikka chidamli po'latlami payvandlasiida ishialiladigan elektrodlaming larkibida 12...27% xrom bo'ladi. Moiibden zarbali yuklanishlarda ishlovchi po'latlarning plastikligini oshiradi, uiarning ishtov berishga moyilligi yaxshilanadi. Xroin-molibdenli po'latlarni payvandlashda payvandlash simiga 0,15...0,6% molibdn qo'shiadi.

Gaz alangasida payvandlash cho'yanda eng puxta, yuqori sifatli payvand chok hosil qiiish usuli hisoblanadi. Cho'yan detallar normal yoki tiklovchi (uglerodlovchi) alangalarda payvandlanadi, payvandlash simi sifatida diametri 4, 6, 8, 10, 12 mm ii cho'yan simlardan foydataniladi. Payvandlash vannasidagi kremniy, temir va marganes oksidlaridan xoli bo'lish uchun 56% tanakor, 22% soda va potash yoki 23% kuydirilgan tanakor, 27% natriy karbonat va 50% natriy azotkarbonati aralashmasidan iborat flyuslar ishlatiladi. Flyus payvandlash vannasiga to'kib, leklrod esa payvandlash jarayonida flyus ichiga botirib turiladi. Cho'yanni gaz alangasida payvandlashda Й62 markali jez elektrodnii, tanakor yoki 50% tanakor va 50% borat kislotali aralashmadan iborat bo'lgan flyuslami qo'llash yaxshi natija beradi.

Mis detallami payvajidlashda sifatli chok olish uchun tiklovin lementlar (masalan, fosfor) va payvandlash vannasidan metallning suyuq holda oqishini kamayliruvchi (masalan, kremniy) lementlari bo'tgan maxsus mis elekfrodlaridan foydalaniladi. Odalda, bunday maqsadda tarkibida 0,2% gacha fosfori va 0,3% gacha kremniyi bo'lgan mis sim qo'llaniladi. Bronza detallami payvandlashda tarkibi

jihatidan payvand I anadigan bronza tarkibiga yaqin bo‘lgan elektrodlar qo‘llaniladi. Mis va bronza detallar faqat normal alanga bilan payvandlanadi. Bunda flyus sifatida sof tanakor yoki tanakor (50%) va borat kislota (50%) aralashmasi ishlataladi.

Jez detallami payvandlashda payvandlash vannasida qotishmaning asosiy komponenti bo‘lmish running ko‘p bug’lanishi chokda ko‘p miqdorda govakliklar paydo bo‘lishi bilan bog’liq kamchiliklarni yuzaga klliradi. Jez detaliar. Asosan, oksidlovchi alanga bilan payvandlanadi, bunda erigan melall sirtida ruh oksidi pardasi hosil bo‘ladi, va¹ u running bug’lanishiga to‘sqinlik qiladi. Ruh oksidi pardasini bartaraf etish uchun borat kislota (35%), natriy fosfor karbonali (15%) va boshqa moddalar aralashmasidan tayyorlangan flyus ishlataladi. Flyus bug’larining zaharlilagini hisobga olgan holda payvandchi respiratorda ishlashi, uning ish joyi shamoliyatib turiladigan bo‘lishi kerak.

Alyuininiy va uning tjotishmalandan tayyorlangan detallar, odatda. Gay ning normal alangasida payvandlanadi, bunda elektrod sifatida payvand I anadigan qotishma tarkibiga mos keluvchi material qo‘llaniladi. Alyuminty oksidi pardasini bartaraf etish uchun litiyning xlorli va ftorli tuzlari, natriy, kaliy va bariylar aralashmasidan iborat bo‘tgan flyuslar ishlataladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, payvandlanadigan buyum inalerialiga bog’liq holda tarkibi turlicha bo‘lgan flyuslar ishlataladi. Ularga quyidagi lalablar qo‘yladi. Oson eruvchan, asosiy va elektrod materialiga nisbatan suyuqlanish harorati pastroq, 57etal oksidlarining erish jarayoni payvandlash vannasining qotishigacha tugashi uchun yuqori darajada reaksiyaga kirishuvchaniik xususiyatiga ega bo‘lishi; metallga ziyon ytkazmasligi; flyusdan hosil bo‘lgan shlak payvandlash vannasining ustiga osongina qalqib chiqishi uchun flyusning zichligi asosiy metal! Zichligidan pastroq bo‘lishi; alanganing yuqori harorati ta’sirida xususiyatlarining o‘zgarmasligi; erigan flyus qizigan metallning sirti bo‘yicha yaxshi tarqalishi; hosil bo‘lgan shiak metallni oksidlanish va azotlanishdan yaxshi saqlashi, melali soviganda esa chokdan yaxshi ajralishi kerak.

Sinov savollari va topshiriq

1. Payvandlashning qanday usulari mavjud?
2. Detajlarni gaz alangasida payvandlasli jarayoni qanday kechadi?
3. Detallarni elektr yoyi vositasida payvandlashning qanday turlari mavjud?
4. Payvandlash dateskari qutblilik nima?

2-ma’ruza

Uzel va mexanizmlarni komplektlash. Mashinalarni yig’ish texnologiyasi.

Reja.

1. Uzel va mexanizmlarni komplektlash.
2. Mashinalarni yig’ish texnologiyasi.
3. Detal va uzellarni muvozanatlash.
4. Detallarni dinamik muozanatlash

Uzel va mexanizmlarni komplektlash.

Ma'lumki, uzel va mexanizm detallarini o‘lchamlariga qarab xillarga ajratish hamda birikmalar bo‘yicha tanlash jarayoni detallarni komplekllash deyiladi.

Uzel va mexanizmlarni komplektiash mashinalarni sifatli ta'mirlashda muhim ahamiyatga ega. Mashinalarning agregat va uzellarini yig'ishda har xil rusmdagi detallarning borligi ta'mirlashdagi komplektlashning o'ziga xos xususiyatidir. Bunda detallar yaroqli, ta'mirlangan yoki ta'mirlash korxonasida yasalib, ehtiyoq qismlar sifatida olingan naminal yoki ta'mir o'lchamli yangi detallar guruhiga bo'linadi. Bunday holat mashinaning uzel va agregatlarini yig'ishda birikmada katta tirkish va taranglik hosil bo'lishiga olib keiishi mumkin, bu esa ta'mirlash sifatini keskin pasaytiradi. Shuning uchun kerakli bo'lgan o'rnatishni ta'minlash va texnik shartlar bo'yicha birikma detallarida joiz tirkishlar hosil qilish uchun mazkur detallar har xil usullar bilan komplektlanadi. Birikadigan detallar asosan oddiy va aralash usullar bilan komplektlanadi.

Oddiy usulda komplektlashda agregatning asos detaliga, masalan, silindrlar blokiga bir qancha porshnlardan shundaylari tanlanadiki, ulaming diametrleri bu muhim birikmada normal tirkishlar hosil qilsin. Aytaylik, motor silindrlarining nominal diametri 101,56-101,62 mm ga teng, porshenlarining nominal diametri esa 101,48-101,54 mm. Motor ravon ishlashi uchun silindr va porshen orasidagi nominal tirkish 0,08-0,10 mm oraliqda bo'lishi kerak.

Oddiy tanlash usulining kamchiliklarini detallami selektiv tanlash usulida bartaraf qilish mumkin. Bu usulda asos detallar. masalan, silindrlar bloki silindrlarining diametri bo'yicha bir nechta guruhlarga (masalan. A, B, D) bo'linadi. $(101,62 - 101,56) : 3 = 0,02 \text{ mm}$.

Porshenning nominal o'lchami ham xuddi shunday guruhlarga bo'linadi:
 $(101,54 - 101,48) : 3 = 0,06 : 3 = 0,02 \text{ mm}$.

Silindr va porshenlar o'lchamlari bo'yicha guruhlarga bo'lingandan so'ng ularni yig'ish faqat bir xil turdag'i guruhlar bo'yicha amalga oshiriladi (6-jadvai).

6-jadval

Porshenni silindr bo'yicha tanlash

| Silindrning diametri | Silindrning guruhlar bo'yicha diametri | Guruhnin g belgisi | Porshennin g nominal diametri | Porshenning guruhlar bo'yicha diametri | Guruhnning belgisi |
|----------------------|--|--------------------|-------------------------------|--|--------------------|
| 101.62 101.56 | 101.62 | A | 101.54 | 101.54 | A |
| | 101.60 | | 101.48 | 101.52 | |
| | 101.60 | B | | 101.52 | B |
| | 101.58 | | | 101.50 | |
| | 121.58 | D | | 101.50 | D |
| | 101.56 | | | 101.48 | |

Haqiqatan ham, porshen silindr bilan A, B, D guruhlarda yig'ilganda 0,06 dan 0,10 mm gacha ($101,62 - 101,52 = 0,10$; $101,60 - 101,54 = 0,06 \text{ mm}$) tirkish ta'minlanadi, ularning o'rtachasi esa 0,08 mm ni tashkil qiladi.

Selektiv usuldan foydalanilganda birikmada doimo normal tirkish hosil qilinadi. Detallami komplektlashning murakkabligi va qimmatlashuviga qaramasdan, bu usul mashina uzel va agregatlarini yuqori sifatli qilib yig'ishni ta'minlaydi.

Yuqorida keltiritgan ikki tanlash usulidagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida uchinchi usul-delallarni aralash komplektlash usuli qo'llaniladi. Bunda juda ahamiyatli detallar selektiv usulda, ahamiyati kamroq bo'lgan birikmalardagi detallar esa oddiy usulda tanlanadi.

Detallarni o'lchamlari bo'yicha tanlashdan tashqari, ayrim detallar massasi bo'yicha ham saralanishi kerak. Motor ishlayotganda krivoship-shatunli mexanizm dinamik muvozanatlashmaganligini oldini olish uchun bir dvigateiga o'rnatilgan bir to'plamdag'i porshen va shatunlaring massalan boshqa to'plamdag'i detallarning massalaridan ko'pi bilan 20 gr farq qilishi kerak. Shuning uchun ham shatiin qopqoqlari, boltlari va vkladishlari bilan yig'ilgan holdagi porshenlar massalari bo'yicha guruhlarga bo'linadi. So'ngra ular qabul qilingan shartli belgilar bilan belgilanadi va yig'ish ishlari bir xil shartli belgili guruhlar chegarasida amalga oshiriladi.

Mashinalarni yig'ish texnologiyasi

Mashinani yig'ish dganda kinematik sxemalarga, texnik shartiarga va yig'ish chizmalarida berilgan o'lcham qiymatlariga rioya qilgan holda detallardan juftlik va uzllar, uzel va detallardan agregatlar, agregat uzel va detallardan mashina hosil qilish tushuniladi.

Yig'ish jarayoni mashinalarni ta'mirlashda eng masuliyatli jarayon hisoblanadi. Ta'mirtangan detallardan mashina yig'ish jarayoni yig'ish elrmentlarining har xil tarkibga ega bo'lish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mashinalar yeyilgan, ammo ishlatish uchun yaroqli, ta'mirlangan va yangi detallar guruhlaridan yig'iladi.

Ayrim detallar ishlatish jarayonida ular doim ham dastlabki o'tchamlari va geometrik shakllarini saqlab qololmaydi. Bu esa, o'z navbatida, yig'ilgan uzelning elementlari o'zaro joyiashishida bir qancha noaniqliklar hosil bo'lishiga olib keladi. Umumiy noaniqliklar miqdorini aniqlash murakkab hisob-kitoblar va tahlillarni talab qiladi. Bunda mashina yoki agregatni yig'ishdagi texnik shartlar haqiqatan qanday bajarilishini aniqlash kerak. Buning uchun quyidagilami aniqlash lozim:

- 1) Ishlatish va ta'mirlash jarayonida detallarning qaysi o'lchamlari o'zgarishini va ularning yig'ish sifatiga qanday ta'sir qilishi;
- 2) Yig'ishda qaysi birliklar eng ko'p noaniqiiklar manbai bo'lishi;
- 3) Yig'ish jarayonida detallarning qaysi o'lchamlarini qatiy nazorat qilish va detallar joiz o'lchamlarining qiymatlarini yig'ish sifatini pasaytirmagan holda kengaytirish mumkinligini aniqlash.

Odatda, bunday masalalar mashinalarni ta'mirlash va yig'ishga oid texnik shartlarni ishlab chiquvchi ilmiy-iekshirish muassasalari tomonidan hal qilinadi.

Mashinalarni yig'ish texnologik jarayoni texnoiogik sxemani tuzishdan boshlanadi. Mazkur sxema asos (ba^a) detalning shartli tasviri va yig'ish jarayonida qatnashuvchi tegishli detallar guruhini o'z ichiga oladi. Dastlabki yig'ish bazasi sifatida shunday sirt yoki detalning geometrik o'qi tanlanadiki, bunda agregat va mashinaning, ishga layoqatlilagini ta'minlovchi detallar to'plami mazkur sirt yoki o'qqa nisbatan joylashtiriladi.

Yig'sh va yig'ish sifatini nazorat qilish texnologik jarayoni to'g'ri tuzilganda uni bajarish sharoiti eng qulay bo'lishi va yig'ish ishlarini mexanizatsiyalash, qo'l

mehnatini kamaytirish imkoniyati yaratilishi kerak. Mashinalarni yig'ish uchun turli ko'rinishdagi namunaviy texnologik jarayonlar mavjuddir.

Ta'mirlash korxonasining katta-kichikligiga qarab detallarni yig'ishning *to'liq almashinuvchanlik qisman atmashiniwchanlik va .yakka holda moslash* usullari qo'llaniladi.

Deiallarni *to'liq almashinuvchanlik* usulida yig'ishda ularning o'lchamlari juda aniq bo'lishi talab qilinadi. Bu holat ishlov berilgan yuzalar joiz o'ichamlarining chegarasini toraytrishni talab qiladi, u esa, o'z navbatida, ta'mirlash va detallarni tanlash jarayonidagi mehnat sarfini oshiradi.

Qisman almashinuvchanlik usulida yig'ish ta'mirlash xarajatlarini kamaytirish maqsadida olib boriladi. Bu usulda yo birikmaga birlashuvchi detallar, yoki kompensatorlar qo'llaniladi. Yig'ish sifati bu holda, ko'p jihatdan, yig'uvchilarining tajribasi va malakasiga bog'liq. Bunga ta'mirlashning chuqur ixtisoslashuvi natijasida erishiladi.

Kompensator shunday detalki, u yig'iladigan uzelning o'lchamlari zanjirida *to'Idiruvchi* bo'lagi bo'lib xizmat qiladi. Bunda kompensatorning o'lchamini o'zgartirish hisobiga yoki yig'iladigan uzelda uning holatini o'zgartirib, kerakli tirqish yoki taranglik tanlanadi va buning hisobiga detalning normal ishlashi uchun kerak bo'lgan aniqlikka erishiladi.

Kompensatorlar qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan bo'lishi mumkin. Qo'zg'almas kompensatorlarga misol qilib qistirmalar *to'plami*, oraliq vtulkalar, shaybalar, halqalar va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Qo'zg'aluvchan kompen-satorlarga esa moslanuvchan tirkaklar, gaykalar, boltlar va boshqalar kiradi.

Aralash usulda yig'ishda bir xil o'lchamli guruhdagi detallarni birlashtirishda shu guruhdagi eng ma'qul detallar tanlab olinadi, bunda o'lchash aniqligi yuqoriq bo'lgan o'lchov asboblaridan foydalanish talab qilinadi.

Yuqori aniqlikdagi birikmalar (masalan, dizel yoqilg'i apparatining pretcision detallari)ni yig'ishda, guruhlarga ajratishdan tashqari, birlashadigan yuzalarni o'zaro ishqalanib moslashishini ta'minlovchi qo'shimchalar tanlashni ham nazarda tutish kerak. Bunday ishlov berilgandan so'ng juftlik o'zaro almashinuvchanlikni yo'qotadi, shuning uchun ularni bir-biridan ajratmasdan yig'ish kerak.

Detallarni o'rnatiladigan joyiga yakka moslash usuli mashinaning ta'mirlangan detallari o'zaro almashinuvchanlikni yo'qotgan hollarda qo'llaniladi. Yig'ishning bunday usuli yakka ta'mirlashda va ishlab chiqarish quvvatiga nisbatan kichik bo'lgan fermerlararo ustaxonalarda qo'llaniladi.

Yig'ish jarayonini tashkil qilish shakllari. Ishlab chiqarish hajmining katta-kichikligiga, ya'ni ta'mirlash rejasiga, mehnat sarfiga va yig'iladigan mashinalarning konstruktiv xususiyatiga qarab mashinalar yig'ishni turli shakliarda tashkil qilish mumkin.

Odatda, yakka tartibda ta'mirlashda mashinani yig'ishni boshidan oxirigacha uch-to'rt yuqori malakali ishchi-chilangarlardan tuzilgan bitta brigada bajaradi. Bu brigada mashinalarni yig'ishda uchraydigan hamda uzel, agregatlar va butun mashinani sinash va moslash bilan bog'liq bo'lgan barcha ta'mirlash va yig'ish ishlarini bajaradi. Yig'ish jarayonini bunday tashkil qilish usuli konsentrangan shaklda lashkil qilish usuli deyiladi.

Bir xil turdag'i mashinalami ta'mirlovchi kalta rejali korxonalarda yig'ishni alohida jarayonlar va operatsiyalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan holda olib borish ma'qulroqdir.

Bunda uzel va agregatlarni yig'ish ixtisoslashgan alohida ish joylarida bajariladi. Yig'ilgan uzellar agregatlarni yig'ish joylariga, yig'ilgan agregatlar esa mashinalar yig'iladigan joylarga keltiriladi. Yig'ish jarayonining bunday tashkil qilinishi tabaqlashtirilgan (differensiyallangan) yig'ish shakti deyiladi. Bu holda yig'ish jarayoni alohida mayda jarayonlarga va operatsiyalarga bo'linadi, ularni bajarish esa ishlab chiqarish taktiga asosan aniq vaqt bilan belgilab qo'yiladi. Uzluksiz yig'ish tartibida ishlaydigan korxonatarda mashinalarni yig'ish jarayoni yaxshi tashkil qilingan bo'lishi uchun barcha ish postlarida bajariladigan ishlarni o'zaro muvofiqlashlirish lozim.

Yig'ish jarayoni statsionar tarzda tashkil qilinganda mashina qo'zg'almas stendda yig'iladi, unga detallar uzel va agregatlar keltirib qo'yiladi. Bunda uzel va aggregatiarni yig'ishdagi barcha operatsiyalar ketma-ket olib boriladi. Mashinalarni statsionar yig'ishda bir paytda qatnashadigan ishchilar soni, o'lchami bir ish joyida oqilona joylashtirish imkoniyati chegaralangandir.

Tabaqlashtirilgan statsionar yig'ishda uzel va agregatlarning bir qismi shu paytning o'zidayoq alohida ish joylarida yig'iladi. Bu holda mashinalarni agregal va uzellardan yig'ish ham aiohida olib boriladi, bu esa brigada tarkibidagi ishchilar sonini ko'paytirishni va yig'uvchi ishchilarning ixtisoslashuvini ta'minlaydi.

Ayrim hollarda mashinalar uzluksiz usulda yig'iladi, ammo bu jarayon ko'chmas ish joylarida amalga oshiriladi. Bunda bir vaqtning o'zida bir yo'la bir nechta mashinalar ta'mirlanadi yoki yig'iladi. Ixtisoslashgan ta'mirlovchi yoki yig'uvchi ishchilar o'zlariga biriktirilgan ishlarni har bir mashinada bajarib, ma'lum taktda mashina bir ish joyidan ikkinchisiga o'ikaziladi. Bunda ishlarni bajarish davomryligi ishlab chiqarish taktiga teng bo'lishi va ishlarni barcha ish joyiarida bir vaqtida bajarish lozim.

Yirik ta'mirlash korxonalarida yig'ishning aralash usuli-uzellar uchun differensiallangan statsionar hamda agregat va mashinalar uchun differensiallangan qo'zg'aluvchan usullar qo'llaniladi.

Qo'zg'aluvchan yig'ish usulida yig'iladigan mashina konveerda uzluksiz yoki davriy ravishda to'xtab harakallanishi mumkin. Birinchi holda bir maromda majburiy harakatlantiriladigan konveerlar ishlatiladi. Yig'ish jarayonining bir maromliliginini ta'minlash uchun har bir ishchi joyida bajariladigan ish yig'ish takti bilan juda aniq moslashishi kerak, ya'ni yig'ish texnologik jarayonini shunday ishlarga bog'lib tashlash kerakki, ularni bajarish vaqt bo'yicha muvofiqlashgan bo'lishi lozim. Ayrin hollarda esa muvofiqlash texnologik ishlar hisobiga amalga oshiriladi.

Konveerning uzluksiz harakatlanish tezligini shunday tanlab olish kerakki yig'ish taktiga teng bo'lgan vaqt oralig'ida yig'iladigan mashina bir ish joyidan ikkinchisiga ko'chib ulgursin. Bu vaqt ichida har qaysi ish joyidagi barcha ishlar bajarilgan bo'lishi kerak. Har bir ishni bajarish vaqt bilan konveerning harakatlanish vaqtini u'zaro teng bo'lganligi sababli tnehnat unumini oshirish va ishlab chiqarishga ketgan vaqtini kamaytirish mumkin.

Yig'iladigan mashinaning davriy harakatida yig'ish jarayoni konveer to'xtab turgan paytda amalga oshiriladi. Konveer markaziy yurgizish qurilmasi orqali muhim vaqt oralatib harakatga keltiriladi. Buning natijasida yig'iladigan mashinalar bir vaqtning o'zida keyingi ish joylariga ko'chadi.

Konveyer bir maromda erkin harakatlanganda mashinalar alohida stend aravachalarda yig'iladi, o'z ishini bajargan har bir ishchi ularni keyingi ish joyiga

ko‘chiradi. Bu usul ko‘pchilik ta’mirlash korxonalarida katta samaradorlik bilan qo‘llaniladi. Bunda ish joylari oralig’ida qo‘shimcha maydonlar bo‘lishi talab qilinadi va yig’ish davomiyligi ta’mirianuvchi mashina uzluksiz harakatlangandagiga nisbatan kattaroq bo‘ladi.

Detal va uzellarni muvozanatlash

Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan uzel yoki detallar (tirsakli vallar, maxovtclar, disklar, kardanli vallar, ventilyator rotorlari va hokazolar) aylanganda muvozanatlasmagan markazdan qochma kuchlar hosil bo‘ladi. Bu hodisa jismning og’irlik markazi aylanish o‘qida yotmaganda va detalning aylanish o‘qi bosh inersiya o‘qini tashkil qilmaganda sodir bo‘ladi. Birinchi shartning bajarilishi uchun detalni (uzeini) *statik muvozanatlash*, ikkala shartning bajarilishi uchun esa uni *dinamik muvozanatlash* talab qilinadi.

Detal va uzellarning muvozanatlasmaganligi o‘lchamlarning noaniqligi, detal (uzel) material zichligining hajm bo‘yicha bir xil emasligi, detal massasining aylanish o‘qiga nisbatan nosimmetrik ioyleshishi oqibatidir. Bular detalga noto‘g’ri ishlov berish va ularni noto‘g’ri yig’ish natijasida sodir bo‘lishi mumkin.

Mashinaning aylanadigan detal va uzellarining muvozanatsizligi haddan tashqari zararlidir, chunki u tebranishga, yejilishning ko‘payishiga va detallarning buzilishini tezlashtirishga olib keladi. Ta’mirlashda detal va uzellarning muvozanatlasmaganligini bartaraf etish mashina va ular agregatlarini ta’mirlash sifatini oshirishda eng ishonchli yo’llardan hisoblanadi. Muvozanatlashma-ganlikning paydo bo‘ljshini oson aniqlash mumkin. Masalan, to‘liq muvozanatlashdirilgan maxovik gardishining biror joyiga yuk mahkamlab qo‘yiisa, uning og’irlik markazi aylanish o‘qidan yuk tomonga biroz siljiydi. Bu statik muvozanatiashmaganlikka misol bo‘la oladi. Bunday maxovik aylanganda muvozanattashmagan markazdan qochma kuch (R_{mil}) hosil bo‘ladi. Uning qiymati muvozanatlasmagan massa miqdoriga, maxovikning aylanma tezligi kvadratiga proporsional ravishda ortib boradi, ya’ni


$$P_{mq} = mr\omega^2 = \frac{Qr}{R} \left(\frac{\pi n}{30} \right)^2,$$

bunda m -muvozanatlasmagan massa miqdori, kg; ω -maxovikning burchak tezligi, s⁻¹; Q -aylanayotgan detaining massasi, kg; v -erkin tushish tezlanishi, m/sh²; R -detal og’irlik markazining eksentrisiteti, m; n -aylanish chastotasi, ayl/ s.

Detalni statik muvozanatlash uchun uni ishqalanishga kam qarshilikli gorizontal prizmalarga yoki rolklarga o‘rnataladi. Muvozanatlanadigan maxovik aniq ishlov berilgan silindrsimon o‘rindiqqa o‘rnataladi. Ular o‘zaro parallel bo‘lgan ikkita gorizontal prizmalarga qo‘yiladi. Delal prizmada muvozanatlanmagan massa ta’sirida o‘z-o‘zidan burilib to‘xtaydi, bunda muvozanatlanmagan massa pastki chekka holatda bo‘ladi (2.9-rasm).

Detalni muvozanatlash uchun uning diametri bo‘yicha qarama-qarshi tomonga shu miqdordagi yuk qotirib qo‘yiladi. Bunda detal prizmada ishlatilgan burchakka burilganda u qo‘zg’almas bo‘lib qolishi kerak. Muvozanatsizlikni detal-dan metallni

o‘yib tashlash yoki qo‘sishma yuklar joylashtirish va boshqa shunga o‘xshash yo’llar bilan yo’qotish mumkin.




2.9-rasm. Detallarni statik muvozanatlash sxemasi:
1-maxovik; 2-o‘q; 3-prizmalar; 4-muvozanatlovchi yuk.

Detallarning muvozanatlanish aniqligi tekshiriladigan prizmalar (yoki roliklar) va val bo‘yinlari orasidagi ishqalanish kuchiga bog’liq. Rolik statik muvozanatlash prizmalarda muvozanatlashdagiga qaraganda aniqroq bo‘ladi.

Detallarni dinamik muvozanatlash nisbatan murakkabroqdir. Agar massasi teng bo‘lgan muvoza-natlashmagan jism Q yuki bilan statik muvozanatlashtirilsa (2.10-rasm). val aylanganda markazdan qochma F_1 va F_2 kuchlari hosil bo‘ladi. Bu kuchlardan hosil bo‘lgan moment (F) L valining o‘qining og’irlilik markazi atrofida ma’lum bir burchakka burishga harakat qiladi, ya’ni valning dinamik buzilishiga olib keladi. Buning nalijasida val va uning tayanchlarida qo‘sishma yuklanish paydo bo‘ladi, bu esa ishlayotgan agregatda (mashinada) tebranish hosil ho‘lishiga olib keladi. Bu kuchlar juftligi momentini shu valga qo‘yilgan, shu tekislikda ta’sir qiluvchi, ammo unga qarshi ta’sir qiluvchi boshqa kuchlar juftligi momenti bilan muvozanatlash mumkin.

Keltirilgan misolda aylanish o‘qidan teng masofada $m_1=m_2$ ikki massa qo‘yilishi kerak, ular val aylanganda $P_1 l$ moroentni hamda uni



2.10- rasm. Detaliarni dinamik muvozanatlash sxemasi

muvozanatlovchi va qarshi ta'sir qiluvchi F_1L momentni hosil qiladi. Detal va uzellarni dinamik muvozanatlash maxsus muvozanatlovchi stendlarda amalga oshiriladi. Detal aylanganda stendning elastik tayanchlariga markazdan qochma inersiya kuchlari va ulaming momentlari ta'siri tufayli tayanchlar tebrana boshlaydi. Tayanchlardan birortasidagi eng katta tebranish amplitudasi o'lchanib, detalga navbatma-navbat, massalari har xil bo'lgan tajriba yuklari mahkamlab qo'yiladi va mazkur tayanchning tebranishini to'xtatishga erishiladi. Shu operatsiyalar boshqa tayanchlari uchun ham bajariladi. Agar detal aylanganda uning tayanchlari tebranmasa, muvozanatlash tugagan hisoblanadi.

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni komplektlash jarayonini tushuntiring.
2. Komplektlashda qanday ko'rsatkichlarga qaraladi?
3. Mashinalar qanday usullarda yigiladi?
4. Yigish usullsini moxiyatini tushuntiring.
5. Yigilgan agregatlarni muozanatlash turlarini keltiring.
6. Muvozanatlashning turlari qanday ko'rsatkichlar boyicha tanlanadi?

3-ma'ruza


Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash.
Detallarni plastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash.

Reja.

1. Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash.
2. Detal qismini almashtirish.
3. Detallarni plastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash.

Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash.

Ta'mirlash o'lchamlari (TO') usuli. Detal tiklashning ma'nosi shundan iboratki, birlamchi mexanik ishlov berish bilan tiklashga ta'mirlash qo'shimcha ta'mirlash elementlari, detal qismlarini ta'mirlash o'lichami bo'yicha mexanik ishlov berishdan, birikuvchi ikkinchi detalni esa yangisiga yoki malum ta'mirlash o'lichami bo'yicha tiklangani bilan almashtirishdan iborat. Ta'mirlash o'lchamlari soni va qiymati avvaldan belgilanishi hisobga olinsa, o'zaro birikuvchi ikki delalni bir-biriga bog'liq bo'limgan holda yasash mumkin. Val bo'yinlari va detallarning teshiklari uchun ta'mirlash o'lchamlari qiymati va soni qanday aniqlanishini ko'rib chiqamiz.



9.1-rmm. Valning hisoblash sxemasi

Val bo'yinlari nchun ta'mirlash o'lchamlarining qiymatlari va sonini aniqlash. Ishlatilgunga qadar valning nominal diametri d_n ga teng bo'lsrn, yeyilish natijasida valning bo'yinlari kichiklashib, d ga teng bo'lib qolsin.

Valning notejis yeyilishi tufayli yeyilishning maksimal qiymati δ_{max} , minimal qiymati esa δ_{min} bo'lsin. Val bo'ynini tiklash uchun unga d_T diametr gacha x qo'yish bilan mexanik ishlov berilishi lozim. 9.2-rasmdan, ta'mirlash o'lchamming qiymalii

$$d_T = d_n (\delta_{max} + x), \quad (9.1)$$

(9.1) ifodadagi maksimal yeyilishi qiymati (δ_{max}) ni valni markazlarga o'rnatib, uning radial urishini indikator bilan o'lhash orqali aniqiash mumkin. Ammo bu usulni amalga oshirish uchun ma'lum qiyinchiliklar mavjud va ko'p vaqt sarf qilinadi. Amaliy maqsadlar uchun δ_{max} ning qiymati val bo'ynining qiymatlari bo'yicha analitik usuida aniqlanadi.

Val bo'ynining umumiyligi yeyilisli miqdori:

$$\delta_y = d_n - d_e = \delta_{max} - \delta_{min}.$$

yeyilishning notejislik koeffitsienti

$$p = \delta_{max} / \delta_y. \quad (9.2)$$


(9.2) ifodadagi δ_{max} ning qiymatini qo'ysak,

$$d_T = d_n - 2(p\delta_u + x). \quad (9.3)$$

Yeyilishdagi notejislik koeffitsientining chegaraviy qiymatlari bo'yicha quyidagi ikki xildagi yeyilish jarayoni sodir bo'iishi mumkin: tekis yeyilish va bir tomonlama yeyilish. Tekis yeyilishda umumiyligi yeyilisli miqdori quyidagicha aniqlanadi (9.3-rasm, a):

$$\delta_y = d_n - d_e = 2\delta_{max} = 2\delta_{min},$$

Yeyilishdagi notejislik koeffitsientining chegaraviy qiymatlari bo'yicha quyidagi ikki eyilish jarayoni sodir bolishi mumkin: tekis eyilish va bir tomonlama yeyilish. Tekis eyilishda umumiyligi yeyilisli miqdori quyidagicha aniqlanadi (9.3-rasm. b):



9.2-rasm. Valning yeyiish sxmasi:
a-tegis yeyilish; b-bir tomonlama yeyilish


Demak, yeyilishdagi notejislik koeffitsientinihg o'zgarish chegarasi:

$$0,5 \leq p \leq 1.$$

Ta'mirlash o'lchamlarining mumkin bo'lgan qiymatlari va sonlarini aniqlash uchun (9.3) ifodada $\gamma = 2(p\delta_y + x)$ deb belgilaymiz va uni tamirlash oralig'i deb ataymi. Aytaylik, ta'mirlash oralig'i barcha o'lchamlari uchun bir xil bo'lsin. Mumkin bo'lgan ta'mirlash o'lchamlarining sonini aniqlashda detallaming mustahkamlik shartidan foydala-niladi. Ta'miriash o'lchamlari soni quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

Detal teshiklanning ta'mirlash o'lchamlari qiymati va, sonini aniqlash. Faraz qilaylik, ishlatilgunga qadar valning nominal diametri D_n ga teng bo'lsin. yeyilish

natijasida val joylashgan teshikning diametri D_L - gacha kattalashsin (9.4-rasmga qarang). yeyilishning notekisligi natijasiga maksimal yeyilish miqdori δ_{\min} , minimal yeyilish miqdori esa δ_{\max} bo'lsin. TO' bo'yicha tiklash uchun. teshikka x qo'yim biian D_t diametrgacha mexanik ishlov berish kerak.



9.3-rasm. Teshikning tamir o'lchmini aniqlash sxemasi.

Bunda teshikning ta'mirlash o'lchami quyidagicha aniqjanadi:
u ho Ida

$$D_t = D_H + 2(p\delta_y + x).$$

bunda $0,5 \leq p \leq 1$.

Avaldagidek $2(p\delta_y + x) = \gamma$ deb belgilaymiz va uni ta'mirlash oralig'i deb ataymiz, Uning qiymati ozgarmas bo'lganda teshikning ta'mirlash o'lchamlari quyidagicha aniqlanadi:

Birinchi tamirlash o'lchami:

$$D_{T1} = D_n - \gamma.$$

Ikkinci tamirlash o'lchami:

$$D_{T2} = D_n - 2\gamma.$$

Birinchi tamirlash o'lchami:

$$D_{Tn} = D_n - n\gamma.$$

Mumkin bo'lgan ta'mirlash o'lchamlari sonini aniqlash uchun detaining mustahkainligi va ishlash sliaroitini hisobga olish krak.

Ta'mirlash o'lchamlari usuli bilan. asosan, ruzilishi murakkab. bahosi nisbatan yiqori bo'igan mashina detallari (silindrlar blokining gilzalari, motoming tirsakli va taqsimlash vallari) tiklanadi. Tirsakli vafning barlia bo'yinlart va silindr gilzalarini faqat bir xil ta'mirlash o'lchamida tiklash ushbu usulning asosiy sharti hisoblanadi. Ta'mirlash o'lbamlarining soni va qiymati avvaldan belgilanganligi hisobga olinsa, o'zaro tulashadigan ikki detaining birini ikkinchisiga bog'liq bo'lman holda yasash mumkin. Detallarning ta'mirlash o'lchami bo'yicha ta'mirlashning bunday xususiyatlari ta'mirlashda sanoat ishlab chiqarishi texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini beradi, ta'mirlash xarajatlari arzonlashadi va uning si'fati yaxshilanadi. Ta'mirlash o'lchamlari usulining kamchiliklariga detallarning o'zaro almashinuvchanlik xususiyatining torayishi (o'zaro almashinuvchanlik faqat ta'mirlash o'lchamlari chegarasidagina mumkin bo'ladi) hisoblanadi.

Qo'shimcha ta'mirlash eiemntlari usuli. Ta'mirlash korxonalaridagi amaliyotida ko'p miqdorda yeyilgan detallar tez-tez uchrab turadi va ularni nominal o'icham bo'yicha tiklashga to'g'ri kejadi, Bunday hollarda mazkur detallami qo'shimcha element qo'yish usuli bilan tiklash mumkin. Delallarni qo'shimcha elementlar usulida ta'nn'riashda yeyilgan val bo'yniga (yoki detal teshigiga) tegishli o'icham bo'yicha mexanik ishlov beriiadi, so'ngra avvaldan tayyorlab qo'yilgan vtulka presslanadi va unga val bo'ynining (yoki teshikning) nominal o'lchami bo'yicha ishlov beriiadi.

Qo'shimcha elementlar usuli, asosan, teshik yoki vallarni gilza yoki vtulkalar qo'yish yo'li bilan tiklashda qo'llaniladi. Bu usuli oddiy va ko'p tarqalgan usullardan hisoblanadi.

Qo'shimcha elementlar usulida ta'mirlashda quyidagi shartlarga rioya qilish kerak:

-detalni qo'shimcha elementlar yordamida shunday ta'mirlash kerakki, bunda ta'mirlangan detaining ko'rsatkichlari yangi detalnikiga nisbatan yomonlashmasin;

-qo'shimcha element valga yoki teshikka pressiab (taranglik bilan) o'matilishi kerak;

-qo'shimcha elementning materiali asosiy deta! materialiga mos kelishi kerak (cho'yan detallar bundan mustasno. ularda vtulka cho'yandan yoki po'iatdan bo'lishi mumkin);

-qo'shimcha element ish yuzasining qattiqligi asosiy dtal yuzasiningqattiqligi bilan bir xil bo'lishi kerak;

-qo'shimcha elementning asosiy detal bilan birikish mustahkamligi shunday bo'lishi kerakki, ish paytida u qo'zg'almas in;

-vtuikani pressiashda detallarning qiyshayishi va deformatsiyalanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Agar detallar katla yuklanish va yuqori haroratda ishlatiladigan bo'isa, qo'shimcha elementni o'rnatish tarangligi ko'proq bo'lishi lozim. Shuning uchun bunday hollarda vtuikani qoplovchi detalni qizitib yoki qoplama-digan detalni sovitib, presslash lozim.

Qo'shimcha elementlar bilan ta'mirlash usuli quyidagi afzallikkarga ega: ancha katta miqdorda yeyilgan vallar va detaHarning teshiklarini nominal o'lchamlar bo'yicha tiklash mumkinligi; tiklangan detaliar sifalining yuqoriligi.

Mazkur usulning kamchtliklariga ta'mirlashning detal konstruksiyasiga bog'liqligini, asosiy detaining mustahkamligi pasayishi. qo'shimcha elementni o'rnaiish mustahkamliginiig yana bir bor lekshirilishi. qo'shimcha elementni yasash va nominal o'lchamgacha yakunlovlii ishlov berishning talab qilinishi kiradi.

Detal qismini almashtirish usuli. Delailarni mexanik ishlov berish yo'li bilan tiklashga yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullardan tashqari, detallaming qismini almashtirib ta'mirlash usuli ham kiradi. Bu usulning ma'nosi shundan iboratki, detaining yeilgan qismi kesib tashlanadi va uning shu qismi qaytadan tayyorlanadi. So'ngra tayyorlangan qism detalining asosiy qismi bilan birlashtiriladi va zarur bo'lganda unga termik ishlov beriladi. Shunday qilib, detallarni mazkur usulda ta'mirlash texnologiyasi quyidagi operatsiyalardan iborat:


1. Detaining nuqsonii qismini qirqib tashlash va yuzani birlashtirishga tayyorlash,
2. Asobiy detalning almashtiriladigan qismini tayyorlash.
3. Almashtiriladigan qismni asosiy detal bilan birlashtirish.

4. Birikma sifatini narorat qilish.
5. Detalga yakuniy mexanik ishvov berish.


Detaining yeyilgan qismini to'liq olib tashlash va avvaldan tayyorlangan qo'shimcha detalni o'rnatish usuli detalning bir nechta ish yuzalari bo'Igan va uning bir yoki ikkinchi ish yuzasi katta miqdorda yeyilgan hollardagina qo'llaniladi. Bunda detalning almashtiriladigan qismi asosiy qism bilan rezba yordamida yoki presslangandan so'ng tutash chizig'i bo'yioha alohida nuqtalarda yoki butun bo'yicha payvandlash orqali tutashtiriladi. Bu usulning kamchiligiga tiklash texnologiyasining nisbatan murakkabligi va asosiy detal mexanik mustahkamligining pasayishi kiradi.

Detallarni plastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash

Deiallarri plastik deformatsiyalash usulida (bosim ostida) la'mirlash detal materialining plasliklik xususiyatidan foydalanishga moslangan. Metallarning plastikligi deganda, ma'lum sharoitda va kuch ta'sirida butunligi buzilmasdan qoldiq deformatsiyani qabul qila olish xusuyiyati tushuniadi.



9.4-rasm. Detallarni cho'ktirish usulida ta'miriash sxemasi



9.5-rasm. Shatunning yuqori kallagidagi bronza vtulkani cho'ktirish sxemasi

Detallarni bosim ostida ta'mirlashda deformatsiyalanadigan detaining hajmi o'zgarmaydi, ammo uning shakli hamda detal tayyorlangan metallning strukturasi va mexanik xossasi o'zgaradi. Detaillarga bosim ostida ishvov berishning quyidagi turlari mavjud: cho'ktirish, botirish, kengaytirish, toraytirish, nakatkalash va to'g'rakash. Detalni cho'klirish va botirish usulida ta'mirlash. Detaining uzunligini hisobiga uning tashqi diametri kattalashtirtsh jaiyayoni detallarni cho'ktirish sxemasi P_g kuchning tishi detalning defomatsiyalanish yo'nalishi δ bilan mos tushmaydi. Bu detallarni cho'ktirishga xos bo'Igan xususiyatdir.

9.5-rasmida shatunning yuqori kallagidagi bronza vtulkani cho'ktirish sxemasi ko'rsatiigan. Uni 1 va 2 tirkishlar yordamida detaldan chiqarib olmasdan cho'ktirish mumkin. Uzunligining qisqarishi hisobiga vtulkaning ichki diametri kichiklashadi: Vtulkaga razvyortka bilan ishvov berilgandan so'ng, u yana ishlatish uchun yaroqli holga keladi.


Vtulka uzunligining qisqarishi natijasida porshen barmog'idan vtulkaga uzatiladigan nisbiy bosim ortadi, ammo bu bosimning ko'payishi detalning keyingi ishiga deyarli ta'sir qilmaydi. Bunday usul bilan vtulkani bir marotaba ta'mirlash mumkin.

Detalning metalini cheklangan oraliqda surish hisobiga uning o'lchamini kattalashtirish jarayoni *botirish* deyiladi. 9.6-rasmida detalni botirish usulida ta'mirlash sxemasi ko'rsatilgan. Bunday ishlov berish turida ta'sir qiluvchi P_d kuchining yo'nalishi bilan talab qilinadigan deformatsiyaning yo'nalishi mos kelmaydi. Bu usul detalning ishlamaydigan qismining chegaralangan qismidagi metalini *siqib* chiqarish hisobiga, detalning o'lchamini kattalashtirishda qo'llaniladi.

Botirish usuli bilan klapanlar, vallardagi va teshiklardagi shlitsalar tiklanadi. Klapanlarni botirish usuli bilan la'mirlash yopiq shtamlarda, metalini klapanning silindrsimon qismidan konussimon ish sirti tomon siljitim natijasida amalga oshiriladi. Klapanlarni botirish usulida ta'mirlash texnologiyasi ketma-ketligi quyidagidan iborat: Klapanlarni kallagini diametri va silindrsimon qismining balandligi bo'yicha turlarga ajratish; klapan kallagini materialiga bog'liq holda elektr pechda taxminan $820 \dots 890^\circ$ gacha qizitish; klapan kallagini halqali yopiq shtampda siqib chiqarish, qizigan klapanni dastlab havoda $200 \dots 300^\circ$ gacha, so'ngra issiq qumda sovitish; klapanning radial urishini tekshirish; toplash va bo'shatish; klapanning ish yuzasini jilvirlash.

Detallarni kengaytirish. Vtulkaning ichki diametrini kengaytirish hisobiga tashqi diametrini kattalashtirish *kengaytirish* deyiladi (9.7-rasm). Bunda kengaytiruvchi kuch P_g ning yo'nalishi kerakli bo'lgan deformatsiya yo'nali-shi δ ga mos keladi.

Kengaytirish, asosan, ichi teshik detallaming o'lchamlarini saqlagan holda yoki ularning balandligini sezilarli o'zgartirmasdan tashqi o'lchamlarini kattalashtirishda qo'llaniladi. Chunonchi, sferik va konussimon proshivkalarni qo'ltab, porshen barmoqlarining ishlash imkoniyatini tiklash mumkin. Porshen barmoqlarini qizitib ham, sovuq holda ham kengaytirish mumkin.



9.6-rasm. Detallarni botirish usulida tamirlash sxemasi.

9.7-rasm. Vtulkani kengaytirish sxemasi

9.8-rasm. Vtulkani toraytirish sxemasi

Porshen barmoqlarini qizitib kengaytirish texnologik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: barmoq sirtini 2-3 soat davomida $900-1000^\circ\text{S}$ da (po'latning markasiga bog'liq holda) sementatsiya qilish, agar sementatsiya qatlami ko'proq yeyilgan bo'lsa, porshen barmog'ini $900\dots1000^\circ\text{S}$ haroratda kengaytirish; toplash va past bo'shatish o'tkaztsh (harorat po'latning markasiga bog'liq); nominal diametrga keltirish uchun jilvirlash va jilozlash; o'lchamini, qattiqligini, darz bor-yo'qligini tekshirish.

Porshen barmog'ini sovuq holda kengaytirish texnologik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: $650\ldots670^\circ$ da (materialning markasiga bog'liq holda) 1,5-2 soat davomida bo'shatish; barmoqni sharsimon yoki sferik sirtli proshivka bilan, jilvirlash uchun 0,15...0,2 mm qo'yim qoldirib, sovuq holda kengaytirish; barmoqni toplash yoki bo'shatish; barmoqni nominal o'lcham bo'yicha jilvirlash va jilolash; o'lchamini, qattiqligini va darz bor-yo'qligini tekshirish.


Detallarni toraytirish. Vtulkaning ichki diametrini tashqi diametri hisobiga kichraytirish *toraytirish* deyiladi. Toraytirishda ta'sir qiluvchi kuchning yo'nalishi kerakli deformatsiya δ ning yo'nalishiga mos keladi (9.8-rasm). Toraytirish kengaytirishdan detal o'lchamlarining kichrayishi bilan farq qiladi, kengaytirishda esa detallarning o'lchami kattalashadi. Toraytirishda kuch va deformatsiya yo'natishi kengaytirishdagiga nisbatan teskari yo'nalishda bo'ladi. Detal ichki o'lchamining kichrayishi tashqi diametrning kichiklashuvi hisobiga bo'ladi. Bunga bronzadan yasalgan vtulkani toraylirish misol bo'la oladi. Toraytirishdan so'ng vtulkaning tashqi diametri ishlatish uchun moslanadi yoki uni po'lal vtulkaga presslanadi. Vlukaning ichki diametri talab qilingan o'lcham bo'yicha razvyortka qilinadi. Detallarni toraytirish jarayonidan foydalanish rangli metall sarfini kamaytiradi.

Detallarni cho'zish. Detal uzunligini uning ko'ndalang kesimidagi ma'lum joyni toraytirish hisobiga uzaytirish *cho'zish* deyiladi. 9.9-rasmdan ko'rinishlari, cho'zish cho'ktirishning xususiy holi hisoblanadi va u kuch P_d yo'nalishining kerak bo'lgan deformatsiya yo'nalishiga mos kelmasligi bilan xarakterlanadi. Bunda detal kesimining mahalliy torayishi hisobiga uncha katta bo'lмаган uchastkada uning uzunligi ortadi. Cho'zish. odatda, har xil tortqilarni uncha katta bo'lмаган uzunlikka uzaytirish uchun qo'llaniladi.

Detallarni to'g'rakash. Detalning buzilgan shaklini tiklash jarayoni *to'g'rakash* deyiladi. Bunday usulda egilgan va buralgan detallar *to'g'rakanadi* (9.10-rasm). *To'g'rakashda* ta'sir etuvchi kuch P_d ning yo'nalishi kerakli bo'lgan defonnatsiyaning yo'nalishiga mos keladi.

Odatda, vallar, shatunlar, oldingi balkalar va shunga o'xshash detallar *to'g'rakanadi*. To'g'rakashning ikki xil usuli mayjud: tashqi kuchlar bilan *to'g'rakash* (sovuv holda va qizitib) hamda mahalliy.

Tashqi kuchlar yordamida qizitib *to'g'rakash* ta'mirlash korxonalarida nisbatan kam qo'llaniladi. Ularda, asosan, tashqi kuchiar biian sovuq holda *to'g'rakashdan* foydalaniлади. *To'g'rakash* natijasi turg'un bo'lishini ta'minlash uchun *to'g'rakashni* $400\ldots450^\circ$ haroratgacha qizitib bajarish lozim. Bunday qizitishda qoldiq ichki kuchlanishlar kamayib, detaining ishslash qobiliyati 90% gadia tiklanadi.



9.9-rasm. Detallarni cho'zilish sxemasi.

9.10-rasm. Valni to'g'irlash sxemasi

9.11.Nakatkalash sxemasi

Mahailiy naklyop (bolg'lash) bilan to'g'ritash tirsakli valning urishi valning butun uzunligi bo'yicha 0,03...0,5% dan ortiq bo'lmanan hollarda qo'llaniladi. Naklyop tirsakli valning o'zak va shatun bo'yiniarini tutashtiruvchi yuzaga zarb brish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tirsakii val bo'yinlarini jilvirlashdan oldin valni lo'g'rakash yaxshi natijalar beradi, chunki bunda yo'niladigan metail qatlamini kamaytirish mumkin. Valni sovuq hoida to'g'irlagandan so'ng, uni 100°S gacha qizitib, shu haroratda 3 soat ushlab turiladi. So'ngra darz bor-yo'qiigini defektoskopda tekshirib ko'rish tavsiya eliladi.

Detallarni nakatkalash. Detal metalini rolikning tishlari yordamida siqib chiqarish yo'li bilan uning tashqi diametrini kattalashtirisli jarayoni nakatkalash deyiladi. Nakatkalashda ta"sir qiluvchi kuch yo'naliishi talab qilingan deformatsiya δ ga qarama-qarshi bo'ladi (9.11-rasm). Bu usulda detalning o'lchami uning ish qismlaridan metalini siqib chiqarish hisobiga o'zgaradi. Nakatkalash o'lkir tishli, toblangan roliklar bilan bajariladi, bunda dealda g'adir-budur yuzalar hosil bo'ladi. To'g'ri va qiyshiq tishli roliklar bilan nakalkalaganda yaxshiroq sxemasi natijalarga erishish mumkin. Nakatkalash roligi U-12 po'iatdan yasalgan bo'lib, uning qattiqligi HRC bo'yicha 50-55 birlikni tashkil etadi. Nakatkalashda tayaneh yuza 50% gacha kamayishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nakatkalangan yuzanining yeyilishga qarshiligi jilvirlangan tekis yuza yeyilishga qarshiligining 87% ini tashkil qiladi.

Nakatkalashda val diametri 0,4 mm gacha oshishi mumkin. Nakatkalash kam yeyilgan valning bo'yinlarida amalga oshiriladi. Nakatkalash usuli bilan ta'mirlanadigan detallarga quyidagi talablar qo'yiladi:

-nakatkalashni sovuq holda ham plastiklik xususiyati yuqori bo'lgan materiallardan yasalgan detallarda qo'llash;

-qattiqligi HRC 50-60 bo'lgan detallarni bo'shatilgandan so'ng nakatkalash mumkin, chunki bunda detalning qattiqligi pasayadi;

-nakatkalashni yeyilish natijasida ko'ndalang kesimida hosil bo'lgan ellipsilik 0,05 mm dan ortiq bo'lmanan detallarda qo'llash.

Nakatkalashda quyidagi tengsizlikka rioya qilish kerak:

$$h = \delta_1 + \delta_2 + \delta_3 + \delta_4 < \beta t \ ctg \alpha/2$$

bunda δ_1 -detalning bir tomoniga to'g'ri ketgan yeyilish miqdori, mm; δ_2 -detaining jiipsliligi, mm: δ_3 -detalning ta'mirlangunga qadar bo'lgan radial urishi, mm; δ_4 -jilvirlash uchun qoldirilgan qo'yim, mm; β -rolik va detalning o'zaro qamrash burchagi.

Mazkur formuladan ko'rinib luribdiki, nakatkaning qadami t va rolik tishining o'tkirlik burchagi α qancha katta bo'lsa, tenglamaning chap tomonidagi barcha hadlar yig'indisi yoki ularning har bin katta qiymatga ega bo'lishi mumkin.

Nakatkalashda detalda yetarli bo'lgan tayanch yuzasi (η) taminlanishi lozim:

bunda $h-g'$ adir-budurlik cho'qqilarning balandligi.

Nakatkalash roligi tishining eng maqbul o'tkirlik burchagi $\alpha=60-70$, tishlarning qadami esa 1.5-1,8 mm dir.

Yuqorida keltirilgan detaliarni bosim ostida ta'mirtash usullari bo'yicha quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin.

Detaliarni bosim ostida ta'mirlash usullari istiqbolli usullardan hisoblanadi. Bu usulning boshqa usullardan tub farqi shundan iboratki, unda qo'shimcha metal! talab qilinmay, ta'mirlash detaidagi metallni qayta taqsimlash hisobiga amalga oshiritadi. Detalni sovuq holatda deformatsiyalanganda naklyop hosil bo'ladi, u toliqishga mustahkamlikni oshiradi va detal yangisiga qaraganda ham mustahkamroq bo'lib qoladi. Bosim ostida ta'mirlash usullari nisbatan oddiy bo'lib, murakkab uskuna talab qilinmaydi. Bu usullarni ta'mirlash korxonalanda keng miqyosda qo'llash uchun mashina detallarini loyihalashda ularga nisbatan bosim ostida ta'mirlash usulini qo'llash mumkinligini hisobga olish kerak.

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni ta'mirlash usullarining tasnifi nimalardan iborat?
2. Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash qanday usullarni o'z ichiga oladi?
3. Val bo'yni uchun ta'mirlash o'lehamini aniqlash ketma- ketligini tushuntiring.
4. Teshik uchun ta'mirlash o'lchamlari qanday aniqlanadi?
5. Qo'shimcha ta'mirlash elementlari usulining mohiyatini tushuntiring.
6. Detal qismini almashtirish usulining mazmuni nimadan iborat?
7. Detallarni plastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash jarayoni tasnifini aytib bering.
8. Detallarni cho'ktirish, botirish va kengaytirish usullarida la'mirlash jarayonlari qanday amalga oshiriladi?
9. Detallarni cho'zish, to'g'riiasli va nakatkalash usullarida ta'mirlashning mohiyati nimalardan iborat?

4-ma'ruza

Detallarni elektr yoyi vositasida payvandlash yo'li bilan ta'mirlash

Reja.

1. Elektr yoyi vositasida payvandlash yo'li bilan ta'mirlash
2. Detallarni payvandlash va eritib qoplash jarayonlarini avtomatlashdirish
3. Flyus qatlami ostida avtomatik va yarim avtomatik payvandlash

Detallarni elektr yoyi vositasida payvandlash yo'li bilan ta'mirlash. Elektr yoyi vositasida payvandlash gaz alangasida payvandlash kabi, eritib payvandlashga kiradi. Bitnda elektrod bilan detal o'rtaida hosil bo'lgan elektr yoyi ta'sirida detalning metali suyuqlanib, payvandlash amalga oshiriladi.


Oddiy sharoitlarda elektrod bilan deal oralig'idagt havoli (gazli) muhit elektr tokini o'tkazmaydi. Gazli muhit tok o'tkazuvchan bo'lishi uchun uni ionlashtirish, ya'ni mazkur gazli muhitda yetarli darajada ozod elektronlar va iontar hosil qilish kerak. Elektr yoyi vositasida payvandlash da gaz oralig'inining ionlashishli va elektr yoyining hosil bo'lishi quyidagicha sodir bo'ladi.

Elektr payvandchi elektrodnii detalga tegizishi bilan elektr yoyi yonganda elektrod yuzi bilan detal yuzasi orasida nozich kontakt hosil bo'ladi, natijada elektr o'chishni qizib ketadi. Payvandchi elektrodnii detalidan ajratgan paytda detal bilan elektr o'chishni havoli muhit tok o'tkazuvchi bo'lib qoladi, chunki bu oraliq metall bug'i va gazlarning ionlashgan zarrachalari bilan to'yingan bo'ladi. Shu sababli, elektr o'chishni orasidan elektr toki uzlusiz o'taveradi va elektr yoyining yonishi uzlusiz davom etadi. elektr yoyi zaryadi haddan tashqari yorug' nurlanishi va yuqori haroratga ($6000-7000^{\circ}$) ega bo'lishi biian ajralib turadi.

11.1-rasmda payvandlashdagi elektr yoyining tuzilishli sxemasi keltirilgan. Katod dog'i erkin elektronlarning nurlanish manbai hisoblanadi. Katod elektr o'chishni qaynash haroratiga (temir uchun 3500°) yaqin bo'ladi. Katod dog'ida umumiyligi issiqlikning 36% qismi ajralib chiqadi. Yoyning gaz ustuni elektr va detal orasidagi hajmning kattagina qismini tashkil qiladi, unda elektron va ionlarning ko'chishi sodir bo'ladi, harorati esa $6000...7000^{\circ}\text{C}$ ga yetadi. Yoyning gaz ustuni umumiyligi issiqlikning 21% iga yaqini ajralib chiqadi. Anod dog'i payvandlanadigan detallar erkin elektronlarining anod yuzasiga kirish va neytrallanish joyi hisoblanadi. Anod dog'ining harorati taxminan 4000° atrofida bo'ladi.

Elektronlar oqimining anodga urilishi payvandlashda anodda katodga qaraganda ko'p issiqlik ajralib chiqishiga sabab bo'ladi (taxminan yoyning umumiyligi issiqligining 43% ini tashkil qiladi).

Issiqlikning katod (36% ga yaqin) va anod (43% ga yaqin) dog'larida turlicha taqsimlanishi detallarni o'zgarmas tok bilan payvandiash amaliyotida qo'llaniladi. Agar elektr payvandlashda detal anod, elektr o'chishni vazifasini bajarsa, bunday sxema *to'g'ri qutbli*, agar aksincha bo'lsa, *teskari qutbli sxema* deyiladi. Yupqa (qalinligi 2,5 mm gacha) detallarni payvandlashda ularni kuydhib yubormaslik maqsadida teskari qutbli sxemadan foydalaniladi. Mazkur sxemadan ayrim legirlangan po'latlarni va cho'yanni sovuq holda po'lat elektrodlar bilan payvandlashda ham foydalaniladi. Chunki bu holda payvandlanadigan detal qizib ketmasligi maqsadga muvofiqdir.



11.1-rasm. Payvandlashdagi etektr yoyining tuzilish sxemas:
1 -katod dog'i; 2-katod uyasi; 3-yoy ustuni: 4-anod uyasi; 5-anod dog'i

O'zgaruvchan tok bilan payvandlashda qutbtilik davriy tokda (o'zgaruvchan tok chastotasiga mos holda) o'zgarib turadi.

Eiektr yoyi vositasida payvandlashda (suyuqlantirib qoplashda) tok manbai eiektr yoyining oson hosil qilinishi va barqaror yonishini ta'minlashi kerak (elektr yoyi 25...40 V kuchlanishda barqaror yonadi).

Eiektr yoyining ta'minlanish manbai payvandiash turiga va qo'llaniladigan tokning o'zgaruvchan yoki o'zgarmasligiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. O'zgaruvchan tokni ta'minlash manbalari kamhroq bo'ladi. Masalan o'zgaruvchan tokda qalin qoplamli elektrodlar bilan qo'Ida payvandiashda elektr energiyasining sarfi 1 kj eritilgan metall uchun 3-4 kVt-soatni, o'zgarmas tokda esa mazkur ko'rsatkich 6-8 kVt-soatni tashkil qiladi.

O'zgarmas tokda payvandlash o'zgaruvchan tok bilan payvandlashning iloji bo'limgan hollarda, masalan, yupqa metallarni payvandlashda qo'llaniladi. O'zgarmas tokda elektr yoyi barqarorroq va to'g'riroq bo'ladi. Bundan tashqari, unda to'g'ri va teskari qutblilikdan foydalanish mumkin.

O'zgaruvchan tokli eiektr yoyining ta'minlanish manbai sifatida payvandlash transformatorlari ishlataladi. O'zgarmas tokli elektr yoyining ta'minlanish manbai sifalida esa eiektr tarmog'idan ta'minlanuvchi eiektr motori yordamida harakatga keltiriladigan generaterlardan foydalaniladi,

Eleklr yoyini 2-4 mm uzunlikda ushlab turish uchun 18-22 V kuchlanish zarur. Yoy hosil qilishdagi kuchlanish esa yoyni ushlab turishdagi kuchlanishdan kattaroq bo'lishi kerak. Elektr yoyini hosil qilish uchun kuchlanishi 25...40 V bo'lgan generatorlar yoki kuchlanishi 55...65 V bo'lgan transformatorlar bo'lishi kerak.

Elektr yoyi vositasida qo'lda payvandlashda elektrod bilan detal orasidagi masofa uzlusiz o'zgarib turadi, ya'ni yoning uzunligi har doim o'zgaruvchan bo'ladi. Shuning uchun ham undagi tok kuchining qiymati davriy ravishda o'zgarib turadi. Metallni ravon eritish uchun tok kuchining o'zgarishi unchalik katta bo'lmasligi kerak. Bundan tashqari, payvandlashda qisqa tutashuvlar sodir bo'ladi. Bu holda kuchlanish deyarli nolgacha kamayadi, tok kuchi esa ortib ketadi. Shuning uchun payvandlashda payvandlash toki manbai payvandlash zanjiridagi qisqa tutashuvlarga bardosh beishi lozim, ya'ni payvandlash toki ortganda yoy kuchlanishining keskin pasayishini ta'minlashi kerak.

Yuqorida keltirilgan talablarni pasayuvchi tashqi xarakteristikaga ega bo'lgan tok manbalari to'laroq qondiradi, ularda tok kuchi ortishi bilan kuchlanish keskin pasayadi.

Elektrod va uning qoplamasи. Metallarni elektr yoyi bilan suyuqlashtirishda quyidagi hodisalar sodir bo'ladi: suyuqlantirilgan metallning oksidlanishi: suyuqlantirilgan metallning azot va vodorod bilan to'yinishi: Legirlovchi komponentlarning kuyishi va metall uchqunlarining atrofga sachrashi.

Ko'rsatib o'tilgan hodisalarning oldini olish uchun elektrodlarga ma'lum talablar qo'yiladi. Gaz hosil bo'lishining oldini olish uchun elektrod simida zang va oksid qatlamlari bo'lmasligi, elektrod materiali kam uglerodli bo'lishi, metallning ravon erishi uchun elektrod tarkibida marganes bo'lishi kerak. Talab qilingan kimyoviy tarkibga va mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan payvand choki hosil qilish uchun elektrod simi tarkibida payvandlash jarayonida yonib ketadigan komponentfar (xrom va boshqalar) bo'lishi kerak. elektrodnning erish harorati payvandlanadigan detal asosiy metalining erish haroratiga yaqin bo'lishi lozim. Aytib o'tilganlardan tashqari, metallurgik jarayonlarning ta'sirini kamaytirish maqsadida elektrod qoplamaridan foydalaniladi.

Elektrod qoptamalari elektr yoyining barqarorligini oshiradi, erigan metall tomchilarini havodagi kislorod va azotdan saqlovchi (chokning qovushqoqligini oshiruvchi) gaz pardasini hosil qiladi. Metall erigan vannachada shlak qatlaminu hosil qiladi, elektrod qoplamasini esa sovimagani metallga havo kirishini to'xtatadi va metallning sovishini sekinlashtiradi, buning natijasida chok va uning strukturasi zichligi oshadi hamda payvand chokiga legirlovchi komponentlar kiradi.

Elektrod qoplamlari yupqa (0,1...0,25 mm) va qalin (0,5...1,5 mm) bo'ladi. *Yupqa qoplamlari* yoy oralig'ining elektr o'tkazuvchanligini oshirish va payvandlash tokining kuchlanishini pasaytirish uchun ishlataladi. Bunga qoplama materialiga nisbatan past ionlanish potensialiga ega bo'lgan moddalar qo'shish orqali erishiladi. Bunday moddalarga bo'r, titan ikki oksidi va boshqalar kiradi. Eng ko'p tarqalgan qoplamlarga bo'rli qoplamlar ("80-85% bo'r, 40-25% suyuq shisha) kiradi. Qalin qoplamlar erigan metallni havo ta'siridan saqlash, undagi asosiy elementlarning kuyib ketishini kamaytirish va eritilgan metallni kerakli elementlar bilan legirlash uchun qo'llaniladi.

Elektrod qoplamlari tarkibiga barqarorlovchi (bor CaCO₂-, potash-K₂CO₃), gaz hosil qilib himoyalovchi (kraxmal, yog'och uni), shilak hosil qilib himoyalovchi (dala shpati, kvars va boshqalar), legirlovchi (ferroxrom, ferrosilitsiy, ferrotitan, ffromolibden va b.) komponentlar kiradi.

Barqarorlovchi komponentlar barqaror yoylar hosil qiladi, chunki bo'r va potash oson ion lanadigan komponentlardandir. Himoyalovchi komponentlar erigan metallni havo kislorodi va azotidan himoya qiladi. Himoyalovbi komponentlarga gaz va shlak hosil qiluvchi moddalar kiradi. Gaz hosil qiluvchi moddalar yonganda elektr yoyi atrofida erigan metall tomchilarini havo ta'siridan himoya qiluvchi gaz pardasi hosil qilinadi. Gaz pardasi qaytarish xususiyatiga ega bo'lgan gazlar (CO, H₂ va boshqalar) dan iborat. Shlak hosil qiluvchi komponentlar eriganda suyuq shlaklar hosil qiladi, ular erigan metallni zich qatlam bilan qoplab, havo ta'siridan himoya qiladi, chokning sovish tezligini kamaytiradi va sifatli payvand choklar hosil bo'lishiga yordam beradi. Legirlovchi komponentlar esa eritilgan metallni xrom, kremniy, titan va boshqa legirlovchi elementlar bilan boyitadi.

Elektr yoyi vositasida payvandlash rejimi. Elektr payvandlashda elektr yoyini iloji boricha qisqa masofada ushlab turish lozim. Bunda erigan metaliga havo kamroq ta'sir qilib, chokning mustahkamligi oshadi. Qisqa yoyli (2-3 mm) payvandlashda ishchi kuchlanishi 11-18 V, uzun yoyli (5-6 mm) payvandlashda 25 V bo'ladi.

Payvandlash tokining qiymati payvandlanadigan metallning turiga, detalning qalnligiga, elektrodning diametriga, tokning turiga, etektrodnning xiliga (qoplamasini bor-yo'qligiga), eritib quyish chokining fazoviy (pastki, vertikal, tepadagi) holatiga bog'liq.

Pastki holatda payvandlashda payvandlash tokini (*I*) aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$I=(40...50)/t, \text{ bunda } d\text{-elektrod diametri, mm.}$$

Bu formula taxminiy bo'lib, elektrod larning diametri 3-5 mm bo'lgan hollardagina qo'llanilishi mumkin. Turli diametri elektrodlar uchun tok qiymatini tanlashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

Detallarni payvandlash va eritib qoplash jarayonlarini avtomatlashtirish


Yuksak darajadagi mexanizatsiyalashni avtomallashtirish deyilib. unda ishlab chiqarish jarayoni inson ishtirokisiz (mashinalar, mexanizmlar, asboblar va boshqa vositalar qo'llanishi bilan) amalga oshiriladi. Avtomatlashtirishda inson uskunalarini moslash, boshqarish va tuzatish kabi ishlarnigina bajaradi.

Ta'mirlash korxonalari amaliyolida detallarni ta'mirlash qo'lda bajariladigan gaz va elektr yoyi bilan payvandlashdan (eritib qoplashdan) tashqari, payvandlashning mexanizatsiyalashgan turlari ham qo'llaniladi. Ulardan eng ko'p tarqalgani flyus qatlami ostida. himoyalovchi gazlar muhitida, elektr impuisli (tebranma yoy) va boshqa yarim avtomatlashgan va avtomatlashgan payvandlash (eritib qoplash) usullaridir.

Murakkab shaklga ega bo'lган detallarni ta'mirlash uchun flyus qatlami ostida yarim avtomatlashgan payvandlashdan (eritib qoplashdan) foydalanish mumkin. Bu tizimda ish unumi va ta'mirlash sifatini oshirishga erishiladi. Yarim avtomatlashgan payvandlashda (eritib qoplashda) suyuqlantirib qoplash kallagi delat bo'y lab qo'lda suriladi, elektr od simi esa suyultirib qoplash kallagiga maxsus *mexa-nizm* yordamida uzatiladi. Yarim avlomatlashgan payvandlashning (eritib qoplashning) mohiyati avtomatlashgan usuldan deyarli farq qilmaydi.

Flyus qatlami ostida avtomatik va yarim avtomatik payvandlash (suyuqlantirib qoplash).

Flyus qatlami ostida avtomatik va yarim avtomatik payvandlash (suyuqlantirib qoplash) ilg'or usullardan biri bo'lib, ta'mirlash korxonalari amaliyotida mashinalauning yeyiigan detallarini ta'mirlashda keng tarqalgan. Bu usulning qo'lda elektr yoyi vositasida payvandlashdan farqi shundan iboralki, bunda elektr yoyi flyus bilan cheklangan bo'shilqda yanadi (3.18-rasm). Manba 1 dan ta'mirlanuvchi elektr yoyi 6 ning yonish sohasiga o'lchamlari 1-4 mm bo'lган donador flyus 3 nay 2 avtomatik ravishda to'kiladi hamda uzatkich 4 orqali elektr od simi uzatiladi. Yuqori harorat ta'sirida flyusning bir qismi erib, yoy atrofida undan elektrik gumbaz 5 hosil bo'ladi, u esa detal 9 ustidagi erigan metall 8 ni havodagi azot va boshqa elemenllarning ta'siridan himoya qiladi.



11.2-rasm. Flyus qatlami ostida pav-vandhsh sxemasi:

1-elektr manbai, 2-flyus uzatiladigan nay. 3-flyus qatlami; 4-elektr od uzatkich; 5-elektrik gumbaz; 6-elektr voyi; 7-erigan flyus qatlami; 8-erigan metall; 9-ta'mirlanadigan detal; 10-elektr kontakti

Buning natijasida erigan metall yuqori plastiklikga ega bo'ladi, chunki unda kislород miqdori qo'lda payvandlashgandagiga nisbatan taxminan 20 marotaba, azot mirqdori esa 3 marotaba kam bo'ladi. Bundan tashqari, erigan flyus 7 qatlami

metallning sachrashini va uning kuyishini kamaytiradi, suyuqlanlirib quyilgan metall 8 yaxshi qoplama hosil qiladi, yoy issiqligidan va elektrod simidan foydalanishni yaxshilaydi. Sovishda hosil bo‘lgan shlak qatlami 7 erigan metallni sekin sovitadi va undagi struktura o‘zgarishlarini yaxshilaydi.

Flyus qatlami ostida payvandlashda (suyuqlantirib qoplashda) metallning sachrashi va kuyishi natijasida isrof bo‘lishi 2-4% dan oshmaydi, qo‘lda payvandlanganda esa bu ko‘rsatkich 25...30% ga yetadi. Elektrod simining chiqishi (elektrod uzatkich 4 dan detal 9 gacha bo‘lgan masofa)ni 15..20 mm gacha kamaytirish hisobiga ish unumini 8-10 marotaba oshirish mumkin. Eritib qoplash to‘g‘ri qutbli kuchlanish 25...40 V bo‘lgan o‘zgarmas tokda olib boriladi. Odatda, suyuqlantirib qoplash stanogi sifatida tokarlik dasrgohidan foydalaniladi, unda reduktor yordamida shpindelning 0,2...5 min^{-1} aylanish chastotasi hosil qilish mumkin.

Flyus qatlami ostida payvandlash (eritib qoplash) ning kamchiligi elektr yoyini ko‘rib bo‘lmaslik hisoblanadi. Bu esa payvandlashda murakkab shaklga ega bo‘lgan choklarni olishni qiyinlashtiradi. Flyusning ko‘p sarf bo‘lishi va narxining yuqoriligi ham uning kamchiligi hisobianadi.

Flyus va elektrodlar. Flyuslar donador moddalar aralashmasi bo‘lib, eriganda ta’mirianadigan detalning sirtini qoplovchi shlak hosil qiladi. Shunday qilib, flyuslar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- erigan metallni havodagi kislorod va azotning salbiy ta’siridan himoya qilish;
- elektr yoyining turg'un yonishini ta'minlash;
- suyuq metallning qotish jarayonini sekinlashtirish va payvandlash davrida hosil bo‘ladigan gazlarning chok metalidan ajralib chiqishi uchun qulay sharoit tug'dirish;
- issiqlikning atrof-muhitga tarqalishini, elektrod metalni kuyishi va sachrash natijasida sarf bo‘lishini kamaytirish;
- chok sirtida hosil boladigan shlaklarning oson ajralishi.

Payvandlash vazifasi, kimyoviy tarkibi va tayyorlash usuliga bog’liq holda tiirli fiytislari ishlataladi. Vazifasiga ko‘ra flyuslar uglerodi, kam legirlangan va yuqori darajada iegirlangan po‘latlarni, rangli metali va qotishmalarni payvandlash uchun ishlataladigan xillarga bo‘linadi.

Ayrim flyuslar universal bo‘ladi, ular yuqori darajada legirlangan po‘latlarni payvandlashda ham, rangli metall va qotishmalarni payvandlashda ham ishlatalishi mumkin. Kimyoviy tarkibi bo‘yicha flyuslar marganssiz, kremniy va marganes miqdori ko‘p bo‘lgan hamda kislorodsiz ftoridli xillarga bo‘linadi.

Ta’mirlash korxonalari amaliyotida H_n -30, H_n -50Г, H_n -3Ox5, H_n -45x4I33Φ markali elektrodar keng tarqalgan.

Yorilgan detallarni ta’mirlashda diametri 2,5... 5,5 mm bo‘lgan kukun holdagi metalldan yasalgan simlar ko‘proq ishlatilmoxda. Ularda to‘ldiruvchi sifatida metall kukunlari aralashmasi, shlak hamda gaz hosil qiluvchilar va boshqa elementlar qo‘llanilmoqda. Shunday qilib, PP-AN1, PP-lDSK markali simlar yordamida qo‘sishimcha himoya vositalarisiz ham yaxshi sifatli choklarni hosil qilish mumkin. PP-3X13≈0, PP=3x4VZF=0 markali simlar esa yeyilisiiga chidamlari, qo‘sishimcha-termik ishiov berilmagandagi qattiqligi HRC 56 bo‘lgan qatlarni hosil qilish imkonini beradi.

O'rmalovchi zanjirli traktorlarning tayanch g'altaklari, yo'naltiruvchi g'ildiraklari va shu kabi ko'proq yeyilgan detallarni ikki va undan ortiq etektrodl eritib qoplash yordamida hamda po'lat yoki metall kukunidan yasalgan lentasimon elektrodlarda eritib qoplash yordamida ta'mirlash mumkin.

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni flyus qatlarni ostida payvandlash jarayoni qanday olib boriladi?
2. Flyus va elektrod qoplamasini qanday vazifalarni bajaradi?
3. Tebranma yoy vositasida eritib qoplash jarayoni qanday olib boriiadi?
4. Karbonat angidrid muhitida eritib qoplash jarayonini tnshuntiring.
5. Payvandiashda ta'sir zonasi qanday paydo bo'ladi va inga qarshi kurashishming qanday turlari mavjud?

5-ma'ruza

Payvandlashdagi termik ta'sir va unga qarshi kurashishning texnologik usullari

Reja.

1. Detalning qizdirilish darajasi.
2. Normallanish.

Payvaiidiash vaqtida issiqlikning bir tekis taqsimlanmasligi oqibalida asosiy metallda lurli xildagi strukturaviy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bundai tashqari, metallning bir tekis qizimasligi natijasida detalning o'chamlari notekis o'zgaradi. Bu hodisa detalda mahalliy deformatsiya va qoldiq kuchlanishiar hosil bo'lishiga olib keladi.

Detal asosiy metalining payvand chokiga yaqin turgan qismi payvandlash jarayonida taxminan 720° haroratgacha qiziydi, keyin atrof-muhit haroratigacha soviydi. Natijada asosiy metallning ana shu qismida strukturaviy o'zgarishlar yuz beradi. Shuning uchun ham asosiy metallning mazkur qismini termik ta'sirga uchrraydigan soha deb atash qabul qilingan. Termik ta'sir sohasida metall ayrim qismlarining qizish harorati shu nuqtalar bilan choc orasidagi masofaga bog'liq (12.1-rasm). Binobarin, termik ta'sir sohasining ayrim qismlarida metallning strukturasini turlicha bo'ladi.

O'rtacha uglerodli po'latlarni payvandlashda va ular yuzasiga elektrodn erilib qoplashda ularning termik ta'sir sohasida quyidagi strukturaviy qismlar chala suyuqlanish (1), o'ta qizish (2), normallashish (3), chala kristallanish (4) va bo'shatish (5) qismlari yuzaga keladi (3.24-rasm). Chala suyuqlanish qismida suyuqlashtirib qoplanadigan metall bilan asosiy metall o'zaro payvandlanadi. Bu qismda harorat metallning suyuqlana boshlashi va to'liq suyuqlanish haroratiga to'g'ri keladi. Chala suyuqlanish qismining chiziqli o'chamlari juda kichik, chunki kam va o'rtacha uglerodli po'latlarning suyuqlanish oralig'i qisqa boladi va metall yuqori harorat ta'sirida turishi juda bam qisqa vaqt davom etadi. Bu qismda asosiy metallning strukturasini choc metalining (suyuqlantirib tushirilgan metallning) strukturasidan deyarli farq qilmaydi.



12.1-rasm. O'rtacha uglerodli po'latni payvandlashdagi termik ta'sir sxemasi:

1 -chala suyuqlantirish; 2-o'ta qizish; 3-normallashish; 4-chala rekristalizatsiya; 5-kristallanish; 6-bo'shatish

O'ta qizish qismi chala suyuqlanish qismiga yondosh bo'ladi. Bu qismda metallning qizish harorati 1100° dan 1500° ga yetadi. Metalning yuqori haroratda qizishi va nisbatan sekin sovishi metal qisimlarining yiriklashuviga sabab bo'ladi. Ma'lumki, donalar yiriklashganda metallning mexanik mustahkamligi pasayadi, metallda katta qiymatli ichki kuchlar vujudga keladi. Shu sababli, o'ta qizish qismida darslar paydo bo'lishi ham mumkin.

Normallashish qismida metall $850-1\ 100^{\circ}$ haroratgacha qiziydi. Bu qism o'ta qizish qismidan farqli o'laroq, issiqlikning chdlfitilishi hisobiga tez soviydi. Natijada mayda donali struktura hosil ho'ladi va metallning mexanik xossaJari yaxshilanadi. Bu qism mliilining mexanik xususiyati, odatda, asosiy metallning termik ta'sir sohasidan tashqaridagi qismining mexanik xususiyatiga qaraganda yuqonmq bo'ladi.

Chala rekristalizatsiya qismida melall $720-850^{\circ}$ haroratlar oraliu'ida qi/iydi. Bu qismda metall qizishi va sovishi jarayonida qismanginaqayta kristallauadi, xolos.

Bo'shatish qismida metail $200-720^{\circ}$ oraliqda qiziydi- Bu qismda metallning stnikturasi, odatda, asosiy mtaitning termik ta'sir sohasidan tashqaridagi qismining strukturasidan farq qilmaydi. Metall donalari mayda bo'ladi, chunki bunda metall tez soviydi; binobarin, uning mexanik xossalari yuqori bo'ladi.

Termik ta'sir sohasining o'lchamlari payvand 1 an ayotgan metallning kimyoviy tarkibiga, payvandlash usuli va payvandlash rejimiga bog'liq. Gaz alangasida payvandlashda bu soha eng katta ($25-30$ mm) bo'ladi. Eiektr yoyi vositasida daslaki payvandlashda sa iming o'lehamiari $3-5$ mm dan oshmaydi. Flyus qatlami ostida payvandlashda $2-4$ mm, himoyalovchi gazlar mubitida payvandlashda $1-2$ mm ni tashkil etadi. Payvandlash toki kuchining yoki payvandlash gorelkasi quvvatining ortishi bilan termik ta'sir sohasi ham kaltalashadi, payvandlash tezligi ortishi bilan esa kichiklashadi. Payvandlash rejimini to'ri tanlash, teskari qutblilikdan foydalanish va payvandlash jarayuini to'g'ri olib borish yo'li bilan termik ta'sir sohasining o'lchamlarini kichraytirish mumkin.


Kam va o'rtalia uglerodli po'latlarni payvatidlashda termik ta'sir sohasidagi metallning xossalari kamroq, legirlangan po'latlarni pay v arid lashda esa ko'proq darajada Tzgaradi. Legiriangan po'latlami payvandlashda chok alrofi sohasida martensit stmkurasi hosil bo'mishi mumkin.

Termik la'sir mfayii hosil bo'ladigan ichki kuchlanishlar va deformalsiyalai detaining ta'mirlaiush sifatini pasaytiradL shuning uchun bit tiuqsonlami kamaytirish

maqsadida quyidagi tadbiriar ko‘riladi: detain! asta-sekin sovish; yu/asiga elukLrod suyuqlaulirib qoplangan delaltii yumshatisli yoki bo‘sliatish; payvandlaslmiiifi maxsus usullaridan foydalanish. Bundan taishqaii, eiektrod simi qopSamasining mtalda imkuni borilia kamroq ichki kuchlanishlar hosil bo‘lisliini la'minlaydigan kimyoviy tarkibini tanlash ham talab qilinadi.

Murakkab shakldagi muhim detallarni yoki malriali toblanadigan detallarni payvandlashdan oldin ular 200-250°C haroralgitcha qizdiriladi. Detahii payvandlash oldidan qizdirilganda asosiy metal] bilan chok inetaSi haroratlari orasidagi tafovui katnayadi. Shuningdek oliJindan qizdirib payvandlash detaining skin sovishini ta'minlaydi. Detal yekin soviganda chok mlali sinklrasida kiichlanishliir kamroq paydo bo‘ladi. Bunda bo‘lib qoladi. Melallningqovushqoqligi oshgan lanishlar kamaya boradi.

Suvuqlaiitirib qoplangan metall jatlamining sekin sovishiga tarkibida shlak hosil qiluvchi komponntiar bo‘lgan qalin qoplamlari elektrod similar ishlatish va pastki metall qatlamini yumshatuvchi qatiam berish yo‘li bilan ko‘p qatlanili qilib payvandlash yordam beradi (12.2-rasm, a, b). Oson eruvchan shlaklar suyuqlangan tintall vannasi yuziga jalqib chiqadi va uni havodati yaxshi Inmoya qiladi. Aksariyat hollarda sirliga Jektrod suyuqantirib qoplajigaii detallarnisig sovishini sekinlashlirish uchun ular qurnga ko‘miladi yoki ustiga asbsl uvoqlari sepib qo‘yiladi. Detaining detbrniatsiyaianishini leskari pog“onalab pay-vandlash usuli (12.2-rasm, d, e) qo‘llaniladi. Detbrmatsiyalarin inuvozanatlash uchun payvandfashda vallar bo‘yinlarining yuzasigi lio‘ylama qatlamlar 180° oralatib tushiriladi. Har bir qatiam o‘zidai oldingi qatiam eninini 1/3 qismini qoplashi lozim. Teskari pog‘onalab payvandlash usulidan foydalaniladigan syyultirilgan metall pog‘onama-pog‘ona joylashtirilib. iiar bir pog‘ona payvandlash umumiy yo‘nalishga teskari yo‘nalishda amalga oshiriladi.



12.2 Payvandlashning maxsus usullari:

a-ustiga yumshatuvchi qatlam berib; b-shlitsalarni ko‘p qatlamli payvandlash; c-val boynini deformatsiyalarini kamaytirish usulida qoplash; d-teskari pog‘onalab qoplash

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni flyus qatlarni ostida payvandlash jarayoni qanday olib boriladi?
2. Flyus valektrod qoplamasini qanday vazifalarni bajaradi?
3. Tebranma yoy vositasida eritib qoplash jarayoni qanday olib boriiadi?
4. Karbonat angidrid muhitida eritib qoplash jarayonini tnshuntiring.

- Payvandiashda tnnik ta'sir zonasasi qanday paydo bo'ladi va irnga qarshi kurashislmning qanday turlari mavjud?

6-ma'ruza

Detallarni payvandlash va suyuqlantirib qoplash jarayonlarini avtomatlashtirish

Reja.

- Suyuqlantirib qoplash jarayonlari.
- Tebranma yoy vositasida erilib qoplash.
- Karbonat angidrid muhitida suyuqlantirib ta'mirlash.

Eritib qoplasmida flyusning tarkibi va elektrod simining tarkibi qoplamaning qatlilqigiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Suyuqlantirib qoplangan metalning qattiqligini flyusdagi ferroxromning miqdoriga bog'liqligi keltirilgan,

Elektrodlarning o'lchami va ularga qo'yilgan umumiyligi texnik talablar Davlat standartlari bilan belgilab qo'yilgan. Odatda, flyus qatlami ostida payvandlash uchun diametri 2-5 mm bo'lgan simlar qo'llaniladi. Kichik toklarda chuqurroq eritish uchun kichik diametrli simiardan foydalanish tavsiya etiladi.


Payvandlash tokining va elektr simi kuchlanishining miqdori. Payvandlash toki ortishi bilan elektr yoyi gazlarining bosimi ortadi, erigan metal I jadal ravishda elektr yoyi ostida siqib chiqarila boshlaydi, bu esa suyuq mtaJl qatlaminirtg kichiklashuviga va eritish chuqurligini oshirishga olib keladi. Mazkur jarayon barqaror kechishi uchun, payvandlash toki oshishi bilan eiktrod simining uzatilish tezligini oshirish kerak.

Elektr yoyining kuchlanishi yoy uzunligiga proporsional ravishda o'zgarib turadi. Youning uzunligi ortishi bilan uning kuchlanishi ortadi, bunda flyus va metallni eritishga sarf bo'ladigan issiqiik miqdori orta boradi. Elektr yoyining kuchlanishi tok miqdoriga va elektrodning diametriga bog'liq, Odatda, kuchlanish 300...500 V atrofida bo'ladi.


Tebranma yoy vositasida erilib qoplash. Tebranma yoy vositasida suyuqlantirib qoplash usulining mohiyati shundan iboratki, dektr yoyi bilan ta'mirlaiuvchi detal oraJig'idagi qisqa tutashuv tebranishi elektrodga uzatiladi va elektrod mtati ta'mirlanadigan detal sirtiga qoplanadi. Bu usul dektr yoyi vositasida qopiashning bir turi bo'lib, u diainetri 15 mm dan ortiq bo'lgan yeyiigan detallami ta'mirlashda qo'llaniladi. Tebranma yoy vositasida suyuqlantirib qoplasmida ish unumi yuqoriruq bo'lib, qalinligi 0,3-2,5 mm bo'lgan qoplama olish mumkiii. Odatda, bitnday usul bilan iliki va lashqi silindrsimon va konussimon sirtlar ta'mirlanadi. Tebranma yoy vositasida eritib qoplash sovituvchi suynqlik yordamida kuchlanishi 14...20 V bo'lgan oVgarmas tokda, tskari qutblilikda amalga oshiriladi.

13.1-rasmda tebranma yoy vositasida eritib qoplash sxmasi keltirilgan. Elektrod simi 3 kassetadan mexanizm 4 yordamida elektr yoylari razryadi sohasiga uzatiladi. tilektrodning tebranishi eJektromagnit tebratkich 6 orqafi hosil qilinib, tebranuvchi mundshtuk 2 orqali elektrodga uzatiladi. Sovituvchi suyuqlik nasos 7 yordamida kanal 8 orqali detal I yuzasiga (suysiqrantirib qoplanadigan joyga) oqib o'tadi.

Tebranma yoy vositasida erilib joplashda lebranuvchi elektrod kiichlanish va (okni davriy ravishda o‘zgartirib, payvandlash zanjirini qisqa tutashtiradi. Har bir tebranish sikli qisqa tutashuv, elektrdni ajratib olish, eiektr yoyining yonishi va salt yurishdan iborat (13.2-rasm). Eleklrod ajratib olinayotganda zanjirning nzilish paytida o‘z-o‘zidan induksiyalanish ta’siri natijasida zanjirdagi



13.1-rasm. Tebranma yoy vositasida suyuqlantirib qoplash qurilmasi sxemasi:
1-ta‘mirlanadigan detal; 2-tebranuvchi munshtuk; 3-elektrod sim; 4-yonaltruvchi gildiraklar; 5-elektrond kaseta; 6-elektra magnit tebratgich; 7-suyuqlik nasjsi; 8-kanal



13.2-rasm. Tebranma yoy vositasida suyuqlantirib qoplashda elektrod materialining erishi va uning xarakat sikl sxemasi:
a-qisqa to‘nashuv; б-elektrondni ajratib olish; в- elektr yoyi xosil qilish; г-salt yurish

Kuchlanish ortadi va qisqa muddatli yoy razryadi paydo bo‘lishi uchun sharoit tugdirmaydi. Llektrodning erishi va uniug harakati tufayli elektrod va detai orasidagi masofa oshadi, tok kuchi sa ancha pasayadi va eiektr yoyining yonish davri tugay boshlaydi. Zanjirning induktivlik energiyasi hisobiga, unda o‘z-o‘zidan induksiyalanish eiektr yurituvchi kuchi hosil bo‘lib, elektroddagi kiichlanish ortadi. Tok matibaining nisbatan kichik kuchlanishlari (12-22 V) da eiektr yoyining yonish kuchlanishi 30-35 V ni tashkil qiladi. Agar induktivlik yetarli bo‘lmasa, elektr yoyi ochadi va sail yurish davri boshlanadi. U keyingi qisqa tutashuvgacha davom etadi. Salt yurish davrida elektrodning uchi va detaining sirti biroz soviydi, bu metaltami erilish uchun qo‘srimcha energiya talab qidi. Shuning uchun, iloji boricha salt yurish davrini kamaytirish zarur.

Tok manbai sifatida PSO-500 markali generator qo‘llaniladi. Elektr yoyining barqaror yonishi uchun payvandlash zanjiriga RSTe-ladi. Elektrod sifatida, asosan. 24 markali barqarorlovchi drossel uiai uglerodli va legirlangan, diamtri 1,6-2,5 mm bo‘lgan Sv-208A. Sv-18XGSA markali simlaT ishlataladi. yegilgan detallarni la’mirlashda tebranma yoy vositasida eritib qoplash, odatda. sovituvchi suyuqiik biian amalga oshiriladi. Bu esa elektr yoyi issiqligining detaiga ta’sirini kamaytiradi, suyuqantirilgan asosiy metallnirtg sovish tezligini oshiradi va uni havo ta’siridan himoya qiladi. Sovituvchi suyuqiik sifatida kaustik sodaning suvdagi 3-6% li eritmasidan foydalanish mumkin. Lining tarkibida oson ionlashadigan, elektr yoyining barqaror yonishini yaxshilaydigan va metaltni zanglashdan saqlaydigan

elementlar bor. Sovituvchi suyuqliklar sifatida quyidagi eritmalar ham ishlatalishi mumkin: kaustik sodaning suvdagi 5% li eritmasi; 1% kir sovuni va 0,5% glitserinning suvdagi eritmasi; kauslik sodaning suvdagi 6% li eritmasi.

Tebranma yoy vositasida eritib qopfash usulida (sovituvchi suyuqiik qo'llanilgan holda) uncha katta bo'magan o'zgaruvchan yuklanishlarda ishiovchi, yeyilishga yuqori darajada chidamlilik talab qilinmaydigan detallar tiklanadi, chunki sovituvchi suyuqlikda toblangan metall qatlami bir xil strukturaga ega bo'lmaydi, buning natijasida uning loliqishga mustahkamligi pasayadi. Bunday detallarga rrtolorlamirig gaz taqsimlash vallari, totmozlaming kengaytiruvchi kulachoklari. Hashish muftasiiing qo'shuvchi vilkalari, uzatmalar qiitisining valiari va hoshqalar kiradi.

Tebranma yoy vositasida eritib qoplash rejimlari. Suyuqlantirib qoplangan metall tjatlamining qalinligi:

$$h = u + x.$$


bunda u -detaiga mexanik ishlov brilganltgt hisobga olingaji holdagi umumiy yilish miqdori. mm; x -mexanik ishlov uchun qoldirilgan qo'yim, mm.

yeyilish miqdori 0,1 mm dan kichik bo'lsa, sifatli yuza olish uchun eritib qoplashdan oldin yuzani yo'nish yoki bir tomonga 0,15...0.20 mm qaiinlikda jilvirtash krak. Suyuqlantirib qoplashda detaining avlanishlar soni:


Diamelri 1,8 mm bo'lgan eiektrod simining uzatilish tezligi 1,2-1,4 m/min atrofida qabul qilinadi. Agar eleklrod simining diametri bundan kichikroq yoki kattaroq bo'lsa. uning uzatilish tezligi maxsus formula yordamida aniqlanadi.

Karbonat angidrid (CO_3) muhitida suyuqlantirib ta'mirlash korxonalari amaliyotida llyus qatlami payvandlashning qimmatbaholigi, payvandlanayotgan joyni ko'rib bo'imasligi tufayli yeyilgan detallarni himoya gazlari karbonat angidrid, suv bug'i va hokazolar yordamida eritib usuilari bilan ta'miriash mumkin. Bulardan karbonat angidrid i eritib qoplash usuli ko'proq tarqalgan. Bunda suyuqiantirilgan havo ta'siridan himoyalashda flyus o'mniga karbonat angidrididan foydalilanildi. 13.3-rasmda silindrsimon detallarni karbonat angidrid gazi muhitida aviomatic eritib qoplash sxemasi keltiriigan. Elektrod simi 5 ma'lum izlikda kassetadan lo'xtovsiz, mundshtuk 1 poynagi orqali elektr yoyi sohasiga uzatiladi. Karbonat angidrid gazi shlang 2. gorelka 3 soplosi orqali eiektr yoyining yonish sohasiga uzatiladi. U yerda poynak 4 va elektr simi 5 ni qamrab o'tishi natijasida payvandlash zonasini va suyuqlaittirib qoplanadigan metallni havoning salbiy la'siridan himoya qiladi.

Aslida. karbonat angidrid gazi suyuqianlirilgan metallni havoning salbiy ta'sindan himoyalasada. yuqori harorat ta'sirida u parlianadi (termik dissoisiatsiya) va atom xilidagi kislorod hosil bo'ladi:



Atom holidagi kislorod sa suyuqlantirilgan metal! bilati kimyoviy reaksiyaga kirishishi natijasida uni oksidlaydi. Oksidianish reaksiyasini bartaraf qilish bok melalidagi yoki payvandlash vannasidagi ok^idlarni qaytarish orqali amalga oshiriladi.




13.3-rasm Silindrsimon detallarni karhonui angidrid gazi muhitida aviomatik suvuqlantirnh qoplash sxemtisi


1-nmmishink- 2-shhmv,: 3-goreIka; 4-pontak. 5-eIektrod

Chok metalidagi oksidlarni qaytarish uliun tarkibida *ko'proq* margans va kremniy (bit elementlar yaxshi qaytartivchi hisoblanadi) elementlari bo'lgan elektrod simlar ishlatiladi. Selmning iichun liam karbonat angidrid ga/i muhitida payvandlash uchun tarkibida yuqori miqdorda kremniy (0,4...0,6%) va marganes (0,4...1,0%) bo'lgan payvandlash simian qo'llaniladi. Odatda, qo'lida eiektr yoyi vositasida payvandlashda qo'llauiladigan elektrodlarda kremniyning miqdori 0,03% dan, marganesniki esa 0,35% dan oshmaydi.


liritib qoplashda temir kafbonat angidrid gazi va kislorod bilan qtiyidagi kimyoviy reaksiyalarga kirishadi:



Marganes va kremniy tmir oksidi (FeO)dagi kislorod bilan birikib, oksidlanadi:



Kremniy (SiO_2) va marganes (MnO) oksidi suyuq metallda ■ iiinaydi. Ular bir-biri ariga ta'sir qilib, oson eriydigan birikmalar hosil qiliidi va shlak ko'rinishida chok sirtiga qalqib chiqadi. Bundan lashqari. Mn va Si chok metalida g'ovakchalar hosil bo'mishining oldini oladi. chunki tmir oksidi (FeO) uglerod bilan reaksiyaga kirishib, qnytariladi:



Hosil bo'lgan uglerod oksidi (CO) suyuq metallda erimaydi va ptifak shaklida undan ajralib chiqadi.

Karbonat angidrid gazi muhitida payvandlashda termik ta'sir sohasi anlia kichik bo'lib, melallning qivshayishi ftob lashlashi) kamayadi. Hn mazkur gazning sovituvchanlik ta'siri tufayli yuz beradi.

Karbonat angidrid gazi 6-5 MPa bosim ostida maxsus ballonlarda suyuq holalda saqianadi. 1 kg karbonat angidrid hug'latilsa, normal sharoitda 509 1 karbonat angidrid gazi hosil bo'ladi.

Payvandlash o'zgarmas tokda teskari qutblilikda olib boriladi, chunki o'zgamvchan tokda eiektr yoyining barqaror yonishini ta'minlash ancha murakkab hisoblanadi.

| Ta'mirlanadigan detal diametri, mm | Tok kuchi, A | Elektr yoyi kuchlanishi, V | Suyultirib qoplash tezligi, m/soat |
|------------------------------------|--------------|----------------------------|------------------------------------|
| 10...20 | 70...95 | 18...19 | 20...60 |
| 20...30 | 90...120 | 18...19 | 30...60 |
| 30...40 | 110...140 | 18...19 | 40...60 |

13.1-jadvalda karbonat angidrid gaxi muhitida silindrsimon delallami diamtri 0,8-1,0 mm bo'lgan elektrod simi bilan eritib qoplash rejimlari keltiriigan.

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni flyus qatlarni ostida payvandlash jarayoni qanday olib boriladi?
2. Flyus valektrod qoplamasini qanday vazifalarni bajaradi?
3. Tebranma yoy vositasida eritib qoplash jarayoni qanday olib boriiadi?
4. Karbonat angidrid muhitida eritib qoplash jarayonini tnshuntiring.
5. Payvandiashda tnnik ta'sir zonasini qanday paydo bo'ladi va irnga qarshi kurashislmning qanday turlari mavjud?

7-ma'ruza **Detallarni metallash yo'li bilan tamirlash.** **Metallahash turlari**

Reja.


1. Yeyilgan detallarni sirtiga metal kukunlarini purkash.
2. Gaz alangasida purkash.
3. Plazmali purkash.

Yeyilgan detallarni sirtiga metal kukunlarini purkash orqali ham ularni tiklash mumkin. Bu jarayonning mohiyati shundaki, oldindan suyuqlantirilgan metall, tiklanadigan detallning sirtiga siqilgan gaz (havo) oqimi bilan purkaladi. Purkalgan metall detaining sirtiga urilganda deformasiyalanadi, sirdagi g'ovaklarni va notejisliklarni to'ldirib, qoplam hosil qiladi.

Bu usulning afzalliklariga quyidagilarni keltirish mumkin: ish unumdorligini yuqoriligi; detaining biroz ($120\ldots180^\circ S$) qizishi, qoplaming yeyilishiga yaxshi chiddamliligi; texnologik jarayonning va qo'llaniladigan uskunaning oddiyligi; har qanday metall va qotishmalardan qalinligi $0,1\ldots 10$ mm va bundan qalin qoplamalar olish mumkinligi. Qoplaming unchalik mustahkam bo'lmashligi va detaining sirtiga sust ilashishi bu usulning kamchiligi hisoblanadi.

Metall purkash apparatlarida foydalaniladigan energiya turiga qarab purkashning gaz alangali, elektryoyli, yuqori chastotali, detonasion va plazmali purkash usullari mavjud.

Gaz alangalarini purkash maxsus uskunalar yordamida bajariladi. Bunday uskunalarning birnechta turi mavjud bo'lib shulardan birining chizmasi 15.1-rasmida ko'rsatilgan




15.1-rasm. Gazli alanga purkagich uskunasi:

1-alarashtrish kamerasi; 2-kislorod kanali; 3-sim; 4-yo'naltiruvchi vtulka; 5-asetilen kanali; 6- havo kanali; 7-alanga; 8-gazmetall oqimi; 9-detal.

Bunda metall sim 3 yoki metall kukunlari asetilen-kislorod alangasi 7 yordamida suyuqlantiriladi va siqilgan havo oqimida detal sirti 9 ga purkaladi. Gazli alanga purkagich uskunasining afzalligi shundaki, bunda detal kam oksidlanadi, suyuq metall mayda zarrachalarga parchalanib purkaladi; qoplama yetarli darajada mustahkam bo'ladi. Bu uskunaning kamchiligi qilib konstruksiyasining murakkabligi va unumdorligini pastligini ko'rsatish mumkin. Shunday uskunaning yuqori chastota bilan ishlovchi turi 15.2-rasmida ko'rsatilgan.

Yuqori chastotali purkash suyuqlantiriladigan ashyo (sim) ni induksion qizdirib suyuqlantirishga asoslangan. Suyuqlantirilgan metall detal sirtiga siqilgan havo oqimi bilan purkaladi. Bu uskunada metald sim 6 asetilen-kislorod alangasi 2 yordamida suyuqlantiriladi va siqilgan havo oqimida detal sirti 1 ga purkaladi. Suyuqlantirib purkaladigan sim 6, roliklar 7 yordamida yondirgichdagi yo'naltiruvchi vtulka 8 ning markaziy teshigi orqali alanga joyiga uzatiladi va bu joyda sim yuqori harorat ta'sirida suyuqlanadi. Uskunani sovutish maqsadida uning ichidagi suv yo'liga suv beriladi.



15.2-rasm. Yuqori chastotali purkagich uskunasi:

1-detal; 2-gazmetall oqim; 3-tok kondensatori; 4-induktor; 5-havo kanali; 6-sim; 7-suruvchi roliklar; 8-yo'naltiruvchi vtulka.

Yuqori chastotali purkashning afzalligi shundaki, bunda metallning qizish haroratini rostlash mumkin bo'lganidan u oz miqdorda oksidlanadi va qoplamaning mexanik mustahkamligi yetarli darajada yuqori bo'ladi. Ish unumining nisbatan

pastligi, ishlatiladigan uskunaning murakkabligi va qimmatligi bu uskunaning kamchiligidir.

Plazmali purkash. Metall qoplama hosil qilishning bu usulida metallni detaining sirtiga purkash va yopishtirish uchun plazmali oqimning issiqlik va dinamik xossalardan foydalaniladi.

Purkaladigan ashyo sifatida metall kukuni ishlatiladi. Kukun me'yorlagichdan plazmotronning soplosiga vaqt birligida aniq miqdorda berib turiladi. Metall kukuni plazma oqimiga tushib, suyuqlashadi va oqimga qo'shilib, detal sirtiga yopishadi.

Purkash quyidagi tartibda bajariladi: tok kuchi 350...400 A., kuchlanish 60...70 V, plazma hosil qiluvchi gaz sarfi 30...35 1/min, kukun sarfi 5...8 kg/soat, detal sirtigacha bo'lgan oraliq 125...150 mm. Purkashning bu usuli eng istiqbolli hisoblanadi. Uning afzalliklari: jarayon yuqori unumli bo'ladi (purkaladigan metall sarfi 12 kg/soat gacha boradi), qoplama detallning sirtiga juda mustahkam yopishadi (50MPa gacha boradi), jarayonni boshqarish to'liq avtomatlashtirilgan, har qanday metall va qotishmalarni purkab qoplama hosil qilish mumkin.

Detallarni metall purkab tiklash texnologik jarayoni uchta asosiy ishdan: detal sirtini metall purkab qoplashga tayyorlash; purkash, purkalgandan keyin detallarga ishlov berishdan iborat. Metall purkash oldidan detal sirtiga purkab ishlov beriladi, shunda detal sirti g'adir-budur bo'lib, qoplamaning detalga mustahkam yopishishi ta'minlanadi.

Detallar sirtiga qoplama yotqizish qayta jihozlangan tokarlik dastgohlarida yoki maxsus kameralarida bajariladi. Detallar stanok patroniga, metall purkash apparati esa uning supportiga o'rnatiladi. Qoplama yotqizilgandan keyin detal atrof muhit haroratigacha sekin sovitiladi, so'ng talab etilgan o'lchamga etkazib ishlov beriladi.

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni metallash jarayoni qanday olib boriladi?
2. Metallashning qanday vazifalarni bajaradi?
3. Tebranma yoy vositasida eritib qoplash jarayoni qanday olib boriiadi?
4. Karbonat angidrid muhitida eritib qoplash jarayonini tnshuntiring.
5. Payvandiashda tnnik ta'sir zonasasi qanday paydo bo'ladi va irnga qarshi kurashislmning qanday turlari mavjud?

8-ma‘ruza

Metallangan qatlarning strukturasi qattiqligini yeyilishga chidamliligi va mustaxkamligi

Reja.


1. Plazma vositasida metallash usuli.
2. Metallash texnologiyasi.
3. Metallangan qatlarning strukturasi, qattiqligi yeyilishga chidamliligi va mustaxkamligi.

Katta miqdorda yeyilgan detallarni boshlang‘ich o‘lchamlari bo‘yicha ta'mirlashda yeyilishga qarshiligi yuqori, zanglashga turg‘un va boshqa

xususiyatlarga ega bo‘lgan qoplamlar olishda detallarni metallash usuli qo‘llaniladi.

Biror usulda mayda (3—30 mkm) o‘lchamga kelgunga qadar suyuqlantirilgan metall zarrachalarni detalning oldindan tayyorlab qo‘yilgan yuzasiga siqilgan havo oqimi yordamida katta (140—300 m/sek) tezlik bilan purkash jarayoni *metallah* deyiladi. Metalni suyuqlantirish va purkashda foydalaniladigan mexanizm *metallizator* deyiladi.

Detallarni metallash yo‘li bilan ta‘mirlash zamonaviy usullardan hisoblanadi. Metallahda o‘lchamlari 3—300 mkm bo‘lgan eritilgan metall zarrachalari siqilgan havo (yoki inert gaz) oqimida avvaldan tayyorlangan detal sirtiga 100—300 m/s tezlikda urilib, unda shu metall qatlamini hosil qiladi. Bunda detalning asosiy metali bilan purkalgan me tallning birikishi ular orasidagi mexanik va mo‘lekulyar bog‘lanishlar hisobiga sodir bo‘ladi.




15.1-rasm. Gaz alangasi vositasida metallashda ishlatiladigan metallizator purkash kallagining sxemasi:

1-siqilgan havo kanali; 2-atsetilin-kislorod aralashmasi uchun kanal;
3-uzatiladigan sim; 4-atsetilen-kislorod alangasi;
5-ta‘mirlanadigan detal

Purkaladigan materialni eritish usuliga qarab metallash gazli, elektri va plazmali turlarga bo‘linadi. *Gazli metallashda* yonilg‘i sifatida atsetilen, propan va boshqa gazlar qo‘llanilishi mumkin. 15.1- rasmda atsetilen-kislorod gazlari alangasida metallni qizitish va eritish sxemasi keltirilgan. Atsetilen va kislorod aralashmasi kanal 2 bo‘yicha berilib alanga 4 hosil qilinadi. Atsetilen-kislorod alangasi 4 metallizator soplosining markaziy teshiga orqali uzatiladigan sim 3 ni eritadi. Kanal 1 orqali o‘tayotgan siqilgan havo yordamida esa suyuqlantirilgan metall ta‘mirlanadigan detal 5 ning sirtiga purkaladi. Gazli metallashning afzalliklariga sifatli qoplama hosil qilinishi, legirlovchi elementlarning ko‘p miqdorda kuymasligi va oksidlangach zarrachalarning miqdori umumiy qoplama materialining 3% idan oshmasligi kiradi. Gaz bilan metallashning kamchiliklariga qoplama narxining yuqoriligi, qoplash uskunasining murakkabligi (gaz va kislorod bilan ta‘minlash manbaining zarurligi, metallovchi apparat va siqilgan havoni tozalovchi qurilmaning mavjudligi) ni kiritish mumkin.

Elektrli metallash elektrod simini eritish usuli bo‘yicha elektr yoyi vositasida va yuqori chastotali tok vositasida amalga oshiriladi. Ta‘mirlash korxonalari amaliyotida elektr yoyi vositasida metallash keng tarqalgan. Elektr yoyi vositasida metallash sxemasi 15.2-rasmda keltirilgan. Bir-biridan tok o‘tkazmaydigan qilib ajratilgan, kuchlanish ostida bo‘lgan ikki sim 1 maxsus mexanizm 2 yordamida poynakning yo‘naltiruvchisi 3 bo‘yicha o‘zgarmas tezlikda uzatiladi. Bu simlarning uchlarida hosil

bo‘lgan elektr yoyi 5 yonadi va ularni eritadi. Erigan sim materiali kanal 4 orqali bosim ostida uzatiladigan gaz yordamida detal 6 yuzasiga purkaladi. Yuqori chastotali tok vositasida metallashning elektr yoyi vositasida metallashdan farqi metallni eritishda yuqori chastotali tokning induktivligidan foydalanilganlidir.




15.2-rasm. Elektr yoyi vositasida metallash sxemasi:

1-kuchlanish ostidagi sim; 2-sim uzatuvchi maxsus mexanizm; 3-poynakning yo‘naltiruvchisi; 4-gaz kanali; 5-elektr yoyi;
6-ta'mirlanadigan detal

Elektrli metallash yuqori ish unumi va tejamkorligi bilan ajralib turadi. Gaz bilan metallashda alanga temperaturasi 3000°S atrofida bo‘ladi, elektrli metallashda esa temperatura 4000°S dan oshadi. Elektrli metallashning kamchiliklariga elektrod simi tarkibidagi ximiyaviy (shu jumladan, legirlovchi) elementlarning kuyib ketishi, koplanadigan metallning oksidlanishi va eritilgan metallning ko‘proq isrof bo‘lishi kiradi.

Plazma vositasida metallash usuli gazlarning ma'lum sharoitda plazma holatiga o'tish hususiyatiga asoslangan. Plazmali metallashda metall plazma oqimi ta'sirida eritilib, plazma hosil qiluvchi gazlar yordamida detal yuzasiga purkaladi. Bu usulning boshqa usullardan farqi unda detallarni qiyin eriydigan volfram, sirkoniy dioksidi, alyuminiy oksidi, molibden va boshqa elementlar bilan ta'mirlash imkonini borligidadir.



15.3-rasm. Plazma-yoy metallizatori kallagining sxemasi:

1-qiyin eriydigan sim; 2-uzatuvchi mexanizm; 3-kallak poynagi; 4-xalqasimon elektrod; 5-elektr yoyi; 6-sovutish bo‘shilg‘i; 7-gaz kanali

15.3-rasmda plazma-yoy metallizatori kallagining sxemasi keltirilgan. Qiyin eriydigan sim 1 uzatuvchi mexanizm 2 yordamida xalqasimon elektrod 4 ga uzatiladi, bu elektrod vazifasini suv bilan sovitiladigan kallak 3 poynagi bajaradi. Kallak ishlayotganda elektr yoyi 5 bir-biridan izolyasiya qilingan uzlusiz uzatiladigan sim bilan halqasimon elektrod o‘rtasida hosil bo‘ladi. Elektrod yoyini yoqish va uni barqarorlashtirish

yuqori chastotali yurgizuvchi qurilma bilan amalga oshiriladi. Plazma hosil qiluvchi gaz (masalan, argon) kanal 7 orqali elektr yoyining yonish joyiga uzatiladi, yuqori temperatura ta'sirida gaz ionlashadi va tok o'tkazuvchan bo'lib qoladi. Elektr yoyining energiyasi magnit maydoni ta'sirida gaz oqimining markazida to'planadi, uning temperaturasi juda yuqori ($14000\dots 17000^{\circ}\text{S}$) bo'ladi. Metallash kallagi kamera 6 ga keluvchi suv bilan sovitiladi.

Ximoyalovchi va plazma hosil qiluvchi neytral gazlar sifatida argon, azot va ularning aralashmalaridan foydalanish legirlovchi elementlarning kuyishini va zarrachalarning oksidlanishini kamaytirishga yordam beradi. Shuning uchun ham plazmali metallashda hosil qilingan qatlamlarning mexanik mustahkamligi elektrli metallashda hosil qilingan qatlamlarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

Metallash jarayonining mohiyatini quyidagi gipoteza orqali tushuntirish mumkin. Purkalanadigan metall zarrachalari juda katta (100—300 m/sek) tezlikda detal yuzasiga uriladi, uchib urilish vaqtida kichik (0,003 sek) bo'lgani uchun ularsovishga ulgurmaydi, ya'ni ta'mirlanadigan detal sirtigacha erigan holatda yetib boradi. Shuning uchun ham bunday metall zarrachalari detal yuzasining g'adir-budurliklarini to'lg'izib qolmasdan, balki uzining orqasidan uchib kelayotgan zarrachalar bilan ham mustahkam bog'lanish hosil qi-ladi. Bir vaqtning uzida berilayotgan sovuq havo metall zarrachalarining detal yuzasida tezda sovishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham metallashda detallar kam qiziydi, bu esa yog'och va qog'oz kabi materiallarni ham metallash imkonini beradi.

Metallash texnologiyasi

Metallash texnologik jarayoni detal sirtini metallashga tayyorlash, metall qatlamini hosil qilish va metallashdan so'ng detal yuzasiga ishlov berish bosqichlaridan iborat.

Detal yuzasini metallashga tayyorlash. Metall zarrachalarining o'rashish mustahkamligi ko'p jihatdan detal yuzasini metallashga tayyorlash sifatiga bog'liq. Qoplama materiallari zarrachalarining asosiy metall yuzasiga o'rashish mustahkamligi ta'minlanishi uchun ta'mirlanadigan detal yuzasida oksidlar, namliklar, yog'lar va boshqa iflosliklar bo'lmashligi hamda mazkur yuza g'adir-budurlikka ega bo'lishi kerak. Ushbu talablarni hisobga olgan holda detal yuzasini metallashga tayyorlash detalni yog'sizlantirish va tozalashni, unga to'g'ri geometrik shakl berish uchun xomakiga ishlov berishni, yuzada g'adir-budurlik hosil qilish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Detalning yuzasini tozalash va yog'sizlantirish avval ko'rib o'tilgan usullardagi kabi amalga oshiriladi. Detalga to'g'ri geometrik shakl berish uchun unga xomaki ishlov berish metall kesish stanoklarida bajariladi. Yuzani metallashga tayyorlashda unda g'adir-budurlik hosil qilishning keng tarqalgan usullari detalga po'lat kukunlari bilan ishlov berish, yuzani nakatkalash, detal yuzasiga simlar urash yoki elektr uchquni bilan xomakiga ishlov berishdan iborat.

Istalgan qattiqlikdagi detal yuzasini metallashga tayyorlashning mukammalroq va unumliroq usullaridan biri po'lat kukunlari bilan purkab ishlov berishdir. O'lchamlari 0,8—1,5 mm bo'lgan po'lat kukunlarini 0,4—0,6 MPa havo bosimi ostida 25—40° li burchak bilan purkash tavsiya qilinadi. Purkash natijasida detal yuzasida hosil bo'lgan naklyop qoplamaning asos bilan yaxshi yopishishini ta'minlaydi.

Detalning qattiqligi NV 325 dan katta bo'lganda sim o'rash usulidan foydalaniladi. Bunda detal tokarlik stanogining markazlariga mahkamlanib, simning bir uchi xomut yordamida detalning qoplanmaydigan tomoniga qotiriladi, simning ik-kinchi uchi esa yog'och tutqichlarning qiskichlari orasidan o'tkaziladi. Stanok ishga tushirilgach, sim detal yuzasiga o'raladi.

Simning diametri 1—1,5 mm, o'ram qadami esa sim diametridan 3—5 marta katta qilib olinadi.

Detal yuzasining qoplanmaydigan qismlari pergamer qog'ozi, karton yoki temir listdan yasalgan ekran bilan himoya qilinadi. Metallashni yuzani tayyorlash tugashi bilanoq, ya'ni tayyorlangan yuzaning oksidlanishi ro'y bermasdan o'tkazish zarur. Yuzani tayyorlash va metallash orasidagi vaqt 1,5—2 soatdan oshmasligi lozim.

Metall qatlaminini hosil kilish. Kundalang kesimi doiradan iborat bo'lgan detallarning yuzasini metall bilan qoplash uchun tokarlik stanoklaridan foydalaniladi. Bunda detal stanokning markazlariga yoki patroniga mahkamlanadi, metallovchi uskuna esa stanokning supportiga o'rnataladi. Gazli va elektrli metallashda sim materialining qovushoqligini kamaytirish maqsadida metallashdan oldin uni 800—900°S da yumshatib, qum bilan tozalanadi. Detallarni metallash uchun ishlatiladigan simlar 65 G markali pulatdan yasaladi.

Metallashdan so'ng detal yuzasiga ishlov berish. Detallar yuzasida metall qatlami hosil qilingandan so'ng unga kerakli ko'rinish va o'lcham berish uchun mexanik ishlov beriladi. Purkalgan katlamning qattiqligi detal asosiy metalining qattiqligidan yuqori bo'lganligi hamda oksid pardalarining mavjudligi tufayli unga yakuniy ishlov berishda ancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tokarlik stanogida ishlov berishda tez kesuvchi po'latlardan yasalgan va qattiq qotishmali plastinkalardan iborat keskichlar qo'llaniladi. Bunda T15K6 qattiq qotishmadan tayyorlangan plastinkali keskichlar yaxshi ko'rsatkichlarga ega.

Keskichlarni noto'g'ri charxlash va tezligi yuqoriroq rejimda kesish natijasida purkalgan qatlam tiklangan detal yuzasidan ko'chishi yoki yulinib chiqishi mumkin. Tarkibida 0,30% gacha uglerodi bo'lgan po'lat simdan hosil qilingan metall katlamni hamda rangli metalldan hosil qilingan qoplamar yo'niladi va shundan so'ng jilvirlanadi. Tarkibida 0,30% dan ortiq uglerodi bo'lgan qoplamariga tokarlik ishlovi berib bo'lmaydi, shuning uchun ham ular faqat jilvirlanadi. Metallangan qatlamni jilvirlashning asosiy kamchiligi jilvirlash toshlarining tezda moylanishidir, bu esa ularni tez-tez tozalab turishni talab qiladi.

Metallangan qatlarning strukturasi, qattiqligi yeyilishga chidamliligi va mustahkamligi

yeyilgan detallarni metallash yo‘li bilan ta’mirlashda qoplamaning strukturasi, qattiqligi, yeyilishga chidamliligi va mexanik mustahkamligi katta axamiyatga ega.

Qoplamaning strukturasi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, detallar yuzasiga metallash usulida qoplangan po‘latning mikrostrukturasi kristalli strukturaga ham, elektrolitik qoplamalar strukturasiga ham o‘xshamaydi. Metallash yo‘li bilan hosil qilingan qoplama strukturasining asosiy komponenta trostit-martensitdan iborat bo‘lib, unda g‘ovakliklar va ayrim zarrachalar atrofida yupqa pardalar tarzidagi juda ko‘p oksid qatlamlari hosil bo‘ladi. Qoplama metalida g‘ovakliklar bo‘lganligi uchun uning zichligi quyma metalnikidan pastroq bo‘ladi. Koplama metalining g‘ovakligi uning strukturasini tashkil qiluvchi zarrachalarning qattiq yoki plastik holatda hosil bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Qoplamaning qattiqligi. Qoplamaning qattiqligi va mo‘rtligi detalning yuzasini metallash uchun ishlatilgan materialning qattiqligi va mo‘rtligiga qaraganda ancha katta bo‘ladi. Po‘lat qoplamalar qattiqligining yuqori bo‘lish sababi detalning metallanayotgan yuzasiga purkalgan yuqori temperatu- rali metall zarralarining silqilgan havo oqimi ta’sirida tez sovishi natijasida toblanib qolishidir. Bundan tashqari, katta tezlik bilan uchib borayotgan po‘lat zarrachalari detal yuzasiga yoki avval qoplangan zarrachalar ustiga borib uriladi. Buning natijasida yuza naklyoplanadi va qoplamaning qattiqligi yanada oshadi. Qoplamaning juda qattiq bo‘lishi oksidlar hosil bo‘lishi tufayli sodir bo‘ladi, degan fikrlar uncha to‘g‘ri emas, chunki qoplama qattiqligining ortishi suyuq po‘lat inert gaz vositasida purkalganda ham kuzatiladi. Qoplama qattiqligining oshishi qattiq zarrachalarning toblanishi natijasida sodir bo‘ladi, degan fikr qoplamani termik ishslash natijasida tasdiqlandi. Agar yuzasi metallangan detal bo‘shatilsa, qoplamaning qattiqligi pasayadi.

Qoplamaning qattiqligi metallash rejimiga, shuningdek, suyuqlantirib purkaladigan po‘lat simning ximiyaviy tarkibiga, ayniqsa, undagi uglerod miqdoriga bog‘liq. Uglerod miqdori ortishi bilan qoplamaning qattiqligi ortadi. Qoplamaning qattiqligini standart asboblar bilan aniqlash mumkin, biroq bu asboblarning barchasi ham purkalgan metall zarrachalarning xaqiqiy qattiqligini aniqlash imkonini bermaydi, chunki qoplama ancha g‘ovak bo‘lganligi tufayli bir jinsli emas. Ammo, amalda qoplamaning ayrim qismlari qattiqligining o‘rtacha qiymatlarini aniqlashda mazkur asboblardan keng foydalilaniladi.

Qoplamaning yeyilishga chidamliligi. Qoplama g‘ovak bo‘lganligidan moyni shimadi va sirtida moy pardasini yaxshi tutib turadi. Tajriba ma'lumotlari qoplama metalining ishqalanish koeffitsienti toblangan yuzalarning ishkalanish koeffitsientiga Karaganda 12—40% kichik bo‘lishini ko‘rsatdi. Qoplamaning o‘z sirtida moy pardasini yaxshi tutib tura olish xususiyati, ayniqsa, mashinani ishga tushirishda muxim axamiyatga ega, chunki bu vaqtida mashinaning xarakatlanuvchi qismlarida yarim quruq ishqalanish sodir bo‘ladi. Keltirilgan omillarning barchasi

moylab turiladigan sharoitda metallangan detallarning yejilishga chidamliligi metallanmagan detallarnikiga qaraganda ancha yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Moysiz sharoitda, ya'ni quruq ishqalanishda qoplamaning yejilishga chidamliligi pasayadi shuning uchun ham kuruq ishkalanuvchi detalning ishlash imkoniyatini metallash usuli bilan tiklash tavsiya etilmaydi.

Qoplamaning mexanik mustahkamligi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, purkalgan metallning chuzilishdagi mustahkamligi asosiy metallnikiga qaraganda ancha kichik bo'ladi. Chunonchi, tarkibida 0,35% uglerod bo'lgan po'lat simning purkalishidan xosil bo'lgan qatlamning cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi 18 Pa ga teng bo'ladi; bunday qatlamning siqilishdagi mustahkamlik chegarasi yetarli darajada yuqori bo'lib, 150 Pa ga yetadi.

Metallash usuli bilan ta'mirlanadigan detallarda yuklanishni ikkala metall, ya'ni detalning asosiy metali va unga koplangan metall birgalikda qabul qiladi. O'tkazilgan bir qancha tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

yuklanishni asosiy metall bilan qoplama metali birgalikda qabul qilganligi tufayli, detalning mexanik xossalari faqat metallning mexanik xossalari belgilaydi;

o'zgaruvchan eguvchi kuchlanishlarda koplamaning toliqish chegarasi past bo'ladi, asosiy metallning toliqish chegarasi esa qoplama hisobiga biroz ortadi;

qoplamaning qalinligi ortishi bilan detalning egilishga ko'rsatadigan qarshiligi (agar kuchlanish asosiy metall kesimi bo'ylab hisoblansa) bir qadar oshadi, egilishdagi solqilik esa qoplamaning qalinligiga deyarli bog'liq bo'lmaydi;

qoplamaning buralish burchagi asosiy metallning buralish burchagiga nisbatan uncha katta bo'lmaydi.

Shunday qilib, metallangan detallarning mustahkamligini hisoblashda detalning metallanishdan oldingi o'lchamlarini hisobga olish kerak. Faqat siqilish ta'sirida bo'lgan detallar uchun kuchlanishni (yuklanishni) oshirish mumkin, chunki qoplama siqilishga yetarli darajada qarshilik ko'rsata oladi. Metallash usuli bilan mexanik mustahkamligi yetarli darajada bo'lgan detallarnigina ta'mirlash mumkin.

Sinov savollari va topshiriq

1. Detallarni ta'mirlash usullarining tasnifi nimalardan iborat?
2. Detallarni mxanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash qanday usiillarni o'z ichiga oladi?
3. Val ho'yni uchun ta'mirlash o'lehamini aniqlash ketma-ketligini tushuntiring.
4. Teshik uchun ta'mirlash o'lchamlari qanday antqlanadi?

9-ma'ruza

Detallarni galvanik qoplama qoplash yo'li bilan ta'mirlash

Reja.

1. **Galvanik qoplama qoplash yo'li bilan ta'mirlash.**

2. Temirlash.
3. Po'latlash

Galvanik qoplash elektr tok ta'sirida metall tuzlarining eritmasidan metallarning ajralib olish xossasiga asoslangan. Detal tok manbaining manfiy qutbiga (katodga) ulanganda, uning yeyilgan sirtiga metall o'tiradi. Tok manbaining musbat qutbiga ulangan anod ikkinchi elektrod sifatida xizmat qiladi. Ikkala elektrod ajraladigan metall tuzlarining eritmasiga joylanadi.

Galvanik va kimyoviy qoplamlalar detaining yeyilgan joyini to'ldirish uchun yotqiziladi, shuningdek ulardan zanglashdan saqlaydigan yoki pardoz qoplamlalar sifatida foydalaniladi. Galvanik qoplash usullaridan xromlash, temirlash, nikellash, ruxlash va mislash, kimyoviy qoplash usullaridan esa, oksidlash va fosfatlash keng qo'llaniladi.

Galvanik qoplamlalar detalga yotqizilishi zarur bo'lgan metallarning suvdagi eritmasidan tuzilgan elektrolitlardan olinadi. Bunda detal katod, metall plastina esa anod vazifasini bajaradi. Elektrolitdan tok o'tganda katod (detal) ga metall o'tiradi, anod esa eriydi (16.1-rasm).


Detallarga qoplama yotqizish texnologik jarayoni detallarni qoplama yotqizishga tayyorlash, qoplama yotqizish va qoplama detal largi ishlov berishdan iborat.

Galvanik qoplamlalar detallarni ortiqcha qizdirib yubormagan holda yeyilgan sirtlarni to'ldirish va ularni boshlang'ich o'lchamlariga keltirib tiklash imkonini beradi.

Xromlash jarayoni ko'pi bilan 0,25...0,3 mm yeyilgan detallarni tiklashda, shuningdek, zanglashdan saqlash uchun qo'llaniladi. Vallar, o'qlarning ishchi sirtlari, dumalash podshipniklari o'tqaziladigan sirtlar va boshqa detallar xromlash usulida tiklanadi. Xromli qoplamlalar ko'kimi tiroq rangda bo'ladi. Detalga yotqizilgan xrom qattiqligi 800...1000NV, yeyilish va zanglashga qarshiligi katta bo'ladi. Xrom bilan tiklangan detallarning xizmat muddati ish sharoitlariga qarab 4...10 marta oshadi. Xromli qoplamlarni xom va toblangan po'latlarga yotqizish mumkin.

Xromlash texnologik jarayoni detallarni xromlashga tayyorlash, xususan xromlash, xromlangan detallarni yuvish, zarur bo'lsa, mexanik ishlov berishdan iborat. Xromlashga tayyorlash detallarni kir, moy va zangdan tozalash, silliqlash, ishqorli qaynoq eritmada (kalsiy oksidi va magniy oksidining aralashmasida) yuvish, ishqalash, qaynoq va sovuq suvda yuvish, xromlanmaydigan joylarni berkitish, detallarni

osmaga o'rnatish, elektrolitik yog'sizlantirish kabilardan iborat. Detaining tiklanadigan sirti to'g'ri geometrik shaklga keltiriladi, chizilgan va tirmalgan joylar yo'qotilib, g'adir-budurligi 0,63...0,16 mkm ga keltiriladi. Detallar yuvish tog'aralarda va qo'lda yuviladi hamda g'adir-budurlik darajasiga qarab tanlangan jilvir tosh bilan silliqlanadi.



16.1-rasm. Detallarni elektrolitik vannada xromlash sxemasi:

a-xromlash qurilmasi; 1-qorg'oshin qoplaması; 2-vanna; 3-detal (katod); 4-qo'rg'oshin taxtasi (anod); 5-so'ruvchi quvur;
b-xromlash turlarining grafigi; 1-kulrang; 2-yaltiroq; 3-sutrang; 4-rangsiz

Mehanik ishlov berishda har tomondan olingan qatlam qalinligi 0,25 mm dan oshmasligi kerak. Detaining xromlanmaydigan joylari saponlak, selluoid, tasma va boshqalar bilan berkitiladi, teshiklar esa qo'rg'oshin tiqinlar bilan yopiladi, xromlana- digan sirtlar maxsus pastasi surtilib, elastik jilvir toshlar bilan yoki maydonli jilvir qog'oz bilan tozalanadi. Xromlashga tayyorlangan detal osmalarga o'rnatiladi va tog'orada elektrolitik yog'sizlantiriladi. Elektrolit tarkibi 50 g o'yuvchi natriy, 1 1 suvdan iborat; yog'sizlantirish tartibi; tok zichligi 5 A/dm^2 , elektrolit harorati $15\ldots20^\circ\text{S}$, elektrolitda tutib turish vaqtı $1\ldots2$ minut. Yog'sizlantirish sifati sirtlarning suvgaga xo'llanishiga qarab aniqlanadi. Oksidlar pardasini ketkazish uchun dekopirla- nadi. Oksid parda yotqiziladigan xromning asosiy detalga mustahkam yopishishiga to'sqinlik qiladi. Oksid pardasi N_2O ning 5% li eritmasida yoki tarkibi 100 g xrom angidrid, 2...3 g sulbfat kislota, 1 1 suvdan iborat eletrolit quyilgan tog'orada ketkaziladi. Ish tartibi: tok zichligi 5 A/dm^2 , elektrolit harorati $15\ldots20^\circ\text{S}$, kuchlanish $4\ldots5 \text{ V}$, tutib turish vaqtı 1 minutgacha boradi. Dekopirlashda detal anod bo'ladi. Dekopir- lashdan keyin detal oqar suvda yuviladi. Galvanik qoplashda ishlatiladigan xozirgi uskunalar tokning zichligini, elektrolitning konsentrasiyasini, qoplama qalinligini, elektrolitning haroratini, sathi va tarkibini, tokni yo'naltirish vaqtini rostlash imkonini beradigan avtomatik qurilmalar bilan jihozlanadi.

Detallar xrom angidridi va sulfat kislotaning suvdagi eritmasidan iborat bo'llan elektrolitda xromlanadi (16.1, a-rasm). Bunda anod sifatida qo'rg'oshin taxtasi 4 dan, katod sifatidi detal 3 ni o'zidan foydalaniladi. Vanna 2 ni himoyalash maqsadida unningichiga qo'rg'oshin qatlamı 1 qoplanadi va unga kerakli eritma solinadi. Anod va katodga o'zgarmas tok generatordan beriladi. Reaksiya ta'siri natijasida hosil bo'lgan zaharli gazlar quvur 5 orqali so'rib olinadi (16.1, a-rasm).

Elektrolitdagi xrom angidrid konsentrasiyasi $150\ldots400 \text{ g/l}$, sulbfat kislota konsentrasiyasi esa bundan 100 marta kam bo'lishi kerak.

Xromlash tartibi ikkita ko'rsatkich: tok zichligi p va elektrolit harorati t , ga qarab aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar nisbatini o'zgartirib, xrom qoplamasining xossa-

lari bilan farqlanuvchi uch turini: xira (kulrang), yaltiroq va sutrang (19.17, 6-rasm) xrom qoplamasini hosil qilish mumkin.

Yaltiroq xrom qoplamasini juda qattiq va yeyilishga chidamli, tashqi ko'rinishi chiroyli bo'ladi. Sutrang qoplama qattiqligi biroz kam qatlam hosil bo'ladi, u eyilishga chidamli va zanglashga qarshi xossalariga ega bo'ladi. Xira qoplamalar juda qattiq va mo'rt bo'ladi, lekin yeyilishga chidamliligi biroz kam bo'ladi.

Xromli qoplama juda qattiq bo'lib, unig yeyilishiga chidamliligi toblangan po'latnikidan 2...3 marta ortiq bo'ladi.

Xromlash usulida qoplashning kamchiliklariga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: jarayonining nisbatan kam unumligi (0,3 mm/soatdan oshmaydi); kuchli yeyilgan detallarni (0,3...0,4 mm dan qalinroq) tiklash mumkin emasligi; usulning qimmatligi.

Qoplash sifati anodlarning shakli va o'lchamlariga, shunigdek ularning katod (detal) ga nisbatan joylashishiga ko'p jihatdan bog'liq. Xrom qatlamining tekis qoplaniши anodlar soniga va kuch chiziqlarining joy lashishiga bog'liq. Detal xromlangandan so'ng yuviladi, uning sirtidagi elektrolit qoldiqlari ketkazilib, oqar suvda qayta yuviladi. Osmalardan olingan detallar quritish xonasida (javonlarda) yoki qizdirilgan qipiqlarda quritiladi. Natijada xromlangan silliq qoplama hosil bo'ladi.

Tayyorlash ishlarining murakkabligi, jarayonning uzoq davom etishi sababli 0,3 mm dan ortiq yeyilgan detallarni tiklash mumkin emasligi, jarayon qimmatligi, tokning ko'p sarflanishi, xromlangan qatlamning yomon moylanishi xromlash usulining kam qo'llanilishiga sabab bo'lmoqda.

Temirlash - xlorli elektrolitlardan yeyilishga chidamli qattiq qoplamalar hosil qilish jarayonidir. Bu usul xromlash jarayoniga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega: xromlashdagiga nisbatan 5...6 marta kam tok sarf bo'ladi, qoplama tez hosil bo'ladi, qoplamaning hosil bo'lish tezligi 0,3...0,5 mm/soat ga etadi (xromlashdagagi tezlikdan 10... 15 marta katta); qoplama yeyilishga juda chidamli bo'ladi (toblangan po'latdan qolishmaydi); qalinligi 1... 1,5 mm va bundan qalin, qattiqligi 20...60 HRS bo'lgan qoplama hosil qilish uchun oddiy arzon elekrolitdan foydalanish mumkin.

Temirlashda elektrolit sifatida oz miqdorda xlorid kislota qo'shilgan xlorli temirning suvdagi eritmasi ishlatiladi. Xlorli temir konsentrasiyasi 200...700 g/1, xlorid kislutaniki esa 1...3 g/1 ni tashkil etadi. Temirlashda kam uglerodli po'latdan tayyorlangan anodlar ishlatiladi. Temirlash jarayonida po'lat (anod) yeriydi.

Bu usul ayrim hollarda detallarni tiklashda elektrolitik nikellash va xromlash o'rnini bosishi mumkin. Elektrolit sifatida sulbfat kislotali nikelning suvdagi eritmasi (vazniy konsentrasiyasi 175 g/1), xlorli nikelb (konsentrasiyasi 50 g/1) va fosforli kislota (konsentrasiyasi 50 g/1) ning suvdagi eritmasi ishlatiladi. Nikellash jarayonida nikelli anodlar elektrolitda yeriydi. Bunda tok kuchining zichligi 5...40 A/dm², elektrolit harorati 75...95°С oraliqda bo'lishi kerak.

Ruxlash. Qurilish va melioratsiya mashinalarining mayda mahkamlash detallari ruxlash yo'li bilan zanglashdan himoya qilinadi. Ruxlash sulbfat kislotali elektrolitlarda bajariladi. Bunday elektrolitlar tarkibiga sulbfat kislotali rux (200...250 g/1); sul'fat kislotali ammoniy (20...30 g/1); sulfat kislotali natriy (50... 100 g/1) va deksrin (8... 12 g/1) lar kiradi. Qoplama aylanadigan maxsus barabanlarda yoki qalpoqlarda yotqiziladi. Ruxlash jarayonida elektrolit harorati o'y haroratiga teng va tok kuchining zichligi 3...5 A/dnr oraliqda bo'lishi kerak.

Oksidlash - po'lat detallarga tarkibida oksidlovchi moddalar bo'lgan qaynoq ishqorli eritmalarda ishlov berish jarayonidir. Oksidlashda detallarning sirtida qalnligi 0,6...1,5 mkm li oksid parda hosil bo'ladi. Oksid parda juda mustahkam bo'lib, metalni zanglashdan muhofazalaydi.

Oksidlash uchun o'yuvchi natriy (konsentrasiyasi 700...800 g/1) eritmasidan foydalaniadi. Bu eritmaga oksidlovchi moddalar sifatida azot oksidli natriy (200...250 g/1) va azotli natriy oksidi (50...70 g/1) qo'shiladi. Oksidlash jarayoni eritma harorati 140...145°S bo'lganda 40...50 min davom etadi. Bunday ishlov berilgan detallar suvda yuvilib, qoplama dagi g'ovaklarni berkitish uchun uni mashina moyida (110...115°S) qaynatiladi.

Fosfatlash - po'lat detallar sirtida himoya pardalar hosil qiluvchi kimyoviy jarayondir. Himoya parda fosfor, marganes va temir tuzlaridan iborat bo'ladi. Parda qalnligi 8...40 mkm bo'lib, g'ovak biroz qattiq va yaxshi moslanuvchan bo'ladi.

Fosfatlash "Majef" dorisining suvdagi 30...35% li eritmasida 95...98°S haroratda 50...60 minut davomida amalga oshiriladi. Kuzov detallarini bo'yashga tayyorlashda grunt berish va detallarning ishlab moslanuvchanligini yaxshilashda qo'llaniladi.

Po'latlash - detallarning yeyilgan sirtiga qalnligi 3 mm gacha bo'lgan po'lat qatlamini elektrolitik usulda yotqizish jarayonidir. Bu usul ancha tejamli va unumli bo'lganligi sababli keyingi yillarda po'lat va cho'yan detallarni tiklashda keng qo'llanilmoqda. Po'latlashdagagi ish unumidorlik 0,5 mm/soatni tashkil etadi, bu esa xromlashdagiga nisbatan 15...20 hissa ortiq. Bu usulda transmissiyalarning vallari, shkivlar, cho'yan vtulkalar va boshqa detallar tiklanadi.

Po'latlashning afzalligi shundaki, bu usul bilan detal sirtiga o'tirgan qatlamni sementlash, toblast va bo'shatish mumkin.

Nikellash. Elektrolitik va kimyoviy nikellash detallarning yeyilishiga chidamlilagini oshirish, zanglashdan himoyalash va dekorativ qoplama hosil qilishda qo'llaniladi. Elektrolitik nikellash xromlashdagagi kabi tog'aralarda bajariladi, kimyoviy nikellash esa, detallarni eritmaga botirib, ma'lum haroratda tutib turish (elektr tokini ishlatmasdan), metallni yeyilgan sirtga o'tirishini ta'minlashdan iborat. Yonilg'i na-soslari va gidravlik asboblarining po'lat, mis va alyuminiy qotishmalaridan aniq tayyorlangan detallarini ta'mirlashda nikellash usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Uning yuqori unumidorligi bu usulning afzalligidir.

Mislash, yeyilgan va siqilgan bronza vtulkalarni tiklash, sirtlarni **sementlashda** muhofazalash, elektr asboblarining kontaktlarini tiklashda yoki xromlash va nikellash oldidan quyi qatlam sifatida qo'llaniladi.

Oqartirish-ta'mirlangan detallarning ishlab moslanishini yaxshilash uchun sirtlarga qalay qatlami ni yotqizishdan iborat.

Sinov savollari va topshiriq

1. Qo'shimcha ta'mirJash elementlari usulining mohiyatini tush untiring.
2. Dtal qismini almashtirish usulining mazmuni nimadan iborat?
3. Detallarni piastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash jarayoni tasnifini aytib bering.
4. Detallarni cho'ktirish, botirish va kengaytirish usullarida la'mirlash jarayonlari qanday amalga oshiriladi?

5. Detallarni cho‘zish, to‘g’riiasli va nakatkalash usullarida ta’mirlashning mohiyati nimalardan iborat?

10-ma‘ruza

Polimer materiallar. Yelimli materiallar

Reja.

1. Zamonaviy mashinalarni ta’mirlash.
2. Polimer materiallar.
3. Yelimli tarkiblar.

Zamonaviy mashinalarni ta’mirlashda har xil plastmassalar va yelimlar keng qo‘llanilmoqda. Plastmassalarning qo‘llanilishi polimer materiallarning keng miqyosdagi ijobiy xususiyatlaridan foydalanishga asoslangan. Bunday xususiyatlarga detallarni ta’mirlash yoki yasashning oddiyligi, yaxshi fraksion, antifriksion va dielektriilik sifatlari, mustahkamlshi, moy, benzin, suv va tebranishga turg‘unligi kiradi.

Asosi yuqori molekulyar organik birikmalardan iborat materiallar *plastmassalar* deb ataladi. Ular yuqori temperatura va bosim ta’sirida avvaldan belgilangan shaklni hosil qiladi va bu shaklni odatdagি sharoitda saqlay oladi. Plastmassalarning asosi sun’iy (sintetik) yoki tabiiy smolalar bo‘lib, ular bog‘lovchi material vazifasini bajaradi hamda uning kimyoviy, fizikaviy, mexanik va boiqa xususiyatlarini belgilaydi. Bog‘lovchi elementlardan tashqari, plastmassa tarkibiga to‘ldiruvchilar, plastiklovchilar, qotirgichlar, buyoqlar, tezlatkichlar va maxsus xususiyat beruvchi boshqa qo‘shilmalar xam kiradi.

To‘ldiruvchilar (metall qirindilari, portlandsement, paxta-qog‘oz to‘qimalari, asbestos, slyuda, grafit va boshqalar) plastmassalarning fizik-mexanik, friksion yoki antifriksion xususiyatlarini yaxshilash, issiqlikka chidamlilagini oshirish hamda mahsulotning tannarhini arzonlashtirish maqsadida qo‘llaniladi.

Plastiklovchilar (dibutilftolat, olein kislotasi va boshqalar) polimerlarga qovushqoqlik va oquvchanlik xususiyatini berish uchun xizmat qiladi.

Qotirgichlar (aminlar, magneziy, ohak va boshqalar) polimerlarni qattiq va erimaydigan holatga o‘tkazishga yordam beradi.

Buyoqlar (nigrozin, oxra, mumiyo, surik va boshqalar) polimerlarga rang beradi.

Plastmassalar ximiyaviy tabiatni bo‘yicha termoreaktiv (reaktoplastlar) va termoplastik (termoplast) guruhlarga bo‘linadi. *Reaktoplastlar* deb shunday plastmassalarga aytildiği, ular qizitilib, keyin sovitilgandan so‘ng issiqlikda va suyuqlikda erimaydigan holatga o‘tadi. *Termoplastlar* smola bo‘lib, isitilganda plastik holatga, sovitilganda esa qattiq holatga o‘tadi. Bu jarayon qaytariluvchi jarayon hisoblanadi.

Yelimli tarkiblar ta’mirlash korxonalari amaliyotida qo‘zg‘almas birikmalar hosil qilish uchun qo‘llaniladi. Masalan, friksion (ishqalanuvchi) ustqo‘ymalarni yelimlashda, darzlarni, tirnalgan joylarni berkitishda, galvanik vannalarni qoplashda, himoya qoplamlari berishda qo‘llaniladi.

Detallarni kavsharlash ham ajralmas birikmalar hosil qilish uchun qo'llaniladi. Kavsharlashda detallarda hosil qilingan tirqishga kiritilgan suyuqlantirilgan oraliq metall asosiy metall bilan o'zaro ta'sirda bo'lib, kristallanish natijasida kavsharlash choki hosil qiladi.


Polimer materiallar

Traktor detallarini ta'mirlashda polimer materiallardan keng foydalaniladi. Tarkibida epoksid smolasi, qotiruvchi (polietilenpoliamin), plastiklovchi (dibutilftolat) bo'lgan boshqa polimer materiallar ustaxonalar sharoitida darzlarni, teshiklarni ta'mirlashda, yeyilgan qo'zg'almas birikmalar yuzalarini; rezbali birikmalarni va truboprovodlarni ta'mirlashda ishlatiladi.

Detallarni epoksid smolasi asosidagi polimer materiallar bilan ta'mirlashda asosiy bog'lovchi komponentlarning tarkibini epoksid smolasi tashkil etadi. Epoksid smolasi kovushoq, pishiq, jigarrang massa bo'lib, asosan, detallarni ta'mirlashda qo'llaniladi. ED-6 asosidagi epoksid kompozitsiyasini tayyorlash texnologiyasi quyidagicha: massa bo'yicha 100 qism smola, 10—15 qism dibutilftolat (plastiklovchi), 160 qismgacha to'ldiruvchi va 7—8 qism polietilenpoliamid (qotiruvchi). To'ldirgichlar temir kukuni (160 qism), alyuminiy upasi (20 qism), 500 markali sement (120 qism) dan iborat. Epoksid smolasi idishda 60—80°S temperaturagacha isitilady, plastiklovchi qo'shib aralashtirgandan so'ng esa to'ldirgichlar qo'shib, yana aralashtiriladi. qotirgichlar kompozitsiyani ishlatish oldidan qushilishi kerak, chunki shundan so'ng aralashmadan 20—30 minut ichida foydalanish lozim.

Epoksid smolalari—70 dan +120°S oralig'ida ishlovchi detallarni ta'mirlashda qo'llaniladi. 17.1-jadvalda epoksid smolasi asosida aralashma tayyorlash uchun tavsiya qilingan to'ldirgichlar miqdori keltirilgan.

Epoksid asosidagi aralashmalar korpus detallar (silindrlar bloki, agregat karterlari va boshqalar) dagi darz va teshiklarni ta'mirlash, qo'zgalmas va rezbali birikmalarni tiklash uchun qo'llaniladi. Misol tarikasida, darzni ta'mirlash jaraenini ko'rib chiqamiz. Darzning chegarasini cheklash uchun uning chetlarini 2—3 mm li parma bilan teshib, so'ngra butun darz bo'yicha chuqurligi 2—3 mm bo'lgan 60—70° li faska ochiladi (17.1 raem, a). Detalning yuzasi darzning ikki toki tomoni bo'yicha 40—50 mm kenglikda yaltiraguncha tozalanadi, kertik (nasechka) qilinadi va atsetonda yog'sizlantiriladi. Shisha matodan darzni 20—26 mm kenglikda yopuvchi yamoq tayyorlanadi. Detalning ta'mirlanadigan yuzasiga epoksid smolasi asosida tayyorlangan tarkib 0,1—0,2 mm qalinlikda surtilgandan so'ng yamoq solinadi (17.1-rasm, b) va ustidan rolik yurgiziladi (17.1-rasm,a). Epoksid tarkibning temperaturaga bog'liq holda qotish vaqt 1 soatdan 24 soatgacha (18... 20°S da qotish vakti 24 soat, 60°S da 4—5 soat, 100°S esa 1—2 soat) bo'lishi mumkin.



17.1-rasm. Darz berkitish cxemasi:

a-berkitishga tayyorlangan yuza; b-ebaksid smolasi bilan berkitilgan yuza; g-yamoq solinib, ustidan rolik yurg‘izilgan yuza; 1-epoksid smolasi asjsida taylorlangan tarkib; 2-yamoq; 3-rolik


Ta'mirlash korxonalarida detallarni polimer materiallar yordamida ta'mirlash ishlari kuyish (bosim ostida, markazdan qochma), presslash, metall buyumlarga yupqa qatlamlari purkash yuli bilan amalgalashiriladi.

Bosim ostida quyish texnologii jarayoni, asosan, quyidagi operatsiyalardan iborat: materiallarni ulushlash, materialni kizitib eritish, bosim ostida erigan polimer materialni qolipga quyish va uni bosim ostida ushlab turish, buyumni qolipda sovitish va ta'mirlangan detalni qolipdan chiqarib olish. Bu operatsiyalarning barchasi maxsus DB-3329 markali termoplast-avtomatda, PL-71 quyish mashinasida va shu kabi boshqa uskunalarda bajariladi. 17.2- rasmida yeyilgan detal yuzasini bosim ostida kapron bilan qoplash sxemasi kelti-rilgan. Ta'mirlanadigan detal 4 ni qolip 1, 3 (1 — qolipning yuqorigi, 3— qolipning pastki qismlari) ga o'rnatilib, 80— 100°S temperaturagacha qizdiriladi. Detal 4 va qolip 1, 3 devori orasidagi tirkishga 4—5 MPa bosim ostida quyish kanali 2 orqali 240...250°S temperaturali erigan polimer material 5 (kapron) yuboriladi va u tirkishni tuldiradi. Sovitil-gandan song qolip 3 ni ochib, detal 4 chiqarib olinadi. Ta'mirlashda polimer materialning tavsiya etilgan qalinligi 0,5—5 mm ni tashkil qiladi.

17-jadval

| Tartib raqami | To‘ldirgichlar | Massa bo‘yicha 100 qism smolaga to‘gri keluvchi to‘ldirgich miqdori, qism | |
|------------------|-----------------------------------|---|---------------|
| | | ED-5 | ED- 6, ED- 40 |
| 1. | Temir kukuni | 200 | 160 |
| 2. | Grafit | 80 | 40 |
| 3. | Alyuminiy upasi | 25 | 20 |
| 4. | Bronza upasi | 130 | 30 |
| 5. | Kvars uni | 230 | 150 |
| 6. | Portlandsement (500 markaligi) | 200 | 120 |
| 7. | Maydalangan asbestos | 100 | 85 |
| 8. | Qurum (qorakuya) | — | 35 |
| 9. | Chinni uni | 150 | 145 |

Polimer materiallarni purkash yoli bilan qoplama qosil qilishda tayyorlangan va qizitilgan detal yuzasiga kukunsimon kapron siqilgan havo yordamida yuboriladi. Kapron kukuni detalning qizigan yuzasiga urilib, erishi natijasida qoplama hosil qilinadi.



17.2-rasm. Eyilgan detal yuzasini bosim ostida kapron bilan qoplash sxemasi:

1-qolipning yuqori qismi; 2-quyish kanali; 3-qolipning pastki qismi

Yelimli tarkiblar

Ta'mirlash korxonalari amaliyatida detallarni ta'mirlashda VS-10T, VS-350, 88N va BF xildagi yelimlar keng kulamda ishlatiladi.

VS-10 *yelimi* ilashish muftalaridagi yetaklanuvchi disk-larning friksion ustqo'ymalarini yopishtirishda foydalaniladi. VS-10 yelimi bilan har xil metallar (po'ulat, cho'yan, alyuminiy, mis va boshqalar) ni va 200...300°S temperaturada ishlaydigan metallmas materiallar (shisha, tekstolit, asbestos-materiallar va boshqalar) ni yopishtirish mumkin. Mazkur yelimning qotish temperaturasi 180°S ni, detallarni yopishtirishdagi bosim 0,2—0,5 MPa ni tashkil qilib, shu rejimda yopishtiriladigan detallar 2 soat davomida ushlab turiladi.

VS-350 *yelimi* ko'p tarkibli suyuk; eritma bulib, po'lat, mis, dyuralyuminiy va issiqlikka chidamli plastmassadan yasalgan detallarni yelimalashda qo'llaniladi. Yelimlangan birikmaning ishlash temperaturasi -60°S dan + 100°S gacha oraliqda bo'la-di. Birikmaning ishlash davri 200°S da 500 soatni, 300°S da 10 soatni tashkil qiladi. Ushbu yelim yonilgi, moy, organik eritmalar va tebranish ta'siriga chidamlidir. Yelimning qotish temperaturasi 200°S ni, yelimalanadigan detallarni siqish bosimi 0,1—0,3 MPa ni, uning shu rejimda qotish vaqt 2 soatni tashkil qiladi.

88N *yelimi* rezinalarni sovuq; holatda vulkanizatsiya qilishda va gazmollarni metal, yogoch va boshqa materiallar bilan birlashtirishda qo'llaniladi. Ushbu yelim suvga, kislota-larning past miqdorli (5—10% li) eritmalariga chidamli bo'lib, 60—70°S dan oshiq bo'limgan temperaturada ishlashi mumkin. Ammo yelimning moylarga, suyuq yonilgi va erituvchilarga qarshiligi ancha past.

BF2, BF-4, BF-6 *yelimlari* tormoz kolodkalarini va ilashish muftalarining friksion ustquymalarini yelimalashda (parchin mix urnida) ishlatiladi. Ulardan BF-4 yelimida plastikroq birikma, BF-6 yelimida esa qovushokroq birikma hosil bo'ladi, shuning uchun u rezina, gazlama, kigiz va boshsa elastik materialarni yelimalashda ishlatiladi. Yelimlash rejimi:

yelimlanadigan yuzalarni siqish bosimi 0,05... 0,1 MPa, temperatura 140—160°S, shu sharoitda ushlab turish vaqt 1,0—1,5 soat.

Yelimlashning umumiy texnologik jarayoni detallarni bi- riktirishga tayyorlashni, ularni biriktirishni, siqishni, yelimlash sifatini oshirish uchun berilgan temperaturada ushlab turishni va zarur bulganda sunggi ishlov berishni uz ichiga oladi.

Misol tariqasida ilashish muftasining friksion ustquy- malarini po'lat disklarga VS-10T yelimi bilan yelimlash tex- nologik operatsiyalarining ketma-ketligini keltirib utamiz:

- eski ustqo‘ymalarni kuchirib olish;
- po‘lat disklar sirtini loy va zangdan po‘lat cho‘tka, qum qogoz yoki jilvirlar bilan tozalash;
- po‘lat disk va friksion ustqo‘ymalar sirtini atseton yoki benzin bilan yogsizlantirish;
- po‘lat disk va friksion usto‘yma sirtiga yelimning bi- rinchi yupqa katlamini surtish;
- mazkur satlamni havoda 10—20 minut davomida quri- tish;
- yelimning ikkinchi qatlamini surtish;
- po‘lat disk ustiga friksion ustqo‘ymani joylashtirish va ularni 0,2—0,3 MPa bosim bilan maxsus qurilmada siqish;
- siqilgan birpkmani quritish shkafida 45—60 minut davomida 180°S temperaturada quritish va uni asta-sekin sovi- tish;
- qotgan disklarni siquvchi uskunlardan bo‘shatish;
- disklarning chetiga oqib chiqqan yelimlarni bartaraf etish;
- disklarni aylanish uqi bo‘yicha bukilganligini va ustqo‘yilmalarning umumiy qalinligini nazorat qilish.

Hozirgi paytda ustqo‘ymalarni tayyor yelimli tasma bilan yopishtirish usuli keng qo‘llanilmoqda. Buning uchun ip gazlama tasmaga VS-10T yelimi maxsus qurilmalarda shimdiriladi va quritiladi. Yelimlashda tasmadan keragicha qirqib olinib, yopishtiriladigan yuzalar orasiga qo‘yiladi va ularni maxsus qurilmada 0,2—0,3 MPa bosimda siqiladi. So‘ngra yelimlangan detallar $180\pm 5^\circ S$ gacha qizdiriladi va 1,5 soat mobaynida ushlab turiladi.

Friksion ustqo‘ymalarni urnatishda parchin mixlar urniga yelimlardan foydalanish ta'mirlashdagi mexnat sarfini 3 marotaba kamaytiradi, friksion ustqo‘ymaning ish yuzasi ortadi.

Mashina detallarini sintetik materiallardan foydalanib ta'mirlash usulining oddiyligi, birikmalarning puxta chiqishi va narxi arzonligi va bunda uncha murakkab bulmagan uskunlardan foydalaniishi mazkur usulning afzalligi hi- soblanadi.

Ammo detallarni sintetik materiallar yordamida ta'mirlash qator kamchiliklarga ham ega. Bunga sintetik materialarning issiqlikni yaxshi utkazmasligi, qattiqligining pastligi va vaqt utishi bilan fizik-mexanik xususiyatlarining uzgarishi mumkinligi kiradi.

Sinov savollari va topshiriq

1. Qo‘shimcha ta'mirJash elementlari usulining mohiyatini tush untiring.

2. Detal qismini almashtirish usulining mazmuni nimadan iborat?
3. Detallarni piastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash jarayoni tasnifini aytib bering.
4. Detallarni cho'ktirish, botirish va kengaytirish usullarida la'mirlash jarayonlari qanday amalga oshiriladi?
5. Detallarni cho'zish, to'g'riiasli va nakatkalash usullarida ta'mirlashning mohiyati nimalardan iborat?

11-ma'ruza

Detallarni ta'mirlashning qulay usullarini tanlash

Reja.

1. Detallarni ta'mirlash jihatidan guruhlarga bo'lish.
2. Detallarni ishslash muddati koeffisiyenti.

Detallarning ta'mirlashning maqsadga muvofiqligi quyidagi mulohazalardan kelib chiqib aniqlanadi:

1. Detalning yeyilgan joyi ularining o'lchamlari va massalarning juda kam qismini tashkil qiladi.

2. Detallardagi ishlov berilgan joylarning ayrim qismlarigina yeyilgan bo'lib, shu tufayli ular yaroqsiz deb topilganda detallarning qiymati yuqori bo'ladi.

3. Detallarni ta'mirlashda moddiy vositalar (metall) tejaladi, ehtiyoj qismlar soni ko'payadi.

4. Tajribalar shuni ko'rsatadiki ta'mirlangan detallar yangi detallardan 50...70 % arzon tushadi.

5. Detallarni ixtisoslashgan korxonalarda va sexlarda ta'mirlashni markazlashtirish mumkin, bu yuqori ish unumdorligiga ega bo'lgan texnoogiya, uskunalardan foydalanish, ish joylarini va ta'mirlash jarayonida ishtirok etuvchi ishchilarni ixtisoslashirish imkoniyatini beradi.

Mashina detallarini qulay ta'mirlash nuqtai nazaridan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin (25.1 jadval):

25.1-jadval

Detallarni qulay usulda ta'mirlash jihatidan guruhlarga bo'lish

| T. r. | Detallar guruhi | Misollar | Ta'mirlash usullari |
|----------|---|---|---|
| 1. | Podshipniklar o'rnatish joyiga ega vallar va o'qlar | yevilish miqdori 0,3 mm dan katta bo'lgan detallar (podshipniklarni o'tish joylari) | Xromlash, temirlash, vibra yoy vositasida suyuqlantirib qoplash |
| 2. | Silindrsimon detallar | yevilish miqdori 0,3...2 mm bo'lgan detallar | Temirlash, vibrayoy vositasidasuyuqlantirib qoplash |
| 3. | Silindsimon detallar | yevilishi 2 mm dan ko'p, diametri 50 mm dan ortiq bo'lgan detallar (gusenitsali traktorlarning tayanch g'ildiraklari, yo'naltiruvchi g'ildirak- | Flyus qatlami ostida suyuqlantirib qoplash |

| | | | |
|----|---|---|---|
| | | lar, ag'dargichlarning o'qlari va b.) | |
| 4. | yeyilgan, kompensatsiya qilinadigan, konstruktiv metal zahirasi bo'lgan po'lat va bronza detallar | Porshen barmoqlari, kiritish va chiqarish klapanlari, bronza vtulkalari | Plastik deformatsiyalash (bosim ostida ishlash) |
| 5. | Silindrik yuzalarida mahalliy yeyilish bo'lgan po'lat detallar | Shlitsi yeyilgan vallar, urgich (bayoq) qismi yeyilgan klapan koromislolari | Dastaki usulda, yoki flyus ostida avtomatik suyuqlantirib qoplash |
| 6. | Sirtqi mahalliy yeyilish bor yoki darz ketgan cho'yan detallar | Klapan o'rindiqlari, yeyilgan dvigatellarning silindrler bloki, suv nasosiva b. | Cho'yan elektrodlar bilan gaz alangasida payvandlash |
| 7. | Cho'yandan yasalgan, darz ketgan va yorilgan korpus detallar | Silindrler bloki, uzatmalar qutisi, ketingi ko'prik korpuslari va b. | Suyuqlantirib payvandlash, yelim tarkiblar ishlatib biriktirish |
| 8. | Alyuminiy qotishmlaridan yasalgan, yorilgan, singan, korrozion yemirilgan detallar | Dvigatel bloklarining ustyopmalari, karterlar va b. | Maxsus flyuslar ostida payvandlash, yoki alyuminiy qotishmlaridan foydalanib, detallarni flyussiz payvandlash |

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, ta'mirlash usulini tanlash detallarning materialiga, yeyilish darajasiga konstruktiv-texnologik xsusiyatiga, ish sharoitiga va boshqa ko'rsatgichlarga bog'liq. Bunda, asosan, ta'mirlash xarajatlariga, ya'ni detallarni ta'mirlash qiymatini arzonlashtirishga, ularning puxta ta'mirlashning harakat qilish lozim.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ta'mirlash usulini tanlashda texnologik mezon, ishslash muddati mezoni va iqtisodiy mezondan foydalanish tavsiya qilinadi.

Texnologik mezon detallarni ta'mirlashda qanday usullarni qo'llash mumkinligini ko'rsatib beradi, bunda detallar ta'mirlash usullari bo'yicha turkumlarga ajratiladi va ulardan quayi tanlab olinadi.

Ishslash muddati mezon ta'mirlangan va yangi detallarni chegaraviy holatiga yetguncha qadar bo'lgan xizmat muddatlarini solishtirish bilan baholanadi.

Ishslash muddati mezoni ta'mirlangan va yangi detallarni chegaraviy holatga yetguncha qadar bo'lgan xizmat muddatini solishtirish bilan baholanadi. Ishslash muddati mezonida ta'mirlanish darjasini muayyan detal uchun ishslash muddatin koeffitsienti (K_{im}) orqali ifodalaydi, ya'ni

$$K_{im} = t_T / t_{ya} \quad (1)$$

Bu yerda t_T - ta'mirlangan detalning ishslash muddati, soat;

t_{ya} - yangi detalning ishslash muddati, soat.

Ko'rinish turibdiki, bu ikki mezon bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, ular masalaning texnikaviy tomonini ifodalaydi. Ta'mirlash usulining iqtisodiy

samaradorlik darajasi esa iqtisodiy mezon ko'rsatib beradi, bu mezon ta'mirlangan detallarning qiymatini baholaydi.

Shunday qilib, ta'mirlash texnologik jarayonni ishlab chiqishda dastlab ta'mirlashning mumkin bo'lgan texnologik usullari aniqlanadi, so'ngra ulardan eng qulayi tanlab olinadi; tanlangan usul detalning uzoq muddat xizmat qilishini va ta'mirlash ishlarining arzon tushishini ta'minlash lozim.

Ta'mirlash usullari va ishlov berish uslubi maqbulligini hmda ularning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun nisbiy tannarx S_{nt} detalning ta'mirlash uslubi bo'yicha yoki loyiha bo'yicha yoki loyiha bo'yicha aniqlangan tannarxni S_t ning ta'mirlangan detalning mashina soatlarida ifodalangan ta'mirlararo xizmat davri t_{xd} ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$S_{nt} = S_t / t_{xd},$$

Yangi detalning nisbiy tannarxi ham shunga o'hshash anmqlanadi:

$$S_{yat} = S_{ya} / t_{ya},$$

Bunda S_{ya} – yangi detalning tannarxi, so'm;

t_{ya} – yangi detalning xizmat muddat, soat.

$$\frac{C_t}{t_{xd}} \leq \frac{C_z}{t_z} \quad (2)$$

Shart bajarilsa, ta'mirlash va ishlov berish uslubi maql hisoblanadi. Boshqacha aytganda, qabul qilingan texnologik jarayon

$$S_{yat} t_{xd} / C_t t_{ya} > 1$$

shartni qanoatlantirish kerak

Keltirilgan ifodaning qiymatini ta'mirlash texnologik jarayonning samaradorlik koeffitsienti deyiladi:

$$K_e = \frac{C_s t_{xd}}{C_m t_z} \quad (3)$$

Agar $K_e > 1$ bo'lsa, tiklash ma'qul xisoblanadi, chunki t_{xd} ning qiymati t_{ya} nikidan kichik emas.

Ta'mirlashning har bir usuli uchun K_e ning qiymati hisoblanib, K_e qiymati eng katta bo'lgan jarayon tanlanadi.

Ta'mirlangan detalning xizmat davri ikki yo'l bilan tajriba ma'lumotlariga asoslanib yoki ishlash muddati koeffitsienti K_{im} dan foydalanib hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Ta'mirlash usullari uchun K_{im} qiymatlari 25.2 jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi (1) formuladan

$$t_T = K_{im} t_{ya}$$

deb yozish mumkin.

U holda t_T ning qiymatini (2) qo'llanilganda,

$$\frac{C_t}{K_{im} t_{ya}} \geq \frac{C_z}{t_z}$$

ni olamiz.

Ish muddati koeffitsienti, yangi detalning xizmat muddati qiymati va ta'mirlangan detalning tannarxi orqali (3) yuqoridagi formuladan foydalanib, samaradorlik koeffitsientini (K_e) aniqlaymiz:

$$K_e = S_{ya} K_{im} t_{ya} / S_{TT} t_{ya} = S_{ya} K_{im} / S_{TT},$$

Detallarning tamirlashning har bir usuli uchun texnologik jarayonning samaradorlik koeffitsienti hisoblanib, samaradorlik koeffitsienti eng katta jarayon tanlab olinadi.

25.2 -jadval

Detalning ishlash muddati koeffitsienti K_{im}

| Detallar, birikmasi va yuklanish- ning turi | Brikma detallari- ning materiali | Tiklash usullaridagi K_{im} ning qiymatlari | | | | | |
|---|---|---|----------------|--|--|--|--|
| | | Xrom- lash | Temir- lash | Vibra yoy vositasida suyuqlan- tirib qoplash | Flyus ostida suyuq- lantiri b qoplas h | Karbonat angrid muhitida su- yuqlan- tirib qop- lash | Elektr yoyi vosita- sida suyuq- lanti- rib qop- lash |
| Ishorasi o'zgarib turuvchi yuklanishda ishlovchi val va sirpanish podship- niklari | Bronza | 1-1,1 | 0,85- 0,95 | 0,75-g'0,8 | 0,75- 0,85 | - | - |
| | Babbit | 1,25 | 0,95 | 0,8 | 0,85 | - | - |
| Vallar,o'qlar va vtulkalar | Bronza | 1,2-1,3 | 1,1-1,2 | 0,9-1,0 | 0,8- 0,9 | 0,75-0,9 | 0,7- 0,75 |

Sinov savollari va topshiriq

- 1.Yurish uskunasi detallari qanday ta 'mirlanadi?
- 2.Gruntni qazuvchi tish va pichoqlar kanday ta 'mirlanadi?
- 3.Tirsakli val kanday ta 'mirlanadi?
- 4.Dvigatel blogi qanday ta 'mirlanadi?
5. Dvigatelgilzalari qanday ta'mirlanadi, xoninglash deganda nimani tushinasiz?
- 6..Shatunlarda qanday nosozliklar uchraydi va ular qanday bartaraq qilinadi?.
- 7.Klapan va uning o'rindiqlari (uyalari) ta 'mirlash ketma-ketligini aytib bering.
- 8.Prujinani qayishqoqligi qanday o 'Ichanadi?
- 9.Qanday detallarga presiizon detallar deyiladi va ular qaysi usullar da ta'mirlanadi.
- 10.Dvigateli chiniqtirib sinashda bajariladigan ishlarni aytib bering.
- 11.Gidro nasosni ta 'mirlashda bajariladigan ishlarni aytib bering.
- 12.Dvigatelning qanday elektr jihozlari ta 'mirlanadi?
- 13.Mashinani bo 'yashda bajariladigan ishlarni aytib bering.

Reja.

1. Val va o'qlarni to'g'rilash.
2. Tishli uzatmalarni ta'mirlash.
3. Zanjirli uzatmalar

Val va o'qlarni ta'mirlash. Suv xo'jaligida ishlatiladigan mashinalarning val va o'qlari asosan o'rta uglerodli va legirlangan po'latlardan tayyorlanadi va NRS 36...60 qattiqlikkacha termik ishlov beriladi.

Vallarni ishlatish jarayonida kuzatiladigan asosiy nuqsonlarga: sirtlarining yeyilishi, podshipniklar ish o'rning yeyilishi, bukilishi, buralishi, egilishi, yoriqlar hosil bo'lishi, sinishi, markaziy teshik va rezbalaming shikastlanishi, shponkali va shlisali birikmalardagi buzilishlar va hokazolar kiradi.


Val va o'qlarni ulardagi nuqsonlariga qarab, turli xil texnologik uslublar yordamida ta'mirlash mumkin.

Ta'mirlashning u yoki bu texnologiyasini tanlash texnika-iqtisodiy mulohazalarga, ta'mirlangan detallarning xizmat ko'rsatish muddatlariga, zarur dastgohlaming mavjudligi va hokazolarga bog'liq.

Val va o'qlarni to'g'rilash. Bukilish va buralish bilan ifodalanuvchi qoldiq deformasiyalar ish jarayonida ham, detallarni payvandlashda (eritib quyishda) ham vujudga keladi. Bukilishni prizmalarda, maxsus moslama markazlarida yoki tokarlik dastgohi markazlaridagi indikatorlardan foydalanib tekshiriladi.

Vallar isitilib, yoki isitilmasdan to'g'rilanadi. Presslarda yoki maxsus moslamalarda sovuq holda to'g'rakash eng qulay va sodda usuldir.

O'q va vallarning bo'yinchalari 0,8 mm dan ortiq yeyilganda, ularni qayta tiklash, metallni suyultirib qoplash usuli yordamida amalga oshiriladi. Bunda ta'mirlanigan joylar, ta'mirlashdan oldin va ta'mirlangandan so'ng yaxshilib silliqlanadi.




20.1-rasm. Shponkali (a) va shlisali (b) brikmalar:

D, d-shlisaning tashqi va ichki diametrlari; 1-g'ildirak; 2-shponka; 3-val

Val va o'qlardagi shponka o'yilari va shlisalarini ta'mirlash. Ma'lumki, shponkali (20.1, a-rasm) va shlisali (20.1, b-rasm) birikmalardagi shponka va shlisalar (ular deformasiyaning ezish turiga ishlaydi) val 3 ning aylanma harakatini g'ildirak 1 ga uzatish uchu xizmat qiladi.

Agar shponka yaroqsiz holgacha shikastlangan bo'lsa, u yangisi bilan almashtililadi. Agar val va g'ildirakdagi shponka o'yig'i shkastlangan bo'lib, yaroqsiz holga kelib qolgan bo'lsa, shuningdek, ularning konstruksiyasi yangi o'yiq ochishga imkoniyat bersa, o'yilalar joylashgan nuqtani 90 yoki 120° ga ko'chirib yangisi o'yiladi.

Agar buni iloji bo'lmasa, shikastlangan o'yiqqa metall suyultirib qoplanadi va uni silliqlab, shu joyga qayta shponka uchun o'yiq o'yiladi. Yaroqsiz holga kelib qolgan shlitsalar ham metallni eritib quyish orqali tiklanadi. Shlitsalarni metall bilan suyultirib qoplash, val diametrining qarama-qarshi tomonlaridan boshlab amalga oshiriladi. Masalan, olti shlisali valda 1-4-2-5-3-6 tartibda metall suyultirib qoplanadi. Shlitsasi 1 kam yeyilan vallar tokarlik dastgohining patroni 5 ga o'rnatilib, qizdiriladi va support 4 ga o'rnatildigan rolik 2 orqali plastik deformasiyalanadi (20.2-rasm). Hosil bo'lgan choklar payvandlanib, tozalanadi va uning sirtini nominal o'lchamgacha ishlov beriladi.




20.2 -rasm. Dastgoh yordamida shlislarni ta'mirlash:

1-shlisa; 2-rolik; 3-qolip; 4-support; 5-patron

Val va o'qlardagi rezbalarni ta'mirlash. Ulardagi yaroqsiz holga kelib qolgan rezbalar metall bilan qoplanib, tokarlik dastgohlarida rezbalar qayta o'yiladi (20.3- rasm).

20.3 -rasm. Dastgoh yordamida rezba o'yish:

1-dastgohning patroni; 2-detal; 3-rezba o'yigich; D_1 -detalning dastlabki diametri; D_2 -o'yilgan rezbaning diametri; D_3 -eritib qoplan-gan metallning diametri




Kam shikastlangan rezbalar, metchik (ichki) yoki lerka (tashqi) lar yordamida qayta ochiladi. *O'rindiqlarni ta'mirash.* Vallarning yeyilgan o'rindiqlarini eritib quyish (flyus qatlami ostida, tebranma yoyli va hokazo), galvanik qoplamlar, metallashtirish, changlatib qoplash, elektr uchqunli va elektromexanik ishlov berish bilan, shuningdek, polimer qoplamlari yordamida tiklanadi.

Tishli uzatmalarni ta'mirlash

Tishli g'ildiraklar uglerodli va legirlangan (30ХГТ, 40Х, 20ХМ) po'latlardan yasalib, ulardagi tishlarning qattiqligi 50...60 NRC darajaga yetguncha termik ishlov beriladi.

Tishli g'ildiraklarda quyidagi: tishlar eni va bo'yini yeyilishi hamda, ularning sirtini toliqishi, yorilishi, timalishi, sinishi, bir tomoniga qiyshayishi kabi nuqsonlar bo'ladi. Moduli 6 gacha bo'lgan g'ildirak tishlari maxsus indikatorli asbob yordamida o'lchanadi (20.4-rasm).

Tekshiriladigan tishli g'ildirak 1 maxsus moslamaga o'rnatiladi. Maydoncha 3 ni gorizontal harakatlantirib, vertikal tishning to'g'risiga olib kelinadi va undagi tishni qamrovchi maslama buragich 4 orqali vint 5 buralib, tishga kiritiladi. Tishni balandligi indikator 6, eni esa indikator 2 va 7 lar yordamida aniqlanadi. Shu tartibda boshqa tishlar ham tekshiriladi. *Yeyilgan tishlarni tiklash*. Yeyilgan tishlarni tiklashda quyidagi; almashtirish, quyish va bosish usullari bilan tiklanadi. Agar gildirak 1 dagi tishlar singan bo'lsa, ular qirqib olinadi va ularning o'rniga maxsus tishli tiqin 2 lar o'rnatiladi (20.4, a- rasm). G'ildirakdagi singan tish maxsus asboblar yordamida qirqib olinadi (bunda tishning yon tomonidan gorizontga nisbatan 75° burchak ostida qirqiladi) va uning sirti yaxshilab tekislanib silliqlanadi. Shu joyga tishli (ular bir, ikki tishli bo'lishi mumkin) tiqinlar presslanib joylashtiriladi. Sharoitga karab ayrimlari vint 3 bilan g'ildirakka qotiriladi.



20.4-rasm. Tishni vevilishini o'chovchi asbob:

1-tishli g'ildirak; 2,6,7-indikatorlar; 3-maydoncha; 4-buragich; 5-vint


Zanjirli va tasmali uzatalarni ta'mirlash

Zanjirli uzatmalar. Uzatma etakchi va yetaklanuvchi yulduzchali g'ildirak hamda ularga o'matilgan zanjirdan tashkil topgan bo'ladi. Yulduzhalar va zanjirning taxtacha (plastina) lari 45, 40X rusumli po'latdan, zanjirning barmoq, ichqo'yma (vkladish) va roliklari esa 15, 20, 20X rusumli po'latlardan yasaladi.

Zanjirli uzatmada asosan yulduzcha tishlari, zanjirning detallari (rolik, ichqo'yma, barmoq va vtulkalar) yeyiladi.

Yeyilgan yulduzcha tishlari hamda zanjirning rolik va vtulkalari, elektr yoyli payvandlash (eritib qoplash) yo'li orqali qayta tiklanadi. Yaroqsiz bo'lgan detallar yangisi bilan almashtiriladi. Qayta tiklangan zanjir moyga solinib qaynatiladi.

Zanjirni taranglash ikki xil usulda olib borilishi mumkin, ulardan biri yulduzchali vallardan birini surish bo'lsa, ikkinchisi maxsus tishli rolik moslama orqali amalga oshiriladi.



20.6 -rasm. O'qlarning paralleligi (a) va ko'chishini (b) aniqlash:

1, 3-yulduzchali g'ildihaklar; 2-chizg'ich

20.7 -rasm. Tasmalarni bog'lash usullari:

a-yelimlash; b-boltli birikma; d-maxsus ip bilan tikish; e-metall oshiq-moshiqli; 1-tasma; 2-metall taxtacha; 3-bolt; 4-gayka; 5-maxsus ip; 6-changak; 7-prutok

Yulduzcha o'qlarining paralleligi (a) va ko'chishini (b) aniqlash (20.13-rasm) uchun chizg'ich 2 yulduzchali g'ildirak 1 ning sirtiga parallel (val o'qiga perpendikulyar) qilib o'rnatiladi (20.6, я-rasm). Shunda yulduzchali g'ildirak 3 ning yuqori uchi chizg'ichga tegib, ikkinchi pastki uchi chizg'ichdan 5 ga siljigan bo'lsa, ularning o'qlari parallel emasligini bildiradi. Yulduzchaning ko'chgan (siljigan) e masofasi ham chizg'ich yordamida, uni xuddi oldingidagi kabi yulduzchali g'ildirak 1 ga qo'yib aniqlanadi (20.6, b- rasm).

Tasmali uzatmalar. Tasmali uzatmalarining tasmasi, ponasi (trapesiya) yoki tekis to'g'ri to'rtburchak shaklidagi maxsus rezinadan yasalgan bo'ladi.

Ularning asosan shkiv, baraban va tasmalari yeyiladi. Shuningdek, tasmalar yorilishi hamda uzilishi ham mumkin.

Yaroqsiz holga kelib qolgan ponasi simon tasmalar qayta tiklanmaydi, bunday tasmalar olib tashlanadi va uning o'rniغا yangisi o'rnatiladi.

Yeyilgan shkiv va barabanlar metal-Ini eritib qoplash orqali qayta tiklanadi.

Tekis tasmalar asosan qurilish rnarashishni transport qilish uchun ishlataladi. Ular uzun tasmalardan kerakli qismi kesib olinadi va barabanlarga kirinilib, ikki uchi bog'lanadi. Tasmani birbiriga bog'lash usullari 20.7-rasmida ko'rsatilgan. Tasmalarni bir biriga **yelimlab** bog'lash uchun (20.7, a-rasm) uning ikkala uchidan tasmaning eniga teng bo'lgan masofasidan ponasi shaklida kesiladi (qirqiladi), qirqilgan sirtlar yaxshilab tozalanada va ularga sifatli elim surtilib, birbiri bilan bog'lanadi.

Tasmalarni bir biriga **boltli birikma** orqali bog'lash uchun (20.7, b-rasm) uning ikkala uchidan hamda metall taxtacha 2 lardan teshiklar teshib, teshiklarga bolt 3 lar kiritiladi va gayka 4 lar yordamida bog'lanadi.

Tasmalar bir biriga **maxsus ip bilan tikib** ham bog'lanadi (20.7, d-rasm), buni uchun ularning uchlari tutashtirilib, igna yordamida undagi ip orqali tikiladi.

Tasmalar bir biriga maxsus **metall oshiq-moshiqli** qilib ham bog'lanadi (20.14,e-rasm), buni uchun ularning uchlari yaqinlashtirilib, ularga changak 6 larning bir tomoni kiritiladi, changaklarning ikkinchi tomoni esa prutok 7 bilan bog'lanadi.

Sinov savollari va topshiriq

1. Namunali detallarga qanday detallarni kiritish mumkin?
2. Detallarni tiklashning umumiyligi texnologik bosqichlarini aytib bering.
3. Val va teshik o 'Ichamlari qanday tiklanadi?
4. Korpuslarda qanday nuqsonlar bo 'ladi va ularni ta 'mirlash yo 'llarini aytib bering.
5. Teshiiklarni o 'qdoshligi va paralelligi qanday aniqlanadi?
6. Shponkali, shlisali va rezbali birikmalar qanday ta 'mirlanadi?
7. Zanjirli va tasmali uzatmalarini ta 'mirlash yo 'llarini aytib bering.

LOBARATORIYA

MASHG'ULOT

MATERIALLARI

LABARATORIYA MASHG'ULOTIMATERIALLARI

1-LABARATORIYA MASHG'ULOTI

Gilza slindrlarining nuqsonlarini aniqlash. Gilza slindrlarini ta'mir o'lchamlarga tiklash

I. Ishdan maqsad:

Gilza slindrlarining nuqsonlarini aniqlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish

II. Ish joyining jixozlanishi:

- 1 To'rt marta kattalashtiruvchi lupa
- 2 SHgangentsirkul HTS-P-250-0,05 (GOST 166-80)
- 3 MR-100 (GOST-438-87) tamg'ali richagli mikrometr
- 4 Ichki diametrni o'lhash indikatori NI 80-100 (GOST 868-82)
- 5 Turli rusumdag'i transport vositalarini gilzalari

III Ishning mazmuni:

Nuqsonni aniqlash uchun dastlabki berilgan ma'lumotlarni tayyorlash: nazorat natijalariga ko'ra detallarni saralab detallarning texnik xolatini aniqlash va ta'mirlash turini belgilash, nuqsonlarni aniqlash va labaratoriya mashg'uloti bo'yicha xisobot tayyorlash.

IV Ishni bajarish tartibi:

1. Gilza slindrining konstruktiv xususiyatlarini aniqlash ishga yaroqligini belgilovchi texnologik parametrlarni (o'lhash, o'lcham aniqligi, shakl va o'zar joylanish aniqligi)
2. Xisobot blankasi xamma nuqsonlarni aniqlash ishlari uchun bir xil bo'lgan ishlarni yozib qo'yish kerak.
3. Xisobot blankasiga o'lhashlar va xisobot kitob natijalarini yozib qo'yish kerak.
4. Nuqsonni aniqlash uchun dastlabki berilganlarni oydinlashtirish (chizma va ta'mir kartasi bo'yicha ish joyida).
5. Slindrlarni konstruktiv elementlarini holatini aniqlash.
6. Gilzaning konstruktiv elementlarining holatini aniqlash.
6.1. Gilzada har qanday shikastlanish bo'lsa u brak qilinadi.



a)

b)

Dvigatel gilzalarining turlari a) havo bilan sovitiladigan, b) suyuqlik bilan sovitiladigan

O'lchashni bajarishdan avval indikator nutrometri bazaviy o'lchamga yoki o'lchanayotgan teshik o'lchamiga qo'yiladi. Indikatorni bazaviy o'lchamga qo'yish qo'yidagi tartibda bajariladi: o'lchanadigan teshik diametrini shtangensirkul bilan o'lchanadi. Bazaviy o'lcham bo'lib eng katta shaxiy o'lcham hisoblanadi (masalan teshik diametri 100,65 mm-bazoviy o'lcham 101 mm); miqrometrga bazaviy o'lchamni qo'yish kerak (uni O ga qo'yilishini tekshirib ko'riladi);

Indikator nutrometriga mos keladigan vstavkani nutromer kallagiga qo'yiladi.

Nutrometrning o'lchash kallagini tovoni bilan vaqt o'rtacha kiritib, indikatorning tsifrblatini strelkaning «O» ko'rsatkichi bilan mos tushirish kerak. Bu xolat bazaviy o'lchamga mos keladi.

6.2. Umumiy yeyilish qiymatini hisoblash (I_{um}).

$$I_{ym} = D_u - D_n$$

bu yerda: Di-mazqur blokdagi barcha o'lchaning gilza diametrлари (eng ko'p yeyilgan diametr olinadi): Dn-ekspluatatsiya boshlanishidan nominal diametr (ishchi yoki ta'mir chizmasi bo'yicha eng katta chegaraviy diametr).

6.3. Bir taraflama yeyilish qiymatini hisoblash (I) mm.

$$I = \beta I_{ym}$$

bu yerda: β -notekis yeyilish koeffitsienti ($\beta = 0,6$).

6.4. Slindrik emaslikni hisoblash (ovallik va konuslik) mm.

$$\begin{aligned} D_{OB} &= D_{A-AH} - D_{B-BG-1} \\ D_{KON} &= D_{maxp-a} - D_{min\alpha-a} \end{aligned}$$

Har qaysi gilza uchun ovallikning uchta qiymatini, konuslikning ikkita qiymatini olinadi. Defektatsiyalash beshta qiymatning eng kattasi bo'yicha qilinadi.

6.5. Teshikka ishlov berish o'lchamini hisoblash (Dmm)

$$D_p = D_n + I + 2Z$$

bu yerda: Z-ishlov berishga qo'yiladigan minimal quyim (yo'nish va xoningovkalash uchun Z=150 mm)

Dr o'lchamni Drr-remont o'lchamlari kategoriysi bilan solishtirib, hamma gilzalar uchun bitta remont o'lchamni belgilash (eng yaqindagi katta remont o'lchamini belgilanadi).


$$D_{PP} \geq D_p$$

6.6. Miqrometr bilan o'tkazish kamarining yuzasi bitta poyasda o'rtasidan va ikkita o'zaro perpendiqulyar tekisliklarda o'lchanadi.

7. Xisobotni «Xulosa» grafasiga detalning holati («Remontsiz», «Remont», «Brak») va defektni tuzatish usullari yoziladi.



Dvigatel slindrlarini xoninglash jarayoni



Gilzalarni slindrikligini tekshirish moslamasi

V. Nazorat uchun savollar

Slindrlar bloki qanday asosiy nuqsonlar bor?

Slindrlar va slindr gilzalarining asosiy nuqsonlariga, shuningdek, ularni remont o'lchamigacha tiklash usullariga misollar keltiring.

Dvigatelning slindrlar blokida deffektatsiya qilinadigan konstruktiv elementlarini va ularni harakterlovchi parametrlarni sanang.

Gilza slindrlarini ta'mir o'lchamlarga tiklash

Slindrlarning asosiy nuqsonlari ish sirtining yeyilishi va tirnalishi, slindrlar gilzalari uchun esa qo'shimcha ravishda sirtqi o'tqazish sirtlarining deformatsiyalanishi va yeyilishidan iborat. Ba'zi dvigatellarda sovitish sirtining kavitatsion yeyilishi quzatiladi. Kavitatsion yemirilgan gilzalar yaroqsiz hisoblanadi.

Slindrlar va slindr gilzalarining ish sirtlari bir tekisda yeyilmaydi. Eng ko'p yeyilish porshen yuqori chekka nuqtada bo'lgan holatida hamisha hamisha

kompression halqa qarshisida sodir bo'ladi. SHuning uchun slindrlarning ichki ish sirtarini o'lchamlari yuqori qirrasida N/6 masofa qoldirib, uchta kesim bo'yicha tirsakli valga paralel va perpendiqulyar bo'lgan tekisliklarda indikatorli nutromer bilan o'lchanadi (3-rasm).


Eyilgan va shikastlangan slindrlar va slindrlar gilzalarining sirtlari ta'mir o'lchamiga moslab, yo'nib va navbatdagi xoninglash yo'li bilan tiklanadi.

GAZ va ZIL tipidagi dvigatellar slindrлari hamda slindr gilzalari uchun nominal o'lchamdan har 0,5 mm interval orqali uchta ta'mir o'lchami nazarda tutiladi.

Barcha slindrlar va bitta blok slindrlarining gilzalariga bir xil ta'mir o'lchamigacha ishlov beriladi. So'nggi ta'mir o'lchamigacha yeyilgan



2-rasm. Slindrlar blokini tiklash jarayonining blok-sxemasi
(1-3 tiklash yo'naliishlari)



3-rasm. Gilzani o'lchamlarini o'lchash sxemasi.


Slindrlar nominal o'lchamga moslab gilzalar qo'yib navbatdagi ishlov berish bilan tiklanadi.

Slindrlar va slindrlar gilzalari 278N tipidagi vartikal yo'nish stanoklarida yo'niladi.

Blok slindrlarni yo'nishda slindrlar o'qlari orasidagi masofalarning saqlanishi va slindrlar o'qlarining tirsakli val o'qiga perpendiqulyarligini tekshiriladi. Slindrlarning butun uzunligi bo'ylab perpendiqulyarlikning ko'pi bilan 0,05 mm o'zgarishiga yo'l qo'yiladi. Slindrlar gilzalarini yo'nishda va jilvirlashda gilza devorlarining qalinligi quzatib turiladi. O'tqazish belbog'lari bo'yicha vertikal tekislikda o'lchanigan gilza devorlari qalinligining farqi 0,06 mm dan oshmasligi lozim.

Yo'nilgan slindr yoki gilzalarning diametri ta'mir o'lchamidan 0,04...0,10 mm kichik bo'lishi kerak, bu navbatdagi ishlov berish-xoninglash uchun qo'yim hisoblanadi.

Slindrlarga vertikal-xoninglash yoki vertikal-parmalash stanoklarida maxsus xoninglash kallakkari bilan ishlov beriladi.



a) nutrometr



b) xoninglash jahozi

Gilzani ta'mirlash uchun uning yeyilish o'lchamlari quyidagi ketma-ketlikda aniqlab chiqiladi.

7.Gilzalarni yeyilish aniqlash

Gilzalarni yeyilish qiymatini hisoblash uchun uning ichki diametrini I, II, III-kesimlar bo'yicha tirsakli val o'qiga paralel va perpendiqulyar bo'lgan tekisliklar bo'yicha nutromer bilan o'lchanadi va o'lchash natijalari jurnalga yoziladi. Yeyilishni aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1.Eyilish qiymatini ushbu formula bilan aniqlanadi:

Slindrlarni tirsakli valga perpendiqulyar bo'lgan tekislik bo'yicha yeyilishi

$$I_1 = D_I - D_n, \text{ mm} \quad (1)$$

Slindrlarni tirsakli valga paralel bo'lgan tekislik bo'yicha yeyilishi

$$I_2 = D_{II} - D_n, \text{ mm} \quad (2)$$

bu yerda: D_I, D_{II} – slindrnin tirsakli valga perpendikulyar va paralel bo'lgan tekislik bo'yicha eng katta yeyilgan diametrleri;

D_n - gilzaning nominal diametri (zavoddan chiqqan yangi yoki ta'mirdan so'nggi slindrnin diametri).

2. Slindrning konusligini hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Buning uchun I,II,III-kesimlardagi eng katta diametr va boshqa kesimdagi eng kichik diametr olinadi koruslikni ushbu formula bilan hisoblanadi

$$K_{coh} = D_{max} - D_{min}, \text{ mm}. \quad (3)$$

3. Slindrnin ovalligini hisoblash uchun eng katta yeyilish bo'lgan bitta kesimdagi maksimal va minimal diametr olinadi va ushbu ifoda bilan ovallik hisoblanadi $O =$

$$D_{max} - D_{min} \quad (4)$$

Har qaysi gilza uchun ovallikning uchta qiymatini, konuslikning ikkita qiymatini olinadi. Nuqsonlarga ajratish beshta qiymatning eng kattasi bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Ta'mirlash o'lchami ichki slindrik yuzalar uchun quyidagi ifoda bilan hisoblanadi va hamma slindrlar uchun bir xil bo'ladi

$$D_{p1} = D_2 + 2(\beta I + Z), \text{ mm} \quad (5)$$

bu yerda $\beta = 0,6$ – gilzaning ichki yeyilgan yuzalari uchun;

I - bir tomonlama yeng katta yeyilish. Bu 1,2 ifoda bo'yicha hisoblangan natijaning eng kattasiga teng.

$Z = 0,05-0,1 \text{ mm}$ – bir tomonlama yo'nib kengaytirish uchun qo'yim;

$Z=0,03-0,05 \text{ mm}$ – bir tomonlama jilvirlash uchun qo'yim.

5. Ta'mir o'lchamlari sonini hisoblash (gilza uchun) ushbu formula orqali amalga oshiriladi

$$n_{tesh} = (D_{max} - D_n) / \gamma \quad (6)$$

bu yerda D_{max} - gilzaning maksimal yeyilgan diametri, mm;

γ -ta'mirlararo interval, mm. Slindrnin 3 marta ta'mirlashga ruxsat etiladi. Har bir ta'mir uchun ta'mirlararo intermal 0,5 mmga teng olinadi, ya'ni $\gamma=0,5$ mmga teng bo'ladi.

6. Yo'nib kengaytirishga qo'yilgan qo'yim miqdorini ushbu formula bilan hisoblanadi

$$Z = D_{pp} - D_2 - Z_x \quad (7)$$

bu yerda D_{pp} - qabo'l qilingan navbatdagi ta'mir o'lchami diametri,

Z_x - xoninglash uchun qo'yim, $Z_x=0,03-0,05 \text{ mm}$ olinadi.

7. Kesish chuqurligi $t = 0,1-0,15 \text{ mmni}$ tashkil qiladi.

8. Kesish chuqurligiga binoan o'tishlar soni ushbu formula bilan hisoblanadi

$$i = Z / t \quad (8)$$

Hisob natijalari bo'yicha «Xulosa» chiqariladi, ya'ni "Ta'mirsiz", "Ta'mirga", «Yaroqsiz») va nuqsonlarni tuzatish usullarini yoziladi.

2-LABARATORIYA MASHG'ULOTI

Tirsakli vallarning nuqsonlarini aniqlash

I. Ishdan maqsad:

Tirsakli vallarni nuqsonlarini aniqlash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish

II. Ish joyining jihozlanishi.

1. Mashg'ulot stoli.
2. Tirsakli val
- 3 To'rtkarra kattalashtiruvchi lupa.
- 4 MR-75 richagli miqrometri.
- 5 Shtangensirkul SHTS-1-600-0,1.
- 6 PR-250-0,05 shtangenreysmus.
- 7 Soat tipidagi indikator
- 8 Birinchi o'zak bo'yining uzunligini o'lchovi uskuna.

III. Ishning mazmuni.

Nuqsonlarni aniqlashda dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash val konstruktiv elementlarining texnik holatini aniqlash, detallarni nazorat natijalari bo'yicha saralash, ta'mirlash usullari, amallarning mazmuni belgilash va labaratoriya mashg'uloti bo'yicha xisobot tuzish.

IV. Ishni bajarish tartibi.

1. Tirsakli valning konstruktiv elementlarini aniqlash (o'zak va shatun bo'yinlari, krivoship, moxovikni qotirish flyanetsi, xropovik rezbasi) uning ish qobiliyatini aniqlovchi texnologik parametrlar (o'lcham, shakl va o'zaro joylashish aniqligi, g'adir-budirlik, remont o'lchamlari, remontsiz yaroqli o'lchamlar) va deffektatsiya qilish usullari.
2. Xisobot blankasiga deffektatsiya uchun berilgan konstruktiv elementlarning nomini yozish, ularning texnologik o'lchamlarining qiymatini nuqsonlarini aniqlash vositalarini yozish.
3. Xisobot blankasiga o'lchash va hisob kitob natijalarini yozish.
4. Tirsakli val konstruktiv elementlarining holatini aniqlash.
5. Tashqi qarov bilan tirsakli valni brak qiluvchi belgilarni aniqlash, agar ular bo'lmasa chiziqchalar va boshqa shikastlanishlarning joylashuvi, markaziy teshiklardagi faskalar holati va xropovik rezbasining soni aniqlanadi.
6. Miqrometr yordamida o'zak bo'yinlarining diametri aniqlanadi. Har qaysi bo'yinni I-I, II-II mintaqalrida va o'zaro perpendiqulyar bo'lgan A-A va B-B tekisliklarida o'lchanadi. (A-A tekisligi hamma o'zak bo'yinlari uchun birinchi shatun bo'yni krivoshipi tekisligi olinadi). O'lchash mintaqalari bo'yin chetidan 1/4 o'zoqroqda bo'ladi. Birinchi mintaqqa val burniga yaqin tomon qabo'l qilinadi.
7. Hamma bo'yinlar uchun umumiyligida yeyilish hisoblanadi.
ya'ni:
$$H_{YM} = d_H - d_{V,I}$$

bunda d_n -ekspluatatsiya boshlanishidan bo'yin diametri (ishchi yoki remont chizmasidagi eng kichik chegaravi o'lcham);

d_{ul} -bo'yining minimal diametri (eng katta yeyilish qiymatidan o'lcham qabo'l qilinadi).

8. Bir taraflama notekis yeyilishni hisoblash.

$$H = \beta H_{ym}$$

bunda β -eyilishning notekislik koeffitsienti ($\beta = 0,75$)

9. Slindrik emaslikni hisoblash (ovallik, konuslik), mm da

$$\Delta_{CB} = d_{A-A1-1} - d_{B-B1-1},$$

$$\Delta_{KOH} = d_{\max A-A} - d_{\min A-A}$$

Har qaysi o'lchangan qiyamat uchun ovallik va konuslik uchun ikkitadan qiyamat olinadi. Eng katta qiymatni deffektatsiya xaritasiga yozib qo'yiladi.

10. O'zak bo'yinlari uchun ta'mir o'lchamini hisoblanadi.

(Xisob-kitob eng katta yeyilishga ega bo'lgan bo'yin bo'yicha olib beriladi).

$$d_{PK} = d_H + H + 2Z_P$$

bunda Z-ishlov berishda olib tashlanadigan eng kichik-minimal qatlam (birtaraflama).

Jilvirlash uchun $2Zr=0,10$ mm

so'ngra d_{rk} -qiyamatni kategoriyali ta'mir o'lchamlari bilan taqqoslab eng yaqin ta'mir o'lchami tanlab olinadi. Ta'mir o'lchami eng katta yeyilgan bo'yin uchun belgilanib bu o'lcham boshqa bo'yinlar uchun tegishli bo'ladi. Ya'ni

$$d_{PV_B} \leq d_{PK}$$

11. Birinchi o'zak bo'yining uzunligini chuqurlik o'lchagich ikki joyidan 180^0 burchak ostidan o'lchanadi.

12. Mikrometr yordamida shatun bo'yinlarining diametri o'lchanadi. Har qaysi bo'yinni ikki mintaqada I-I, II-II va ikki o'zaro perpendiqulyar tekisliklarda A-A va B-B (A-A tekisligi o'lchanayotgan bo'yin tekisligiga paralel. O'lchash mintaqalari bo'yin chetidan uzunligining $1/4$ qismida o'lchanadi).

13. Umumiy yeyilish miqdori, hamma shatun bo'yinlari uchun o'lchanadi.

$$H_{ym} = d_n - d_u$$

14. Bir tarafla notekis yeyilish miqdori o'lchanadi $H = \beta H_{ym}$

15. Slindrik emaslik (ovallik va konuslik) hisoblanadi.

$$\Delta_{OB} = d_{A-A1-1} - d_{B-B1-1}$$

$$\Delta_{KOH} = d_{\max A-A} - d_{\min A-A}$$

Har qaysi bo'yin ovallikning ikkita qiymati va konuslikning ikkita qiymatini topiladi. Xamma qiyatlardan eng kattasini deffektatsiya xaritasiga yoziladi.


16. SHatun bo'yinlariga ishlov berish o'lchamini hisoblanadi d_{rsh} (hisob kitob eng katta yeyilishga ega bo'lgan bo'yin bo'yicha olib boriladi).

$$d_{puu} d_n - H - 2Z_p$$

va d_{rsh} qiyamatni remont o'lchamlari kategoriyasi bo'yicha solishtirilib xamma shatun bo'yinlari uchun bir xil eng kichik o'lcham belgilanadi $d_{ppu} \leq d_{puu}$

17. Shtangensirkulning ichki o'lchamlarni o'lchovchi lablari bilan shatun bo'yinlarining uzunligi o'lchanadi.


18. SHtangenreysmus bilan krivoship radiusi R_{kp} o'lchanadi. Buning uchun birinchi shatun bo'yini tepa holatga qo'yib tayanch maydonchasigacha bo'lgan masofa o'lchanadi. Ifoda hisoblanadi:



$$R_{kp} = \frac{d_1 - d_2}{2}$$

19. Tirsakli valning radial tepishi o'rta bo'yin aniqlanadi. Buning uchun indikatorning sterjini o'rtadagi o'zak bo'yinga taqaladi. Taranglikni ta'minlab tirsakli valni indikator strelkasi eng chetki holatni olmaguncha aylantiriladi. So'ngra valni 180° ga aylantirilib strelkaning yangi holati aniqlanadi. Ikkala ko'rsatkichlar orasidagi ayirma valning tepishini belgilaydi. Valning egilganligi uni tepishining yarim qiymatiga teng.

20. Konstruktiv elementlarning holatini remont xaritasining talablari bo'yicha taqqoslab blankasining «Xulosa» grafasiga detalning holatini yozib qo'yish kerak. Ya'ni «Remontsiz», «Remontga» yoki «Brak» valni ta'mirga jo'natilishi lozim bo'lsa daffektni tuzatish usuli ham ko'rsatiladi.



V.Nazorat uchun savollari:

1. Tirsakli valning asosiy nuqsonlarini aytib bering. Tirsakli vallar qanday nuqsonlar sodir bo'lganda yaroqsiz chiqariladi?

2. SHesternya, shkiv va podshipnik o'tqaziladigan joylar qanday tiklanadi?
3. Tirsakli valning shatun va o'zak bo'yinlari qanday tiklanadi? Val bo'yinlarini jilvirlashda o'rnitish bazasi sifatida nima qabo'l qilinadi?
4. Tirsakli vallar o'zak bo'yinlari, shesterniyani o'tkazish joylarining tepishi va moxavikni mahkamlash flanetsining tepishi qanday tekshiriladi?

3-LABARATORIYA MASHG'ULOTI

Taqsimlash vallarining nuqsonlarini aniqlash.

I. Ishning maqsadi:

Valni ishchi yuzalarini yeyilish darajasini, ularni o'lchash usullari bilan nuqsonlarini o'rganish, yeyilish xarakterlarini va sabablarini o'rganish.

II. Ish joyidagi kerakli jixozlar:

- 2.1. Tekshirish uchun ma'lum muddatlarda ishlagan turli hil taqsimlash vallari.
- 2.2. Miqrometrlar, indikatorlar, shtangensirkullar va lupa (x3)
- 2.3. O'lchash ishlari olib borish uchun verstak

III. Ishni mazmuni va bajarish tartibi.

Taqsimlash vallari 15X,15HM,12XHZA,18XGT,40 selekt,45,40X,45X markali po'latlardan, shuningdek legirlangan cho'yanlardan tayyorlanadi.Tayanch bo'yinlarining,qulachoklarning,ekssentrik ish sirtining qattiqligi 51-63 HRC bo'ladi. Taqsimlash vallarining egilish va buralishga bikrligidan kichik bo'lganligidan uning Aniqlik xarakteristikalarini tiklash vaqtida qo'shimcha qiyinchiliklar yuzaga keladi.


1-jadval

Taqsimlash vallarining aniqlik tavsiflari

| Taqsimlash valining elementi | Parametrlari | Tehnik talablarning ruxsat etilgan qiymatlari |
|-------------------------------|---|--|
| Tayanch bo'yinlar | 1.Ishlov berish aniqligi 2.Sirtning g'adir-budirligi 3.Ovallik va konussimonlik 4.Radial yo'nalishda tepishi | 6-7 kvalitet Ra=0.32-0.63 mm Ko'pi bilan 0.01 mm 0.015-0.025 mm |
| Kulachoklar | 1.Simmetriya o'qining nominal xolatdan og'ishi 2.Profilning nazorat qilish nuqtalaridan og'ishi 3.Qulachok yasovchisining val o'qiga nisbatan og'ish burchagi 4.Sirtning g'adir- budirligi | ± (30'-1°30') ± (1°-2°) ± (8'-16') Ra=0.8-1.25mm |
| Bo'yinning tiraladigan toresi | 1.Yasovchiga nisbatan perpendikulyarmasligi 2.Tores sirtining g'adir-budirligi | 0.02-0.03mm Ra=0.8-1.25mm |

Kulachok va bo'yinlarning ish sirtlarining yeyilishi, valdag'i darz ketgan, singan va egilgan joylar, shikastlangan rezbalar uchrashi taqsimlash vallarining o'ziga xos nuqsonlari xisoblanadi.

Aniqlanadigan nuqsonlar: qulachoklarning yeyilishi, valning egilishi, ekssentrikning yeyilishi, rezbali teshiklarning yeyilishi, shesterniya turgan bo'yinlarning yeyilishi, tayanch bo'yinchalarning yeyilishi, darzlar va yorilib tushishlar.



Taqsimlash vallarini o'zak bo'yinlarini tekshirish

IV. OLINGAN NATIJALAR.

2-jadval

| Taqsimlash valining elementi nuqsonlari | Parametrlari | Aniqlangan qiymatlar |
|---|---|----------------------|
| Tayanch bo'yinlar | 1. Sirtning g'adir-budirligi 2. Ovallik va konussimonlik 3. Radial yo'nalishda tepishi | |
| Kulachoklar | 1. Simmetriya o'qining nominal xolatdan og'ishi 2. Profilning nazorat qilish nuqtalaridan og'ishi 3. Qulachok yasovchisining val o'qiga nisbatan og'ish burchagi 4. Sirtning g'adir- budirligi | |
| Bo'yinning tiraladigan toresi | 1. Yasovchiga nisbatan perpendikulyarmasligi 2. Tores sirtining g'adir-budirligi | |

V. XULOSA

Olingen natija asosida o'z fikringizni ayting.

VI. TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR.

1. Taqsimlash vallarida uchraydigan nuqsonlarni aytib bering.
2. O'lchash vaqtida qanday asboblardan foydalilanadi.
3. Qanday nuqsonli vavvar ishlatishga yaroqli xisoblanadi.

4-LABARATORIYA MASHG'ULOTI

Shatunlarining nuqsonlarini aniqlash.

I. Ishning maqsadi:

Shatunlarining o'lchamlarini aniqlash, ularni o'lchash usullari bilan nuqsonlarini o'rganish, yeyilish xarakterlarini va sabablarini o'rganish.

II. Ish joyidagi kerakli jixozlar:


1. Tekshirish uchun ma'lum muddatlarda ishlagan turli hil shatunlar
2. Shtangensirkul va lupa (x30)
3. O'lchash ishlari olib borish uchun verstak
- 4 Ma'lum vaqt davomida ishlagan shatunlar.

III. Ishni mazmuni va bajarish tartibi.

Shatundagi asosiy nuqsonlar o'zakning egilishi va buralishi, yuqori kallakdagi vtulka o'rnatilgan teshikning yeyilishlari , pastki kallak teshigidagi vat ores yuzasidagi yeyilishlaridir. Shatunnning yuqori kallagidagi yeyilgan vtulka yangisiga almashtiriladi. Ba'zan vtulka teshigi, o'lchami kattalashtirilgan porshen barmog'iga moslab yo'niladi yoki razvyortkalanadi.

Vtulka o'rnatiladigan teshiklari yeyilib ketgan shatunlarni ishlov berish orqali ta'mirlash o'lchamiga keltiriladi yoki yaroqsizga chiqariladi.

Shatun ozagidagi burilishlar va egilishlarni to'g'irlash orqali bartaraf etiladi. Shatunni to'g'irlash va nazorat qilish uchun turlicha moslamalardan foydalilanadi



Shatunni to'g'irlash jihizi

Shatunni pastki kallagidagi tutashuvchi sirtlarga ishlov berulgandan so'ng, ichquyma o'matiladigan teshikni nomonal o'lchamga yo'niladi va jilvirlanadi. Shatun va qopqoqning bir-biriga tutashuvchi sirtlari maxsus frezerlanadi yoki jilvirlanadi. Galvanik maydoncha mavjud bo'lsa, shatunning pastki kallagidagi teshikni po'latlash yo'li bilan ta'mirlash maqsadga muofiqdir. Po'latlashdan so'ng teshikni nominal o'lchamga tiklanadi. Ta'mirlashning bunday usuli shatun kallaklarining teshiklari orasidagi markazlararo masofani hamda detalning bikrligiga saqlab qolishga imkon beradi

IV. XULOSA

Olingen natija asosida o'z fikringizni aytинг.

5- LABARATORIYA MASHG'ULOTI

Tirsakli vallarning shatun va tayanch bo'yinlarini ta'mir o'lchamlariga tiklash

I.Ishning maqsadi.

1. Elektrokantakt usulida payvandlash jarayonining mohiyati bilan tanishish.
2. Elektrokontakt usulida payvandlashning turlari, jihozlari va ishni o'rganish.
3. Elektrokontakt payvandlash usulining qo'llanish sohalari, afzallikkleri va kamchiliklari bilan tanishish.

II. Mashg'ulot uchun topshiriqlar.


- 2.1.Ish joyi bilan tanishish.
- 2.2.Eyilish sxemasini o'rganish.
- 2.3.Tiklash texnologiyasi bilan tanishish.
- 2.4.Asbob uskunalardan foydalanishni o'rganish.

III. Ish joyidagi kerakli jihozlar.

- 3.1. Tekshirish uchun ma'lum muddatlarda ishlagan turli markadagi dvigatel vallari.
- 3.2. Mikrometrlar, indikatorlar, shtangensirkullar.
- 3.3. Tirsakli vallar qo'yilgan moslama.
- 3.4. Elektrokontakt usulida payvandlash uskunasi.

VI. Ishning mazmuni va bajarilish tartibi.

- 4.1.Umumiylar: metallarning payvandlanadigan joylarini bosim bilan bir-biriga qisib, ular orqali elektr toki o'tkazib, qizdirish yo'li bilan olib boriladigan payvandlashga elektrokontakt usulida payvandlash deyiladi.



1
rasm.

Elerokontakt usulida payvandlash sxemasi.

1-transformator; 2-egiluvchi o'tkazgich; 3-4-tok uzutuvchi simlar; 5-6-elektrodlar; 7-8-payvandlanayotgan detallar; 9-qayta ulagich; 10-kontaktor; 11-vaqt sozlagichi.

Elektrod toki o'tishi natijasida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori quyidagi ifoda bilan aniqlanishi mumkin.

$$Q = L^2 \cdot R \cdot t, \quad \text{joul}$$

bu yerda

J - tok kuchi, A;

R - detalarning bir-biriga qisib turilgan joyidagi qarshiligi, Om;

t - tok kuchining ta'sir etish vaqt, s

Ifodadan ko'rinib turibdiki, ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori tok kuchining kvadratiga bog'liq ekan. Shuning uchun detalning payvandlanadigan joyi juda tez qizishini ta'minlash uchun tok kuchini bir necha o'n ming ampergacha kattalikda olinadi. Bundan tashqari, tok kuchi o'tadigan yuzaning /F/ kichikldigi hisobiga / ifodaga qarang/

$$R = m \frac{\rho \cdot \ell}{F}$$

va zona harorati ortishi bilan qarshilik ortadi. Bularning hammasi detalning payvandlanadigan zonasini juda ham qisqa (soniyaning o'ndan bir va mingdan bir qismi) vaqt ichida kerakli haroratgacha qizishini ta'minlaydi.

Elektrokontakt usulida payvandlash rejimi ko'rsatkichlariga tok kuchi, uning ta'sir etish vaqt, bosim kuchi va uning ta'sir etish vaqtini kiradi.

Elektrokontakt payvandlash usuli ish unumining yuqoriligi, payvand tok sifatining yaxshiligi, jarayonni keng miqyosda mexnizatsiyalash va avtomatlashtirish mumkinligi payvandlash narxining arzonligi kabi ko'rsatkichlariga ko'ra mashinasozlikda va ko'rlishda po'lat va rangli metall qotishmalaridan ajralmas konstruktsiyalar olishda undan keng foydalani moqda. Keyingi vaqtarda bu usul qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlashda yeyilgan yuzalarni qayta tiklashda zamonaviy usullar qatoriga kirib kelmoqda.

Elektrokontakt usuli payvand chok olish usuliga ko'ra quyidagi asosiy xillarga ajratiladi.

1. Uchma-uch 2- rasm

2. Nuqtaviy 3- rasm

3. Rolikli 4- rasm

Uchma-uch payvandlashda birikma ikkala detal uchlarining yon yuzalarini bir-biriga payvandlanishidan hosil bo'ladi. Bu usul bilan trubalar, relslar, zanjirlar, parmlar va boshqalar payvandlanadi.

Nuqtaviy payvandlashda uchlari kichik yuzali elektrod yordamida detallar bir-biriga qattiq qisib, ular orqali tok o'tkazib, birikma hosil qilinadi. Nuqtaviy payvandlash avtotraktor va qishloq xo'jalik mashinasozligida kabinalar, quzovlar, don, urug', o'g'it solinadigan idishlar va boshqalar tayyorlashda qo'llaniladi.


Rolikli payvandlashda payvand chok aylanuvchi qator payvand nuqtada bir-birini ma'lum miqdorda bosib tushuvchi qator payvand nuqtalar sifatida qilinadi. Payvand nuqtalarning bir-biriga nisbatan joylashishiga qarab, chok uzlusiz va uzlikli bo'lishi mumkin.

Bu usul bilan sanoatda suyuqlik quyiladigan shuningdek, mashinalarni ta'mirlash jarayonida detallarning yeyilgan yuzalarini qayta tiklada foydalaniladi. Yuzalarini qayta tiklashga mo'ljallangan 011-1-02 "Remdetal" ko'rmasi keltirilgan.

Qayta tiklanadigan detal shpindel va markaz bilan ushlab ma'lum tezlikda aylantiriladi. Tezligi avtomatik ravishda boshqariladigan aravachada payvandlash kallagi joylashgan bo'lib, uning ikkita roligi bor.


Bu usul detallarning yeyilgan yuzalariga metall simi, lenta yoki qukunini tokning quch impulslari yordamida qoplashga asoslangan.

idishlar, truba kabilar tayyorlashda,



2 – rasm. Nuqtaviy


(a) va
nuqtalar (b).



payvandlash sxemasi
payvandlangan

3 – rasm. Rolikli payvandlash sxemasi (a) va payvand chok (b).

4-rasm. 011-1-02 “Remdetal” elektrokontakt payvandlash ko’rlmasi.



Ketma-ket berib turiladigan tok impulsi detalning qayta tiklanadigan butun yuzasida vintsimon chiziq bo’ylab joylashgan va bir-birini har tomondan qisman bosib tushuvchi payvand nuqtalar hosil qiladi. Bunga detalning aylanma va ko’rlma aravachasining bo’ylama xarakati hisobiga erishiladi. Detalning ortiqcha qizishiga yo’l qo’ymaslik va payvandlangan qatlamni toblastash maqsadida payvandlash zonasiga sovituvchi suyuqlik yuborib turiladi.

V. Ishni bajarish tartibi

1. Elektrokontakte usulida payvandlash jarayonining mohiyati qisqa yoziladi.
2. Elektrokontakte usulida payvandlash turlarining sxemasi chiziladi.
3. 011-1-02 “Remdetal” elektrokontakte payvandlash ko’rlmasining tuzilishi va ishlash qoidasi o’rganiladi.
4. Namunaga po’lat lentani payvandlab, sifati tekshiriladi.
5. Payvandlangan yuza ishchi o’lchamigacha jilvirlanadi.
6. Ish yuzasidan xulosa yoziladi.

VI. Xulosa

Olingan natija asosida o’z fikringizni ayting.

VII.Takrorlash uchun savollar.

1. Elektrokontakt usulida payvandlashning fizik mohiyatini aytib bering?
 2. Elektrokontakt usulida payvandlashning qanday turlari mavjud?
 3. Payvandlash usuliga ko'ra rolikli mashinalarning qanday turlari mavjud?
- Detallarni qayta tiklashda ularning yeyilgan yuzalariga qoplash uchun qanday materiallardan foydalaniladi?

6-LABARATORIYA MASHG'ULOTI

Tirsakli vallarni elektryoy yordamida metal eritib flyus qatlami ostida tiklash

I. Ishning maqsadi:

Tirsakli vallarni shatun va tayanch bo'yinlarini ta'mir o'lchamlariga tiklash bo'yicha talabalarining olgan nazariy bilimlarini mustaxkamlash va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

II. Ish joyining jihozlanishi

- 1.Mashg'ulot o'tkazish uchun stol.
- 2.Valning tepishini tekshirish va markazga qo'yish PBM-500 rusumli uskuna.
3. S-IV miqrometri uchun stol.
4. Kattalashtiruvchi lupa.
5. MR-75 rusumli richagli miqrometr.
6. Shtangensirkul SHTS-1-600-0,1.
7. PR-250-0,05 shtangenreysmus.
8. Soat tipidagi indikator.
9. Krivoship radiusini o'lchash uchun 70-8784-1010 yoki 9571-38 maxsus moslamalar.
10. Tirsakli valni kompleks tekshirish 9571-49 moslamasi.

III.Ishning mazmuni

Tirsakli valni nuqsonlarini aniqlash uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash, valning konstruktiv elementlarini texnik holatini aniqlash, vallarni nazorat natijalari bo'yicha saralash, ta'mirlash usullari va amallarining mazmunini belgilash va ish bo'yicha xisobot tuzish.

IV. Ishni bajarish tartibi

4.1.Tirsakli valni tiklashga qo'yilgan talablar

Tirsakli valning ba'zi konstruktsiyalarida posangilar ho'm bo'ladi. Tirsakli vallarning krivoship (shatun) bo'yinlari 120° , 180° (bitta tekislikda), kamdan-kam hollarda 90° burchak ostida joylashadi. Texnologik bazalarni tanlashda va vallarni mexanik ishlov berish uchun mahkamlashda, shuningdek, kerakli uskunalarini


tanlashda ishlov beriladigan yuzalarning tozaligiga qo'yiladigan talablardan kelib chikish zarur (1-jadval).

Tirsakli vallarni nuqsonlarini aniqlash oldidan OM-3600 mashinalarida yuviladi. Ayniqsa moy kanallari yaxshilab yuvilishi kerak. Val yuvilandan so'ng uning nuqsonlarini aniqlashga kirishiladi. Tiklanadigan tirsakli vallarda 1-rasmida ko'rsatilgan ko'pgina nuksolar bo'ladi: val egiladi, shatun va o'zak bo'yinlari, maxovikni mahkamlash boltlari kirdgiziladigan teshiklar, uzatmalar qutisi yetakchi valining uchidagi yo'naltiruvchi podshipnik o'rnatiladigan teshik, flanetsning yon tomonlari sirti va diametri, shponka va moy yig'ish ariqchalar, shesternya va shkiv gupchagi o'rnatiladigan bo'yinlar yeyiladi, xropovik o'rnatiladigan rezba shikastlanadi, old o'zak va shatun bo'yinlari uzunlashadi, sinadi hamda darz ketadi. labaratoriya mashg'ulotida hisobot blankasiga tirsakli val konstruktiv elementlarining holati, uni brak qiluvchi belgilari va boshqa nuqsonlari aniqlab, ularning nomi, texnologik o'lchamlarining qiymati jurnalga yoziladi va chizmada belgilangan o'lchamlarga solishtiriladi hamda nuqsonlarni tiklash bo'yicha tadbirlar belgilanadi.

1-jadval


Tirsakli val o'lchamlarining aniqligi

| T.r. | Sirtlarning nomi | Aniqlik qiymati |
|------|---|-----------------|
| 1. | Diametrning aniqligi, kvalitet: | |
| | a)o'zak va shatun bo'yinlariniki | 5 |
| | b)shkiv uchun mo'ljallangan bo'yinlarniki | 6 |
| | v)salnik uchun mo'ljallangan bo'yinlarniki | 6 |
| 2. | Bo'yinlarning ovalligi, konussimonligi va botiqligi, mm | 0,005 |
| 3. | SHatun va chekka o'zak bo'yinlarining paralellikdan og'ishi, mm | 0,06...0,07 |
| 4. | G'adir-budirlik parametrlari, R_a , mkm: | |
| | a)o'zak va shatun bo'yinlariniki | 0,32...0,16 |
| | b)shkiv va salnik osti bo'yinlariniki | 2,0...1,2 |



1-rasm. Tirsakli valning asosiy nuqsonlari

1-shesternya va shkiv o'rnataladigan bo'yinlarning yeyilishi; 2-shponka ariqchasining yeyilishi; 3-oldingi tub bo'yin uzunligining ortishi; 4-shatun bo'yinlarini uzunligining ortishi; 5-sinishlar va darzlar; 6-valning egilishi; 7-flanetsning yeyilishi, tepishi; 8-moy haydash ariqchalarining yeyilishi; 9-uzatmalar qutisi valining podshipnigi o'tiradigan teshikning yeyilishi; 10-tub bo'yinlarning yeyilishi; 11-shatun bo'yinlarining yeyilishi; 12-xropovik o'tiradigan rezbali teshiening shikastlanishi.




2-rasm. Tirsakli valni tiklash texnologik jarayoni operatsiyalari

а- val egilishini tekshirish va to'g'rilash; 1-oqib yuruvchi markaz; 2-prizma; 3-jarayon; 4-indikator; б-shatun bo'yynini eritib qoplash; 1-markaz surgich; 2-mundushtuk; 3-eritib qoplangan metal; в-o'zak bo'yinni eritib qoplash; 1-mundushtuk; 2-eritib qoplangan metal; г-markaziy faskani tayyorlash; 1-planshayba; 2-lyunet; 3-keskich; д-bo'yinni YUCHT bilan toplash; 1-YuCHT indikatori; 2-ustun; г-o'zak bo'yinlariga tokarlik ishlov berish; я-o'zak bo'yinlarga tokarlik ishlov berish; ж-shatun bo'yynini jilvirlash; з-o'zak bo'yynini jilvirlash.

Valning bo'yinlarida darzlarning bor-yo'qligi magnitli nuqson aniqlagichlarda yoki magnitli qalam bilan tekshiriladi. So'ngra valning salqishi (egilishi) tekshiriladi, bunda xatolik va noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik uchun salqilikni maxovikni mahkamlash flanetsining yonini tepishi bo'yicha aniqlash kerak. Bu tepish ko'pi bilan 0,05 mm bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Tepish katta bo'lsa val mahalliy puxtalash yo'li bilan to'g'rilanadi. Tirsakli valning egilganligi sovuqlayin pressda yoki galtellarini chekankalab (zarb berib) to'g'rilanadi (2-rasm). Valni to'g'rilash uchun eng chekka o'zak bo'yinlarga kabarik tomonini press shtoki tomonga qilib to'g'rilanadi. Uni teskari tomonga qayta bukish egilishdan 2-3 marta ortiqroq bo'lishi kerak.

Val to'g'rilingach, undagi ichki quchlanishlarni yo'qotish uchun 400-500⁰S gacha qizdiriladi va 0,5-1,0 soat mobaynida ushlab turiladi. CHekanka qilish (zarb berish) pnevmatik yoki dastaki bolg'a bilan maksimum egilgan o'zak bo'yinga yaqin turgan galteldan boshlanadi, so'ngra keyingi galtellarga o'tiladi, va h.k. Krivoship radiusi maxsus 70-8784-1010 yoki 9571-38 moslamalari yordamnda tekshiriladi (9571-38 ning sxemasi 7-rasmda keltirilgan).



7-rasm. Tirsakli valni krivoshipi va radiusini tekshirish 9571-38 moslamasi
1-prizma; 2-korpus-trubka; 3-indikator

Moslama korpus-truba 2, trubaga payvandlangap ikkita prizma 1 va to'rtta indikator 3 dan tashkil topgan. Indikatorlar etalon bo'yicha o'rnatilib, so'ngra prizmali moslama o'zak podshipniklarning birinchi va ketingi bo'yinlariga shunday qo'uyiladiki, bunda indikatorlarning o'lchash sterjenlari tegishli shatun bo'yinlari sirtlariga tegsin. Strelkalarning nol holatdan og'ishi krivoship radiuslarinint normal qiymatlardan chetga chiqishiga mos keladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'mirlash korxonalarida tirsakli val 70-8735-1006-yoki 9571-49 tipidagi moslamalar yordamida tekshiriladi (9571-49 ning sxemasi 6-rasmda ko'rsatilgan). Bu moslamalar, valni kompleks tekshirish imkonini beradi. Krivoship radiusi, o'zak bo'yinlar va maxovikni mahkamlash flanetsining tepishi SHU moslamalarda aniqlanadi. Tekshirilayotgan val chetdagi o'zak tayanchlarp bilan plita 1 ga o'rnatilgan prizmalar 2 ga joylashtiriladi. SHU plitanang o'ziga soat tipidagi indikatorlar 3 montaj qilingan bo'lib, valni 360° ga burashda ko'rsatilgan barcha parametrler ana shu indikatorlar yordamida o'lchanadi. Krivoship radiusini tekshirish uchun indikatorlar etalon val bo'yicha o'rnatiladi.

Tiklangan vallar quyidagi texnik talablarga javob berishi kerak: podshipniklarga mo'ljallangan bo'yinlar ovalliligi va konusligi mayda vallar uchun ko'pi bilan 0,01 mm; yirik vallar uchun ko'pi bilan 0,02 mm; shesternya uchun va o'rtadagi o'zak

bo'yinlarning chetdagi o'zak bo'yinlarga nisbatan tepishi ko'pi bilan 0,03 mm; maxovikni mahkamlash flanetsining chetki nuqtalardan torets bo'yicha tepishi ko'pi bilan 0,04 mm; bo'yinlar sirtinipg g'adir-budurligi 6- kvalitetdan past bo'lmasligi, galtellar radiuslari va krivoshiplar radiuslari texnik talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

O'zak va shatun podishpniklari vkladishlari kam uglerodli po'lat va qo'rg'oshinli bronza antifriktsion qatlami yoki babbitdan iborat bimetall polosalardyan tayyorlanadi. Vkladishlarning yeyilishi, uvalanishi, qirilishi, anti-friktsion qatlamnnng yorilishi yoki erishi; fiksatsiyalash chiqiqlarnning (o'simtalar) ezilishi yoki qirqilishi, tashqi sirti va torets ajralish tekisliklarining yeyilishi ularning asosiy nuqsonlari hisoblanadi. Sanab o'tilgan nuqsonlardan juda bo'lmasa bittasi yo'l qo'yilgan talablardan chetga chiqqanda, shuningdek, bo'yinlar ovalliligi va vkladishlar bilan tirsakli val bo'yinlari orasidagn zazorlar yo'l qo'yilgandan kattalashganda vkladishlar almashtirpladi.

Antifriktsion qatlami bir oz yeyilgan va boshqa nuqsonlari bo'lмаган remont o'lchamndagi vkladishlar qo'shimcha yoki asosiy remont o'lchamida katta diametrda yo'nib kengaytiriladi.

Dvigatelga antifriktsion qatlaminikg qalinligi 0,16 mm dan kam bo'lган vkladishlarni qo'yib bo'lmaydi.

Avtomobil dvigatellari uchun remont o'lchamidagi vkladishlardan tashqari, ichki diametriga chala ishlov berilgan vkladishlar ishlab chiqariladi. Bunday vkladishlar valning har qanday o'lchamdagи bo'yinlari uchun muayyan chegarada yo'nib kengaytirilishi mumkin.

Vkladishlar URB-VP-M tipidagi yo'nib kengaytirish stanoklarida maxsus moslamalarda yo'nib kengaytiriladi. Agar shatun vkladishlar shatun boltlarining gaykalari normal burab mahkamlanganda bevosita, shatunning o'zida, o'zak vkladishlar esa blokda RD tipidagi stanoklarda o'zak podshipniklar kopqoqla-rining gayka va boltlari ham normal bo'rab mahkamlanganda yo'nib kengaytirish yaxshi natijalar beradi.

Yo'nilgan vkladishlar sirtining g'adir-budurligi kamida 5-6 kvalitet, ovalliligi va konusligi esa ko'pi bilan 0,02 mm bo'lishi lozim. Yo'nilgan vkladishlarning tashqi sirtidagi eski marka ketkazilib, remont o'lchami va o'rnatish joyi (pastki va yuqorigi) qursatilgan yangi markalar yozib qo'yiladi.

Yo'nilgan vkladishlarni xuddi yangisi kabi kompleksizlashga yo'l qo'yilmaydi.

Konstruktiv elementlarning holatini remont xaritasining talablari bo'yicha taqqoslab blankanining «Xulosa» grafasiga detalning holatini yozib qo'yish kerak. Ya'ni «Ta'mirsiz», «Ta'mirga» yoki «Brak» valni ta'mirga jo'natilishi lozim bo'lsa deffektini tuzatish usuli ham ko'rsatiladi.

Tirsakli valda har qanday xarakterdagи darzlar bo'lsa yaroqsizga chiqariladi. Agarda bo'yinlar sirtidagi kichik qatlam-qatlam joylarni ta'mir o'lchamigacha jilvirlash bilan bartaraf etish mumkin bo'lsa, tirsakli val yaroqsizga chiqarilmaydi. Avtomobil dvigatellarining vallari o'zak va shatun bo'yinlari uzunligi bo'ylab yo'l qo'yilgan o'lchamdan ortiq yeyilgan bo'lsa, yaroqsizga chiqariladi.

4.2.Tirsakli valni tiklash jarayonlari

Tirsakli vallarni tiklashning texnologik jarayoni sxemasi (3-rasm) ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchi yo'nalishda vallarning o'zak za shatun bo'yinlari ta'mir o'lchamiga mo'ljallab silliqlab tiklanadi, ikkinchi yo'nalish

bo'yicha esa bo'yinlarga metall eritib qoplanadi va nominal o'lchamga yetguncha ishlov beriladi.

SHatun bo'yinlari uzunligi bo'ylab konussimon, diametri bo'ylab esa ovalsimon yeyiladi, ya'ni elips shakliga kiradi.

O'zak bo'yinlar uzunligi bo'ylab bir tekis, diametri bo'ylab esa ellipssimon yeyiladi.

Bo'yinlar yeyilishining xususiyatlari tirsakli valni yaroqli-yaroqsizga ajratishda hisobga olinadi. Bo'yinlar ikkita ko'ndalang kesimda shchekalaridan 10 mm masofada va ikki krivoship tekisligida va unga perpendiqulyar tekislikda o'lchanadi.

Agar shatun bo'yinlari ellipsligi 0,05 mm dan va o'zak bo'yinlarning ellipsligi 0,06 mm dan oshsa, shuningdek, qirilish, pachoqlanish, chuqur tirmalishlar yoki yeyilishlar yo'l qo'yilgan darajadan oshib ketsa bo'yinlar jilvirlanadi. Bir nomdag'i shatun va o'zak bo'yinlar bitta ta'mir o'lchamigacha jilvirlanadi.

O'zak bo'yinlarini jilvirlashda o'rnatish bazasi sifatida xropovik uchun mo'ljallangan teshik faskasi va podshipnik uchun mo'ljallangan val yon tomonidagi faska yoki teshik qabo'l qilinadi. Bu bazalar avval tekshiriladi va zarur bo'lsa tuzatiladi. Tekshirish uchun tirsakli val markazlarga o'rnatilib, uning tepishi yeyilmagan sirtlarga qarab o'lchanadi.

O'zak bo'yinlarini jilvirlashda o'rnatish bazasi sifatida shesternya osti bo'yni va maxovik flanetsining sirtqi slindrik sirti yoki chetidagi jilvirlangan o'zak bo'yinlar qabo'l qilinadi.

Eyilgan shatun va o'zak bo'yinlar 0,25 mm oraliq bilan ta'mir o'chamlariga mo'ljallab qayta silliqlanadi yoki metall eritib yopishtiriladi, so'ngra nominal o'lchamga yetguncha ishlov beriladi. Bo'yinlar ZA433, ZV423, ZA423 kabi doiraviy silliqlaşq sanoklarida jilvirlanadi (2-j,z rasm). Silliqlangan bo'yinlar 2K34 stanogida jilolanadi.

Eyilgan bo'yinlarga metal eritib yopishtirish uchun flyus qatlami ostida sim eritiladi yoki yeyilishga chidamli material qukunlari plazmali to'zitish yo'li bilan yopishtiriladi (2-b,v rasm). Bo'yinga metalni eritib yopishtirishdan oldin moy kanallari grafitli pasta yoki grafit sterjen bilan berkitib qo'yiladi.

Np-ZOXGSA simi AN-348A flyusi ostida eritib yopishtirilgan tirsakli vallarga quyidagi ishlov beriladi: YuCHT ko'rmasida bo'iinlar normallanadi va toblanadi, so'ngra kerakli o'chamga yetguncha silliqlanadi (2- d, ye rasm; 4-rasm).

Tirsakli vallarga plazma yordamida eritib yopishtiriqdan oldin undagi yeyilganlik izlari mexanik ishlov berib yo'qotiladi va bo'yinning geometrik shakli tiklanadi. Nikel-xrom-bor-kremniy qotishmasi eritib yopishtirilgandan keyin shatun va o'zak bo'yinlar olmos asboblar bilan silliqlanadi. Valga tozalab ishlov berish 24 soatdan keyin bajariladi, chunki bu vaqt ichida qoplamada hamda val materialining tashqi sirtida ichki quchlanishlar to'la relaksatsiyalanadi.

Eyilgan shponka ariqchasi ta'mir o'lchamli shponka uchun frezerlanadi yoki bo'yin bilan birgalikda 0,8-1,2 mm diametrli Sv-08GS simni karbonat angidrid gazi muhitida eritib to'ldiriladi, bu jarayon A-547 yarim avtomatda, eritib yopishtiriladigan qatlama qolgan sirtlardan 1 mm ko'tarilguncha bajariladi. So'ngra bo'yin yo'niladi va nominal o'lchamga yetgunga qadar silliqlanadi, shponka ariqchasi esa nominal o'lchamgacha frezerlanadi.



4-rasm. Tirsakli valni stanokda jilvirlash jarayoni

SHkiv o'tqaziladigan bo'yinlar, posangilar va shesternyalarga karbonad angidrid gazi muhiti sharoitida 1,0-1,5 mm diametrli Sv-18XGS, Sv-ZOXGS simni U-651 stanogida eritib yopishtiriladi

Eritib qoplangan sirtlar 1M63 turidagi stanokda TK turidagi qattiq qotishmali plastinkali keskichlar bilan yo'niladi (2-e rasm).

Avvol o'zak bo'yinlar, keyin shatun bo'yinlar ZB161 doyraviy silliqlash stanoklarda silliqlanadi (2-j,z rasm).

Podshipnik uchun mo'ljallangan yeyilgan teshiklar vtulka o'rnatib tiklanadi (5-rasm), yo'nilgan teshikka vtulka tirakka qadar presslab kiritiladi. So'ngra vtulka tokarlik vint qirqish stanogida nominaa o'lchamga qadar yo'niladi.


Xrapovik uchun mo'ljallangan rezbaning kamida ikki o'rami shikastlangan bo'lsa, progonkalab bartaraf etiladi, ikkitadan ortiq o'rami shikastlangan bo'lsa, ta'mir o'lchamli rezba ochiladi.

4.3.Tirsakli valning shatun va o'zak bo'yinlarini tiklash uchun ta'mir o'lchamlarini aniqlash


Tiklanadigan tirsakli valning o'zak va shatun bo'yinlarining diametri miqrometr yordamida o'lchanadi. Har bir bo'yinni diametri I-I, II-II kesimlarda va o'zaro perpendiqulyar bo'lgan A-A va B-B tekisliklarda o'lchanadi (A-A tekisligi hamma o'zak bo'yinlari uchun birinchi shatun bo'yni krivoshipi tekisligi bo'yicha olinadi). O'lchash mintaqalari bo'yin chetidan 1/4 o'zoqroqda bo'ladi. Birinchi mintqaqa val burniga yaqin tomon qabo'l qilinadi.

SHatun bo'yinlarining uzunligi shtangensirkul bilan o'lchanadi.

Tirsakli valning radial tepishi o'rta bo'yin bo'yicha aniqlanadi (6-rasm). Buning uchun indikatorning sterjeni o'rtadagi o'zak bo'yinga taqaladi. Taranglikni ta'minlab tirsakli valni indikator strelkasi eng chetki holatni olmaguncha aylantiriladi. So'ngra valni 180° ga aylantirilib strelkaning yangi holati aniqlanadi. Ikkala ko'rsatkichlar orasidagi ayirma valning tepishini belgilaydi. Valning egilganligi uni tepishining yarim qiymatiga teng bo'ladi.



5-rasm.Tirsakli valni yon tomoni-dagi podshipnik o'tiradigan teshikni vtulka qo'yib tiklash



6-rasm. Tirsakli valni kompleks tekshirish 9571-49 moslamasi
1-plita; 2-prizma; 3-soat tipidagi indikator.

4.3.1.Hamma bo'yinlar uchun umumiy yeyilish miqdori ushbu formula bilan hisoblanadi

$$I_{y_3} = d_{h_{y_3}} - d_{e_{y_3}} \quad (1)$$

bu yerda d_n - bo'yining nominal diametri, mm;

d_{ul} -eyilgan bo'yining minimal diametri (eng katta yeyilish qiymati qabo'l qilinadi).

4.3.2.Bir taraflama notejis yeyilishni hisoblash ushbu ifoda orqali aniqlanadi

$$I = \beta I_{y_m} \quad (2)$$

bu yerda β -eyilishning notejislik koeffitsienti, tirsali val uchun $\beta = 0,75$ ga teng.

4.3.3.Kesimning slindrik emasliligi va konussimonligi quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$I_{ul} = d_{A-A1-1} - d_{3-31-1} \quad (3)$$

$$K_{oh} = d_{\max A-A} - d_{\min A-A} \quad (4)$$

Har qaysi o'lchangan qiymat uchun ovalilik va konuslilik uchun ikkitadan qiymat olinadi. Eng katta qiymatni deffektovka xaritasiga yozib qo'yiladi.

4.3.4.O'zak bo'yinlari uchun ta'mir o'lchamini hisoblash ishlari eng katta yeyilgan bo'yin bo'yicha olib beriladi va ushbu ifodadan topiladi

$$d_{yp} = d_h - I - 2Z_p \quad (5)$$

bu yerda Z_r - ishlov berishga qo'yilgan qo'yim (bir tomonga).

Jilvirlash uchun $Z_r=0,10$ mm qabo'l qilinadi.

Hisob natijalari bo'yicha olingan d_{rk} ning qiymatini navbatdagi ta'mir o'lchamlari bilan taqqoslab eng yaqin bo'lgan ta'mir o'lchami qabo'l qilinadi. Ta'mir o'lchamini eng katta yeyilishga ega bo'lgan bo'yin uchun belgilanib, bu o'lcham boshqa bo'yinlar uchun ham bir hil. Ya'ni $d_{PV_B} \leq d_{PK}$.

4.3.5.Birinchi o'zak bo'yining uzunligini chuqur o'lchagich bilan ikki joyidan 180^0 burchak ostida o'lchanadi. Miqrometr yordamida shatun bo'yinlarining diametri o'lchanadi. Har qaysi bo'yinni ikki kesimda I-I, II-II va ikki o'zaro perpendiqulyar

tekisliklarda A-A va B-B (A-A tekisligi o'lchanayotgan bo'yin tekisligiga paralel, B-B perpendiqulyar. O'lchash kesimlari bo'yin chetidan 1/4 qismida olinadi).

4.3.6. SHatun bo'yinlarining yeyilish ham hamma shatun bo'yinlari bo'yicha o'lchanib, yeyilish miqdori quyidagi ifodadan topiladi

$$I_{uu} = d_{uu} - d_{e\underline{uu}}$$

bu yerda d_{nsh} -ekspluatatsiya boshlanishidagi yoki navbatdagi ta'mirdan keyingi shatun bo'yinning nominal diametri;

d_{eysh} – yeyilgan shatun bo'yinlarining eng kichik diametri.

4.3.7. Bir taraflama notekis yeyilish miqdori ushbu ifoda bilan aniqlanadi

$$I = \beta I_{uu}.$$

4.3.8. Slindrik emaslilik (ovallik va konuslik) ushbu ifoda bilan hisoblanadi

$$I_{uu} = d_{A-A1-1} - d_{B-B1-1}$$

$$K_{oh} = d_{\max A-A} - d_{\min A-A}$$

Har qaysi shatun bo'yinining ovalliligini ikkita qiymati va konuslilikning ikkita qiymati topiladi. Hamma qiymatlardan eng kattasi deffektovka xaritasiga yoziladi.

4.3.9. SHatun bo'yinlariga ishlov berish o'lchami d_{rsh} hisobi eng katta yeyilishga ega bo'lgan bo'yin bo'yicha olib boriladi, ya'ni

$$d_{puu} = d_u - I - 2Z_p$$

va d_{rsh} qiymatni remont o'lchamlari kategoriyasi bo'yicha solishtirilib hamma shatun bo'yinlari uchun bir xil bo'lgan eyg kichik o'lcham belgilanadi $d_{ppu} \leq d_{puu}$

1. Eritma qalinligini hisoblash, t mm.

$$t = \Delta_{u3M} + a.$$

qaerda: Δ_{u3M} - detal yuzasining yeyilish kattaligi. $\Delta_{u3M} = 2$ mm.

“a” – ishlov berish haqqi, mm (yo'nish uchun 1,5-2 mm chegara).

2. Elektrod sim uchun material tanlash. 2-sinf /GOST 10543-82/. $D_s =$ mm. Sim markasi.

3. Elektrodnинг zenitdan siljishini ifoda orqali hisoblash:

$$e = /0,04...0,005/ D_{dem}.$$

qaerda: D_{dem} - detalning erish yuzasi diametri, mm.

4. Elektrod uchishini aniqlash:

$$L = /10...12/ \cdot D_s, \text{ mm.}$$

5. Detalning aylanish chastotasi quyidagicha aniqlanadi:

$$n_D = \frac{60 \cdot V_H}{\pi(D_{dem} + 2t)}.$$

qaerda: V_H - eritish tezligi mm/s.

t - eritish qatlaming qalinligi, mm.

6. Eritish tezligini aniqlash:

$$V_H = \frac{0,785 \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot V_{npoe}}{t \cdot S}, \text{ m/min.}$$

Bu yerda: V_{npoe} - simning uzatish tezligi, m/min.

S - erish qadami, $S = /1,5 - 2,0/ \cdot D_s$ mm/ayl.

K - metalning quyish va sachrashini hisobga olish koeffitsenti, $K_1 = 0,92$,

K_2 - eritiladigan qatlamning to'lalik koeffitsenti, $K_2 = 0,79 - 0,95$

$$V_{np} = \frac{Q}{0,785 \cdot D_s^2} .$$

qaerda: Q - eritilgan metall hajmi, $Q = \frac{G}{\gamma}$

G - eritilgan metall massasi, $G = \frac{I \cdot a_H}{60}$

I - tok kuchi, $I = 0,785 \cdot D_s^2 \cdot D_a$ A/mm.

D_a - tok zichligi, $D_a = 80 - 90$ A/mm².


« a_H » - eritish koeffitsenti, $a_H = 6,5 - 8,2$ g/A CH.

Erishning hisoblangan rejimlarini jadvaldagagi ma'lumotlar bilan taqqoslash shart.

Erish rejimlari

14-jadval.

| Detal diametri, mm | Elektrod simi, mm | Senitdan siljish, mm | Erish qadami, mm | Tok kuchi, A | Simni uzatish tezligi, m/soat. |
|---------------------------|--------------------------|-----------------------------|-------------------------|---------------------|---------------------------------------|
| 50-60 | 1,6 | 2-4 | 2,5-3 | 140-150 | 75-80 |
| 61-75 | 1,6 | 3-4 | 3,5 | 170-180 | 110-115 |
| 76-100 | 1,6 | 4-5 | 4,5 | 180-220 | 125-135 |
| 101-200 | 2-3 | 8-10 | 5-6 | 220-250 | 160-170 |
| 201-300 | 2-3 | 10-15 | 6-7 | 250-280 | 180-290 |



1. Flyus uzatilishi uchun soplo.
2. Elektrod simi.
3. Granullangan flyus.
4. Eritilgan flyusdagi pufak.
5. SHlakli qobiq.
6. Eriqan metall.
7. Detal.

10-Rasm. Flyus oqimi ostida eritish.

V. Nazorat savollari

5. Tirsakli valning asosiy nuqsonlarini aytib bering va ular qanday nuqsonlar sodir bo'lganda yaroqsizga chiqariladi?
6. SHesternya, shkiv va podshipnik o'tqaziladigan joylar qanday tiklanadi?
7. Tirsakli valning shatun va o'zak bo'yinlari qanday tiklanadi?
8. Val bo'yinlarini jilvirlashda o'rnitish bazasi sifatida nima qabo'l qilinadi?
9. Tirsakli vallar o'zak bo'yinlari, shesterniyani o'tkazish joylarining tepishi va moxavikni mahkamlash flanetsining tepishi qanday tekshiriladi?

AMALIY MASHG'ULOTLAR

AMALIY MASHG'ULOT

1-Amaliy mashg'ulot

Yerusti transport tizim detallarining konstruktsion – texnologik hususiyatlari

Ishdan ko'zlangan maqsad:

-Avtomobil detallarining konstruktsion-texnologik hususiyatlarini o'rGANISH.

Kerakli asboblar:

- 1.Detallarni nuqsonlarini aniqlash uchun o'lchov priborlari majmuasi;
2. Amaliy mashg'ulot bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
- 3.Plakatlar.
4. CHizg'ich, qalam, rezinka va shtangen-serkul.

Mashg'ulotni bajarish tartibi:

Variant tartibi bo'yicha berilgan avtomobi detallarini konstruktsiyasi va o'lchamlarini aniqlash.

Konstrukturlik bazasi – detal yoki yig'ma birikmaning mahsulotdagi holatini aniqlash uchun ishlatiladigan bazadir.

Konstrukturlik ishi amaliyotida konstrukturlik bazasi deb, detalning sirti, chizig'i yoki nuqtasiga aytildi va unga nisbatan chizmada boshqa detal yoki yig'ma birikmaning holati aniqlanadi. Bundan tashqari berilgan detalning boshqa sirtlari va geometrik elementlari ham aniqlanadi.

Konstrukturlik bazalari **asosiy** va **yordamchi** bazalarga bo'linadi. Asosiy konstrukturlik bazasi deb, shu detalga yoki yig'ma birikmaga tegishli bo'lган va uning mahsulotdagi holatini aniqlaydigan bazaga aytildi. SHu detalga yoki yig'ma birikmaga tegishli bo'lган va unga biriktiriladigan mahsulotning holatini aniqlash uchun ishlatiladigan bazalarga yordamchi bazalar deyiladi (GOST 21495-76).

O'lchash bazasi deb, xomakiga ishlov berishda yoki uni o'lchashda shunday sirt, chiziq yoki nuqtaga aytildiki, bunda bajariladigan o'lchamlar ana shu sirt, chiziq yoki nuqtalarga nisbatan hisoblanadi. Bundan tashqari mahsulot elementlari va detallar sirtlarining o'zaro joylashishini (paralellik, perpendikulyarlik, o'qdoshlik va boshqalarni) aniqlashda ana shu sirt, chiziq va nuqtalardan foydalaniladi.

Texnologik baza deganda, xomaki yoki mahsulotni tayyorlash jarayonida uning holatini aniqlash uchun foydalaniladigan baza tushuniladi (GOST 21495-76).

Yig'ish jarayonidagi texnologik baza deb, mahsulot yoki yig'ma birikmaning detallari orientirlanadigan sirt, chiziq yoki nuqtaga aytildi.

Dastgohlarda xomakilarga *ishlov berishda foydalaniladigan texnologik baza* deb, xomakini bir marta o'rnatishda uning sirtlari orientirlanadigan sirt, chiziq yoki nuqtaga aytildi.

Kontakt bazalari deb dastgoh yoki moslamaning o'rnatish sirtlariga mos keladigan va bevosita tegib turadigan texnologik bazalarga aytildi.

O'lchamlarni avtomatik tarzda hosil qilish tamoyili bo'yicha xomakiga ishlov berilganda, kerakli aniqlikni dastgohning kontakt texnologik bazalari vositasida yoki moslamaning tegib turadigan tayanch sirtlari yordamida nisbatan yengil sozlash bilan ta'minlash mumkin.

Tekshirish texnologik bazalari. Seriyali va yakka tartibli ishlab chiqarish sharoitlarida xomakilarga ishlov berishda hamda aniq birikmalarni va mashinalarni yig'ishda tekshirish bazalari keng qo'llanadi.


Tekshirish bazasi deb, shunday sirt, chiziq yoki nuqtalarga aytildiki, bunda dastgohda ishlov berishda xomakini yoki kesuvchi asbobni hamda yig'ma birikma yoki uning detallari holati ana shu sirt, chiziq yoki nuqtalarga qarab to'g'rilanadi.

Bu usul og'ir mashinasozlikning mayda seriyali va yakka ishlab chiqarishlarida keng qo'llaniladi. Bunday ishlab chiqarish sharoitlarida murakkab moslamalar tayyorlash va kontakt bazalari bo'yicha aniq ishlov berish norentabel hisoblanadi. Dastgohda xomakini to'g'rakash uchun sarflanadigan vaqt sarfi xomakini tayyorlash uchun sarflanadigan umumiy vaqtning juda oz qismini tashkil qiladi.

Sozlash bazalari. Dastgohni xomakining ma'lum bir sirtlariga nisbatan sozlash uchun bu sirtlar dastgoh tirgaklariga nisbatan xomakini almashtirishda o'zgarmas holatni egallashi va ishlov beruvchi asbobning oxirgi holatiga nisbatan o'zgarmas bo'lishi kerak (5.4-rasm).

Xomaki M sirti bilan dastgoh qisish qurilmasining mos keladigan tirgagiga tayanadi va bu sirt A toretsni h o'lcham bo'yicha ishlov berish uchun tayanch texnologik baza bo'lib xizmat qiladi, lekin boshqa V, S, D, Ye torets sirtlarini v, s, d, a o'lchamlar bo'yicha ishlov berish uchun bunday baza bo'lib xizmat qilmaydi. Dastgohni sozlashda V, S, D va Ye sirtlarning holati M sirtining holati bo'yicha emas, balki A sirtining holati bo'yicha sozlanadi. Bunday holda A sirt ko'rib chiqilayotgan V, S, D va Ye sirtlar (bir marta o'rnatishda) texnologik sozlash bazalari bo'lib xizmat qiladi.

Sozlash bazasi deb, xomakining shunday sirtlariga aytildiki, bunday sirtlar bevosita o'lchamlar bilan bog'langan bo'lib, bir marta o'rnatishda hosil qilinadi va ularga nisbatan orientirlanadi.



5.4-расм. Хомакига револьверли дастгоща ишлов беришда А созлаш базасидан фойдаланиш

Sozlovchi baza ko'p hollarda xomakining tayanch bazasi bilan o'lchamli bog'langan bo'ladi. Xomakining aniq sirtlariga nisbatan dastgohlarni sozlaganda, bu sirtlar dastgohlarda xomaki detallarni almashtirganda ham ishlov berayotgan asbobning oxirgi holatini aniqlovchi dastgohlarning tayanch nuqtalariga nisbatan o'z holatini o'zgartirmaydi. Bunday sirtlarga xomaki detallarning tayanch sirtlari kiradi va tayanch texnologik baza sifatida katta seriyali ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Texnologik bazalarni tanlash

Mexanik ishlov berish (yig'ish) uchun texnologik jarayonni loyihalashda murakkab va printsipial bo'limlardan biri bu texnologik bazalarni tanlashdir. Texnologik bazalarni to'g'ri tanlash quyidagilarga ta'sir ko'rsatadi: o'lchamlarni olishda konstruktor belgilagan ularning haqiqiy aniqligiga; ishlov berilayotgan sirtlarning o'zaro joylashishiga; moslamalarning konstruktsiyasi va ularning murakkabligiga; kesish va o'lchov asboblarining konstruktsiyalari va ularning murakkabligiga; ishlab chiqarishning unumdorligiga va hokazo. SHuning uchun texnologik bazalarni tanlash, texnologik operatsiyaning ketma-ketligi va sirtlarga

ishlov berish turlari texnologik jarayonni loyihalash davrida eng avval ko'rildi. SHu bilan birga texnologik bazani tayyorlashda dag'al ishlov berish (ya'ni birinchi texnologik operatsiya) uchun texnologik baza tanlanadi.

Dastlabki ishlov berishda bazalarni tanlash. Xomakini birinchi o'rnatishda foydalaniladigan baza **dastlabki texnologik baza** deb ataladi.

Dastlabki texnologik baza (texnologik jarayonning qolgan operatsiyalari ham) kontakt yoki tekshirish bazasi bo'lishi mumkin, lekin ularning vazifasi turlichadir.

Dastlabki texnologik baza sifatida shunday sirtni tanlash kerakki, unga nisbatan keyingi operatsiyalarda texnologik baza sifatida ishlatiladigan sirtlar birinchi operatsiyada ishlov beriladigan bo'lishi lozim (ya'ni, dastlabki baza toza bazalarga ishlov berishdagi bazadir).


Bazalarning o'rindoshlik tamoyili. Xomaki detallarga aniq ishlov berish uchun texnologik bazalar tayinlashda bir vaqtning o'zida detalning konstruktorlik va o'lchash bazasi hamda mahsulotni yig'ish paytidagi bazasi sifatida qo'llaniladigan sirlarni qabul qilish lozim.

Texnologik, konstruktorlik va o'lchash bazalarining o'rindoshlilagini ta'minlashda xomakiga ish chizmasida konstruktor tomonidan ko'zda tutilgan o'lchamlar va dopusk maydonlari doirasida ishlov beriladi.

Agar texnologik baza konstruktorlik bazasi bilan yoki o'lchash bazasi bilan mos tushmasa, u holda texnolog ish chizmasida konstruktorlik va o'lchash bazalariga nisbatan qo'yilgan o'lchamlarni ishlov berish uchun qulay bo'lgan texnologik bazalarga nisbatan qo'yilgan texnologik o'lchamlar bilan almashтирiladi.

Yuqoridagilarni quyidagi misol yordamida yaqqol tushuntirish mumkin: pazni (ariqchani) 10N14 o'lcham – chuqurlik bo'yicha ishlov berish uchun moslama konstruktsiyasini soddalashtirish maqsadida xomakini pastki V sirtiga o'rnatish kerak. Pazning tubi S yuqori tekislik A bilan $10^{+0.36}$ o'lcham bo'yicha bog'langan va bu sirt paz uchun konstruktorlik va o'lchash bazasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday holatda texnologik baza – V sirt konstruktorlik va o'lchash bazasi bilan mos kelmaydi va bundan tashqari o'lchamlari hamda o'zaro joylashishi bo'yicha bog'lanmagan.

Sozlangan dastgohda ishlov berish paytida freza o'qidan stol tekisligigacha bo'lgan masofa o'zgarmas bo'lgani uchun ($R=const$) chizmada ko'rsatilmagan s o'lcham ham doimiy bo'ladi. Paz chuqurligining o'lchamini $a=10^{+0.36}$ mm avvalgi operatsiyada olingan $v = 50_{-0.02}$ mm o'lchamning xatoligi oqibatida kelib chiqadigan tebranishlar tufayli bajarish qiyin. Bunday holda pazlar frezalash operatsion eskizida texnologik o'lcham S ni ko'rsatish lozim, chunki uning aniqligi avvalgi



2.6-расм. Конструкторлик база билан мос тушмаган таянч технологик В базага нисбатан аричани фрезалаш.

operatsiyasiga bog'liq emas. Konstruktorlik o'lchamini $a = 10^{+0.36}$ mm eskizida ko'rsatilmagani maqsadga muvofiqliр. s texnologik o'lcham kattaligini va yangi texnologik o'lcham dopuskini o'lcham zanjiridan foydalanib aniqlash mumkin (2.6-rasm). Rasmdan ko'rinish turibdiki, $s = b - a = 50 - 10 = 40$ mm. s o'lchamning dopuski ham zanjirda aniqlanadi va bu o'lcham zanjirida boshlang'ich o'lcham bo'lib, $a = 10^{+0.36}$ mm konstruktorlik o'lchami xizmat qiladi va bu o'lcham o'lcham

zanjirini tashkil qiluvchi v va s o'lchamlar uchun konstruktor tomonidan belgilangan dopusklar bajarilishi ta'minlansa, yuqoridagi a o'lcham avtomatik tarzda olinadi. Ushbu formulaga binoan: $Ta=Tv+Ts$, bundan $Ts=Ta-Tv$. Tegishli qiymatlarni qo'yib $Ts=0,36:0,62$ ekanligini aniqlaymiz.

Dopuskning qiymati doimo musbat kattalik bo'lganligi uchun yuqoridagi tenglamani kamaytiruvchi zvenosini kattalashtirmsdan yoki ayriluvchi zvenoni kamaytirmsdan yechish lozim. a o'lcham dopuski konstruktor tomonidan belgilanganligi uchun uni kattalashtirish mumkin emas. Qo'yilgan masalani yechishda yagona usul ayriluvchi zvenoni kamaytirish, ya'ni v o'lcham dopuskini qisqartirishdan iboratdir. Tv dopuskni shunday kamaytirish kerakki, bunda v o'lcham va s texnologik o'lcham uchun belgilangan dopusklarni texnologik jihatdan bajarish mumkin bo'lsin. Texnologik nuqtai nazardan v va s o'lchamlarni bajarish murakkabligi bir xildir (ikkala o'lcham ham bitta o'lcham intervalida joylashgan bo'lib, ular gorizontal frezalash dastgohida olinadi). v o'lcham dopuskini $Tv = 0,18$ mm gacha, ya'ni boshlang'ich o'lcham a ning yarim dopuski kattaligiga teng qiymatgacha kamaytiriladi. Bu holda s texnologik o'lcham uchun v o'lcham dopuskiga yaqin dopuskini saqlagan holda yaqin standart dopusk bo'yicha belgilanadi, ya'ni

$$s = 50 - 0,16 = 50 \text{ h}11.$$

Texnologik o'lchamning hisobiy dopuski:

$$Ts = 0,36 - 0,16 = 0,20 \text{ mm.}$$

Texnologik o'lchamning chetga chiqishlari 5.6-rasmdagi o'lcham zanjiri bo'yicha aniqlanadi, ya'ni $a = v - s$

$$a^{\max} = v^{\max} - c^{\min}; \quad c^{\min} = v^{\max} - a^{\max} = 50 - (10 + 0,36) = 40 - 0,36 \text{ mm};$$

$$a^{\min} = v^{\min} - c^{\max}; \quad c^{\max} = v^{\min} - a^{\min} = 50 - 0,16 - 10 = 40 - 0,16 \text{ mm.}$$

s o'lchamning hisobiy kattaligi

$$s = 40_{-0,36}^{-0,16} \text{ mm.}$$

s o'lchamning standart ko'rsatilgan o'lchamga yaqin bo'lgan oxirgi qiymati


$$s = 40_{-0,36}^{-0,16} \text{ mm.}$$

s o'lchamning standartda ko'rsatilgan o'lchamga yaqin bo'lgan oxirgi qiymati

$$s = 40_{-0,36}^{-0,17} \text{ mm} \text{ va bu } 40V11 \text{ o'lchamga mos keladi.}$$

Texnologik o'lcham s ning belgilangan chetga chiqishlari hisobiy o'lchamlar chegarasida yotibdi.

Maksimum va minimumga tekshirish hisobini ($a^{\max} = 50 - (40 - 0,33) = 10^{+0,33}$; $a^{\min} = 50^{-0,16} - (40^{-0,17}) = 10^{+0,01}$) ko'rib chiqadigan bo'lsak, boshlang'ich konstruktorlik o'lchami a ning chetga chiqishlari chekli o'lchamlar chegarasida ekanligini ko'ramiz.



Расм 2.7. Конструкторлик база билан мос тушган технологик А базага тушган пазни фрезалаш.

Texnologik jarayonning eng maqbul variantini konkret ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda texnik-iqtisodiy hisoblashlar asosida tanlanadi. Bazalarni tayinlashda ikkinchi muhim printsip bu bazalarning doimiylilik tamoyilidir.

Bazalarning doimiylik tamoyili. Bazalarning doimiylik tamoyili shundan iboratki, bunda texnologik jarayonni ishlab chiqish paytida doimo bitta va o'sha texnologik bazani qo'llashga harakat qilish va uncha kerakli bo'limgan hollarda texnologik bazalarni almashtirmaslikka harakat qilish kerak (dastlabki bazani almashtirish bunga kirmaydi).

Xomaki detallarga turli operatsiyalarda ishlov berish paytida doimiy texnologik bazani saqlash ishlov beriladigan sirtlarning o'zaro joylashish xatoligini kamaytiradi, lekin amaliyotda ba'zi hollarda bu talabni bajarish moslamalar konstruktsiyasining murakkablashishiga va ularning qimmatlashuviga olib keladi. Bunday hollarda texnologik ishlov beriladigan sirtlarning joylashish xatoligining ortishini hisoblab chiqib, nisbatan qulay bo'lgan texnologik bazalarga almashtiriladi.

Hisobot

1. Mashinasozlikda bazalash va bazalar deganda nimalarni tushunasiz?

2. Detalga mexanik ishlov berish uchun kerak bo'lgan bazalar soni va ularning texnologik hujjatlarda belgilanishini aytib bering.

3. Konstruktorlik, o'lchash va texnologik bazalar deganda nimalarni tushunasiz?

4. Sozlash, tekshirish, yordamchi va sun'iy bazalarni tushuntirib bering.

5. Texnologik qanday
tanlanadi? bazalar

6. Xomaki detalga ishlov berish uchun dastlabki (dag'al) baza qanday tanlanadi?

7. Bazalarning o'rindoshlik va doimiylik tamoyillarining detalga ishlov berishda aniqlikka ta'siri nimadan iborat? _____

8. Texnologik baza konstruktorlik bazasi bilan yoki o'lchash bazasi bilan mos tushmasa texnolog qanday yo'l tanlaydi? _____

Dastlabki texnologik bazani qanday tanlanadi?

2-Amaliy mashg'ulot

Transport tizim detallarini ishlash sharoitlari. Ishlashdagi sodir bo'layotgan jarayonlar va ularni ish qobiliyatini belgilovchi omillar.

Ishdan ko'zlangan maqsad:

-Avtomobil detallarini ishlash sharoitlari.
Ishlashdagi sodir bo'layotgan jarayonlarni o'rganish

Kerakli asboblar:

- 1.Detallarni nuqsonlarini aniqlash uchun o'lchov priborlari majmuasi;
2. Amaliy mashg'ulot bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
- 3.Plakatlar.
4. Chizg'ich, qalam, rezinka va shtangen-serkul.

Mashg'ulotni bajarish tartibi:

Variant tartibi bo'yicha berilgan avtomobi detallarini konstruktsiyasi va o'lchamlarini aniqlash.

TXK va ta'mirlashlar turi, xamda tizimi. Texnik xizmat ko'rsatish. TXK mashinalardan foydalanish va ularni saqlash chog'ida soz xolatda tutib turish

maqsadida bajariladigan ishlar majmuidir. Bu ishlar oldini olish xarakteriga ega bo'lib, mashinadan foydalanish davrida, davriy ravishda amalga oshiriladi.

TXK yuvish, tozalash, nazorat qilish, diagnostika (tashxislash), texnik kamchiligini aniqlash, rostlash, moylash, montaj – demontaj qilish va saqlashga tayyorlash ishlarini o'z ichiga oladi. Texnik xizmat ko'rsatishda mashinaning ayrim tarkibiy qismlari almashtirilishi mumkin.

Ta'mirlash — ishlash qobiliyatini tiklash maqsadida mashinaning (yoki ayrim qismlarining) nuqsonlarini bartaraf etish ishlari majmuidir. Mashinalar ta'mirlash korxonasida ta'mirlanadi. Bu korxona mashinasozlik korxonasining bir turi bo'lib, unda mashinaning yaxshi ishlash qobiliyatini yo'qotgan, ammo xali ta'mirlash qilishga yaroqli bo'lган hamda ushbu ishlab chiqarish uchun asosiy detallar vazifasini bajaradigan qismlari (agregatlar, uzellar, detallar va hokazo) texnik shartlarga muvofiq tarzda ta'mirlanadi. Mashinasozlikdan farqli o'laroq, ta'mirlash korxonasi o'ziga xos texnologik jarayonlar: mashina qismlarini yuvish, qismlarga hamda nuqsonli-nuqsonsizga ajratish va ta'mirlash qilishni o'z ichiga oladi. Mashinani ta'mirlashishlab chiqarishi rivojlanishi bilan yangi atamalar va tushunchalar (GOST 13377—67) yuzaga keldi, ular bilan tanishish ana shu ishlab chiqarishdagi jarayonlarning mohiyatini to'laroq va to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Joriy ta'mirlash Mashina, agregat, uzelning ishlash qobiliyatini ta'minlash yoki tiklash uchun hamda ularning ayrim qismlarini almashtirish (tiklash) maqsadida joriy ta'mirlasho'tkaziladi. Oldini olish xarakteridagi joriy ta'mirlash asosan berilgan rusumdagи mashinalar uchun belgilangan texnik xizmat ko'rsatishning muayyan turi bilan birga bajariladi. Ishlamay qolish oqibatlari esa bu nuqson paydo bo'lganidan va sababları aniqlanganidan keyin bartaraf etiladi. Joriy ta'mirlashuning murakkabligiga qarab mashinadan foydalaniladigan joyning o'zida ham, maxsus texnik xizmat ko'rsatish ustaxonalari va punklarida ham amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta'mirlash qilishda asosan agregat usulidan foydalaniladi. Bu usulda mashina ayrim qismlarining nuqsonlari ularni yangilari yoki ta'mirlashlab qo'yilganlari bilan almashtirish orqali bartaraf etiladi. Bunda agar mashinaning qolgan asosiy aggregatlari ancha katta resurs zahirasiga ega bo'lsagina uning ishdan chiqqan aggregatlari yangilari yoki kapital ta'mirlashlanganlari bilan almashtiriladi.

Kapital ta'mirlash. Kapital ta'mirlash deganda mashinaning istalgan qismlarini, shu jumladan, bazi qismlarini almashtirish yoki tiklash yo'li bilan buyumning resursini to'lik yoki shunga yaqin darajada tiklash hamda sozligini tiklash uchun butun mashinani (yoki agregati, uzelini) ta'mirlashtushuniladi. Mashinani, agregat yoki boshqa tarkibiy qismni kapital ta'mirlashshunga ko'ra farq qilinadi. Kapital ta'mirlash qilishda quyidagi ishlar bajariladi: mashina, uning aggregatlari va uzellari detallarga ajratiladi. Nuqsonli detallar ta'mirlash qilinadi yoki almashtiriladi, mashina yig'iladi, rostlanadi, asta-sekin ishga solinadi, bo'yaladi, sinaladi.

Ishonchlilik — mashinaning berilgan vazifalarni belgilangan ish ko'rsatkichlari qiymatlarini saqlagan holda texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlashva tashish tartibotlari (rejimlari) shartlariga mos kelgan holda bajarish xususiyati. Ishonchlilik kompleks xususiyat bo'lib, ob'ektning vazifasiga va undan foydalanish sharoitiga qarab buzilmasdan ishlash, chidamlilik, ta'mirlash qilishga yaroqlilik va saqlovchanlikni alohida-alohida yoki birgalikda o'z ichiga olishi mumkin. Ishonchlilikka oid atamalar GOST — 27, 002—83 da belgilangan.

Buzilmasdan ishlash — mashinaning qandaydir xajmdagi ishni bajargunga qadar o'zining ishlash qobiliyatini majburiy tanaffuslarsiz saqlash xususiyati. Ishlamay qolish deganda ishlash qobiliyatining buzilishidan iborat bo'lган hodisa tushuniladi.

Chidamlilik — mashina, agregat, uzel, tutashmaning o'zining ishlash qobiliyatini oxirgi holatgacha saqlash xususiyati. Buyumning oxirgi holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi, samaradorligining pasayishi yoki xavfsizlik talablarining buzilishi bilan belgilanadi va texnik xujjatlarda izohlanadi. Chidamlilik ko'rsatkichlariga mashinaning undan foydalanila boshlangandan to hisobdan chiqarilgunga qadar bo'lган xizmat muddati yoki resursi (gektarlarda, soatlarda yoki bosib o'tgan yo'lining kilometrlarida) kiradi.

Ta'mirlashga yaroqlilik — mashina (agregat, uzel)ning texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash yo'li bilan ishlamay qolishi hamda nuqsonlarining oldini olish, aniqlash va bartaraf etishga moslashganligidan iborat bo'lган xususiyati.

Saqlovchanlik — buyumning o'z ish ko'rsatkichlarini saqlashi va saqlanish muddati davomida va bu muddat tugagandan keyin ham texnik xujjatlarda (GOST 27.002—83) ko'rsatilgan qiymatlarda saqlanib turish xususiyati.

Bajargan ishi — ob'ektning ishlash davomliligi yoki xajmi. Agar ob'ekt tanaffuslar bilan ishlaydigan bo'lsa, u holda jami bajargan ishi hisobga olinadi. Ob'ektning bajargan ishi vaqt, uzunlik, maydon (gektarda), xajm, massa va boshqa birliklarda o'lchanishi mumkin. Ushbu atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi — ta'mirlanayotgan buyumning ishlamay qolishlar oralig'ida bajargan ishining o'rtacha qiymati. Mazqur atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Nosozlik — buyumning shunday holatiki, bunda u texnik xujjatlardagi talablarning loaqlal bittasiga ham mos kelmaydi. Bu atama GOST 27.002—83 ga kiritilgan.

Ishlamay qolish — ob'ektning ishlash qobiliyati buzilishidan iborat bo'lган hodisa. Ishlamay qolish mezonlari me'yor belgilovchi — texnik xujjatlarda keltiriladi. To'satdan, konstruktiv, asta-sekin. ishlab chiqarish, ekspluatatsion va boshqa ishlamay qolishlar, shuningdek, muntazam, qisman hamda butqul ishlamay qolishlar bo'ladi. Turli kamchiliklar (GOST 17102—71), foydalanish qoidalari va me'yorlarining buzilishi (GOST 17527—72), turli xil shikastlanishlar, shuningdek, tabiiy yeyilish va eskirish jarayonlari ishlamay qolishlarga sabab bo'lshi mumkin.

Xizmat muddati — ob'ekt ishlatila boshlangandan yoki kapital ta'mirlashlangandan to texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga kelgunga (GOST 27.002—83) yoki hisobdan chiqarilgunga qadar kalendar ishlash davomliligi.

Resurs — buyumning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holatga qadar bajaradigan ishi. Birinchi ta'mirlash qilishgacha bo'lган resurs, ta'mirlash qilishlararo resurs, belgilangan resurs va boshqa resurslar farq qilinadi. Ta'mirlash qilishlararo resurs birinchi ta'mirlash qilishgacha bo'lган resursdan kamroq bo'ladi.

Ta'mirlash qilishlararo xizmat muddati yoki ta'mirlash qilishlararo resurs — ta'mirlashlangan mashinaning texnik xujjatlarda izohlangan oxirgi holat yuzaga kelgunga qadar bajaradigan ishi. Oxirgi holat yuzaga kelganda mashinalar ta'mirlashlanadi yoki agregatlari almashtiriladi.

Detal nomi va rusumi bir xil bo'lgan ashyodan yig'ish ishlarini bajarmasdan tayyorlangan buyumdir. Lemex, tirsakli val, porshen barmog'i, porshen xalqasi, bolt, gayka va shu kabilar detallarga misol bo'la oladi.

Yig'ish birligi — yig'ish jarayonida tarkibiy qismlari o'zaro biriktirilgan buyum. Yig'ish birliklariga dvigatel, uzatmalar qutisi va boshqalar misol bo'la oladi. Ishonchlilikning tushunchalari, ta'riflari va asosiy ko'rsatkichlarini bilish uni baholash uchun ob'ektiv mezonlarni tanlash imkonini beradi.

Buyum (mashina yoki uning detali) ning oxirgi (chekli) holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi yoki samaradorligining pasayishi yoxud xavfsizlik talablariga ko'ra belgilanadi va texnik xujjatlarda izohlanadi (GOST 13377— 67).

Nazorat uchun savollar

- 1 Ishonchlilik nima?
2. Ta'mirlashga yaroqlilik nima?
3. Ishlamay qolgunga qadar bajargan ishi
- 4.Nosozlik nima?
5. Resurs nima?

3-Amaliy mashg'ulot Detallarni ta'mirbopligi va chegaraviy holatlari.

Ishdan ko'zlangan maqsad:

-Detallarini ta'mirbopligi va chegaraviy holatlarini o'rganish.

Kerakli asboblar:

- CHizg'ich, qalam, rezinka va shtanger-serkul.

Mashg'ulotni bajarish tartibi:

Variant tartibi bo'yicha berilgan avtomobi detallarini konstruktsiyasi va o'lchamlarini aniqlash.

Buyum, mashina yoki uning detalining oxirgi chekli holati bundan keyin undan foydalanish mumkin emasligi yoki samaradorligining pasayishi yoxud xavfsizlik talablariga qura belgilanadi va texnik xujjatlarda izoxlanadi.

Ko'plab ilmiy ishlarda detallar mashinalarning oxirgi holati mezonlarini ilmiy aniklashga harakat qilingan. Bu ishlar ishlamay qolishlarni va konstruktiv muloxozalarni muxandisona oddiy taxlil qilishga xamda murakkab texnik – iqtisodiy ishlanmalarga asoslangan.


Detallar o'lchamlarining va geometrik shaklning o'zgarishi mexanizmdagi ana shu detallarning ishlashiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar detal mashinaning ish organi bo'lsa, bu o'zgarishlar mashinaning ish sifati, ishlash sifati va hokazolarni pasayishi, shuningdek, ishkalanuvchi detallarning jadal yeyilishiga olib keladi. SHu bilan birga mashinaning mahsulot birligini ishlab chiqarishga sarflaydigan quvvati, ashyolarni sarflashi va shu kabi ish ko'rsatkichlari xam uzgarishi mumkin. Odatda oxirgi xolat ishlamay qolishdan iborat bo'lib, ularning ro'y berishi u yoki bu mexanizm yoki aggregatning resurslari tugaganligini bildiradi. Kamida shunday ikki xolat mavjudki, bu holatlarga ko'ra mezonlarni birmuncha umumlashgan tarzda berish mumkin.

Birinchi xolat shu bilan bog'liqki, oxirgi holat mezoni yig'im birlikni kapital tamirlashga jo'natish zarurligini bildiruvchi mezondan boshqa narsa emas. Transport vositalari aggregatlari uchun ular bajargan ishning shunday miqdori mezon bo'lib xizmat qiladiki, shu paytda kapital ta'mirga jo'natilsa, butun xizmat muddati mobaynida qilinadigan xarajatlar eng kam bo'ladi.

Ikkinci xolat esa shu bilan bog'likki, muayyan aggregatning oxirgi holati mezonini aniqlash uchun undan foydalana boshlangandan beri jami qilingan harajatlar funktsiyasini bilish kerak bo'ladi. O'z navbatida, bunday funktsiya oxirgi holat tushunchasini yangicha talqin qiladi. Masalan, qandaydir aggregatda bir qancha istalgan ishlamay qolishlar yuz bersayu, ammo birorta ham resurs bo'yicha ishlamay qolish sodir bo'limsa, u holda ana shu ishlamay qolishlarni va bekor turib qolishidan ko'rilgan zararlarni bartaraf etishga qilinadigan jami harajatlar shunday katta bo'lar ediki, bunday paytda oxirgi holat kelganini va aggregatni kapital ta'mirlash lozimligini ta'kidlash maqsadga muvofik bo'lar edi. Qisqa qilib aytganda, bir qancha istalgan ishlamay qolishlar o'zining oqibatlariga ko'ra resurs bo'yicha ishlamay qolishga tengdir, ya'ni oxirgi holat boshlanganini bildiradi.

SHunday qilib, oxirgi xolat mezonlari sinovlar yoki quzatuvarlari natijalari asosida muayyan yigish birligining resursini, shuningdek, muayyan yigish birligining axvolini baxolashga muljallangan.

Aytib o'tilgan mezonlardan xar qaysisi maxsus iqtisodiy – matematik model bo'yicha ishlab chiqilgan. Quyida shunday mezonlarning mazmuni transport vositalarini agregatlaridan biri misolida keltirilgan. Bajarilgan ishga bog'lik bo'lgan xarajatlar xajmi ko'rsatilgan. Strelka bilan bajarilgan ish T ko'rsatilgan bo'lib, u agregatni ishga yaroqli xolatda saklashga qilingan eng kam xarajatlarga tugri keladi. T ning bu qiymati agregat uchun oxirgi xolatning umulashtirilgan mezoni bo'ladi va rejadagi xamda boshka yiriklashtirilgan vazifalarini xal etish uchun yaraydi.



3.1-rasm. Xizmat muddati mobaynidagi xarajatlar to'plangan chetli xarajatlar darajasiga bog'liqligini ifodalovchi grafik

Ta'mirlararo optimal bajarilgan ish miqdorini aniqlash uchun mashinalar bajargan ish miqdori – T ga bog'lik ravishdagi ekspluatatsion xarajatlar – Ex qiymatlarining statistik ma'lumotlari berilgan bo'lishi kerak.

Bu berilgan ma'lumotlarni abtsissa o'qlariga – bajarilgan ish miqdorini soatlarda. Ordinata o'qi bo'yicha esa – shu qiymatlarga mos keladigan ekspluatatsion xarajatlar qiymatlarini qo'yib, qulay grafik usulida ko'rsatish mumkin.

Ekspluatatsion xarajatlarning minimal qiymatlarini bilgan xolda, uncha qiyin bo'limgan grafiklar ko'rsh yo'li bilan ta'mirlararo bajarilgan ish miqdorini topish mumkin (4 – rasmga qarang).


Demak, agar – $E_{x_{min}} = X$ sum bo'lsa, u xolda optimal bajarilgan ish miqdori T moto-soatni tashkil etadi.

Bu topshirikni matematik usulda quyidagicha yechish mumkin.

Ko'p turli ko'rnishdagi matematik boglanishlar ichida ekspluatatsion xarajatlar Ex ning mashinalar bajargan ish miqdori T ga boglikligini ifodalovchi va qullanilishi mumkin bo'lgan funksiya bu $Ex = AxTp$ ko'rnishdagi darajali funktsiyadir. Bu bog'lanishda A va p koeffitsientlarining mos ravishda tanlash xisobiga ekspluatatsion xarajatlarning bajarilgan ish miqdoriga bog'likligini ko'p xajmdagi o'zgarishlarini ifodalash mumkin. Bitta tutashmani xosil qiluvchi ikki detalning yeyilishini

ko'rsatuvchi egri chiziqlar keltirilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki, tirkish chekli qiymatigacha kattalashgan tutashma yaroqsizga chiqariladi, chunki bunday uzel yoki yig'ish birliklarining biror ish xolati, xarakteristikasi keskin yomonlashadi.

Eyilish kattaligi ortib borgani sari tutashmaning qoldik resursi Ttut kamayadi. Yeyilish «N» ning kattaligi yoki « N » ning qiymati chekli qiymatlariga yetganda detal yoki tutashmaning resursi batamom tugaydi va bundan keyin undan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.



3.2-rasm. Mashina detallari yeyilishining umumiy holda qabul qilinga egri chizig'i elementlari

Transport vositalarining barcha detallarini ish xarakteriga ko'ra ikkita mustaqil guruxga ajratish mumkin:

O'zining brakka chiqarish ko'rsatkichiga va yeyilishning chekli kattaligiga ega bo'lgan detallar. Detallar bundan ortik yeyilsa, ular sinib, falokat ro'y berishi mumkin.

Bunday detallarga vtulkalar, sharikli va rolikli podshipniklar, radial tirkishning kattalashuvi, shesternyalar, yulduzchalar tishining yeyilishi, traktorlarning yurish qismi detallari va boshqalar misol bo'lishi mumkin.

Oxirgi xolati, ya'ni ishqalanuvchi detallar orasidagi tirkishning chekli qiymati, odatda, detallarning sinishiga olib kelmasdan, uzel, agregat yoki butun mashinaning texnik yoxud iqtisodiy tavsiflari buzilishiga sabab bo'ladigan yigish birligi, tutashma.

Chekli yeyilish - Ich yoki chekli tirkish - **CH** deb shunday yeyilish yoki tirkishga aytildiği, bunda detal yoki tutashma oxirgi xolatga keladi. Mashinaning texnik yoki iqtisodiy ko'rsatkichlari keskin yomonlashuvining oldini olish uchun detal yoki tutashmadan bundan keyin foydalanmaslik kerak.

Avtomobil detallarining oxirgi xolati xamda yig'ish birliklari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Mashinaning birinchi yoki navbatdagi ta'mirlashga bo'lgan talabi bilan;
2. Mashinani xisobdan chiqarishning maqsadga muvofiqligi bilan;

3.Mashina tuzilishining ma’naviy eskirishi bilan.

SHunga qura mashinaning yoki yig’ish birligining chidamliligi, resursi va xizmat muddati quyidagi turlarga bo’linadi:

- ta’mirlashgacha, ya’ni foydalanila boshlangandan to birinchi ta’mirlashagacha bo’lgan chidamlilik;

- ta’mirlashlararo, ya’ni avvalgi ta’mirlashdan to navbatdagi ta’mirlashagcha bo’lgan chidamlilik;

- to’liq, ya’ni foydalanila boshlangandan to xisobdan chickargungacha bo’lgan chidamlilik.

Nazorat uchun savollar.

4. Detallarni turlanishi chegaraviy holatini ma’nosi nima?

5. Chekli yeyilish nima?

6. Avtomobil detallarining oxirgi xolati xamda yigish birliklari nima bilan ifodalanadi?

4-Amaliy mashg’ulot **Detallarni yuvish va tozalash jarayonlari.**

Ishdan ko’zlangan maqsad:

-Detallardagi iflosliklar turini va ularni yuvish uchun ishlatiladigan ximik preparatlarning turlarini o’rganing;

-Detallarni tozalash va yuvish ishlari hamda bu jarayonda qo’llaniladigan qurilmalarni o’rganing;

-Detallardagi iflosliklarni yuvish uchun ishlatiladigan texnik vositalarni o’rganing;

Kerakli asboblar:

1. Avtomobilning qism va agregatlari;

2. Agregat va uzellarni qismlarga ajratish uchun kalitlar to’plami, asbob va uskunalar, moslamalar, ko’tarish-tashish vositalari;

3. Agregat va uzellarni hamda ularning detallarini yuvish uchun eritma va preparatlar;

4. Avtomobilning agregat, uzellarini hamda detallarini yuvish qurilmalari va mashinalari.

5. Plakatlar:“Avtomobilarni qismlarga ajratish texnologik jarayoni”, “Moslamalar, kalitlar to’plami, qo’tarish va tashish texnik vositalari”, “Yuvish eritmalari va ximik preparatlari”.

Ishni bajarish uchun quyidagilarni o’zlashtirilishi kerak:

1. Avtomobilarni ta'mirlashga qabul qilish tartibi bilan tanishib chiqing;
2. Avtomobil va uning agregat, uzellarini qismlarga ajratish jarayoni va bunda ishlatiladigan asbob-uskunalar, yuk ko'tarish va tashish vositalari bilan tanishib chiqing;
3. Avtomobilning agregat, qismlaridagi iflosliklarni turi va ularni tozalash uchun ishlatiladigan eritma va ximik preparatlar bilan tanishib chiqing;
4. Avtomobilarning agregat, qismlarini tozalashda qo'llaniladigan qurilma va yuvish mashinalar bilan tanishib chiqing.

Hisobotni tuzish tartibi

1. Avtomobilarni ta'mirlashga qabul qilish tartibi haqida qisqacha ma'lumot yozing:
2. Avtomobil va uning agregatlari, detallarining xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumot yozing;
3. Avtomobilarni ta'mirlashda mehnatni tashkil qilish shakllari haqida qisqacha ma'lumot yozing;
4. Avtomobillar va uning agragatlarini qismlarga ajratishda ishlatiladigan jihoz va asboblar haqida qisqacha ma'lumotlarni 1-jadvalga yoziing;
5. Avtomobilarni ta'mirlash vaqtida qismlarga ajratish hamda yig'ishda ishlatiladigan yuk ko'tarish-tashish jihozlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni 2-jadvalga yoziing;
6. Avtomobil va uning agregatlarini hamda ajratilgan qism, detallarini tozalashda ishlatiladigan ximik preparat va eritma turlari haqida qisqacha ma'lumotlarni 3-jadvalga yoziing;
7. Avtomobil va uning agregatlarini, ajratilgan detallarini tozalashda qo'llaniladigan qurilma va yuvish mashinalarining turlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni 4-jadvalga yoziing.

1.Avtomobilarni ta'mirlashga topshirish tartibi va ishlab chiqarish jarayoni

Avtomobilarni ta'mirlash korxonalariga topshirish uchun ular tashqi yuviladi, butligi tekshiriladi va mavjud bo'lgan qismlari, agregatlari va uzellarining komplektligi to'g'risida ro'yxat 2 nusxada tuzilib, biri buyurtmachida, ikkinchisi ta'mirlash korxonasi buxgalteriyasida saqlanadi. Tuzilgan ro'yxatda mashinaning asosiy nuqsonlarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Mashinalarning rusumlari, ta'mirlash korxonalarining tiplari va o'lchamlarining ko'pligiga qaramay avtomobilarni ta'mirlash ishlab chiqarish jarayoni quyidagi asosiy qism va operatsiyalardan iborat:

- 1)ta'mirlash uchun qabul qilish, sirtini tozalash va yuvish;
- 2)avtomobilarni agregat, uzel va qismlarga ajratish;
- 3)qismlarni yuvish va yaroqli-yaroqsizga ajratish;
- 4)detallarni tiklash hamda uzel va agregatlarni butlash;

5) uzel, agregatlarni va butun avtomobilni yig'ish, rostlash, chiniqtirish hamda sinash;

6)ta'mirlangan avtomobilni (agregat va uzelni) bo'yash va buyurtmachiga yoki omborga topshirish.

Ixtisoslashtirilgan korxonada avtomobilarni ta'mirlash ishlab chiqarish jarayonining taxminiy sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Avtomobilning sirtini tozalagach va yuvgach, u agregat hamda uzellarga ajratiladi. Agregat va detallarning bir qismi boshqa ixtisoslashtirilgan korxonalarga ta'mirlash uchun yuboriladi. Ko'pincha

dvigatel, gidravlik tizim agregatlari va elektr jihozlar yuboriladi. Dvigatellarni ta'mirlashda yonilg'i apparatlarining agregatlari, avtomobilarni ta'mirlashda esa old va ketingi ko'priklar, ba'zan uzatmalar qutisi va rul boshqarmasi yuboriladi.


Ta'mirlash usullari. Avtomobilarni ta'mirlash uchun quyidagi usullardan foydalilanadi: brigada usuli, uzel usuli, oqim usuli, oqim-uzel usuli.

Brigada usulida bitta shofyor yoki brigada tomonidan avtomobilni ta'mirlash bilan xarakterlanadi. Bu usul kichik ustaxonalarda qo'llaniladi. Kamchiligi: mehnat unumdarligi va sifati past, avtomobil uzoq ta'mirda turib qoladi, ta'mirlash narxi yuqori.

Uzel usulida xarakterli uzellarni ta'mirlash va avtomobilni qismlarga ajratish texnolgik jarayoni ixtisoslashtirilgan ish o'rnlarida bajariladi. Ish o'rnlari maxsus jihoz, moslama va asboblar bilan jihozlangan bo'ladi. Detal, uzel va matermallarni tashish ishlarini kamaytirish maqsadida ta'mirlash texnologik jarayonga mos keladigan tartibda joylashtiriladi. Payvandlash, misgarlik, temirchilik va stanokda bajariladigan ishlar tegishli bo'limlarda bajariladi. Afzalligi: mashinalar ta'mirda kam turadi, jihozlardan unumli foydalilanadi, mehnat unumdarligi va ta'mirlash sifati yuqori, ishchilarni malakasini doimiy ish joyi bo'lganligi sababli oshirish imkoniyatlari katta.

Umumiylar ta'mirlash ishlarini bajaruvchi katta ustaxonalarda qo'llaniladi.

Oqim usulida ta'mirlash texnologik jarayoni alohida operatsiyalarga bo'linishi bilan tavsiflanadi. Operatsiyalar oqim liniyasiga joylashgan ma'lum ish o'rnlarida doimiy ishchilar bilan bajariladi. Ta'mirlanadiga avtomobil maxsus transport vositalari yordamida bir ish o'rnidan ikkinchi ish o'rniga ko'chiriladi.



1-rasm. Avtomobilni ta'mirlash ishlab chiqarish jarayonining sxemasi
Azfalligi: ishlab chiqarishni tashkil qilishni osonlashtiradi.

Kamchiligi: uzoq ishlagan yaroqli detal juftlari kompleksizlantriladi va yig'ishda turli darajada yeyilgan, birga ishlamagan detallarga biriktiriladi va ular tezroq yeyiladi, xizmat qilish muddati qisqaradi hamda shoferar orasida rag'batlantirishni tashkil qilishni qiyinlashtiradi.

Egasizlantirilmagan ta'mirlashda har bir ta'mirlangan va olingan detal, uzel, agregatlar qaysi avtomobildan olingan bo'lsa, o'sha avtomobilga qo'yiladi.

Kamchiligi: ish hajmi katta va oqim usulida ta'mirlash tashkil qilinadigan ustaxonalarda tashkil qilish qiyin. SHuning uchun bu usulni umumiy ishlar bajariladigan ustaxonalarda qo'llanish maqsadga muvofiq.

Agregat usulda ta'mirlashni tashkil qilishda buzuq uzel va agregatlar yangisiga yoki oldin ta'mirlanganlarga almashtiriladi. Faqat demontaj-montaj ishlari bajariladi. Buni kichik ustaxonalarda ham bajarish mumkin. Ta'mirda mashina kam turadi, ta'mir sifati ortadi. Uzel va agregatlarni ixtisoslashgan ta'mirlash ustaxonalariga topshiriladi. Bu usul ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

Kamchiligi: egasizlantirilgan ta'mirlashga o'xshash.

2.Detallardagi iflosliklar turi va ularni yuvish uchun ishlatiladigan ximik preparatlar

Tiklanadigan detallarni ko'zdan kechirish va nuqsonlarini aniqlash imkoniyatini yaratish uchun hamda ta'mirlash sifatini va ish unumini oshirish uchun iflosliklardan tozalanadi. Yuvish-tizalash ishlarining sifatiga detallar sirtidan iflosliklarni ketkazish darjasи bo'yicha baho beriladi. Tozalash sifatini nazorat qilish uchun vazn, ko'rish va lyuminestsent usullaridan foydalaniladi.

Vazn usuli tozalashgacha va tozalashdan keyingi iflosliklar og'irligidagi farjni aniqlashga asoslangan. Bunda ma'lum yuzadagi iflosliklar salfetkalar yordamida yig'ib olinadi va tortiladi.

Ko'rish usuli ifloslangan uchastkalarni oq salfetka bilan artish, so'ngra shartli shkala bilan taqqoslashdan iborat.

Lyuminestsent usuli moylarning ulbtrabinafsha nurlar ta'sirida nurlanish xossasiga asoslangan. Nurlanayotgan sirtning kattaligi va intensivligi sirtning ifloslanganligini ko'rsatadi.

Avtomobildagi iflosliklarning turlari. Mashina va detallarning sirtidagi iflosliklarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratiladi: yog'siz o'tirindilar (chang, loy, o'simlik qoldiqlari va yuklar qoldiqlari) va moysimon-loy o'tirindilar; moylash materiallari qoldiqlari; uglerodli o'tirindi; quyqa; korroziya (zang); lok-bo'yoq qoldiqlari; texnologik iflosliklar.

Yog'siz va moysimon-loy o'tirindilar, yuk qoldiqlari mashinalar va uning agregatlarini tashqi sirtida paydo bo'ladi. Bu iflosliklar oson tozalanadi.

Moylash materiallari qoldiqlari moyli mexanizmlarda ishlaydigan mashinalarning barcha detallarida bo'ladi. Bu iflosliklarni ketkazish uchun maxsus preparatlar va tozalash sharoitlari talab qilinadi.

Uglerodli o'tirindilar moylash materiallari va yonilg'ining termik oksidlanishi mahsulotidir. Bu o'tirindilar ichki yonuv dvigateli detallarida paydo bo'ladi va oksidlanish darajasiga qarab qurum, lok parda, cho'kindi hamda asfalbt – smolali moddalarga ajratiladi.

Qurum yonilg'i va moylarni yonishi natijasida vujudga keladi. U yonish kamerasi devorlariga, porshen tublariga, klapanlar, svechalar, forsunkalar va chiqarish kollektorlariga o'tiradi.

Lok pardalar yupqa moy qatlamiga yuqori harorat ta'sir etishi natijasida vujudga keladi. Ular shatunlar, porshenning ichki sirtlariida paydo bo'ladi.

CHo'kindi moy, yonilg'i, qurum, chang, suv, yejilish zarrachalari va boshqa mahsulotlardan hosil bo'lib, karter tubligi, moy kanallari, klapan korpuslarida, moy filtrida, moy qabul qilgich detallariga cho'kadi.

Asfal't - smolali moddalar yuqori harorat va havo kislorodi ta'sirida vujudga keladi. Ular qattiq zarrachalardan iborat bo'lib, detallarga abraziv ta'sir qiladi va ularni yejilishini tezlashtiradi.

Quyqa dvigatelning sovitish tizimida aylanadigan suvdan 70-80 °S haroratda kaltsiy va magniy tuzlarini ajralishi natijasida paydo bo'lib, tizim detallari sirtiga o'tirib qoladi. Quyqaning issiqlik o'tkazuvchanligi metalning issiqlik o'tkazuvchanligidan 60-100 marta kam. SHuning uchun quyqaning juda yupqa qatlami ham issiqlik almashinishini yomonlashtiradi va dvigatel detallarini o'ta qizdiradi.

Korroziya (zang) temir oksidi gidratidan iborat bo'lib, metallarni ximiyaviy va elektr ximiyaviy yemirilishi natijasida vujudga keladi. Dvigatelning sovitish tizimi detallari va boshqa barcha metall sirtlari zanglashga duchor bo'ladi.

Lok-bo'yoq qoldiqlari (eski bo'yoqlar) detallarni ta'mirlashda ularni ifoslantiradi, payvandlash ishlarini qiyinlashtiradi, shu sababli eski bo'yoqlarni ta'mirlashga qadar ketkazish zarur.

Texnologik iflosliklar agregatlarni ta'mirlash, yig'ish va chiniqtirish jarayonida vujudga keladi. Bular metall qirindisi, ishqalash pastalari, jilvirtosh qoldiqlari va boshqalardir. Ularni o'z vaqtida tozalab turish lozim, chunki ular detallarning ishchi sirtlarini yanada yejilishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Tozalash usullari. Yuvish va tozalashning fizik-ximiyaviy, elektro ximiyaviy, ulbratovush yordamida, termik va mexanik usullari ancha keng tarqalgan.

Fizik-ximiyaviy tozalash usuli o'zgarmas yoki o'zgaruvchan tokda tok o'tkazuvchi elektritolitda kechadi. Ko'pincha o'zgarmas tokdan foydalaniladi. Jarayon tozalanadigan sirtning $3-10 \text{ A/dm}^2$ tok zichligida o'tkaziladi. Tok zichligi ortgan sari sirtni yog'sizlantirish jarayoni ortadi. Bu usul detallarga galvanik, polimer va lok-bo'yoq qoplamlari surkashga tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Ulbratovush yordamida tozalash usuli energiyani ulbratovush nurlantirgichidan tozalanuvchi suyuq vosita orqali o'tkazishga asoslangan. 20-25 kGts tovush tebranishida katta tezlanish sodir bo'lib, suyuq vositada mayda pufakchalar hosil bo'ladi. Bu pufakchalar yorilganda uglerodli o'tirindilarni 2-3 minutda, moy pardalarini esa 30-40 sek.da yemiruvchi juda kuchli mikrohajmlarda gidravlik zarblar sodir bo'ladi. Bu usul murakkab shaklli mayda detallarni (karbyurator, yonilg'i nasosi, elektr jihozlar va boshqalarni) tozalashda qo'llaniladi.

Termik usul detallarni ancha chidamli uglerodli o'tirindilardan (qurum, asfal't-smolalar va b.) tozalashda qo'llaniladi. Detal termik pechga joylashtirilib, 600-700°S haroratgacha qizdiriladi, 2-3 soat tutib turiladi va so'ngra, pech bilan birga asta sovitiladi. Tob tashlamaydigan detallardagi qurumni gaz alangasida kuydirib ketkazish mumkin.

Mexanik usul detal sirtini qirg'ich, cho'tka va hokazolar vositasida qo'lda tozalash yoki mexanizatsiya yordamida suyak uvoqlari, abraziv va boshqa materiallarni havo yordamida purkab, suv yoki boshqa suyuqlikni purkab tozalashdan iborat.

Yuvish eritmalarini va preparatlari. Detallardagi iflosliklarni ketkazish uchun quyidagi tozalovchi vositalar: **ishqorli yuvuvchilar** (kaustik va kaltsiyangan soda), **sintetik yuvish vositalari** (ML-51, Labomid-101, Labomid-203, Labomid-315, MS-6, MS-8, MS-15, MS-16, MS-18, Temp-100, Temp-101A), **erituvchilar** (kerosin, dizel yonilg'isi, trixlor etan), **erituvchi emulsiyalash vositalari** (EEV-1, AM-15, EEV-11, Ritm), **kimyoiy faol moddalar** (xlorid kislota eritmasi va ingibitorlar, sulfsfat kislota eritmasi va xrom angidrid), **tuzlar va ishqorlarning eritmasi** qo'laniadi.

Sintetik yuvish vositalari ishqorli tuzlar va sirtiy faol moddalar aralashmasidan iborat. Ular mashina, yig'ish birliklari hamda detallarni moy va uglerodli o'tirindilardan tozalashga mo'ljallangan bo'lib, oq va och sariq rangli kukun yoki granula shaklida ishlab chiqariladi. Bu vositalar zaharli emas, yonmaydi, portlashga xavfsiz, suvda yaxshi eriydi. Qora va rangli metallardan tayyorlangan detallarni maxsus chaymay bir oqimda tozalash imkonini beradi.


Kamchiligi: kontsentratsiyasi 36 g/l dan oshganda va harorat 70⁰S dan pasayganda ko'p ko'pik hosil bo'ladi.

MS-6, MS-16 va Ms-18 preparatlari moysimon-loy, smolali va asfalbt smolali o'tirindilarni oqim va tsirkulyatsiya bilan tozalashda ishlatiladi. Eritmalar kontsentratsiyasi 15-25 g/l va harorati 70-87⁰S.


MS-8, MS-15 preparatlari puxta uglerodli o'tirindilardan oqim va cho'ktirib (qaynatib) tozalashda ishlatiladi. Eritmalar kontsentratsiyasi 20-25 g/l va harorati 80-100⁰S.

3.Avtomobilarni sirtqi tozalash va yuvish ishlari hamda bu jarayonda qo'llaniladigan qurilmalar

Avtomobilarni sirtini yuvish uchun bosimi 1,8 Mpa bo'lgan qurilmalar ishlatiladi. Sirtqi tozalashda M-1100, M-1110, M-1112 rusumli qurilmalar ishlatiladi (2-rasm). Qurilma plita yoki aravachaga o'rnatilgan uyurma nasos 3 va elektrodvigatel 1 dan tashkil topgan. Qurilmalar suv o'tkazuvchi tarmoqdan, hovuz yoki idishlardan suv olish shlangi va potrubka 2 orqali suv olib, uni bosim ostida pistoletdan tozalanadigan sirtga sochadi. Qurilma M-1100 ni ish unumi bosim 1,1MPa bo'lganda 3...3,5 m³/soat, M-1112 qurimasini ikkita suv haydash shlangi bo'lib, ikkita pistolet bilan ishlay oladi. Uning ish unumi 1,5 MPa bosimda 4...5 m³/soat.



2-расм. Ювиш =урилмалари: а)М-1100 русумли ювиш қурилмаси; б)М-1112 русумли ювиш қурилмаси; 1-электро двигатель; 2-сув олиш патрубкаси; 3-насос.




3-расм. ОИ-3360А бүф-сув оқими билан тозалаш қурилмаси: 1-босим шланги; 2-ёнилғи баки; 3-ювиш суюклиги баки; 4-иссиклик алмаштиргич; 5-бошқарыш шцитоги; 6-вентилятор; 7-

Bulardan tashqari M-107 va OM-830 rusumli qurilmalar ham bo'lib, ular eletrodvigateldan harakatlanadigan uch plunjерli suv nasosidan tashkil topgan. Ularning vazifasi M-1100 va M-1112 qurilmalarining vazifasiga o'xshash. Bosim 2,2 MPa bo'lganda suv sarfi 1,4-1,6 m³/soat.

4.Detallardagi iflosliklarni yuvish uchun ishlataladigan texnik vositalar

Detallarni yuvish uchun oqizib va botirib yuvish mashinalari qo'laniлади. Oqizib yuvish mashinalari o'tishli va boshi berk turlariga bo'linib, detal dush bo'linamalardan beriladigan eritma bilan yuvib tozalanadi.

Bir kamerali boshi berk oqizib yuvish mashinalariga OM-9474, OM-837G, OM-1366G, OM-4610 rusumli mashinalar oid. Ularning tuzilishi bir-biriga o'xshash, yuvish kamerasiga massasi 0,6...1,5 t gacha detallar ortiladigan yuklash aravachasidan va hajmi 0,7...1,2 m³ gacha bo'lgan yuvish vannasidan iborat. Yuvish kameralari qo'zg'aluvchan dush qurilmalari yoki aylanuvchi yuklash aravachasi bilan jihozlangan. Eritma bug' qurilmasi yordamida 70-85°С gacha isitiladi. Oqim bosimini elektro dvigateldan harakatlanadigan gidronasos hosil qiladi. Yuvuvchi suyuqlik sifatida kontsentratsiyasi 20-25 g/l bo'lgan Labomid-102 ning suvdagi eritmasi yoki kontsentratsiyasi 20 g/l bo'lgan MS-6 yuvish vositasi qo'llaniladi.




5-rasm. O'tishli turdag'i oqimli yuvish mashinasining texnologik ishlash sxemasi: 1-konveyer; 2-dush qurilmasi; 3-shamollatish qurilmasi; 4-tozalanadigan detal; 5-bug' isitgich; 6-suyuqlik berish nasosi; 7- elektr dvigatel;

8-to'kish bakchasi.

4-rasm. Detallarni botirib tozalash rotorli qurilmasining texnologik ishlash sxemasi:

1-vanna; 2-belanchak; 3-rotor g'ildiragi; 4-vannani ifloslikdan tozalash qurilmasi.



5-rasm. Detallarni botirish va titratish yo'li bilan tozalash uchun konveyerli mashinanining sxemasi: 1-yuvish kamerasi; 2-yuqori bosim baki; 3-moy yig'ish tirkishlari; 4- moy ajratgich to'siq; 5- tozalangan qorishmani tashlab yuborish bo'sag'asi; 6- konveyer; 7-chayish kamerasi; 8,11-suyuqlikka tushirilgan to'siqlar; 9-nasos; 10-vanna; I – dastlabki qizdirish zonasasi; II-tozalash zonasasi; III-yuvish zonasasi.

VI. Nazorat savollari

1. Avtomobilarni ta'mirlashga qabul qilish tartibi qanday tashkil etiladi?
2. Agregat va uzellarni ta'mirlashda mehnatni tashkil qilishning qanday shakllari bor?
 3. Agregat va uzellarni qismlarga ajratish jarayonni qanday bajariladi?
 4. Detallarni yaroqli-yaroqsizga ajratishda qanday guruxlarga bo'linadi?
 5. Detal nuqsonlarini qanday usullar bilan aniqlanadi?
 6. Avtomobil va uni qismlarga ajratishda hamda yig'ishda qanday jihoz va asboblar ishlataladi?
7. Avtomobil, uning uzel, agregatlari va qismlarida qanday iflosliklar bo'ladi? Ularning asosiy turlari va tavsifini aytib bering!
8. Avtomobil, uzel, agregat va detallarni tozalashda qanday eritmalar hamda ximik preparatlar ishlataladi?
9. Avtomobil va uning agregat, uzellari hamda detallarini tozalash uchun qo'llaniladigan qurilma va yuvish mashinalarining turlarini hamda vazifalarini aytib bering!
10. Qurum va quyqa qanday ketkaziladi?
11. Yig'ish birliklari hamda detallarini yuvishda qanday jihoz va preparatlardan foydalaniлади?
12. Avtomobil va uni qismlarga ajratishda hamda yig'ishda ishlataladigan yuk ko'tarish-tashish jihozlarining turlarini aytib bering!

Amaliy ishi bo'yicha hisobot tarkibi

1. Avtomobilarni ta'mirlashga qabul qilish tartibi qanday?

2. Avtomobilarni ta'mirlash ishlab chiqarish jarayoni qandayi asosiy qism va operatsiyalardan iborat?

3. Avtomobilarni qanday ta'mirlash usullari usullar bor va ular qaysi hollarda qo'llaniladi?

4.Avtomobillarni ta'mirlashda mehnatni qanday tashkil qilish shakllari bor? _____

5.Avtomobillarni qanday ta'mirlash usullari bor? _____

6.Ta'mirlash usullarining qanday afzalliklari, kamchiliklari bor va ular qaysi sharoitda qo'llaniladi? _____

7.Avtomobillar va uning agratlarini qismlarga ajratishda ishlatiladigan jihoz va asboblar haqida qisqacha ma'lumotlarni 1-jadvalga yoziing!

1-jadval

| No | Qismlarga ajratish jihozlari va asboblarining nomi | Turlari | Ular nima vazifani bajaradi |
|----|--|---------|-----------------------------|
| 1. | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

8.Avtomobillarni ta'mirlash vaqtida qismlarga ajratish hamda yig'ishda ishlatiladigan yuk ko'tarish-tashish jihozlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni 2-jadvalga kriting!

2-jadval

| Nº | Yuk qo'tarish-tashish jihozlarining nomi | Yuk -k'otarish qibiliyati, kg yoki tonna | Vazifasi |
|----|--|--|----------|
| 1. | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

9.Avtomobil va uning agregatlarini hamda ajratilgan qism, detallarini tozalashda ishlatiladigan ximik preparat va eritma turlari haqida qisqacha ma'lumotlarni 3-jadvalga keltiring!

3-jadval

| Nº | Yuvish eritmalarini va preparatlarining nomlari | Turlari | Vazifasi |
|----|---|---------|----------|
| 1. | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

10.Avtomobil va uning aggregatlarini, ajratilgan detallarini tozalashda qo'llaniladigan qurilma va yuvish mashinalarining turlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni 4-jadvalga keltiring!

4-jadval

| Nº | Qurilma va yuvish mashinalarining nomlari | Turlari (rusumi) | Vazifasi va ishlashi |
|----|---|------------------|----------------------|
| 1. | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |
| | | | |

5-Amaliy mashg'ulot Detallarni texnik holatini aniqlash

Ishdan ko'zlangan maqsad:

Tiklanadigan detallarni texnik xolatini aniqlash bo'yicha talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Kerakli asboblar:

1.Tiklanadigan detallarning namunalari;

2. Detallarni nuqsonlarini aniqlash uchun o'lchov priborlari majmuasi;
3. Amaliy ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
4. Plakatlar.

1. Ishni bajarish oldidan amaliy o'tkazish bo'yicha uslubiy ko'rsatma bilan tanishib chiqing;

2. Nuqsonlarni aniqlashda ishlatiladigan o'lchov asboblarining ishlash printsipli bilan tanishib chtqing;

3. Berilgan tiklanadigan detalning nuqsonlarini aniqlang va daftarga yozib boring;

4. Detalda kuzatilgan nuqsonlar bo'yicha ularni qaysi guruhdagi detallarga oid ekanligi bo'yicha xulosalar chiqaring.

Nazariy ma'lumotlar

Detallardagi nuqsonlar va ularni aniqlash metodlari

Mashinalarni ishlatish jarayonida detallarning geometrik o'lchamlari va shakllari o'zgaradi, sirtlarning o'zaro joylashishi va detal materiallarining fizik-mexaniq xossalari o'zgaradi. Toliqib shikastlanishlari to'planib koladi.

Detallar sirti shakllarining o'zgarishiga quyidagilar kiradi: tekislikdan chiqish, egri chiziklilik, ovallik, konuslik va shuningdek, sirtlarning o'zaro joylashuvidan chetga chiqishi tekisliklar va aylanish o'qlarining nopalalleligi, noo'qdoshlik, yonga va radial tepish.

Detal materiallarining fizik-mexaniq xossalarni o'zgarishi material tuzilishining o'zgarishiga, unint kattiqligi ortishi yoki kamayishiga, elasgikligi, mustaxkamligining buzilishiga va hokazolarga bog'liq.

Ishlatish tartibi va texnik xizmat ko'rsatish koidalari buzilganida detallar deformatsiyalanishi, mahkamlash flanetsi sinishi, ishqalanuvchi sirtlar tishlashib kolishi mumkin va hokazo. Toliqish shikastlanishlari materialning yaxlitligini buzib, darzlar hosil bo'lishiga olib keladi, natijada metallarning sirtlari uvalanib tushadi va detallar sinadi.

Yarokli-yaroksizlarga ajratishda texnik holat ko'rsatkichlari nazorat qilishning buzmaydigan usullari - organoleptik va instrumental metodlaridan foydalaniladi. *Organoleptik metod* (vizual, magnitli, kapillyar, qo'l bilan ushlab ko'rish va h.k.) detallar texnik holatiga sifatiy baho beradi, bu ish defextovkalovchi ishchining amaliysiga bog'liq; *Instrumental metod* (mikrometr bilan o'lchash, ultratovush yordamida va x-k.) detallar texnik holati ko'rsatkichlariga mukdoriy baxo beradi va maxsus asboblar, qurilmalar va nazorat moslamalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.


Vizual metod detallarni tashki tomondan kuzdan kechirib, ba'zan lupa yordamida uning texnik xolatiga baho berishdan iborat. Bu metod bilan detallardagi ko'rinish turadigan shikastlanishlar, ternalishlar, o'yiqlar, darzlar, yulungan joylar, payvandlangan va parchalanganmbrikmalardagi sirt nuqsonlari aniqlanadi.

Magnitlli metod (magnitli defektoskopiya) magnit kukuni yordamida nuqson atrofida hosil bo'ladigan magnit maydoni tarqalishiga asoslangan. Magnit oqimi detal materialiga nisbatan magnit kirituvchanligi past bo'lgan nuksonga duch kelganida uni aylanib o'tadi. Bunda magnit kuch chiziklarining bir kismi detal

chegarasidan chikib ketadi (7.1-rasm) va magnit maydoni tarkalishini hosil qiladi. Bunday maydon mavjuddigi magnit kukuni yordamida aniqlanadi, kukun nuqson atrofida to'planadi. Kukunning to'planish shakli nuqson shakliga mos keladi.


7.1-rasm. Sochilish magnit maydonlarining sxemasi (1-darz).

Magnit yordamida defektovkalash texnologiyasi kuyidagilardan iborat: detallar avval yog'sizlantiriladi, so'ngra magnitlanadi. Magnitlash nuqson atrofida magnit maydoni tarqalishini hosil qilish yetarli bo'ishi kerak, bu maydon magnit kukuni zarralarini tortib oladigan va tutib turadigan bo'lishi zarur. Magnitlashning uch: kutbli, tsirkulyar va kombinatsiyalashgan usullari mavjud



Qutbli magnitlash **bo'ylama magnit maydoni (detal bo'ylab) hosil qilinadi. Buning uchun detal magnit kugblarn orasiga** (7.2-rasm, a) yoki solenoidnikg magnit maydoniga joylashtiriladi (7.2-rasm, b). Qutbli magnitlash detalning bo'ylama o'qiga tik yoki unga nisbatan ko'pi bilan $20-25^\circ$ S burchak hosil qilib joylashgan nuqsonlarni aniqlashda qo'llaniladi.

7.2.-rasm. Elektromagnitli defektoskopning sxemasi; a - solenoidda bo'yamasiga magnitlash; b-elektromagnitda bo'yamasiga magnitlash; v - tsirkulyar magnitlash; ye, d - kombinatsiyalashdirilgan (aralaqma) magnitlash; 1-nazorat kiliiadigan detal; 2-magait kuch-chiziqlari; 3 - yashirin nuqson; 4-g'altak o'ramlari.




Manitlab bo'lgandan keyin detalga magnit kukuni (temir oksidi) sepib yoki magnit kukuni bilan (1 suyuqlikka 30-50 g.) transformator moyi (50%) hamda kerosinning (50%) aralashmasidan iborat suspenziya surkab, nuksонни aniqlashga kirishiladi. Nazorag qilish tugaganidan keyin, yaroqsizga chiqarilganlardan tashkarilari, barcha detallar eng katta qiymatidan nolagacha o'zgarib turadigan o'zgaruvchan magnit maydon bilan ta'sir etib, magnitsizlantiriladi. Magnitsizlantirilish darajasi detalga po'lat kukun sepish yo'li bilan nazorat qilinadi. Yaxshi magnitsizlantirilgan detallar sirtidan kukun tushib ketishi kerak.

Ul'tratovush metodi ul'tratovush tebranishlar (to'lkinlar)ning bir jinsli qattiq jismlarda to'g'ri chiziqli tarkalish va akustik qarshiligi turlicha bo'lgan muxitlar chegarasida namoyon bo'lish xususiyatiga asoslangan.


7.4-rasmida nurlatkich **va** tebranshtslarni qabul kilgich **2** dan, impulslar generatori **3**, kuchaytirgich **4**, yoyish bloki **9** va elektron-nur trubkasi **6** dan iborat ul'tratovush defektoskopining sxemasi keltirilgan. Nuqson bo'lmanida elektron nur trubkasining ekranida ikkita impuls: nurlanish **S** va detalning qarama-qarshi devorchasidan qaytish nuri impulsulari ko'rindi. Nuqson 10 mavjud bo'lganida

ekranda nuqsonidan qaytgan oraliq impuls 7 paydo bo'ladi. Ul'tratovush yordamida defektoskopiyalash 13D-7M, 13D-10M, DUK-5V va DUK-63) defekxoskoplaridan foydalaniб bajariladi.

7.3-rasm. Lyuministsentli defektoskopning sxemasi:
1-reflektor; 2-yorug'lik fil'tri; 3-simob-kvartsli lampa; 4-yuqori kuchlanishli transformator; 5-nazorat qilinadigan detal; 6~ nuqson.



7.4-rasm.
Ul'tratovushli
defektoskopining
g sxemasi.




qo'llashga asoslangan. suvdaga yeki organgos eryatuvtmardagi suspekziyalaridan foydalinish mumkin.

7.1-jadval
Universal o'lchash asboblarining xarakteristikalarini

| Asbobning nomi | Bo'linma qiymati, mm | Detal tayyorlash uchun qo'mlar, mm | O'chanadigan parametrlar |
|-----------------------------------|-------------------------|--|---|
| SHTangentsirkulъ | 0,1; 0,5 | 0,3 va undan ortiq 0,15 va undan ortiq | Tashki va ichki sirtlarning chiziqli o'lchamlari |
| SHTangen chuquro'lchagich | 0,1; 0,05 | 0,5 va undan ortiq 0,2 va undan ortiq | Detal elementlarining chuqurligi va balandligi |
| SHTangenreysmus | 0,1; 0,05 | 0,5 va undan ortiq 0,2 va undan ortiq | Tekshirish plitasiga o'rnatilgan detal yoki sirtlar balandligi |
| Sinfi ko'rsatilmagan mikrometr | 0,01 | 0,015...0D5 | Podshipniklar, tishli g'ildiraklar shkivlar, yulduzchalar o'tkaziladigan sirtlar |
| Nol sinfli mikrometr | 0,01 | 0,012...0,02 | SHuning o'zi |

| | | | |
|------------------------------|--------|---------------|---|
| Mikrometrik nutromer | 0,01 | 0,05...0,15 | Korpus, stakan, oboyma, shesternya, shkiv, yulduzchalarning ichki o'lchamlari |
| Mikrometrik chuquro'lchagich | 0,01 | 0,03...0,2 | Detal alementlarining chukurligi va balandligi |
| Iidikatorli nutromer | 0,01 | 0,03...0D5 | Teshiklarning diametrлari va uiikdarning eni |
| Richagli mikrometr | 0,002 | 0,003...0,015 | Nominal o'lchamdan chegaraviy chetga chiqishlar |
| Minimetr | 0,001. | 0,002,-0,03 | Aniq tayyorlashan detallar |

Silliq tsilindrik, konussimon, rezbali, shlitsali detallarniig o'lchamlarini tekshirish uchun defektatsiya qilishda. asosan bir va ikki chekli kalibrlardan foydalaniadi. Ular yordamida nazorat qilinadigan parametrlarning son qiymatlari emas, balki nazorat qilinadigan parametrning yuqorigi yoki pastki chegarasidan chiqish-chiqmasligi (bir chekli kalibr) yoki yo'l qo'yiladigan ikki chsgara o'rtasida turishi aniqlanadi (ikki chekli kalibr).



7.5-расм. Калибр ёрдамида нуқсонларни аниқлаш

a-val; v-teshik; 1-detal; 2- skoba; 3-probka (tiqin).

7.5.-rasmda detallarni kalibrlar bilan nazorat kilish usullari kursatilgan. Sirtlarning o'zaro vaziyatlaridan (parallelistikdan, perpendikulyarlikdan, o'qdoshlikdan va hak.) chetga chiqishlari yordamchi vositalar: tekshirish plitalari, chizg'ichlar, valiklar, burchakliklar (guniyalar) yoki maxsus mosaamalar yordamida o'lchanadi.

Asosiy teshiklarning geometrik o'lchamlarini va ularning shakllarini, shuningdek, korpus detallar sirtlarining tugri chiziklikdan va uzaro vaziyatlaridan chetga chiqishlarini nazorat kilish usullarini kurib chikamiz. Teshiklarning diametrлaring o'lchamlari odadta chekli kalibrlar bilan, kamdan-kam indikatorli shtixmaslar bilan nazorat kilinadi. Teshiklarning geometrik shakllarning to'g'riliqi indikatorli va richagli nutromerlar bilan tekshiriladi.

Teshiklarning o'qdoshlikdan chetga chiqishini, odatda, nazorat opravkalaridan foydalanib tekshiriladi (7.6-rasm, a) Agar opravka qo'l kuchi ta'sir etganida aylansa va o'q yo'nalishida siljisa, u holla teshiklarning o'qdoshligi yo'l qo'yiladigan chegaralarda bo'ladi.

O'qlarning parallelilikdan va markazlararo masofa A ning chlta chiqishi (7.6-rasm,, b) shtixmas yoki indikatorli nutromer yordamida nazorat opravkalarining ichki yasovchilari orasidagi masofalarni (a_1 va a_2 , o'lchamlar) nazorat plitasida o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.

Teshik o'qidan baza sirtigacha bo'lgan masofa (7.6-rasm,v) nazorat plitasida h_1 va h_2 masofalarni va opravka diametri d ni o'lchash yo'li bilan aniqlanadi. h_1 va h_2 qiymatlar ayirmasi teshiklar o'qining baza sirtiga nisbatan parallelilikdan chetga chiqishini ifodalaydi.

Teshiklar o'qlarining perpendikulyarlikdan chetga chiqishi indikatorli opravkani bir-birndan L masofada turuvchi I vaziyatdan II vaziyaga buriqda aniqlanadi.

Murakkab shakldagi korpus detallari sirtlari-ning o'zaro joylashuvini nazorat kilishning universal vositalari sifatida uch koordinatali o'lchash mashina-laridan foydalilanadi, ular murakkab shakkli buyumlar-ning o'lchamlarini uchta: bo'ylama x, ko'ndalang u.

vertikal z koordinata o'qlari yo'nalishida tez, aniq va oson aniqlashga imkon beradi

Almashtiriladigan uchlik 2 li o'lchash kallagi 3 rama 4 bilan birgalikda yo'naltiruvchya 5 bo'ylab belgilangan vaziyatga suriladi. O'lchash kallagining traektoriyasi va siljish tezligini dasturli-boshqaruvchi pul't 6 dan belgilab beriladi. Nazorat kilinayotgan detallarning o'lchamlari 0,5-10 m atrofida, o'lchash xatolikdari 0,5-1 m o'lchamlarning intervallari uchun 2-6 mkm atrofida va 5-10 m li o'lchamlarning intervallari uchun 0,05-2 mm atrofida bo'ladi.

Sirtlarning g'adir-budirligini o'lchash kontaktsiz usullar bilan (MIS-11 va PSS-2 turidagi yorug'lik nurlatuvchi asboblar, MII-4 mikrointerferometrlari, ORIM-1 turidagi dastrli o'lchash mikroskoplari yordamida) hamda kontaktli usullari, shchupli asboblap yordamida (profilometrlar, profilograflar) bajariladi. G'adir-budirlikni o'lchash asboblarining asosiy xarakteristikalarini 7.2-jadvalda keltirilgan.

Hisobot

1.Detallar sirti shakllarining qanday o'zgarishlari bo'ladi? _____

2.Yaroqli-yaroqsizlarga ajratishda detallar qaysi guruhlarga bo'linadi? _____

3.Organolepik metod qanday metod?

4.Instrumental metod qanday metod? _____

5.Vizual metod qanday amalga oshiriladi? _____

6.Magnitlli metod nima?

7.Magnitlashning nechta usullari mavjud? _____

8.Kapillyar metod-bo'yicha nuqsonlar qanday aniqlanadi? _____

9.Ul'zratovush metodi bilan nuqsonlar qanday aniqlanadi? _____

10.Mikrometraj metodi nuqsonlar qanday aniqlanadi? _____

11. Teshiklarning o'qdoshlikdan chetga chiqishini qanday tekshiriladi? _____

6-Amaliy mashg'ulot Detallarni tiklash usullari va ularni tanlash

Ishdan ko'zlangan maqsad:

Detallarni tiklanadigan texnik xolatini aniqlash bo'yicha talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

Kerakli asboblar:

- 1.Tiklanadigan detallarning namunalari;
2. Detallarni nuqsonlarini aniqlash uchun o'lchov priborlari majmuasi;
- 3.Amaliy ishi bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
- 4.Plakatlar.

O'z xizmat burchini o'tab bo'lgan va ish sirtlarida nuqsonlar paydo bo'lgan mashina detallari turli usullar bilan tiklanadi.


Tiklash usulini tanlashda yeyilish miqdori, sirtning shikastlanish xususiyatini, detal materialining qattiqligi, detal o'lchamlari, qo'yim qiymatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Detallarning geometrik shakli va o'lchamlarini tiklash uchun quyidagi usullardan foydalaniladi: 1)eyilgan material qatlami o'rniga yangi qatlam qoplash usulidan, 2)plastik deformatsiyalash usulidan (mavjud hajmdagi metallni qayta taqsimlash hisobiga detal shaklini o'zgartirish), 3)detalning yeyilgan qismini yangisi bilan almashtirish usulidan, 4)eyilgan sirtga mexanik ishlov berib, nuqsonli qatlamni ketkazib, detalga to'g'ri geometrik shakl berish usulidan foydalaniladi.

Detal materialining fizik-mexanik xossalari puxtalash yo'li bilan (termik ishlov berish, termik-kimyoviy deformatsiyalash, elektro-fizikaviy va b. usuli bilan) tiklanadi.

Detalning yeyilgan material qatlami o'rniga yangi qatlam qoplash usullari. Bu usul bo'yicha yangi qoplasm hosil qilish uchun 1)payvandlash, 2)eritib qoplash, 3)galvanik, 4)polimer va 5)gazotermik qoplamlalar hosil qilish usullar bilan amalga oshiriladi.

Detallarni tiklashda payvandlash va eritib qoplash texnologik jarayonlari yetakchi o'rinni egallaydi, ular yordamida barcha detallarning deyarli 70% tiklanadi. Bu usullarning afzalligi: eritilgan qatlam asosiy metall bilan yaxshi yopishadi. Kamchiligi: jadal issiqlik chiqishi detal materialida jiddiy ichki o'zgarishlarga olib keladi va buning natijasida detalni fizik-mexanik xossalari o'zgaradi, ichki kuchlanishlar yuzaga keladi, deformatsiyalanadi va yemirilish xavfini kuchaytiradi.

Payvandlash va eritib qoplashning elektr yoy usulida eritish zonasida paydo bo'ladigan elektr yoyi materialni eritish uchun asosiy zonasida paydo bo'ladigan elektr yoyi materialni eritish uchun asosiy issiqlik mambai bo'lib xizmat qiladi. Elektr yoyi gazli muhitda ikkita elektrodlar orasida paydo bo'ladigan kuchli elektr razryaddan iborat, elektr razryad uchun past kuchlanish katta tok, yoy oralig'ida gazlarning ionlashishi xosdir. Gazlarning ionlashish natijasida erkin elektronlar va ionlar paydo bo'ladi, gazli muhit yuqori elektr o'tkazuvchan bo'lib qoladi va payvand yoyning barqaror yonishini ta'minlaydi. Payvandlash yoyi hosil qilish uchun o'zgarmas va o'zgaruvchan toklardan foydalaniladi



2-rasm.Payvandlash yoyining sxemasi.

1-katod dog'i; 2-katod zonasi; 3-yoy ustuni; 4-anod zonasi; 5-anod dog'idan iborat payvand yoyi.

Yoy ustunidagi harorat $6000-7500^0S$ gacha, po'lat elektrodlarda $2200-2500^0S$ gacha ko'tariladi; bunda katod dog'iga nisbatan anod dog'ida harorat yuqori bo'ladi.

Elektrodnii eritish jarayoni eritish koeffitsienti bilan baholanadi, bu koeffitsient kuyidagiga teng:

$$\alpha_p = Q_r / It,$$

bu yerda Q_r -eritilgan metall massasi;

I-payvandlovchi tok kuchi;

t-eritish vaqt.

O'rtacha va kam uglerodli po'latlarni payvandlash hamda eritib qoplama hoslil qilish rejimi


| Detalning qalinligi, mm | Elektrod dinametri, mm | Tok kuchi, A |
|-------------------------|------------------------|--------------|
| 2...4 | 3...4 | 75...125 |
| 4...6 | 4...5 | 180...200 |
| 6...10 | 5...5 | 200...400 |

3-jadval

Alyuminiyni gaz va yoy bilan payvandlashda qo'llaniladigan flyuslar tarkibi
(massanining ulushi hisobida, %da)

| Flyus nomeri | Natriy xlorid | Kaliy xlorid | Natriy ftorid | Kaliy ftorid | Xlorli litiy | Ftorli litiy | Xlorli bariy |
|--------------|---------------|--------------|---------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| №1 | 20 | 50 | - | 10 | - | - | 20 |
| №2 | - | 50 | 50 | - | - | - | - |
| №3 | 45 | 30 | - | 15 | 10 | - | - |
| №4 | 28 | 50 | 8 | - | 14 | - | - |
| №5 | 33 | 45 | 3,5 | - | 15 | 3,5 | - |

Gaz alangasida payvandlash va eritib qoplashda metallarni eritish uchun kislород muhitida yonuvchi gazlar (atsetilen, metal propan va b.) alangasidan foydalilanadi (3-rasm). Yonuvchi gazlar ichida atsetilen keng tarqaldi, chunki u yongandagi alangasi $3100-3300^{\circ}\text{S}$ gacha harorat beradi.



3-rasm. Gaz alangasi vositasida eritib qoplash sxemasi:

1-eritilgan qatlam; 2-eritib tushirila-digan chiviq; 3-gaz gorelkasi; 4-detal.

Galvanik qoplamlar yoyilgan sirtda, detalni deyarli qizdirmasdan turib, metall qatlamini qoplab uni dastlabki o'lchamigacha tiklash imkonini beradi. Ular kam yeyilgan sirtlarga (0,10-0,20 mm gacha) metall qoplab, detalning yeyilishi va korroziya bardoshligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Detallarni tiklashning galvanik usullariga xromlash, temirlash (po'lat bilan qoplash), nikellash, ruhlash va fosfatlash kiradi.

Galvanik jarayonning asosiy parametrlariga tok zichligi, tok bo'yicha chiqishi va elektrolitning sochish layoqati kiradi.

2.Detallarni ta'mir o'lchamlari bo'yicha tiklash

Detallarni ta'mir o'lchamlari bo'yicha tiklash usuli val-vtulka, porshen-tsilindr va boshqa shunga o'xshash tipidagi kinematik juftlar tiklanadi. Ta'mir o'lchami bo'yicha odatda eng murakkab va qimmatbaho detal juftlariga ishlov beriladi, ikkinchisini esa yangisi bilan yoki ta'mir o'lchami bo'yicha tiklangani bilan

almashtiriladi. Ushbu uslub geometrik shaklni, kerakli g'adir-budirlilikni va yeyilgan detallarni yuzasini aniq o'lchamini tiklash imkonini beradi.


Ta'mir o'lchamlari ikki xil bo'ladi: reglamentlangan va reglamentlanmagan. Reglamentlangan ta'mir o'lchami va unga qo'yiladigan qo'yimni tayyorlovchi korxona tomonidan o'rnatiladi. Reglamentlangan detallarni saonoat tomodidan chiqariladi. Bunga poshenlar, porshen xalqalari, porshen barmoqlari, tirsakli val bo'yinlari podshipniklarining qalin devorli vkladishlari oiddir. Ushbu ta'mir o'lchamdagи detallarga mos ravishda ta'mirlash korxonalarini tomonidan tutash detallarning: dvigatelning tsilindrlar bloki, shatunning yuqori kallagi teshigi, tirsakli valni bo'yinlarini ta'mir o'lchamlari bo'yicha ta'mirlaydi. Reglamentlangan ta'mir o'lchamiga misol qilib avtomobil dvigatelinining tirsakli vali bo'yinlarini keltirish mumkin.

3.Ta'mir o'lchamlari va ularning sonini ani=lash

Ta'mir o'lchamlari miqdori va soni detallarning ta'mirlararo yeyilishiga, mexanik ishlov berish uchun qo'yilgan qo'yimga va detalning mustahkamlik zahirasiga yoki uning yuzasi qatlamlarini termik ishlov berish chuqurligiga bog'liq.

Detalni yeyilishni muvofiq ravishdagi o'lchov asboblari bilan o'lchash yo'li bilan o'rnatilvadi. Ishlov berishga qo'yiladigan qo'yim ishlov berish xarakterini, jihozlar tipini va detal materialini hisobga olib belgilanadi. Qo'yim yeyilgan detalga mexanik ishlov berishdan so'ng uning ishchi yuzasida to'g'ri geometrik shaklini, yeyilish izlarisiz olishga imkoniyat berishi kerak.

Ta'mir o'lchami va uning sonini aniqlash metodini birinchi bo'lib prof. V.V. Yefremov tomonidan ishlab chiqilgan. Agar shchi chizmaga muvofiq ravishda val va teshiklarning diametrini d_n va D_n bilan, val va teshikni birinchi ta'mir o'lchamlarini d_{p1} va D_{p1} bilan, detal yuzasineing tomonga minimal va maksimal yeyilishni I_{min} va I_{max} bilan, mexanik ishlov berish uchun tomonga qo'yimni z belgilasak, u holda birinchi ta'mir o'lchamini quyidagi ifoda bilan aniqlash mumkin (5-rasm):



tashqi tsilindrik yuza (vallar) uchun

$$d_{p1} = d_n - 2(I_{max} + z); \quad (1)$$

ichki tsilindrik yuza (teshiklar) uchun

$$D_{p1} = D_n + 2(I_{max} + z) \quad (2)$$

Mexanik ishlov berish uchun qo'yim ishlov berish turiga bog'liq: toza yo'nish va yo'niib kengaytirish uchun bir tomonga 0,05-0,1 mm, jilvirlash uchun 0,03-0,05 mm ni tashkil qiladi.

Birtomonlama tekis bo'limgan yeyilishni faqat bir kontaktli o'lchash asboblari bilan (indikator va sh.o'.) aniqlash mumkin. SHu bilan bog'liq holda ishlab chiqarishda val va vtulkalarni ikki kontakili asboblar bilan o'lchanadi (mikrometr, indikator-nutromer). (1) va (2) ifodadan foydalanishni osonlashtirish uchun yeyilishni tekismaslik koeffitsienti β kirimtiladi. Uning miqdori bir tomonlama maksimal yeyilishni diametrni yeyilishi nisbatiga teng

$$\beta = I_{\max}/I \quad (3)$$

Detalni simmetrik yeyilishida $I_{\max}=I_{\min}=I/2$, notekis yeyilish koeffitsienti $\beta=I_{\max}/I = 0,5$. Bir tomonlama yeyilishda $I_{\min} = 0$, $I_{\max} = I$, notekis yeyilish koeffitsienti $\beta=I_{\max}/I = 1$.

SHunday qilib notekis yeyilish koeffitsientining miqdori 0,5 dan 1 gacha o'zgarishi mumkin.

Aniq detal uchun ushbu koeffitsientning miqdorini amaliy yo'li bilan o'rnatish mumkin

(3) ifodadan I_{\max} ni topib va uni (1) va (2) ifodaga qo'yib, quyidagini olamiz:

$$d_{p1}=d_n - 2(\beta I + z); \quad D_{r1} = D_n + 2(\beta I + z)$$

Bu ifodadagi $2(\beta I + z)$ a'zani ta'mirlararo interval (oraliq) deyiladi.

Yuqorida galarga asosan ta'mir o'lchamlarini aniqlash ifodasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

tashqi tsilindrik yuzalar (vallar) uchun

$$d_{p1}=d_n-\gamma;$$

$$d_{p2}=d_n-\gamma;$$

.....

$$d_{pn}=d_n-n\gamma;$$

ichki tsilindrik yuzalar (teshiklar) uchun

$$D_{p1}=D_n-\gamma;$$

$$D_{p2}=D_n-\gamma;$$

.....

$$D_{pn}=D_n-n\gamma;$$

bu yerda n –ta'mir o'lchamlari soni.

Ta'mir o'lchamlari sonini ushbu formula bilan aniqlash mumkin:
vallar uchun

$$n_v=(d_n-d_{\min})/\gamma;$$

teshiklar uchun

$$n_v=(D_{\max}-D_n)/\gamma,$$

bu yerda d_{\min} – valning minimal yo'l qo'yilgan diametri;

D_{\max} – teshikning maksimal yo'l qo'yilgan diametri;

Diammetrlar d_{\min} va D_{\max} ning chegaraviy o'lchamlarini detalning mustaxkamlik sharti, konstruktorlik muloxazalari yoki detal yuzasining ximik-termik ishlov berish qatlami qalinligi bo'yicha aniqlanadi.

4.Qo'shimcha ta'mir detallarini o'rnatish yo'li bilan tiklash

Qo'shimcha ta'mir detallarini o'rnatish yo'li bilan tiklash detallarning yeyilgan ishchi yuzasini kompensatsiyalash hamda detalni yeyilgan yoki jarohatlangan qismini almashtirish uchun qo'laniladi. Bu usul bilan tezliklar qutisidagi, ketingi qo'prikdir, g'ildirak stupitsalaridagi dumalash podshipniklarini o'rnatish teshiklari, rezbasi yeyilgan teshiklar va boshqa detaillar tiklanadi.

Tiklanadigan yuza turiga bog'liq holda qo'shimcha ta'mir detailari gilbzalar, xalqalar, shaybalar, plastinalar, rezxbali vtulkalar yoki spirallar bo'lishi mumkin.

5.Qo'shimcha ta'mir detallarini qotirish usullari

Qo'shimcha ta'mir detallarini qotirish uchun o'rnatish va tarang kirgizish usullari qo'llaniladi. Ayrim hollarda yon tomonlarini payvandlash yo'li yoki stoporlovchi vint yoki shtiftlar ham qo'llanilishi mumkin.

Detallarni bosim ostida (plastik deformatsiyalash) tiklash

Detallarning ishlash imkoniyatini bosim ostida ishlash yo'li bilan tiklash materiallarning plastiklik xossasidan foydalishga asoslangan. Metalning ma'lum sharoitda tashki kuch ta'sirida yemirilmay qoldiq (plastik) deformatsiyalanish xossasi ularning plastikligi deb ataladi.

Bosim ostida ishlangan detalning shakli va o'lchamlarigina o'zgarib qolmay, balki uning strukturasi va mexanikaviy xossalari ham o'zgaradi.

Metalning elastik deformatsiyalanishida uning kristal panjarasidagi atomlar bir-biriga nisbatan elastik tarzda siljiydi, kuch berilganda bu atomlar asli vaziyatiga qaytib, kristal panjara tiklanadi. Kuch oshirilsa elastik o'zgarish plastik o'zgarishga aylanadi va kuch olingandan keyin kristall panjara o'zining dastlabki xolatiga qaytmaydi, ya'ni metall plastik deformatsiyalanadi.

Plastik deformatsiyalanishda kristalning bir qismi boshqa qismiga nisbatan siljiydi. Siljish natijasida kristall panjarada atomlarning joylashish o'rni o'zgaradi, buning oqibatida kristall panjaraning shakli buziladiyu, lekin kristallning yaxlitligi buzilmaydi.

Detallarning ishlash imkoniyatini tiklashda ular turli usullarda plastik deformatsiyalanishi mumkin. Bu usullar jumlasiga qo'yidagilar kiradi:


- 1.CHo'ktirish;
- 2.To'g'rilash;
- 3.Kengaytirish;
- 4.Toraytirish;
- 5.Botirish;
- 6.CHo'zish;
- 7.Nakatkalash;

2.Detalning ishlash imkoniyatini cho'ktirish usuli bilan tiklash

Detalning uzunligini kamaytirish hisobiga sirtqi diametrini kattalashtirish jarayoni cho'ktirish deyiladi. (1rasm)

1-rasm. Detalni cho'ktirish usuli bilan tiklash.


SHunga ko'ra vtulkaning ishlash imkoniyatining bu usulda tiklash mumkin yoki mumkin emasligi vtulka balandligining yo'l qo'yiladigan qiskartirishiga bog'liq. Kuch juda ko'p tushadigan vtulkaning ishlash imkoniyatining faqat bir marta tiklash mumkin; bunda shuni esda tutish keraki, vtulkaning balandligini ko'pi bilan 58 % qiskartirish lozim bo'lgan xollardagina uning ishlash imkoniyatini tiklasa bo'ladi. Kuch kamroq tushadigan vtulkalarning ishlash imkoniyatining



tiklashda balandligini 15% gacha qisqartirish mumkin. Ichi havol bo'limgan detallarning, masalan dvigatel klapanlari, po'lat turkichlar, yarim o'qlarning ishlash imkoniyatini ham cho'ktirish yo'li bilan tiklash mumkin.

3. Detalning ishlash imkoniyatini botirish usuli bilan tiklash

Detallarning metalini cheklangan oraliqqa surish hisobiga uning o'lchamini kattalashtirish jarayoni botirish deyiladi. (2rasm)



2-rasm. Detalni botirish sxemasi

Bu usuldan foydalanib, dvigatel klapanlarining anchagini yeyilgan kallaklarini, tishlarini, qalinligi yeyilgan tishli g'ildiraklarni tiklash mumkin.

Klapanlar kallaklarining ishlash imkoniyatini botirish usuli bilan tiklashda metal qizdiradi. Bunda klapan metalini fazaviy o'zgarishlar temperaturasidan past temperaturada botirish mumkin bo'lsa, u xolda detalga qayta termik ishlov bermasa ham bo'ladi. Detal pechda 510 minutdan ortiq turmasligi kerak.

Klapan sterjenining termik ishlovini saqlab qolish uchun induktsion qurilmada yoki maxsus konstruktsiyadagi pechda klapan kallagining o'ziga qizdirib olinadi.


4. Detallarning ishlash imkoniyatini maxalliy toraytirish xisobiga cho'zish usuli bilan tiklash

Detal o'zunligini kesimi bo'yicha ma'lum joyini toraytirish hisobiga o'zaytirish cho'zish deyiladi. (3rasm)

3-rasm. Detalni cho'zish sxemasi.

Bu usul mustaxkamlik zapasi yetarlicha bo'lgan detallar uchun qo'llaniladi. Mustaxkamlik zapasi yetarlicha bo'lgan shatun, turkich, klapan sterjeni va boshqa detallarning ishlash imkoniyati ana shu usulda tiklanadi.


Maxalliy toraytirish xisobiga cho'zish usulida detalning deformatsiyalanadigan joyining o'ziga yuqori chastotali tok bilan qizdiriladi.



5. Detallarning ishlash imkoniyatini kengaytirish usuli bilan tiklash

Vtulkaning ichki diametrini kengaytirish xisobiga sirtki diametrini kattalashtirish kengaytirish deyiladi (4rasm). Bu usul porshen barmoqlari, kardanli vallarning kristovinalari va yarim o'qlarning kojuxlari hamda trubalari, differentialsial kosachalari va rul kolonkalari trubalarining ishlash imkoniyatini tiklashda qo'llaniladi.

4-rasm. Havol detalni kengaytirish sxemasi.




Porshen barmoqlarini sovuqlayin kengaytirishda, dastlab, ular ichki diametrini o'lchamlari jihatidan gruppalarga ajratiladi. Har qaysi gruppaga ichki diametrining o'lchamlari ko'pi bilan 0,3 mm farq qiladigan barmoklar kiritiladi. SHundan keyin saralangan barmoqlar $600-650^{\circ}$ S temperaturagacha qizdirilib bo'shatiladi. So'ngra ular shtampga qo'yilib, sferik moslamalar yordamida press ostida kengaytiriladi.

6.Detallarning ishlash imkoniyatini toraytirish usuli bilan tiklash


Vtulkaning ichki diametrini tashki diametri xisobiga kichraytirish toraytirish deyiladi.(5-rasm)

Plastik deformatsiyalashning bu usuldan foydalanib, rangdor metal» lardan yasalgan vtulkalarni, rolikli podshipniklarning roliklari ostidan darchalarining devorlari, yegilgan separatorlari silliq yoki shlitsali teshigi yegilgan turli xil richaglarning ishlash imkoniyati tiklanadi.

Vtulkalarning ishlash imkoniyatini siqish usulida tiklash uchun vtulka qizdirilmay, maxsus moslamaga o'rnatilib presslanadi (6rasm). Bunda matritsaning kirish qismi burchagiga 78° , chiqish qismi burchagi esa $18-20^{\circ}$ bo'ladi.



5-rasm. Xavvol detalni toraytirish moslamasi



6-rasm. Vtulkalarni toraytirish moslamasi. 1.Opravka; 2. Ishlash imkoniyati tiklanadigan detal; 3. Kalibrlovchi vtulka; 4. Tayanch vtulka.

7. Detallarning ishlash imkoniyatini nakatkalash usuli bilan tiklash

Detal metalini rolikning tishlari yordamida sikib chiqarish yo'li bilan uning sirtki diametrini kattalashtirish jarayoni nakatkalash deyiladi (7rasm). Bosim ostida ishlashning bu usuli dumalash podshipnigi o'rnatiladigan joyning ishlash imkoniyatini tiklashda qo'llaniladi. Bunda nakatlash roligining tishlari yordamida metalni sikib chiqarish yo'li bilan detalning sirtki diametri kattalashtiriladi yoki ichki diametri kichiklashtiriladi. Nakatlashda hosil qilingan yangi yuzanining strukturasi buzilmagan xolda yuk ko'tara olish hususiyatining eng kam o'zgarishi, tayanch yuzasi esa iloji boricha saqlanishi kerak.

8. Detallarning ishlash imkoniyatini to'g'rilash usuli bilan tiklash

Dstalning buzilgan shaklini tiklash jarayoni to'g'rilash deyiladi (8- rasm). To'g'rilashning ikki usuli: 1) statikaviy kuch ta'sirida (press ostida) to'g'rilash usuli; 2) naklyoplash yo'li bilan to'g'rilash usuli.

Statikaviy kuch ta'sirida (press ostida) to'g'rilash usuli. Tirsakli vallar va taksimlash vallari. o'zatmalar qutisining vallari. Yarim o'qlar, shatunlar, tsilindrlar galovkasi, oldingi o'q balkalari va boshqa ko'pgina detallar press ostida yoki maxsus moslamalarda sovuqlayin to'g'rilanadi.

Xisobot

1. Detal materialining qanday xossalari uning ishlash qobiliyatini tiklash imkonlarini beradi? _____

2. Detalning ishlash imkoniyatini cho'ktirish usuli bilan qanday tiklanadi? _____

3. Detalning ishlash imkoniyatini botirish usuli bilan qanday tiklanadi? _____

4. Detallarning ishlash imkoniyatini maxalliy toraytirish xisobiga cho'zish usuli bilan qanday tiklanadi? _____

5. Detallarning ishlash imkoniyatini kengaytirish usuli bilan qanday tiklanadi? _____

6. Detallarning ishlash imkoniyatini toraytirish usuli bilan qanday tiklanadi? _____

7. Detallarning ishlash imkoniyatini nakatkalash usuli bilan qanday tiklanadi? _____

8. Detallarning ishlash imkoniyatini to'g'rilash usuli bilan qanday tiklanadi? _____

8. Detallarni tiklash usullarini qo'llash ikoniyatlari va ularni afzalliklari hamda kamchiliklarini aytib bering! _____

7-Amaliy mashg'ulot

Detallarni tiklashda mexanik ishlov berish.

Ishdan ko'zlangan maqsad:

Detallarni tiklashda mexanik ishlov berishni o'rGANISH.

Kerakli asboblar:

1. Detallarni nuqsonlarini aniqlash uchun o'lchov priborlari majmuasi;
2. Amaliy mashg'ulot bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
4. Plakatlar.

O'z xizmat burchini o'tab bo'lgan va ish sirtlaridan nuqsonlar paydo bo'lgan mashina detallari turli usullar bilan tiklanadi. Tiklash usulini tanlashda yeyilish miqdori, sirtning shikastlanish xususiyatini, detal materialining qattiqligi, detal o'lchamlari, qo'yim qiymatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Detallarning geometrik shakli va o'lchamlarini tiklash uchun yeyilgan material qatlami o'miga yangi qatlam qoplash usulidan, plastik deformatsiyalash usulidan (mavjud hajmdagi metallni qayta taqsimlash hisobiga detal shaklini o'zgartirish), detalning yeyilgan qismini yangisi bilan almashtirish usulidan, yeyilgan sirtga mexanik ishlov berib, nuqsonli qatlamni ketkazib, detalga to'g'ri geometrik shakl berish usulidan foydalilanadi.

Detal materialining fizik-mexanik xossalari puxtalash yo'li bilan (termiq ishlov berish, termiq-kimyoviy deformatsiyalash, elektro-fizikaviy va b. usuli bilan) tiklanadi.

Detalning yeyilgan sirtqi qatlami o'miga yangi qoplama hosil qilish payvandlash, eritib qoplash, Galvanik, polimer va gazotermiq qoplamalar hosil qilish hamda plastik deformatsiyalash kabi usullar bilan amalga oshiriladi. Detallarning sirtqi qatlamida Galvanik usul bilan qoplama qatlamlar hosil qilish texnologik jarayonlarining murakkabligi, ekologik hamda energiya iste'moli bilan bog'liq bo'lgan muammolarni keltirib chiqaradi. Mashina detallarini tiklashning asosiy texnologik usullari 6.1-jadvalda keltirilgan Mashina detallarining tiklashning asosiy texnologik usullari:

6.1-jadval

| Tiklash usullari | Tiklashning texnologik usullari |
|------------------|---------------------------------|
| 1 | 2 |

| | |
|---|---|
| Payvandlash va eritib qoplash | Yoy bilan qo'lda, flyus qatlami ostida elektr yoy bilan, himoya gazlari muhitida, elektroshlak bilan, qukun sim bilan yoy vositasida, titrma yoy bilan, argonli yoy bilan, induksion usul bilan, gaz alangasida, plazmali usul bilan, lazer yordamida. |
| To'zitish | Gaz alangasida, elektr yoy bilan, plazmali usul bilan, detonatsion usul bilan, lazer yordamida, ion-plazmali usul bilan. |
| Galvanik cho'ktirish | Xromlash, temirlash, nikellash, ruxlash |
| Elektrofizik ishlov berish | Elektro-uchkunli, magnit-impulsli |
| Ishqalab ishlov berish | Antifriktsion |
| Kimyoviy- termiq ishlov berish | Azotlash, tsyementatsiyalash, tsianlash, bor bilan qoplash |
| Polimerlardan foydanish | Elimlash, soxta eritilgan qatlamda qoplama hosil qilish va gaz alangasi yordamida to'zish |

| Detalning qalinligi, mm | Elektrod dinametri, mm | Tok kuchi, A |
|--------------------------------|-------------------------------|---------------------|
| | | |

Payvandlash va eritib qoplashning elektr yoy usulida eritish zonasida paydo bo'ladigan elektr yoyi materialni eritish uchun asosiy zonasida paydo bo'ladigan elektr yoyi materialni eritish uchun asosiy issiqlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Elektr yoyi gazli muhitda ikkita elektrodlar orasida paydo bo'ladigan quchli elektr razryaddan iborat, elektr razryad uchun past kuchlanish katta tok, yoy oralig'ida gazlarning ionlashishi xosdir. Gazlarning ionlashish natijasida erkin elektronlar va ionlar paydo bo'ladi, gazli muhit yuqori elektr o'tkazuvchan bo'lib qoladi va payvand yoyning barqaror yonishini ta'minlaydi. Payvandlash yoyi hosil qilish uchun o'zgarmas va o'zgaruvchan toklardan foydalaniladi.

Yoy ustunidagi harorat $6000-7500^{\circ}\text{S}$ gacha, po'lat elektrodlarda $2200-2500^{\circ}\text{S}$ gacha ko'tariladi; bunda katod dog'iga nisbatan anod dog'ida harorat yuqori bo'ladi.

Elektrojni eritish jarayoni eritish koeffitsienti bilan baholanadi, bu koeffitsient quyidagiga teng bo'ladi:

$$\alpha_p = Q_r / I_t,$$

bu yerda Q_r -eritilgan metall massasi; I -payvandlovchi tok kuchi; t -eritish vaqt. O'rtacha va kam uglerodli po'latlarni payvandlash hamda eritib qoplama hosil qilish rejimi

| | | |
|---------------|--------------|-------------------|
| 2...4 | 3...4 | 75...125 |
| 4...6 | 4...5 | 180...200 |
| 6...10 | 5...5 | 200....400 |

Alyuminiyni gaz va yoy bilan payvandlashdaqo'llaniladigan flyuslar tarkibi(massanening ulushi hisobida, %da)

Gaz alangasida payvandlash va eritib qoplashda metallarni eritish uchun kislorod muhitida yonuvchi gazlar (atsetilen, metal propan va b.) alangasidan foydalaniadi. Yonuvchi gazlar ichida atsetilen keng tarqaldi, chunki u yongandagi alangasi $3100-3300^{\circ}\text{S}$ gacha harorat beradi.

Galvanik qoplamlar yoyilgan sirtda, detalni deyarli qizdirmasdan turib, metall qatlamini qoplab uni dastlabki o'lchamigacha tiklash imkonini beradi. Ular kam yeyilgan sirtlarga ($0,10-0,20$ mm gacha) metall qoplab, detalning yeyilishi va korroziya bardoshligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Metall konstruktsiyalar va ramalarni tiklash texnologiyasi.

Mashinalarning metall konstruktsiyalari profilli (shvillerlar, burchakliklardan) va tunuka (list) materiallardan yasaladi. **Nuqul metall konstruktsiyalar** asosan payvandlab va kamdan-kam xolda parchalanib tayyorlanadi. Payvand choklarda darzlar paydo bo'lishi payvand konstruktsiyalarining asosiy nuqsoni xisoblanadi, parchinlar tayyorlangan konstruktsiyalarda birikmalar bo'shashib qoladi, parchinlar uilib, parchin mix o'tgan teshiklar yeyilib ketadi. Pavandlab tayorlangan metallokonstruktsiyalarda ham, parchinlab tayyorlangan konstruktsiyalarda ham bo'ylama to'sinlarda, ko'ndalang bruslarda va tirgovuchlarda darzlar, o'zaro tutashadigan detallar uchun mo'ljallangan (o'qlar, barmoqlar, vallar o'tadigan) tashiklarning yeyilishi, tob tashlashi, egilish va buralishlar uchraydi.

Listlardan yasalgan metall konstruktsiyalarda (kabina, kuzov, sisternalar, barabanlar va b.da) zanglash va mexanik shikastlanish (darzlar, ezilishlar, uzhishlar) lar uchraydi.

- Bo'shashib qolgan parchinlar olib tashlanadi, buning uchun ularning kallagi oddiy yoki pnevmatik zubilo bilan, yoki gaz alangasida kesib tashlanadi yoki maxsus uchlik o'rnatilgan drel bilan o'yiladi. Parchin mix o'tadigan yeyilgan teshik parmalanadi va kattalashtirilgan o'lchamda yo'nib kengaytiriladi yoki teshik payvandlab to'ldiriladi va qaytadan teshik ochilib nominal o'lcham bilan yo'nib kengaytiriladi. Birikmadagi barcha parchin mixlar almashtirilganda barcha teshiklar parmalanib, konduktorlar yordamida yo'nib kengaytiriladi.

Korpus detallarini tiklash texnologiyasi.

Mashinaning korpus detallari o'zining murakkab konstruktiv shakli bilan farq qiladi va unda podshipniklar, vallar, vtulkalar, gilzalar, shtivlar, shpilka kabi detallarni o'rnatish va maxkamlash uchun juda ko'p teshik va tekisliklar bor.

Korpus detallar bolg'alanuvchan va qulrang cho'yandan, alyuminiy qotishmalaridan xamda konstruktsiv po'latlardan tayyorlanadi.

| Parametrlar nomi | Parametrlar qiymati |
|---|--|
| Tekislilikdan og'ishi, mm: Blokning 100mm uzunlikdagi yuqori va pastki sirtlari, ko'pi bilan Oldingi va ketingi torets sirtlari (50mm uzunlikdagi), ko'pi bilan Yon sirtlar, ko'pi bilan | 0,02...0,08 0,05 0,015 |
| O'lchamlar aniqligi, kvalitet: Gilza uyasi O'zak tayanchlarning teshiklari Taqsimlash vali uchun teshiklar Elementlarning yo'naltirish vtulkalari uchun teshiklar | 7...8 6 7...8 7...8 |
| Konussimonlik va ovallik: TSilindrlar gilzasi uchun teshiklar, mm O'zak tayanchlar teshiklari, % | 0,01...0,025 50...70 |

Detallarni mexanik ishlov berib tiklash

Detalni ta'mirlash o'lchamiga moslab tiklash ancha keng tarqalgan usuldir. Uning mohiyati asosiy, ancha murakkab detalga ixtiyoriy o'lchamgacha emas, balki normal o'lchamdan farqlanuvchi oldindan belgilangan o'lchamgacha mexanik ishlov berishdan iborat. Ikkinci tutashtiriluvchi detal yangi detal qo'yimlarini saqlagan holda shu o'lchamga muvofiq tayyorlanadi. Ta'mirlash o'lchamlari oldindan belgilanganligi va ma'lumligi sababli ikkinchi detalni birinchi detalga bog'liq bo'lмаган holda boshqa korxonada ham tayyorlash mumkin. Detallarning o'zaro almashinuvchanligi bir muncha murakkablashsa ham, biroq ta'mirlash o'lchamlari chegarasida saqlanadi. Bu xol sanoatda qo'llaniladigan usullarni ta'mirlashda qo'llash imkonini beradi? ta'mirlashni arzonlashtiradi va uning sifatini yaxshilaydi.

8-Amaliy mashg'ulot

Tiklashda texnologik operatsiyalarini me'yorlash va rasmiylashtirish.

Ishdan ko'zlangan maqsad:

Detallarni tiklashda texnologik
operatsiyalarini me'yorlash va
rasmiylashtirish o'rganish.

Kerakli asboblar:

1. Detallarni nuqsonlarini aniqlash uchun o'lchov priborlari majmuasi;
2. Amaliy mashg'ulot bo'yicha uslubiy ko'rsatma;
4. Plakatlar.


Tirsakli valni tiklashga qo'yilgan talablar

Tirsakli valning ba'zi konstruktsiyalarida posangilar ho'm bo'ladi. Tirsakli vallarning krivoship (shatun) bo'yinlari 120° , 180° (bitta tekislikda), kamdan-kam hollarda 90° burchak ostida joylashadi. Texnologik bazalarni tanlashda va vallarni mexanik ishlov berish uchun mahkamlashda, shuningdek, kerakli uskunalarni tanlashda ishlov beriladigan yuzalarning tozaligiga qo'yiladigan talablardan kelib chikish zarur (1-jadval).

Tirsakli vallarni nuqsonlarini aniqlash oldidan OM-3600 mashinalarida yuviladi. Ayniqsa moy kanallari yaxshilab yuvilishi kerak. Val yuvilandan so'ng uning nuqsonlarini aniqlashga kirishiladi. Tiklanadigan tirsakli vallarda 1-rasmida ko'rsatilgan ko'pgina nuksonlar bo'ladi: val egiladi, shatun va o'zak bo'yinlari, maxovikni mahkamlash boltlari kirgiziladigan teshiklar, uzatmalar qutisi yetakchi valining uchidagi yo'naltiruvchi podshipnik o'rnatiladigan teshik, flanetsning yon tomonlari sirti va diametri, shponka va moy yig'ish ariqchalari, shesternya va shkiv gupchagi o'rnatiladigan bo'yinlar yeyiladi, xropovik o'rnatiladigan rezba shikastlanadi, old o'zak va shatun bo'yinlari uzunlashadi, sinadi hamda darz ketadi. labaratoriya mashg'ulotida hisobot blankasiga tirsakli val konstruktiv elementlarining holati, uni brak qiluvchi belgilari va boshqa nuqsonlari aniqlab, ularning nomi, texnologik o'lchamlarining qiymati jurnalga yoziladi va chizmada belgilangan o'lchamlarga solishtiriladi hamda nuqsonlarni tiklash bo'yicha tadbirlar belgilanadi.


1-jadval
Tirsakli val o'lchamlarining aniqligi

| T.r. | Sirtlarning nomi | Aniqlik qiymati |
|------|---|-----------------|
| 1. | Diametrning aniqligi, kvalitet: | |
| | a)o'zak va shatun bo'yinlariniki | 5 |
| | b)shkiv uchun mo'ljallangan bo'yinlarniki | 6 |
| | v)salnik uchun mo'ljallangan bo'yinlarniki | 6 |
| 2. | Bo'yinlarning ovalligi, konussimonligi va botiqligi, mm | 0,005 |
| 3. | SHatun va chekka o'zak bo'yinlarining paralellikdan og'ishi, mm | 0,06...0,07 |
| 4. | G'adir-budirlik parametrlari, R_a , mkm: | |
| | a)o'zak va shatun bo'yinlariniki | 0,32...0,16 |
| | b)shkiv va salnik osti bo'yinlariniki | 2,0...1,2 |



1-rasm. Tirsakli valning asosiy nuqsonlari

1-shesternya va shkiv o'rnataladigan bo'yinlarning yeyilishi; 2-shponka ariqchasining yeyilishi; 3-oldingi tub bo'yin uzunligining ortishi; 4-shatun bo'yinlarini uzunligining ortishi; 5-sinishlar va darzlar; 6-valning egilishi; 7-flanetsning yeyilishi, tepishi; 8-moy haydash ariqchalarining yeyilishi; 9-uzatmalar qutisi valining podshipnigi o'tiradigan teshikning yeyilishi; 10-tub bo'yinlarning yeyilishi; 11-shatun bo'yinlarining yeyilishi; 12-xropovik o'tiradigan rezbali teshiening shikastlanishi.




2-rasm. Tirsakli valni tiklash texnologik jarayoni operatsiyalari

a- val egilishini tekshirish va to'g'rilash; 1-oqib yuruvchi markaz; 2-prizma; 3-jarayon; 4-indikator; b-shatun bo'yinini eritib qoplash; 1-markaz surgich; 2-mundushtuk; 3-eritib qoplangan metal; v-o'zak bo'yinni eritib qoplash; 1-mundushtuk; 2-eritib qoplangan metal; g-markaziy faskani tayyorlash; 1-planshayba; 2-lyunet; 3-keskich; d-bo'yinni YUCHT bilan toplash; 1-YuCHT indikatori; 2-ustun; g-o'zak bo'yinlariga tokarlik ishlov berish; ye-o'zak bo'yinlarga tokarlik ishlov berish; j-shatun bo'yinini jilvirlash; z-o'zak bo'yinini jilvirlash.

Valning bo'yinlarida darzlarning bor-yo'qligi magnitli nuqson aniqlagichlarda yoki magnitli qalam bilan tekshiriladi. So'ngra valning salqishi (egilishi) tekshiriladi, bunda xatolik va noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik uchun salqilikni maxovikni mahkamlash flanetsining yonini tepishi bo'yicha aniqlash kerak. Bu tepish ko'pi bilan 0,05 mm bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Tepish katta bo'lsa val mahalliy puxtalash yo'li bilan to'g'rilanadi. Tirsakli valning egilganligi sovuqlayin pressda yoki galtellarini chekankalab (zarb berib) to'g'rilanadi (2-rasm). Valni to'g'rilash uchun eng chekka o'zak bo'yinlarga kabarik tomonini press shtoki tomonga qilib to'g'rilanadi. Uni teskari tomonga qayta bukish egilishdan 2-3 marta ortiqroq bo'lishi kerak.

Val to'g'rilingach, undagi ichki quchlanishlarni yo'qotish uchun 400-500⁰S gacha qizdiriladi va 0,5-1,0 soat mobaynida ushlab turiladi. CHekanka qilish (zarb berish) pnevmatik yoki dastaki bolg'a bilan maksimum egilgan o'zak bo'yinga yaqin turgan galteldan boshlanadi, so'ngra keyingi galtellarga o'tiladi, va h.k. Krivoship radiusi maxsus 70-8784-1010 yoki 9571-38 moslamalari yordamnda tekshiriladi (9571-38 ning sxemasi 7-rasmda keltirilgan).



7-rasm. Tirsakli valni krivoshipi va radiusini tekshirish 9571-38 moslamasi
1-prizma; 2-korpus-trubka; 3-indikator

Moslama korpus-truba 2, trubaga payvandlangap ikkita prizma 1 va to'rtta indikator 3 dan tashkil topgan. Indikatorlar etalon bo'yicha o'rnatilib, so'ngra prizmali moslama o'zak podshipniklarning birinchi va ketingi bo'yinlariga shunday qo'uyiladiki, bunda indikatorlarning o'lchash sterjenlari tegishli shatun bo'yinlari sirtlariga tegsin. Strelkalarning nol holatdan og'ishi krivoship radiuslarinint normal qiymatlardan chetga chiqishiga mos keladi.

Ixtisoslashtirilgan ta'mirlash korxonalarida tirsakli val 70-8735-1006-yoki 9571-49 tipidagi moslamalar yordamida tekshiriladi (9571-49 ning sxemasi 6-rasmda ko'rsatilgan). Bu moslamalar, valni kompleks tekshirish imkonini beradi. Krivoship radiusi, o'zak bo'yinlar va maxovikni mahkamlash flanetsining tepishi SHU moslamalarda aniqlanadi. Tekshirilayotgan val chetdagi o'zak tayanchlarp bilan plita 1 ga o'rnatilgan prizmalar 2 ga joylashtiriladi. SHU plitanang o'ziga soat tipidagi indikatorlar 3 montaj qilingan bo'lib, valni 360° ga burashda ko'rsatilgan barcha parametrler ana shu indikatorlar yordamida o'lchanadi. Krivoship radiusini tekshirish uchun indikatorlar etalon val bo'yicha o'rnatiladi.

Tiklangan vallar quyidagi texnik talablarga javob berishi kerak: podshipniklarga mo'ljallangan bo'yinlar ovalliligi va konusligi mayda vallar uchun ko'pi bilan 0,01 mm; yirik vallar uchun ko'pi bilan 0,02 mm; shesternya uchun va o'rtadagi o'zak

bo'yinlarning chetdagi o'zak bo'yinlarga nisbatan tepishi ko'pi bilan 0,03 mm; maxovikni mahkamlash flanetsining chetki nuqtalardan torets bo'yicha tepishi ko'pi bilan 0,04 mm; bo'yinlar sirtinipg g'adir-budurligi 6- kvalitetdan past bo'lmasligi, galtellar radiuslari va krivoshiplar radiuslari texnik talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

O'zak va shatun podishpniklari vkladishlari kam uglerodli po'lat va qo'rg'oshinli bronza antifriktsion qatlami yoki babbitdan iborat bimetall polosalardyan tayyorlanadi. Vkladishlarning yeyilishi, uvalanishi, qirilishi, anti-friktsion qatlamnnng yorilishi yoki erishi; fiksatsiyalash chiqiqlarnning (o'simtalar) ezilishi yoki qirqilishi, tashqi sirti va torets ajralish tekisliklarining yeyilishi ularning asosiy nuqsonlari hisoblanadi. Sanab o'tilgan nuqsonlardan juda bo'lmasa bittasi yo'l qo'yilgan talablardan chetga chiqqanda, shuningdek, bo'yinlar ovalliligi va vkladishlar bilan tirsakli val bo'yinlari orasidagn zazorlar yo'l qo'yilgandan kattalashganda vkladishlar almashtirpladi.

Antifriktsion qatlami bir oz yeyilgan va boshqa nuqsonlari bo'lмаган remont o'lchamndagi vkladishlar qo'shimcha yoki asosiy remont o'lchamida katta diametrda yo'nib kengaytiriladi.

Dvigatelga antifriktsion qatlaminikg qalinligi 0,16 mm dan kam bo'lган vkladishlarni qo'yib bo'lmaydi.

Avtomobil dvigatellari uchun remont o'lchamidagi vkladishlardan tashqari, ichki diametriga chala ishlov berilgan vkladishlar ishlab chiqariladi. Bunday vkladishlar valning har qanday o'lchamdagи bo'yinlari uchun muayyan chegarada yo'nib kengaytirilishi mumkin.

Vkladishlar URB-VP-M tipidagi yo'nib kengaytirish stanoklarida maxsus moslamalarda yo'nib kengaytiriladi. Agar shatun vkladishlar shatun boltlarining gaykalari normal burab mahkamlanganda bevosita, shatunning o'zida, o'zak vkladishlar esa blokda RD tipidagi stanoklarda o'zak podshipniklar kopqoqla-rining gayka va boltlari ham normal bo'rab mahkamlanganda yo'nib kengaytirish yaxshi natijalar beradi.

Yo'nilgan vkladishlar sirtining g'adir-budurligi kamida 5-6 kvalitet, ovalliligi va konusligi esa ko'pi bilan 0,02 mm bo'lishi lozim. Yo'nilgan vkladishlarning tashqi sirtidagi eski marka ketkazilib, remont o'lchami va o'rnatish joyi (pastki va yuqorigi) qursatilgan yangi markalar yozib qo'yiladi.

Yo'nilgan vkladishlarni xuddi yangisi kabi kompleksizlashga yo'l qo'yilmaydi.

Konstruktiv elementlarning holatini remont xaritasining talablari bo'yicha taqqoslab blankanining «Xulosa» grafasiga detalning holatini yozib qo'yish kerak. Ya'ni «Ta'mirsiz», «Ta'mirga» yoki «Brak» valni ta'mirga jo'natilishi lozim bo'lsa deffektini tuzatish usuli ham ko'rsatiladi.

Tirsakli valda har qanday xarakterdagи darzlar bo'lsa yaroqsizga chiqariladi. Agarda bo'yinlar sirtidagi kichik qatlam-qatlam joylarni ta'mir o'lchamigacha jilvirlash bilan bartaraf etish mumkin bo'lsa, tirsakli val yaroqsizga chiqarilmaydi. Avtomobil dvigatellarining vallari o'zak va shatun bo'yinlari uzunligi bo'ylab yo'l qo'yilgan o'lchamdan ortiq yeyilgan bo'lsa, yaroqsizga chiqariladi.

Tirsakli valni tiklash jarayonlari

Tirsakli vallarni tiklashning texnologik jarayoni sxemasi (3-rasm) ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchi yo'nalishda vallarning o'zak za shatun bo'yinlari ta'mir o'lchamiga mo'ljallab silliqlab tiklanadi, ikkinchi yo'nalish

bo'yicha esa bo'yinlarga metall eritib qoplanadi va nominal o'lchamga yetguncha ishlov beriladi.

SHatun bo'yinlari uzunligi bo'ylab konussimon, diametri bo'ylab esa ovalsimon yeyiladi, ya'ni elips shakliga kiradi.

O'zak bo'yinlar uzunligi bo'ylab bir tekis, diametri bo'ylab esa ellipssimon yeyiladi.

Bo'yinlar yeyilishining xususiyatlari tirsakli valni yaroqli-yaroqsizga ajratishda hisobga olinadi. Bo'yinlar ikkita ko'ndalang kesimda shchekalaridan 10 mm masofada va ikki krivoship tekisligida va unga perpendiqulyar tekislikda o'lchanadi.

Agar shatun bo'yinlari ellipsligi 0,05 mm dan va o'zak bo'yinlarning ellipsligi 0,06 mm dan oshsa, shuningdek, qirilish, pachoqlanish, chuqur tirmalishlar yoki yeyilishlar yo'l qo'yilgan darajadan oshib ketsa bo'yinlar jilvirlanadi. Bir nomdag'i shatun va o'zak bo'yinlar bitta ta'mir o'lchamigacha jilvirlanadi.

O'zak bo'yinlarini jilvirlashda o'rnatish bazasi sifatida xropovik uchun mo'ljallangan teshik faskasi va podshipnik uchun mo'ljallangan val yon tomonidagi faska yoki teshik qabo'l qilinadi. Bu bazalar avval tekshiriladi va zarur bo'lsa tuzatiladi. Tekshirish uchun tirsakli val markazlarga o'rnatilib, uning tepishi yeyilmagan sirtlarga qarab o'lchanadi.

O'zak bo'yinlarini jilvirlashda o'rnatish bazasi sifatida shesternya osti bo'yni va maxovik flanetsining sirtqi slindrik sirti yoki chetidagi jilvirlangan o'zak bo'yinlar qabo'l qilinadi.

Eyilgan shatun va o'zak bo'yinlar 0,25 mm oraliq bilan ta'mir o'chamlariga mo'ljallab qayta silliqlanadi yoki metall eritib yopishtiriladi, so'ngra nominal o'lchamga yetguncha ishlov beriladi. Bo'yinlar ZA433, ZV423, ZA423 kabi doiraviy silliqlaş sanoklarida jilvirlanadi (2-j,z rasm). Silliqlangan bo'yinlar 2K34 stanogida jilolanadi.

Eyilgan bo'yinlarga metal eritib yopishtirish uchun flyus qatlami ostida sim eritiladi yoki yeyilishga chidamli material qukunlari plazmali to'zitish yo'li bilan yopishtiriladi (2-b,v rasm). Bo'yinga metalni eritib yopishtirishdan oldin moy kanallari grafitli pasta yoki grafit sterjen bilan berkitib qo'yiladi.

Np-ZOXGSA simi AN-348A flyusi ostida eritib yopishtirilgan tirsakli vallarga quyidagi ishlov beriladi: YuCHT ko'rlmasida bo'iinlar normallanadi va toblanadi, so'ngra kerakli o'chamga yetguncha silliqlanadi (2- d, ye rasm; 4-rasm).

Tirsakli vallarga plazma yordamida eritib yopishtiriqdan oldin undagi yeyilganlik izlari mexanik ishlov berib yo'qotiladi va bo'yinning geometrik shakli tiklanadi. Nikel-xrom-bor-kremniy qotishmasi eritib yopishtirilgandan keyin shatun va o'zak bo'yinlar olmos asboblar bilan silliqlanadi. Valga tozalab ishlov berish 24 soatdan keyin bajariladi, chunki bu vaqt ichida qoplamada hamda val materialining tashqi sirtida ichki quchlanishlar to'la relaksatsiyalanadi.

Eyilgan shponka ariqchasi ta'mir o'lchamli shponka uchun frezerlanadi yoki bo'yin bilan birgalikda 0,8-1,2 mm diametrli Sv-08GS simni karbonat angidrid gazi muhitida eritib to'ldiriladi, bu jarayon A-547 yarim avtomatda, eritib yopishtiriladigan qatlama qolgan sirtlardan 1 mm ko'tarilguncha bajariladi. So'ngra bo'yin yo'niladi va nominal o'lchamga yetgunga qadar silliqlanadi, shponka ariqchasi esa nominal o'lchamgacha frezerlanadi.



4-rasm. Tirsakli valni stanokda jilvirlash jarayoni


SHkiv o'tqaziladigan bo'yinlar, posangilar va shesternyalarga karbonad angidrid gazi muhitida sharoitida 1,0-1,5 mm diametrli Sv-18XGS, Sv-ZOXGS simni U-651 stanogida eritib yopishtiriladi

Eritib qoplangan sirtlar 1M63 turidagi stanokda TK turidagi qattiq qotishmali plastinkali keskichlar bilan yo'niladi (2-e rasm).

Avvol o'zak bo'yinlar, keyin shatun bo'yinlar ZB161 doyraviy silliqlash stanoklarda silliqlanadi (2-j,z rasm).

Podshipnik uchun mo'ljallangan yeyilgan teshiklar vtulka o'rnatib tiklanadi (5-rasm), yo'nilgan teshikka vtulka tirakka qadar presslab kiritiladi. So'ngra vtulka tokarlik vint qirqish stanogida nominaa o'lchamga qadar yo'niladi.

Xrapovik uchun mo'ljallangan rezbaning kamida ikki o'rami shikastlangan bo'lsa, progonkalab bartaraf etiladi, ikkitadan ortiq o'rami shikastlangan bo'lsa, ta'mir o'lchamli rezba ochiladi.



5-rasm.Tirsakli valni yon tomoni-dagi podshipnik o'tiradigan teshikni vtulka qo'yib tiklash

7-semestr uchun

AMALIY MASHG'ULOT

1-Amaliy mashg'ulot

DETALLARNI FLYUS OQIMI OSTIDA ERITIB VA HIMOYA GAZLARI MUHITIDA CHANGLATIB QAYTA TIKLASH.

Ishning maqsadi: Jihoz, uskuna, eritish ishlari texnologiyasi va undan foydalanish sohalari, eritish tadbirlarini loyihalash va ularni bajarish bilan tanishish. Ишни бажариш тартиби ва хисобот мазмуни.

1. Eritma qalinni himoya qilish, t mm.

$$t = \Delta_{uzm} + a$$

qayerda: Δ_{uzm} - detal yzasining yeyilish kattaligi. $\Delta_{uzm} = 2$ мм.

“ a ” – ishlov berish haqqi, mm (yonish uchun 1,5-2 mm chegara).

2. Elektrod sim uchun material tanlash. 2-sinf /ГОСТ 10543-82/. $D_s =$ мм. Sim markasi

3. Elektrodnинг zenitdan siljishini ifoda orqali hisoblash:

$$e = /0,04...0,005/D_{dem}$$

qayerda: D_{dem} - деталнинг эриш юзаси диаметри, мм.

4. Элкетрод учишини аниқлаш:

$$L = /10...12/\cdot D_s, \text{мм.}$$

5. Деталнинг айланиш частотаси қуидагича аниқланади:

$$n_D = \frac{60 \cdot V_H}{\pi(D_{dem} + 2t)}$$

qayerda: V_H - эритиш тезлиги мм/с.

$$t - \text{эритиш қатламининг қалинлиги, мм.}$$

6. Эритиш тезлигини аниқлаш:

$$V_H = \frac{0,785 \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot V_{prob}}{t \cdot S}, \text{ м/мин.}$$

qayerda: V_{prob} - simning uzatish tezligi, m/min.

$$S - \text{eritish qadami, } S = /1,5 - 2,0/\cdot D_s \text{ mm/ayl.}$$

K - metalning quyish va sachrashini hisobga olish koefitsenti, $K_1 = 0,92$,

K_2 - eritiladigan qatlamning to'lalik koefitsenti, $K_2 = 0,79 - 0,95$

$$V_{np} = \frac{Q}{0,785 \cdot D_s^2}$$

$$Q = \frac{G}{\gamma}$$

qayerda: Q - eritilgan metal hajmi,

G – eritilgan metall massasi,

$$G = \frac{I \cdot a_H}{60}$$

$$I - \text{tok kuchi, } I = 0,785 \cdot D_s^2 \cdot D_a \text{ a/mm.}$$

$$D_a - \text{tok zichligi, } D_a = 80 - 90 \text{ a/mm}^2.$$

$$\langle a_H \rangle - \text{eritish koefitsenti, } a_H = 6,5 - 8,2 \text{ г/А Ч.}$$


Erishning hisoblangan rejimlarini jadvaldagagi ma'lumotlar bilan taqqoslash shart.

14-jadval.

Erish rejimlari

| Detel diametri, mm | Elektrod simi, mm | Sentirdan siljish, mm | Erish qadami, mm | Tokkuchi, A | Simni uzatish tezligi, m/soat. |
|--------------------|-------------------|-----------------------|------------------|-------------|--------------------------------|
| 50-60 | 1,6 | 2-4 | 2,5-3 | 140-150 | 75-80 |
| 61-75 | 1,6 | 3-4 | 3,5 | 170-180 | 110-115 |
| 76-100 | 1,6 | 4-5 | 4,5 | 180-220 | 125-135 |
| 101-200 | 2-3 | 8-10 | 5-6 | 220-250 | 160-170 |
| 201-300 | 2-3 | 10-15 | 6-7 | 250-280 | 180-290 |

1. Flyus uzatilishi uchun soplo.
2. Elektrod simi.
3. Granullangan flyus.
4. Eritilgan flyusda gi pufak.
5. Shlakli qobiq.
6. Eriqan metall.
7. Detal .



10-Rasm. Flyus oqimi ostida eritish.

7. Flyus oqimi ostida eritish qurilmasi eskizini chizish.
8. Himoya gazlari muhitida eritish suvlari haqida gapiring.
9. Himoya gazlari muhitida eritish qurilmasi eskizini chizish.
10. Himoya gazlari muhitida yonish yoyini eskizini chizish.

Tajriba ishining bajarilishi uchun kerakli jihoz, asbob, detal va materiallar ro'yxati:

1. – Komplektdagi eritish qurilmasi (tokarlik dastgohi, eritish, payvandlash toki manbasi, boshqarish pulti).
2. – Elektrod simi.
3. – Slesarlik bolg'asi, 0,5 kg.
4. – Shtangentsirkul ІІІЦ-11250-0,05 /ГООСТ 166-80/.
5. – Fartuk, engcha himoya ekrani.

Talabalarning tajriba ishiga tayyorgarligini tekshirish uchun savollar:

1. Flyus oqimi ostida eritish texnologik jaryoniga t'rif berish.
2. Flyusning eritishdagi roli.
3. Flyus oqimi ostida eritish usulining boshqa usullardan farqli afzallik va kamchiliklari.

4. Himoya gazlari muhitida payvanlash jarayoni mohiyati nimada?
5. Flyus oqimi ostida eritish davomidagi payvandash toki nimga bog'liq.

Hisobot topshirishda talaba bilimini tekshirish uchun savollar:

1. Eritilishi kerak bo'lgan metalning qalinligi nimaga bog'liq?
2. Elektrod yoyini tanlashda nimaga asoslanmoq lozim?
3. Elektrodnning Zenitdan siljish sharti nima bilan tushuntiriladi?
4. Eritilgan flyusning asosiy tarkibi haqida gapiring.
5. Flyus oqimi ostida qanday eng kichik diametr eritib olish mumkin?

Adabiyot.

1. Koshkin. K.T. Avtota'mir ishlab chiqarish texnologiyasi. M.: Transport., 1969.
2. Ulman I.E. Texnik xizmat ko'rsatish va mashinalar ta'miri. M.: Agropomizdat., 1990.

2-Amaliy mashg'ulot

ELEKTROD VA UNING QOPLAMASI, QOPLAMAGA QO'YILGAN TALABLARNI O'RGANISH

Ishdan maqsad. Dastaki elektr yoyli payvandlashda qo'llaniladigan elektrodlar va ularning qoplamlalarining turlari, bu qoplamlarga qo'yiladigan talablarni o'rganish.

Ishni bajarish bo'yicha yo'riqlar. *Elektrodlar* payvandlashda suyuqlanmaydigan materiallar – grafit, ko'mir hamda volframdan va suyuqlanuvchi materiallar – kam uglerodli po'lat, cho'yan, rangli metallar va ularning qotishmalaridan sim sterjenlar ko'rinishida tayyorlanadi. Suyuqlanadigan elektrodlarning kimyoviy tarkibi payvandlanadigan metall tarkibiga yaqin bo'lib, unda zararli qo'shimchalarining miqdori imkon boricha kam bo'lishi va suyuqlanish harorati asosiy metalning suyuqlanish haroratiga yaqin bo'lishi lozim.

Dastaki usulda payvandlashda ishlatiladigan po'lat elektrodlar maxsus payvandlash simlaridan tayyorlanib, ularning diametri 1–12 mm oralig'ida, uzunligi 350–450 mm bo'ladi. Simlarning diametri 1–4 mm bo'lsa, elektrod uzunligi 350 mm, 4 mm dan ko'p bo'lsa, 450 mm qilib tayyorlanadi.

Yarim avtomat va avtomat payvandlashda qo'llaniladigan elektrod simlar o'ram ko'rinishida bo'ladi. Payvandlash elektrodlarining qanday metalдан tayyorlanganligi payvandlanadigan metalning turiga va kimyoviy tarkibiga bog'liq holda bo'lishi lozim. Hozirgi kunda elektrod uchun ishlatiladigan po'lat simlar uch toifaga bo'linadi:

1. Tarkibida 0,12% gacha uglerod bo'lgan, kam uglerodli va o'rtacha uglerodli, shunindek, ba'zi kam legirlangan po'latlarni payvandlashga mo'ljallangan uglerodli: Св-08, Св-08А, Св-12ГА, Св-10А, Св-10Г va shu kabi simlar.

2. Tegishli markalardagi kam legirlangan po'latlarni payvandlashda ishlatiladigan: Св-08ГС, Св-08Г2С, Св-12ГС, Св-18ХМА, Св-10Х5М, Св-20ХГС va shu kabi simlar.

3. Maxsus po'latlarni payvandlash uchun mo'ljallangan ko'p legirlangan: Св-06Х14, Св-07Х19Н9, Св-07Х25Н20 va shu kabi simlar.

Bunday belgilashda Св – payvandlash (сварочный) simi, birinchi raqam simning tarkibidagi uglerod miqdorining yuzdan bir ulushini, keyingi harflar va ulardan so'ng turgan sonlar simning tarkibidagi legirlovchi elementlarning foiz miqdorini bildiradi. Bunday simlar faqat elektrod o'zaklar uchungina qo'llanilmasdan, balki flus ostida avtomat, yarim avtomat himoya gaz muhitida va gaz alangasi bilan payvandlashda ham chokbop payvandlovchi sim sifatida foydalilanadi.

Xuddi shunday elektrod o'zaklar sifatida: cho'yanlarni payvandlashda M1, M2, M3 rusumdagি mis simlar; alumin qotishmalarini payvandlashda AK, AD, AM rusumidagi alumin simlar qo'llaniladi.

Elektrod qoplamlari. Metall suyuqlanganda havo kislorodi bilan birikishi uning oksidlanishiga va legirlovchi elementlarning (uglerod, marganets, kremniy va b.) kuyib ketishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, suyuqlangan metallga havodan azot singib, uning plastikligi pasayishi va

mustahkamlit chegarasi ortish manbayiga aylanadi. Mazkur salbiy hodisalardan himoyalash maqsadida, payvandlash va suyuqlantirib qoplashda elektrod qoplamasini yoki fluslardan foydalaniladi. Qoplamasiz metall elektrodlar bilan payvandlashda yoyning barqaror yonmasligi va yoy vannasining tashqi muhitdan muhofaza etilmassligi sababli chok sifatli bo'lmaydi. Shu sababli chokning sifatini oshirish maqsadida elektrod simlar sirtidan maxsus, tarkibli qoplama bilan qoplanadi. Elektrod qoplama lari yoyning barqarorligini ta'minlab, suyuqlangan yoy vannaga atrof-muhitdan kislorod va azotning o'tishidan himoya etadi va uni zarur elementlar bilan legirlaydi.

Qoplama lari yupqa yoki qalin bo'lishi mumkin. Yupqa qoplama larning qalinligi 0,1–0,3 mm bo'lib, asosiy vazifasi yoyning barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Ular atomlari yengil ionlash-adigan moddalardan—granit, dala shpati, xromit, potash, kaliy selitrasni, marmar va bo'rdan tashkil topadi.

Mas'uliyatli choklarni payvandlashda qalin qoplama lari elektrodlarni qo'llash tafsiya etiladi. Bunday qoplama larning qalinligi 0,7 mm dan 2,5 mm gacha bo'lishi mumkin.

Qalin qoplama lari yoyning barqarorligini ta'minlaydi, yoy va uning vannasini tashqi muhitdan muhofaza etib, suyuq metallni oksidlanmasdan sekinroq sovushini ta'minlab uning yuzasida muhofazalovchi shlak qatlamini hosil etadi va vujudga kelgan chok tarkibidagi qotishmaning sifatini yanada yaxshilash uchun xizmat qiladi:

Qoplama turiga qarab elektrodlar quyidagi xillarga bo'linadi:

A – tarkibida temir, marganets, kremniy va ba'zan, titan oksidlari bo'lgan kislotali qoplama lari. Chok qotishmasining oksidlanishi, zichligi yuqoriligi bilan farq qiladi va o'zgarmas hamda o'zgaruvchan toklarda (to'g'ri va teskar qutbli) payvandlashga imkon beradi;

B – asos sifatida tarkibida kalsiy fтор (dala shpati) va kalsiy karbonat (mramor, bo'r) bo'lgan asosli qoplama. Asosli qoplama lari elektrodlar bilan payvandlash teskari qutbli o'zgarmas tok bilan bajariladi. Chok qotishmasi kristallanish va sovuq darzlar hosil bo'lishiga kamroq moyil bo'lganligi sababli bunday qoplama lari elektrodlar bilan qalin po'latlarni payvandlashda foydalaniladi;

C – selluloza qoplama lari elektrodlar, bularning asosiy komponentlari yoyni tashqi gazdan muhofaza qiladi va yupqa shlak hosil qiladi. Selluloza qoplama lari elektrodlardan, odatda, yupqa po'latlarni payvandlashda foydalaniladi;

R – rutil qoplama lari elektrodlar, ularning asosiy komponenti – rutil (TiO_2). Shlak va gaz yordamida muhofaza qilish uchun bu turdagani qoplamaga tegishli mineral va organik komponentlar, jarayonning unumdarligini oshirish uchun esa ba'zan temir kukini qo'shiladi. O'zgarmas va o'zgaruvchan tokda payvandlanayotganda metallning sachrashi juda kam miqdorda ro'y beradi. Yoyning barqarorligi yuqori, chokning shakllanishi hamma fazoviy sharoitlarda yaxshi;

P – qolgan barcha turdagani qoplama lari. Aralash turdagani qoplama larda tegishlich qo'shaloq shartli belgilardan foydalaniladi.

Payvandlash yoki eritib qoplash sharoitida fazoviy vaziyatlarga qarab qo'llaniladigan elektrodlar turkumiga: 1) hamma vaziyatlar uchun; 2) yuqorida pastga qaratib vertikal payvandlashdan tashqari hamma vaziyatlar uchun; 3) pastki, gorizontal vaziyat va vertikal tekislikda pastdan yuqoriga qaratib vertikal vaziyatda payvandlash uchun; 4) pastki va pastki «qayiqcha» vaziyat uchun mo'ljallangan elektrodlar kiradi.

Konstruksion po'latlarni payvandlash uchun mo'ljallangan elektrodlarning shartli belgisida: elektrod markasining belgisi, uning turi, o'zakning diametri, qoplama turi va davlat standartining tartib raqami ko'rsatiladi. Masalan

Ý46À – ÓÍÈ – 13/45 – 3,0 – ÓÄ2
À432(5) – Á10

ГОСТ 9466–75

bu yerda: Ý46À – davlat standarti bo'yicha elektrodning turi (Ý – yoy bilan payvandlashga mo'ljallangan elektrod; 46 – kgf/mm^2 hisobida chok metallining kafolatlangan minimal mustahkamlit chegarasi – 460 MPa; À – chok qotishmasining yuqori plastik xossalari kafolatlangan); УОИИ–13/45 – elektrod markasi; 3,0 – diametri; У – uglerodli va kam legirlangan po'latlarni payvandlash uchun; У – qalin qoplama; 2 – qoplamaning sifati, 2 guruh; Е – elektrod; 432 (5) – davlat standarti bo'yicha belgilangan ko'rsatkich bo'lib, eritib yopishtirilgan va chok metallining xususiyatlarini ko'rsatadi; 43 – cho'zilishga vaqtinchalik qarshilik ko'rsatish, 430 MPa;

2 – nisbiy uzayish, kamida 22%; 5 – zarbiy qovushqoqlik, kamida 34% J/sm² (-40°C da); Б – asos qoplamlari; 1 – hamma fazoviy vaziyatlarda payvandlash uchun; 0 – teskari qutbli o‘zgarmas tokda.

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuning nazariy qismi bilan to‘liq tanishib chiqish.
2. Payvandlashda qo‘llaniladigan elektrodlarning turlarini o‘rganish va tahlil qilish.
3. O‘qituvchi tomonidan berilgan elektrod va uning markasi bo‘yicha elektrod haqidagi ma’lumotlarni aniqlash.
4. O‘rganilgan va tahlil qilingan ma’lumotlarni 1- jadvalga kiritish.

1-jadval

Elektrod va uning qoplamasi, qoplama qo‘yilgan talablarni o‘rganish

| T/r. | Elektrodning markasi | Elektrodning turi | Elektrodning xossalari | Ishlatilish sohalari |
|------|----------------------|-------------------|------------------------|----------------------|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

Hisobot shakli va mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi.
2. Payvandlashda qo‘llaniladigan elektrodlarni tushuntirish.
3. 1-jadvalni ma’lumotlar bilan to‘ldirish.

Nazorat savollari:

1. Payvandlash elektrodlari deyilganda nima tushuniladi?
2. CB-08 markasidagi payvandlash simlari qanday materiallarni payvandlashga mo‘ljallangan?
3. Cho‘ylarni payvandlash uchun qanday simlar qo‘llaniladi?
4. CB-18XMA markasidagi payvandlash simlari qanday materiallarni payvandlashga mo‘ljallangan?
5. Yupqa qoplamlari elektrodlar qanday holatlarda qo‘llaniladi?
6. Qalin qoplamlari elektrodlar qanday holatlarda qo‘llaniladi?
7. Qoplamaarning turlariga qarab elektrodlarni qanday turlarga bo‘lish mumkin?
8. Elektrod markasida uning qanday xossalari keltiriladi?
9. Elektrod turida uning qanday xususiyatlari keltiriladi.

3-Amaliy mashg’ulot

PAYVANDLASH VA SUYUQLANTIRIB QOPLASH UCHUN MO‘LJALLANGAN ELEKTRODLARNI TANLASHNI O‘RGANISH

Ishdan maqsad. Payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun mo‘ljallangan elektrodlarni tanlashni o‘rganish.

Ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqlar.

Payvandlashda elektrod turi va markasi payvandlanayotgan materialning kimyoviy tarkibiga yoki hosil etiladigan chokka qo‘yiladigan talablarni (qattiqlik, yeyilishga bardoshlilik va shu kabi) hisobga olgan holda tanlanadi. Po‘lat mahsulotlarni payvandlashda elektrod simining kimyoviy tarkibi (markasi) payvandlanayotgan buyumning tarkibiga imkon boricha yaqin bo‘lishi kerak.

Po'latlarni yoy yordamida va suyuqlantirib qoplash uchun metall elektrodlar «Po'latlarni yoy yordamida dastaki usulda payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun qoplamlali metall elektrodlar klassifikatsiyasi, o'lchamlari va umumiy texnik talablar» nomli davlat standartiga muvofiq tayyorlanadi. Yoy yordamida dastaki usulda payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun qoplamlali metall elektrodlar vazifasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

- cho'zilishda mustahkamlik chegarasi 600 MPa gacha bo'lgan uglerodli va kam legirlangan konstruksion po'latlarni payvandlash uchun. Davlat standarti bo'yicha to'qqizta turi (Э38, Э42, Э42А, Э46, Э46А, Э50, Э50А, Э55, Э60) mavjud bo'lib, umumiy (У) indeksi bilan belgilanadi;
- cho'zilishda mustahkamlik chegarasi 600 MPa dan ortiq bo'lgan, legirlangan konstruksion po'latlarni payvandlash uchun – 5 turda (Э70, Э85, Э100, Э125, Э150), indeksi (Л);
- issiqliq chidamlili legirlangan po'latlarni payvandlash uchun, to'qqiz turi qo'llaniladi, indeksi (Т);
- ko'p legirlangan maxsus xossali po'latlarni payvandlash uchun 49 turi mavjud, indeksi (В);
- maxsus xossali sirt qatlamlarga suyuqlantirib qoplash uchun 44 turi mavjud, indeksi (Н).

Konstruksion po'latlar payvandlanadigan elektrodlar turining belgisidagi raqamlar hosil bo'ladigan chok qotishmasining kafolatlangan mustahkamlik chegarasini bildiradi.

Kislotali qatlamlar (А) (AHO-2, CM-5 va boshqa elektrodlar) asosan temir oksidlari, marganets (odatda ruda holida), qumtuproq va ferromarganetsdan iborat bo'ladi. Kislotali qoplamlami elektrodlar texnologik jihatdan yaxshi, ammo oksidlari borligi tufayli ular zaharlidir.

Rutil qoplamlar (Р) (AHO-3, AHO-4, O3C-3, O3C-4, O3C-6, MP-3, MP-4 va boshqa elektrodlar) tarkibida ko'proq miqdorda rutil TiO₂ bo'ladi. Rutil qoplamlar texnologik jihatdan yaxshi, boshqa qoplamlar bilan payvandlashda payvandlovchining nafas olish organlari uchun zarari nisbatan kamroq.

Selluloza qoplamlar (Л) (BCC-1, BCC-2, OTCC-1 va boshqa elektrodlar) selluloza, organik smolalar, ferroqotishmalar, talk va boshqalardan iborat bo'ladi. Bu qoplamlar har qanday fazoviy vaziyatlarda payvandlash uchun qulay, ammo suyuqlantirilgan holatda metallning plastikligi past bo'ladi.

Asosiy qoplamlar (Б)da (УОНИ-13/45, УП 1/45, ОЗС-2, ДСК-50 va boshqa elektrodlar) temir va marganets oksidlari bo'lmaydi. Masalan, УОНИ-13/45 markadagi qoplama; marmar, dala shpati, kvars qumi, ferrokremniy, ferromarganets, ferrotitan va suyuq shishadan iborat bo'ladi. Bunday asos qoplamlar bilan bajarilgan choklarning plastikligi yuqori bo'ladi. Bu turdagidan elektrodlar mas'uliyati yuqori bo'lgan konstruksiyalarni payvandlashda qo'llaniladi.

Elektrod diametri *D* ning po'lat o'zak diametri *d*ga nisbatiga qarab, qoplamasining qalinligi bo'yicha elektrodlar turkumlanadi.

Sifati bo'yicha; ya'ni tayyorlanish aniqligi, qoplama sirtining holati, ayni elektrodlar bilan hosil etilgan chokning yaxlitligi, suyuqlantirib qoplangan metalldagi oltingugurt va fosfor miqdoriga ko'ra elektrodlar 3 guruhga bo'linadi. Guruhning tartib raqami ortib borishi, uning sifati yaxshilanishidan dalolat beradi.

Suyuqlanmaydigan elektrodlar. Bu elektrodlar yoyni yondirish va uning yonishini saqlab turish uchun xizmat qiladi. Asosan volframli elektrodlardan, ba'zan ko'mir yoki grafit elektrodlardan foydalananadi.

Yoyning yonish barqarorligini va elektrodnning chidamliliginini oshirish uchun volfram elektrodi tarkibiga, odatda aktivlashtiruvchi nodir yer elementlari (toriy, lantan, ittriy)ning 1,5–3 foiz miqdorida oksidlari kiritiladi, ular elektrodnning emissiyalanish qobiliyatini oshiradi.

Payvandlash sanoatida 0,2–1,2 mm diametrda volfram elektrod: toza volfram (ЭВЧ), toriy qo'shilgan volfram (ЭВТ5, ЭВТ10, ЭВТ15), lantal qo'shilgan volfram (ЭВЛ10, ЭВЛ20), ittriy qo'shilgan volfram (ЭВИЗА) simlar ham qo'llaniladi.

Ko'mir va grafit elektrodlar (o'zaklar) elektrotexnik ko'mir yoki sintetik grafitdan 4–18 mm diametrda va 250–700 mm uzunlikda tayyorlanadi. Ko'mir elektrodlarga qaraganda grafit elektrodlarning elektr o'tkazuvchanligi yaxshi va yuqori haroratda oksidlanishga qarshi chidamliroq bo'ladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuning nazariy qismi bilan to'liq tanishib chiqish.
2. Payvandlashda va suyuqlantirib qoplama qoplashda qo'llaniladigan elektrodlar bilan tanishish.

3. Elektrodlarning o‘zagi va qoplamasining vazifalarini tahlil qilish.
4. Erimaydigan elektrod turlari va ishlatilish sohalari bilan tanishish.
5. O‘rganigan va tahlil etilgan ma’lumotlarni 2-jadvalga kiritish.

2-jadval

Payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun elektrodlarni tanlashni o‘rganish

| T/r. | Elektrod-ning turi va markasi | Elektrodning ishlatilish sohalari | Elektrod o‘zagi va qoplamasining tarkibi | Payvandlashda ro‘y beradigan jarayonlar | Qo‘llashdagi afzalliklari va kamchiliklar |
|------|-------------------------------|-----------------------------------|--|---|---|
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |

Hisobot shakli va mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi.
2. Payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun qo‘llaniladigan elektrodlarni tushuntirish.
3. 2-jadvalni ma'lumotlar bilan to‘ldirish.

Nazorat savollari


1. Payvandlash va suyuqlantirib qoplama qoplashda qo‘llaniladigan elektrodlarning vazifalarini tushtiring.
2. Eriydigan va erimaydigan elektrodlarning farqini tushuntiring.
3. Elektrodlar qanday ko‘rsatkichlar bo‘yicha tanlanadi?
4. (Y) indeksi bilan belgilanadigan elektrodlarni tushuntiring.
5. (J) indeksi bilan belgilanadigan elektrodlarni tushuntiring.
6. (T), (B), (H) indekslari bilan belgilanadigan elektrodlarni tushun-tiring.
7. Kislota qoplamali elektrodlarni tushuntiring.
8. Rutil qoplamali elektrodlarni tushuntiring.
9. Selluloza qoplamali elektrodlarni tushuntiring.
10. Asosiy qoplamlar bilan qoplangan elektrodlarni tushuntiring.
11. Erimaydigan elektrodlarning turlari va vazifalarini tushuntiring.

4-Amaliy mashg’ulot

KARBONAT ANGIDRID GAZI MUHITIDA SUYUQLANTIRIB QOPLASH JARAYONINI O‘RGANISH

Ishdan maqsad. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash jarayonini o‘rganish.

Ishni bajarish boyicha yo‘riqlar. Payvandlash va qoplama qoplashning ushbu usulida boshqa usullarga nisbatan yoy turg‘unligini muhofazalovchi vosita sifatida gaz – karbonat angidrid qo‘llanilishi bilan farqlanadi.




1-rasm. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash kallagining sxemasi:

1—mundshtuk; 2—elektrod sim; 3—gorelka; 4—uchlik; 5—gorelka soplosi;
6—elektr yoy; 7—payvandlash vannasi; 8—suyuqlantirib qoplangan qoplama;
9—qoplama qoplanayotgan detal

Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplashning mohiyati shundan iboratki (1-rasm), elektrod simi g'altakdan payvandlanayotgan yuzaga uzatilib turadi. Elektrod simiga tok gaz—elektr gorelka ichidagi mundshtuk uchligi orqali uzatiladi. Suyuqlantirib qoplash vaqtida elektrod qotishmasi bilan detalning qotishmasi birgalikda erib, umumiy yoy vannasini hosil etadi. Yoy yonadigan mintaqagacha naycha bo'y lab 0,05–0,2 MPa bosim ostida karbonat angidrid gazi uzatiladi, u havoni siqib chiqarib, suyuqlangan metallni havo kislороди va azotining zararli ta'siridan himoyalaydi.

Silindrik yuzalarga suyuqlantirib qoplashda tokarlik dastgohidan foydalaniladi. Uning patroniga detal 8 o'rnatiladi, supportga esa suyuqlantirib qoplash apparati 2 joylashtiriladi (2-rasm). Ballon 7 dagi karbonat angidrid gazi yonish mintaqasiga uzatiladi. Gaz ballon 7 dan chiqayotganda, keskin kengayadi va o'ta soviydi. Uni isitish uchun elektr isitkich 6 orqali o'tkaziladi. Karbonat angidrid gazidagi suv quritkich 5 yordamida tozalanadi. Quritkich suvsizlantirilgan mis kuporosi yoki silikagel bilan to'ldirilgan patrondan tashkil topgan. Gaz bosimi kislороди reduktori 4 yordamida sozlanadi. Gaz sarfi esa sarf o'lchagich 3 vositasida nazorat qilinadi.

Bu usulning afzalliklariga detalning kam qizishi; detalni istalgan fazoviy holatida suyuqlantirib qoplama qoplash mumkinligi; jarayonning qoplama maydoni bo'yicha ish unumi yuqoriligi; 40 mm dan kichik diametrli detallarga metall suyultirib qoplash imkonii borligi; shlak pardadan tozalashga hojat yo'qligi hisoblanadi. Kamchiligiga esa eriyotgan metallning ko'p sachrashi (5–10 % gacha); qoplama xossasini kerakli ko'rsatkichga keltirish uchun legirlangan elektrod simdan foydalanish zarurligi; yoydan tarqalayotgan turli nurlarga hech qanday to'siq yo'qligi kiradi.



2-rasm. Karbonat angidrid gazi muhitida yoy bilan suyuqlantirib qoplash sxemasi:

1—elektrod sim g'altagi; 2—suyuqlantirib qoplash qurilmasi; 3—sarf o'lchagich; 4—reduktor; 5—quritkich; 6—isitkich; 7—karbonat angidrid gazi balloni; 8—detal.

Suyuqlantirib qoplash uchun ushbu uskunalar qo'llaniladi: АБС, А-384, А-409, А-580, ОКС-1252М suyuqlantirib qoplash kallaklari; BC-200, BCУ-300, BC-400, ПСГ-350, АЗД-7,5/30

ta'minlash manbalari; gazni isitkichlar; 2,8–7 mm yiriklikdagi KCM silikageli bilan to‘lg‘izilgan quritkich; ДРЗ–1–5–7 reduktor–sarfi o‘lchagichlari yoki PC–3, PC–3A, PKC–65 rotametrlari, yoxud PK–53Б kislorod reduktori.

Bu usulda quyidagi materiallar: Св–12ГС, Св–08ГС, Св–08Г2С, Св–12Х13, Св–06Х19Н9Т, Св–18ХМА, Нп–30ХГСА markadagi elektrod simlar, ПП–Р18Т, ПП–Р19Т va boshqa markali kukunli simdan foydalaniladi.

Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplashda teskari qutbiylikdagi o‘zgarmas tokdan foydalaniladi. Elektrodnning turi va markasi tiklanadigan detalning materiali hamda suyuqlantirib qoplanadigan metallning talab etiladigan fizik-mexanik xossalariiga qarab tanlanadi. Simni uzatish tezligi tok kuchiga bog‘liq bo‘lib, suyuqlantirib qoplash jarayonida qisqa to‘qnashuvlar va yoyning uzilishi sodir bo‘lmashligi kerak. Payvandlash yo‘laklarining oralig‘i 2,5–3,5 mm qadam bilan bajarilib, har bir yo‘lak o‘zidan avvalgi yo‘lakning 1/3 qismini qamraydigan bo‘lishi lozim.

Suyuqlantirib qoplangan qoplamaning qattiqligi elektrod simining markasi va turiga bog‘liq bo‘lib, HB 200–300 ni tashkil etadi.

Karbonat angidrid gazi sarfi elektrod simining diametriga bog‘liq. Gazning sarfiga suyuqlantirib qoplash tezligi, buyumning shakli va havoning harakatlanishi yoki harakatlanmasligi ham ta’sir etadi.

Karbonat angidrid gazi muhitida payvandlashning mexanizatsiyalashtirilgan usuli uncha qalin bo‘lмаган po‘lat tunukadan tayyorlangan kabina, kuzov va boshqa detallarni ta‘mirlash, shunindek, rezba, o‘q, barmoqlar, vallar bo‘yinlarini va boshqa detallarning nuqsonlarini bartaraf etish uchun qo‘llaniladi.

Ishni bajarish tartibi

Mavzuning nazariy qismi bilan to‘liq tanishib chiqish.

1. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash texnologiyasi bilan tanishish.
2. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash texnologiyasini tahlil qilish.
3. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash jarayoni qo‘llanadigan sohalarni aniqlash.
4. O‘rganilgan va tahlil qilingan ma’lumotlarni 3-jadvalga kiritish.

3-jadval

Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash jarayonini o‘rganish

| T/r. | Usulning sxemasi | Usulning nomi | Ishlatilish sohalari | Qoplama qoplash rejimlari | Usulning afzalliliklari va kamchiliklari |
|------|------------------|---------------|----------------------|---------------------------|--|
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |

Hisobot shakli va mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi.
2. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayonini tushintirish.
3. 3-jadvalni ma’lumotlar bilan to‘ldirish.

Nazorat savollari:

1. Suyuqlantirib qoplama qoplash jarayonini tushutiring.
2. Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayonini tushintiring.

3. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash rejimlari qanday tanlanadi?
4. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayonining afzalliklarini keltiring.
5. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayoninida qanday uskunalar qo'llaniladi?
6. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayoninida qanday ta'minlash manbalari qo'llaniladi?
7. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayonida qanday materiallar qo'llaniladi?
8. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayonida qanday rejimlar qo'llaniladi?
9. Karbonat angidirid gazi muhitida suyuqlantirib qoplama qoplash jarayoni qanday detallarni ta'mirlashda qo'llaniladi?

5-Amaliy mashg'ulot

CHO'YAN VA ALUMIN QOTISHMALARINI PAYVANDLASHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

Ishdan maqsad. Cho'yan va alumin qotishmalarini payvandlashdagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish.

Ishni bajarish bo'yicha yo'riqlar

Mashinalarning ko'pgina korpus detallari cho'yandan yoki alumin qotishmasidan tayyorlanadi, shu sababli bu qotishmalarni payvandlashda ro'y beradigan o'ziga xos xususiyatlar bilan tanishib, payvandlash jarayonida ularga e'tibor berish lozim.

Cho'yan detallarni payvandlashning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'pgina korpus detallari payvandlanishi qiyin bo'lgan kulrang, juda puxta cho'yanlardan tayyorlanadi. Cho'yan detallardagi darz va teshiklar payvandlab berkitiladi, detalning sinib tushgan qismlari payvandlab birlashtiriladi, ularga yeyilishga chidamli qoplamlar suyuqlantirilib qoplanadi.


Cho'yan tarkibidagi uglerodning ko'pligi va uning qovushqoqligining pastligi ushbu materialdan yasalgan detallarni tiklashni ancha mushkullashtiradi. Cho'yan tez sovutilsa, chok yaqinida toblangan qattiq tuzilmalar paydo bo'ladi. Cho'yan suyuqlanganda grafitning sementitga mahalliy o'tishi – oq cho'yan tuzilmasi vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday mintaqalarda metall qattiq va mo'rt bo'ladi. Kulrang va oq cho'yanning chiziqli kengayish koeffitsientlarida farq ichki zo'riqishlar yuzaga kelishiga sabab bo'lib, darzlar yuzaga kelishiga olib keladi. Payvandlash jarayonida payvandlanayotgan yuza tarkibidagi uglerod va kremniylarning yonib tugashi natijasida payvand chok g'ovakdor va shlak bilan aralashgan holatda bo'ladi. Bu aralashmalar cho'yan suyuq holatdan qattiq holatga tez o'tishi oqibatida gazi va shlaklarning chala ajralib chiqishi tufayli yuzaga keladi.

Yuqorida keltirilganlarni e'tiborga olgan holda, cho'yan detallarni payvandlash qiyin kechishiga asosan quyidagilar sabab bo'ladi: cho'yanda suyuq oquvchanlik xususiyati juda pastligi; mo'rtligi va cho'zilishga mustahkamlik chegarasi uncha katta emasligi, payvandlash jarayonida darzlar yuzaga kelishiga olib keladi; suyuqlanguncha qizdirilganda plastik holatga o'tmaydi. Payvandlash jarayonida cho'yanning suyuq oquvchanligi pastligi, detallarni hatto gorizantal holatdan bir oz og'ish bilan ham tiklashni qiyinlashtiradi. Temir karbidi va yuqori uglerodli po'latlarda oqargan qismlar paydo bo'lib, ularga mexanik ishlov berish qiyin kechadi.

Cho‘yan detallarni tiklashda qizdirib va sovuq holda payvandlash usullaridan foydalilaniladi.

Cho‘yanni qizdirib payvandlash – payvandlanadigan detallar biron vosita (pech, alanga, qo‘ra va shu kabi) yordamida 650–680°C haroratgacha qizdirilib, so‘ngra payvandlash ishlari bajariladi. Payvandlash jarayoni vaqtida harorat 500°C dan past bo‘lmasligi lozim. Detalning yuqori harorati payvand chokining sovush tezligini sekinlashtiradi (natijada vanna tarkibidagi qotishmaning tarkibi barobarlashadi), payvandlanayotgan detal yuzasining kuyishi va foydalanish davrida ichki zo‘riqish kuchlarining yuzaga kelishidan saqlaydi, payvandlash zo‘riqishlari va turli darzlarning paydo bo‘lish hollarining oldini oladi. Yuqori bikirlikka ega bo‘lgan detallarni (silindr bloki va boshqa korpus detallari) payvandlash davrida, detal umumiy qizdirilishi shart.

Sovush vaqtidagi kirishish payvand chokining uzunligini qisqartiradi, payvandlanayotgan detalning qotishmasi esa uni cho‘zishga harakat qiladi. Bu – ko‘ndalang darzlar yuzaga kelishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan darzlarning kelib chiqmasligining oldini olish uchun, suyuqlantirib qoplangan chokning yetaricha plastik bo‘lishini ta‘minlash; kristallanish vaqtida choklarni cho‘kiclash; chokni ham, payvandlanayotgan detalni ham bir tekis qizdirish va ayniqsa sovutish; teskari qutbiylikdagi («+» – elektrod, «-» – detal) hamda kichik kuchli (elektrod diametri 1 mm uchun 25–300 A) o‘zgarmas tokda payvanlash; 30–40 mm uzunlikdagi chok to‘plamlarini suyuqlantirib qoplash; yumshatuvchi chok to‘plamalari va ko‘p qatlamlı choklar hosil qilish usulini qo‘llash lozim.



3-rasm. Payvand chok ko‘ndalang kesim yuzasi:

1–asosiy metalning neytral mintaqasi; 2–termik ta’sir mintaqasi;
3– suyuqlantirib qoplangan metall; B–chokning eni

Chok tarkibidagi uglerod miqdori chokning geometriyasiga, xususan, h_1/h_2 nisbatiga bog‘liq, bu yerda: h_1 – suyuqlantirish chuqurligi; h_2 – chokning kuchayishi (3-rasm). Bu nisbatning qiymati qancha katta bo‘lsa, chok tarkibiga detaldan suyuqlangan cho‘yan shuncha kam o‘tadi va chokdagi uglerod miqdori shuncha oz bo‘ladi. Payvandlash elektrondining qoplamasi tarkibi va qalinligini payvandlash tezligi va tok kuchini o‘zgartirish orqali uglerod miqdori hamda qattiqligi turlicha bo‘lgan, ya’ni toblangan yuqori uglerodli po‘latdan tortib to bo‘shatilgan kam uglerodli po‘lat qattiqligidagi choklar hosil qilish mumkin.

Chokni sovuq holda payvandlashda detal qizdirilmaydi (kuchlanishni yo‘qotish va payvandlash zo‘riqishlarining yuzaga kelishining oldini olish uchun ko‘pi bilan 400°C gacha qizdirilishi mumkin). Payvandlash vannasining hajmi uncha katta emas va tez qotadi. Bu usul ancha yengil amalga oshirilgani sababli, qizdirib payvandlashga nisbatan kengroq qo‘llaniladi.

Payvandlash choki mintaqasida oqarish hamda toblanish yuz beradi va ayni chog‘da ichki zo‘riqishlar ortib, darzlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Sovuq holda payvandlashda quyidagi elektrodlar qo‘llanishi mumkin:

– maxsus ftor-kalsiy qoplamlari MNЧ-1 elektrodlari (63% Ni +37% Cu). Payvandlash jarayoni 3–4 mm diametrli elektrodlar bilan, teskari qutbiylikdagi 140–150 A o‘zgarmas tokda, qisqa yoy bilan 20–30 mm li qismlarga bo‘lgan holda amalga oshiriladi. Payvandlangan qismlar o‘sha zahoti cho‘kichanadi. Mis-nikel elektrodlar o‘rniga ЖБН turidagi temir-nikel elektrodlar qo‘llanishi mumkin;

– tarkibida titan yoki vanadiy bo‘lgan ftor kalsiy qoplamlari Св-08 yoki Св-08А turidagi payvandlash simidan iborat bo‘lgan СЧ-4 elektrodlari. Qoplamaning 9,5% gacha qismi suyuqlantirib qoplangan metalga o‘tib ketadi. Jarayon teskari qutbiylikda 120–150A o‘zgarmas tokda, 20V kuchlanishda 3–4 mm diametrli elektrodlar bilan olib boriladi. Payvandlash oldidan detalni 150–200°C gacha qizdirish, chok qoplangandan so‘ng esa ularni darhol cho‘kiclash tavsiya etiladi;

– tarkibida mis kukuni bo‘lgan ftor-kalsiy qoplamali mis simidan iborat bo‘lgan ОЗЧ–1 elektrodlari. Payvandlash jarayonini teskari qutbliylikdagi 150–160A o‘zgarmas tokda va 20V kuchlanishda, qisqa yoy bilan, 30–60 mm li qismrlarga bo‘lgan holda olib borish tavsiya etiladi. Payvandlab bo‘lingandan so‘ng har bir qismini cho‘kichlash va chok 50–60°C gachasovugandan so‘ng ham bu ishni davom ettirish lozim.

Alumin va uning qotishmalaridan tayyorlangan detallarni payvandlashning o‘ziga xos xususiyatlari:

– aluminiy (uning suyuqlanish harorati 658°C) sirtida suyuqlanish harorati 2050°C bo‘lgan qiyin suyuqlanuvchi oksid pardasi (Al_2O_3) hosil bo‘lgani tufayli alyuminiyning qotishma hosil qilishi juda yomon. Oksidlar detallarning mexanik mustahkamligini pasaytiradi. Ularni yo‘qotish uchun tarkibida natriy xlorid (28%), kalsiy xlorid (14%) va natriy ftor (8%) bo‘lgan АФ–4А fluslari ishlatiladi;

– 400–500°C gacha qiziganda aluminiy o‘z mustahkamligini ancha yo‘qotadi va detal hatto yengilgina zarb ta’sirida ham buzilib ketishi mumkin;

– cho‘yan singari aluminiy ham plastik holatga ega emas va qiziganda darhol qattiq holatdan suyuq holatga o‘tadi. Suyuqlangan holatdagi aluminiy qotishmalarini vodorodni jadal eritadi, vodorod tez sovuganda suyuqlangan metalldan chiqib ketishga ulgurmay, unda g‘ovak va bo‘sliqlar hosil bo‘ladi. Vodorodning paydo bo‘lishiga asosiy sabab namlikdir. Namlikni yo‘qotish uchun detallarni qizdirish tavsiya etiladi;

– aluminiyning chiziqli kengayish koeffitsienti po‘latnikidan ikki barobar, issiqlik o‘tkazuvchanligi esa uch barobar katta, bu esa ichki zo‘riqish katta zo‘riqish kuchlarining yuzaga kelishiga va payvandlanayotgan detallarning deformatsiyalanishiga olib keladi. Ichki zo‘riqishlarni kamaytirish uchun, detallarni payvandlashdan avval 250–300°Cgacha qizdirish va payvandlab bo‘lgandan keyin asta–sekin sovutish maqsadga muvofiq.

Aluminiy va uning qotishmalaridan qilingan detallarni payvandlashda quyidagi usullar tavsiya etiladi:

– suyuqlanmaydigan volfram elektrodlar bilan argon muhitida payvandlash. Bunda payvandlash materiali sifatida aluminiy qotishmalaridan foydalilanildi. Detallarning qalinligiga qarab 1–5 mm diametrli elektrodlar, 45–280A tok kuchi, 22–24V kuchlanishdan foydalilanildi. Argon sarfi 4–12 l/min atrofida. Payvandlash flusidan foydalanmasdan payvandlash o‘zgarmas tokda amalga oshiriladi;

– О3А–2 (alumin qotishmasi) va О3А–1 (texnik aluminiy) elektrodlari bilan teskari qutbiylikdagi o‘zgarmas tokda, qisqa yoy yordamida payvandlash. Tok kuchi elektrod diametrining 1 mm ga 35–45A to‘g‘ri keladigan hisob bilan tanlanadi. Elektrod sterjeni aluminiy simdan tayyorlanadi. Elektrod АФ–4А bilan qoplangan;

– АФ–4А flusidan foydalaniib neytral atsetelen–kislrorod alangasi bilan payvandlash (gaz alangasida payvandlash). Payvandlash materialining tarkibi aynan payvandlanayotgan qotishmaniki singari bo‘lishi lozim. Chokdagi suyuqlangan qotishma yuzasidagi oksid parda po‘lat ilgak yordamida yiritiladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuning nazariy qismi bilan to‘liq tanishib chiqish.
2. Cho‘yanni payvandlash texnologiyalari bilan tanishish.
3. Aluminiyni payvandlash texnologiyalari bilan tanishish.
4. Cho‘yanni va aluminiyni payvandlash usullarini tahlil qilish.
5. O‘rganilgan va tahlil qilngan ma’lumotlarni 4-jadvalga kiritish.

Hisobot shakli va mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi.
2. Cho‘yanni payvandlash usullarini tushuntirish.
3. Aluminiyni payvandlash usullarini tushuntirish.
4. 4-jadvalni ma’lumotlar bilan to‘ldirish.

4-jadval

Cho‘yan va alumin qotishmalarini payvandlashdagi o‘ziga

xos xususiyatlarini o‘rganish

| T/r. | Cho‘yanni payvandlash usullari | Payvandlash usulining mazmuni | Usulning rejimlari | Usulni ishlatalish sohasi |
|------|---------------------------------|-------------------------------|--------------------|---------------------------|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | Aluminiyni payvandlash usullari | Payvandlash usulining mazmuni | Usulning rejimlari | Usulni ishlatalish sohasi |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

Nazorat savollari:

1. Cho‘yanni payvandlashning murakkablik ko‘rsatkichlarini kelti-ring.
2. Aluminiyni payvandlashning murakkablik ko‘rsatkichlarini kelti-ring.
3. Cho‘yanni payvandlash xususiyatlarini tushuntiring.
4. Aluminiyni payvandlash xususiyatlarini tushuntiring.
5. Qanday usullarda cho‘yanni payvandlasa bo‘ladi?
6. Cho‘yanni qizdirib payvandlash usullarini tushuntiring.
7. Cho‘yanni sovuq holda payvandlash usullarini tushuntiring.
8. Aluminiyni payvandlash usullarini tushuntiring.
9. Aluminiyni qizdirib payvandlash usulini tushuntiring.

6-Amaliy mashg’ulot

DETALLARNI SINTETIK MATERIALLARDAN FOYDALANIB TA’MIRLASH TEXNOLOGIYASINI O’RGANISH

Ishdan maqsad. Detallarni sintetik materiallardan foydalanib ta‘mirlash texnologiyasini o‘rganish.

Ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqlar. Mashina detallarini ta‘mirlashda polimer materiallardan foydalanish, boshqa usullarga nisbatan, tiklashga mehnat sarfini 20–30%, ta‘mirlash tannarxini 15–20%, materiallar sarfini 40–50% kamaytirish imkonini beradi. Bunga ulardan foydalanishning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari sabab bo‘ladi. Murakkab uskunalar va yuqori malakali ishchilar talab etilmaydi; detallarni tiklash uchun agregatlarni qismalarga ajratish shart emas; detal qizdirilmaydi; tiklangan detallarning toliqishdagi mustahkamligi pasaymaydi; ko‘p hollarda nafaqat payvandlash yoki kavsharlashni almashadirish, balki xavfsizlik texnikasi nuqtayi nazaridan, boshqa ma’lum usullar bilan tiklash mumkin bo‘lmagan yoki xatarli bo‘lgan detallarni tiklashga, material qoplash va unga ishlov berishdek murakkab texnologik jarayonlardan foydalanmaslikka imkon beradi.

Polimerlar – tabiiy yoki sun’iy yuqori molekular organik birikmalar. Plastmassalar polimerlar asosida tayyorlangan kompozitsion materiallar bo‘lib, berilgan harorat va bosimda muayyan shaklini oladi va foydalanish sharoitida aynan shu shaklini saqlab turadi. Plastmassa tarkibiga, bog‘lovchi moddalar hisoblangan polimerlardan tashqari, to‘ldirgichlar, plasifikatorlar, qotirgichlar, tezlashtirgichlar, rang beruvchilar va boshqa qo‘srimchalar ham kiradi. To‘ldirgichlar (metallarning kukini, sement, grafit, tabiiy yoki sun’iy matolar va boshq.) miqdori 70% ga yetishi mumkin.

Polimerlar ikki guruhgaga bo‘linadi:

- termoplastik polimerlar (termoplastlar) – polietelen, poliamidlar va boshqa materiallar qizdirilganda yumshaydi hamda ularni ko‘p marotaba qayta ishlash mumkin;


– termoreaktiv polimerlar (termoreaktivlar) – epoksid kompozitsiyalar, tekstolit va boshqa materiallar qizdirilganda avval yumshaydi, keyin esa kimyoviy reaksiyalar natijasida suyuqlanmaydigan va erimaydigan qaytmas holatga o‘tadi.

Plastmassalar detallarning o‘lchamlarini tiklash, darz va teshiklarni berkitish, qo‘zg‘almas brikmalarni zichlash va barqarorlashtirish, ayrim detallarni tayyorlash va boshqa maqsadlarda qo‘llaniladi.

Plastmassalar surtish, gaz alangasida purkash, uyurma, tebranma usullar, bosim ostida quyish, presslash va boshqa usullar bilan qoplanadi.

Sintetik materiallardan foydalanish texnologiyalari me’yordagi sharoitda ishlaydigan cho‘yan korpus detallarning darzlarini berkitish uchun kompozitsianing quyidagi xossalarda olingan miqdoriy tarkibi (% hisobida) tavsiya etiladi: ЭД–16 epoksid smolasi – 100; dibutilftalat – 15; temir kukuni – 160; polietilen–poliamin – 8.

Tebranish sharoitida ishlovchi detallarni tiklash uchun yuqoridagi tarkibga 30% gacha mayin qilib maydalangan slyuda va rezina ham qo‘shiladi.



4-rasm: Darzlarni (a–d,g) va teshiklarni (e) berkitishda polimer materiallarning qo‘llanishi:
1–yuzani tiklashga tayyorlanadigan mintqa; 2–kompozitsiya; 3–shisha mato; 4–rolik; 5–po‘lat ustqo‘yma; 6–payvand chok; 7–shakldor yamoq; 8–darz

Yuzaning nuqsonli joyini tiklashga yaxshi tayyorlangan taqdirdagina polimer materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi. Yuzalarda bo‘yoq yoki zang alomatlari bo‘lmasisligi lozim. Darzlarning uch qismlarida 2,5–3,0 mm diametrli teshiklar parmalanadi (4-rasm, a). Darzning qirralari 60–70° burchak ostida 1–3 mm chuqurlikda yo‘niladi. Darzning atrofii 40–50 mm kenglikda qum qog‘oz bilan tozalanib, atseton vositasida ikki marotba yog‘ sizlantiriladi va 8–10 daqiqa quritiladi. Cho‘yan va po‘latdan tayyorlangan detallarning yuzasiga shpatel bilan B epoksid brikma (5-jadval), aluminiy detallariga esa B epoksid birikma surtiladi.

5-jadval

Epoksid kompozitlar tarkibi (massa bo‘yicha ulushlarda)

| Tarkibiy qismi | A | B | V | G | D | E |
|--------------------|-----------|-----|-----|-----|-----|-----|
| ED–16 smolasi | 100 | 100 | 100 | 100 | – | 100 |
| Kompaund–115 | – | – | – | – | 120 | – |
| Dibutilftalat | 10– 15 | 15 | 15 | – | – | 45 |
| Polietilenpoliamin | 8–9 | 10 | 10 | – | – | 9 |
| L–19 oligoamidi | – | – | – | 30 | – | – |
| AF–2 qotirgichi | – | – | – | – | 30 | – |
| Temir kukuni | – | – | 160 | 120 | – | – |
| Sement | – | – | – | 60 | – | – |
| Aluminiy upasi | – | 25 | – | – | – | – |
| Grafit | – | – | – | – | 70 | – |

Agar darzlar 20 mm dan kichik bo‘lsa (4-rasm, b) u holda kompozitsiya xona haroratida 12 soat quritiladi, so‘ngra termajavonda quyidagi rejimlardan birida quritiladi: 40°C haroratda – 48 soat; 60°C da – 24 soat; 80°C da 5 soat; 100°C da – 3 soat.

20–150 mm uzunlikdagi darzlar (4-rasm, d) ustidan bir necha qavat shisha mato qo‘yib berkitiladi. Bunda birinchi qavat shisha mato darzni 20–25 mm, ikkinchisi 30–40 mm berkitishi lozim. Har bir qavat shisha mato ustidan rolik yurgizib bostiriladi.

150 mm dan uzun darzlar (4-rasm, e) epoksid kompozitsiyalar surtib, ustidan darzni 40–50 mm qoplaydigan 1,5–2 mm qalinlikdagi metall ustqo‘ymalar qo‘yish va vintlar bilan mahkamlash orqali berkitiladi. Ustqo‘ymada bir–biridan 50–70 mm oraliqda 10 mm diametrli teshiklar parmalanadi. Ana shu teshiklar bo‘yicha detalda teshiklar o‘rnini belgilab olinadi (kerno yordamida) va teshiklar parmalanib, ularga M8 rezbasi qirqiladi. Mazkur usul bilan teshiklarni ham berkitish mumkin. Ushbu usul darzlar detalning yassi yuzasida joylashgan taqdirda qo‘llanishi mumkin. Detalning yassi bo‘limgan yuzalaridagi teshiklar, darzlar va boshqa nuqsonlarni payvandlab yoki aralash (bir yo‘la birnecha) usul bilan (4-rasm, f) bartaraf etish tavsiya etiladi. Shu maqsadda payvand chokni zinch qilish uchun unga epoksid qatlami surtiladi. Darzlarni berkitishda shakldor yamoqlarni qo‘llab (4-rasm, g), so‘ngra bu joyga epoksid kompozitsiya qoplab zichlash yaxshi natija beradi. Tortib birlashtiruvchi shakldor yamoqlar korpus detallar baza qismlarining boshlang‘ich fazoviy holatini tiklab, ta’mirlangan uzellarning ishlash layoqatini yaxshilash imkonini beradi.

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuning nazariy qismi bilan to‘liq tanishib chiqish.
2. Detallarni sintetik materiallardan foydalanib ta‘mirlash texnologiyasini o‘rganish.
3. O‘rganolgan va tahlil qilgan ma’lumotlari bilan 6-jadvalni to‘ldirish.

6-jadval

Detallarni sintetik materiallardan foydalanib ta‘mirlash texnologiyasini o‘rganish

| Detal yuzasidagi darz yoki teshikning ko‘rinishi | Nuqsonni ta‘mirlash jarayonining qisqacha mazmuni | Ta‘mirlash uchun qo‘llaniladigan material |
|--|---|---|
| | | |
| | | |
| | | |

Hisobot shakli va mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi.
2. Detallarni sintetik materiallardan foydalanib ta‘mirlash texnologik jarayoni.
3. O‘rganolgan va tahlil qilingan ma’lumotlar bilan 6-jadvalni to‘ldirish.

Nazorat savollari:

1. Qanday materiallar sintetik materiallar deyiladi?
2. Sintetik materialarni qo‘llash qulayliklari.
3. Qanday materiallarga polimerlar deyiladi?
4. Qanday materiallarga plastmassalar deyiladi?
5. Polimerlarning qanday turlari mavjud?
6. Plastmassalar qanday ta‘mirlash ishlarida qo‘llaniladi?
7. Epoksid kompozitsiyalarining tarkibi qanday komponentlardan tashkil topadi?
8. Detallardagi qanday nuqsonlarni sintetik materiallar yordamida ta‘mirlash mumkin?
9. Darzlarning o‘lchamlari ta‘mirlash jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
10. O‘lchamlari katta darzlarni tiklash texnologiyasini tushuntiring.

7-Amaliy mashg’ulot

HOSILNI YIG'UVCHI MASHINALARNING ASOSIY ISHCHI ORGANLARINI TA'MIRLASH

Ishdan maqsad. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hosilini yig'uvchi mashinalarning asosiy ishchi organlarini ta'mirlash.

Ishni bajarish bo'yicha yo'riqlar. Ta'mirlash korxonalarida hozirgi vaqtida detallarni tiklashning tajribada sinab ko'rilgan ko'plab usullari mavjud, ular yeyilgan va shikastlangan detallarni ishlash layoqatiga qaytarish imkonini beradi. Ular: ta'mirlash o'lchamlarini tiklash, qo'shimcha detallar qo'llash, plastik deformatsiya, elektrolitik va gazotermik qoplamlar qoplash, suyuqlantirib qoplash va boshqa usullardan iborat. Ammo bu usullarning hammasining ham ahamiyati bir xil hisoblanavermaydi. Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda, qishloq xo'jaligi mashinalarining hosilni yig'uvchi asosiy organlarini ta'mirlash usullari tanlanadi.


Kesuvchi apparatlarni ta'mirlash.

Xarakterli nuqsonlari: silliq segmentlarni kesuvchi qirralarining o'tmaslashuvi; kesmali segmentlar kesimlarining yeyilishi, keskich qirralarining qizarishi, begona predmetlarning tushib qolishi natijasida ularda darzlarning paydo bo'lishi; pichoq orqasining buralib ketishi, egilishi, uilib ketishi; barmoqli brus burchaklarining deformatsiya-lanishi, barmoqlarning egilishi, buralib ketishi, kesilishga qarshi plastinalarning va siqib turuvchilarining yeyilishi.

Segmentlarni tiklash. Silliq segmentlar 18–25° burchak ostida o'tkirlanadi. O't o'rgichlarning segmentlari keskich qirrasi 0,05 mm bo'lsa, 0,01–0,02 mm qalinlikkacha o'tkirlanadi. Silos o'rvuchi kombaynlarning kesuvchi apparatning segmenti ancha o'tmaslashib qolganda ham ishlashi mumkin.

O't o'rgich segmentlarining pastki tomonidan grafit yoki T15K6 qattiq qotishma bilan elektr uchquni yordamida mustahkamlansa, ularning ta'mirlararo resursini 2–3 marotaba oshirish mumkin. Segmentlarning kesuvchi qirralari xromlanganda, ularning ta'mirlararo resursi sezilarli darajada oshadi.

Kesikli segmentlar kesiklar balandliklari bo'yicha 0,2–0,3 mm yeyilgan bo'lsa, ular yaroqsiz hisoblanadi.




5-rasm. Nuqsonli segment pichoqlarini ustqo'yma yordamida olib tashlash:
1-tiski; 2-olib tashlanadigan segment; 3-ustqo'yma; 4-soshnik pichog'i

Nuqsonli segmentlar ustqo'yma (5-rasm) yordamida bolg'a bilan olib tashlanadi. Ustqo'ma segmentning chetidan o'rnatiladi va bolg'ani keskin urish bilan segmentning parchinmixlari kesiladi.

Pichoq yelkasini tiklash. Ularning burilganliklari tiskida maxsus kalit yordamida amalga oshiriladi (6-rasm). Egilgan yelkalar yog'och ustqo'yma orqali bolg'a bilan to'g'rilanadi. Pichoqning egilgan joyining oxiriga ostqo'ymalar qo'yiladi. To'g'rilangandan so'ng pichoq yelkasi va yotish brusi orasidagi bo'shliq 1 mm katta bo'lmasligi lozim.

Yelka, odatda, eng ko'p yuklangan qismidan, pichoq kallagi atrofida uzikadi. Pichoq kallagiga pichoqning uzikgan qismi parchinlab qo'yiladi, avval kallak bilan qotirilgan uchastka esa pichoq yelkasining qarama-qarshi tomonidan maxsus moslamada elektr yoyli yoki gazli payvandlash bilan payvandlanadi (7-rasm).

Pichoq kafti sferik kallagi yeyilganda undagi payvand choki kesilib, olib tashlanadi. Tozalangandan so'ng kaft teshigiga yangi kallak o'rnatilib, payvandlab qo'yiladi. Sferik sirt esa HRC 56–63 gacha tobilanadi.




6-rasm. Keskich apparatning buralgan yelkasini va egilgan barmoqlarini to'g'rilash kaliti

Barmoqli brusni tiklash. Deformatsiyalangan burchaklar to'g'rilanadi. Deformatsiyalangan burchaklar ko'proq mahalliy qizdirish yo'li bilan deformatsiyalanadi. Burchak to'g'rilangandan so'ng egilish bo'yicha gorizontal va vertikal tekisliklar bo'yicha tekshiriladi. Egilish uzunligi bo'yicha mos ravishda 1 va 5 mm dan katta bo'lmasligi lozim.

Yeyilgan barmoq vkladishlari taglik yordamida almashtiriladi. Egilgan va buralgan barmoqlar maxsus kalitlar yordamida to'g'rilanadi (6-rasm).

Deformatsiyalangan barmoqlar ko'proq to'g'rilashdan avval 750–800°C haroratgacha qizdiriladi.



7-rasm. Pichoq yelkasini payvandlash uchun moslama:

1—pichoq yelkasi; 2—o'rnatish shtiftlari;
3—asbest ostqo'yma; 4—konduktor; 5—elektrod

Brusdagi barmoqlarning to'g'ri joylashishi kesish apparatining chetki barmoqlari vkladish sirti bilan shnur orasidagi tirkish bo'yicha tekshiriladi. Barmoqlar seksiyasining qiyшиq o'rnatilganligi qo'yiladigan tagliklar bilan bartaraf etiladi. Yeyilgan kesishga qarshi plastinkalar yangisiga almashtiriladi.

Barmoqning yakuniy to'g'riligi pichoq o'rnatilgandan so'ng tekshiriladi. Segment oldi va vkladish orasidagi tirkish 0,3 mm, asosida esa 1 mm dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Siqqich va segment orasidagi tirkish siqqichni biroz egish bilan o'zgartirish mumkin.

Pichoq to'g'ri yig'ilgan bo'lsa, u qo'l kuchi bilan erkin siljishi lozim.

Don yig'uvchi kombaynlarning maydalovchi apparatlarini ta'mirlash. Ta'mirlashning ma'nosi shundan iboratki, barabanlar almashtiriladi yoki barabanning va baraban osti detallari to'g'rilanadi, so'ng balansirovka qilinadi.

Asosiy nosozliklar: uruvchi barabarlarda, uruvchilarining va uruvchi tagliklarining hamda vallarning egilishi; o'rgich qismlarining va shponkali brikmalarning yeyilishi; baraban osti detalida karkasning va plankaning deformatsiyasi, planka qirralarining yeyilishi va payvand choklarida darzlar paydo bo'lishi.

Barabanni ta'mirlash. Egilgan urgich tagligi bolg'a bilan to'g'rilanadi. Barabanni to'g'rilayotganda romsimon ochiq joyi bo'lgan metall taxtaga o'rnatiladi. To'g'rilash sifati chizg'ich shup yordamida nazorat qilib boriladi. U to'g'rilangandan so'ng, notejisligi 1 mm dan ortiq bo'lmasligi lozim.

Valning egilgan uchi stendning gidravlik pressi yordamida to'g'rilanadi. Val uchining chegaraviy tepishi 0,3 mm dan katta bo'lmasligi kerak. G'adir-budurlik balandligining yarmidan ko'proq qismi yeyilgan o'rgichlar almashtiriladi. Diametr bo'yicha qarama-qarshi o'rnatilgan urgichlar bir xil massaga ega bo'lishi talab etiladi. Ularning uchlari esa bir tekislikda yotishi lozim. Agar lozim bo'lsa, urgichlarning uchlari kesilishi mumkin. G'adir-budurliklari o'ng va chap yo'nalishlarda bo'lsa, ularni baraban asosga navbatma-navbat o'rnatiladi.


Urgichlar qotirilgandan so‘ng ularning stendda radius yo‘nalishidagi tepishi uzunligi bo‘yicha bir necha nuqtalarda tekshiriladi. Urgichlarning ruxsat etilgan tepishi 1 mm dan ortiq bo‘lmasligi lozim. Urgichlarning holatini urgich va urgich tagligi o‘rtasi ostqo‘yma qo‘yish yo‘li bilan o‘zgartirish mumkin.

Yig‘ilgan baraban stendning roliklarida aylanish o‘qi bo‘yicha muvozanatlanadi. Agar baraban turli to‘xtatishlarda uning yuqori holatiga turli urgichlar to‘g‘ri kelsa, urgichlar radiusi bo‘yicha joylashtirilgan; og‘irligi 0,3 N yuk barabanni muvozanat holatdan chiqarsa, baraban muvozanatlangan deyiladi. Barabanni muvozanatlash shkivsiz olib boriladi.

Baraban tagliklarini ta’mirlash maxsus stendlarda olib boriladi. Baraban tagligi yarim doira tagligiga o‘rnataladi, baraban tagligi teshigi o‘rnatalgan joyiga qo‘zg‘aluvchi fiksatorning shtiri o‘tkaziladi, qisqich baraban tagligini taglikka siqadi.

Shu holatda karkas tekshiriladi va to‘g‘rilanadi hamda misli uchga ega bo‘lgan bolg‘a bilan plankalarning salqiligi 2 mm dan ortib ketgan bo‘lsa. u bartaraf etiladi. Plankalarning to‘g‘rilan-gandan keyinngi salqiligi 1 mm ga to‘g‘ri kelishi mumkin.

Baraban tagligi plankasining yonaki egilishini bartaraf etish uchun, u fiksatorlar atrofida 180° ga buriladi va undan so‘ng moslamadan foydalilanadi. Moslamaning ustuni ko‘ndalang planka yoki metall g‘o‘lasiga uni birlashtirgan joyida deformatsiyalangan plankaga o‘rnataladi. Plankaning ruxsat etilgan salqiligi 2 mm ni tashkil qiladi. Planka ko‘proq egilganda ularni to‘g‘rilashdan avval gaz gorelkasida qizdiriladi. Radial yo‘nalishdagi to‘g‘rilashning sifati radiusli shablon bilan, o‘q yo‘nalishi bo‘yicha esa chizg‘ich yoki shnur bilan tekshiriladi.



8-rasm. Borana tagligini o‘tkirlash uchun tokarlik dastgohiga moslama:

1–tokarlik dastgohining patroni; 2–oldingi pshang; 3–keskichli kallak; 4–orqa babkaning aylanuvchi markazi; 5– baraban tagligi; 6–orqa pshang; 7–tortqi; 8–support

Plankaning oldingi qirrasi 3,5 mm li radius bo‘yicha yeyilgan bo‘lsa, baraban tagligini 180° ga burib, shunday qayta o‘rnatish kerakki, orqa yeyilgan qirra oldinda bo‘lib qolsin. Baraban tagligining ikkala qirrasi ham yeyilgan bo‘lsa, tokarlik dastgohida maxsus moslama yordamida ishlov beriladi (8-rasm).

Baraban tagligini yo‘nish uchun uni botiq tomoni bilan pastga, oldingi 2 va orqa 6 pshanglar, dastgoh supporti bilan birlashtiriladi. Keskichli kallak 3 tokarlik dastgohi shpendilidan aylanma harakatni oladi. Yo‘nilgandan so‘ng urug‘ni shikastlantirmaslik maqsadida planka qirralari egovda 0,5 mm radius bilan dumaloqlanadi.

Maydalash apparatlarini ta’mirlashda va yig‘ishda, apparatning butun kengligi bo‘yicha qo‘zg‘aluvchan va qo‘zg‘almas ishchi detallarining orasidagi zarur bo‘lgan tirqishlarga rioya qilish hamda o‘tkir qirralarni bartaraf etish lozim.

Don o‘rvuchi kombaynlarning ajratuvchi ishchi organlarini ta’mirlash. Kombaynlarning ajratuvchi organlariga panjarali paykal, klavishli somon tiqqich va boshqalar kiradi.

Xarakterli nuqsonlar: doimiy tebranish, begona predmetlarning tushib qolishi va ko‘p miqdordagi ishlov berilgan mahsulotning o‘tishi detallarning egilishiga va uzelishiga, birikmalarning bo‘sab ketishiga va parchinmixlarining, boltlar va o‘qlar teshiklarining yeyilishiga, ezilishiga va darz ketishiga olib keladi.

Umumiy nosozliklarni bartaraf etish. Chuqurchalar yog‘och bolg‘alar zarbi bilan tekislanadi. Darzli va yirtilgan shu po‘latning o‘zidan yasalgan ustqo‘ymalar qotirib qo‘yiladi. Ustqo‘ymalar shikastlangan joyni 20–25 mm ga bekitishi lozim. Parchinmix uchun teshiklar teshiladi. Ustqo‘ymalarni gaz yoki nuqtali payvandlash bilan payvandlash mumkin. Katta maydoni shikastlangan joylari olib tashlanib, ularning o‘rniga almashtiriladigan sirt shaklidagi ustqo‘ymalar qotiriladi.

Panjaralari paykallarni tekshirish va ta'mirlash. Qiyshaygan panjaralari paykallari maxsus stapelda tekshiriladi va ta'mirlanadi. Panjaralari ramaning bikirligi ularning burchaklariga kosinkalar qotirish yo'li bilan tiklanadi. Jaluzlarning yulinib ketgan ilib olgichlari kavsharlanadi yoki nuqtali payvandlash bilan o'qiga qotirib qo'yiladi. Kavsharning yoyilgan qismi yopishga xalaqit bersa, undan tozalanadi. Ilidagi olgichning singan va yejilgan o'qlari almashtiriladi.

Agar segment o'qlarining ariqchasi 6,5 mm dan ortiq bo'lsa, panjaraning yog'och plankalari almashtiriladi. Ariqcha diametri 4,5 mm bo'lgan teshkichi bilan konduktorda ochiladi, uning ko'ndalang kesimi keltirilgan (8-rasm). Zagotovkani konduktorga vintlar bilan qotirib qo'yiladi.

Yeyilish tezligini pasaytirish uchun planka va ustqo'yma o'rtasiga rezina ostqo'yma qo'yiladi. Rezina ostqo'yma birikma sinishing oldini oladi.

Ustqo'yma va plankani qotirish mustahkamligini oshirish uchun ular shurup o'rniga bolt bilan qotiriladi.

Mashina uzoq muddat ishlaganda goroxotlarning zichlovchilari o'z elastikligni yo'qotadi, bunday hollarda ularni 180° ga burib, teskari tomonidan qotiriladi. Goroxotlar maxsus stapelda nazorat qilinadi va ta'mirlanadi.

Ventilatorlarni ta'mirlash. Ventilatorning ishlashi davrida uning vallari egiladi, parraklari deformatsiyalanadi, krestovinaning qotirish joylari bo'shaydi, kojuxida chuqurchalar paydo bo'ladi. Val to'g'rilangandan so'ng salqili 0,5 mm dan katta bo'lmasligi lozim. Ta'mirlangan ventilatorlarda parraklari orqaga qiyshaytirilgan holda o'rnatiladi. Parraklarning qiyshiqligi uzunligi bo'yicha 5 mm dan katta bo'lmasligi lozim. Kojux haddan tashqari shikastlangan bo'lsa, u yangisiga almashtiriladi. Ventilator ta'mirlangandan so'ng muvoza-natlashtirilishi lozim, bunda nomuvozanatlilik 0,1 Nm dan katta bo'lmasligi kerak.

Somon silkitgichni yig'ish va tekshirish. Klavishli somon silkitgichni yig'ishda klavishdagi yog'och podshipniklarining to'g'ri joylashishi va valning deformatsiyasi tekshirilishi lozim. Somon silkitgich yetaklovchi vali bilan burilganda yetaklanuvchi tirsakli valining podshipnik korpusi klavishlar bo'ylab 1,5 mm dan ortiq siljimasligi kerak.

Somon silkitgichni maxsus stendda yig'ish qulayroq, yig'ilgandan so'ng uni shu stendning o'zida 10–15 daqiqa davomida 200–210 ayl/daq chastotasida sinaladi.

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuning nazariy qismi bilan to'liq tanishib chiqish.
2. Hosilni yig'uvchi mashinalarning asosiy ishchi organlarini ta'mirlashni o'rghanish.
3. O'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha hosilni yig'uvchi mashinalarning biron asosiy detali ta'mirlash uchun tanlanadi va uni tiklash usuli to'liq o'rghanib chiqiladi.
4. O'r ganilgan va tahlil qilishgan ma'lumotlarni 7-jadvalga kiritish.
5. 7-jadval

Hosilni yig'uvchi mashinalarning asosiy ishchi organlarini ta'mirlash

| Ta'mirlanadigan detal haqida ma'lumot | Ta'mirlanadigan detal eskiz chizmasi | Detaldagi nuqsonlar | Detalni ta'mirlash usullari |
|---------------------------------------|--------------------------------------|---------------------|-----------------------------|
| | | | |
| | | | |
| | | | |

Hisobot shakli va mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi.
2. Hosilni yig'uvchi mashinalarning asosiy ishchi organlarini ta'mirlash usullari haqida ma'lumot.
3. O'r ganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar bilan 7-jadvalni to'ldiring.

Nazorat savollari:

1. Hosilni yig'uvchi qishloq ho'jaligi mashinalarining asosiy ishchi organlariga qanday detallar kiradi?
2. Hosilni yig'uvchi qishloq xo'jaligi mashinalarining asosiy ishchi organlarida qanday nuqsonlar uchraydi?
3. Segmentlarni tiklash qanday amalga oshiriladi?
4. Barmoqli brusni tiklash qanday amalga oshiriladi?
5. Barabanlarni ta'mirlash qanday amalga oshiriladi?
6. Panjaralari paykallarni ta'mirlash qanday amalga oshiriladi?

7. Ventilatorni ta'mirlash qanday amalga oshiriladi?
 8. Somon yig'ish qurilmasini ta'mirlash qanday amalga oshiriladi?

8-Amaliy mashg'ulot

MASHINALARDAGI NUQSONLAR VA ULARNING SODIR BO'LISH SABABLARINI O'RGANISH

Ishdan maqsad. Mashinalarda uchraydigan asosiy nuqsonlar va buzilish turlarini o'rganish, xamda kelib chiqish sabablarini tahlil qilish.

Ishni bajarish yo'riqlari. Mavzuni nazariy jixatdan adabiyotlardan o'rganib, o'qituvchi tomonidan berilgan detalda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni sharxlab beriladi.

Umumiy tushunchalar. **Mashina detallari nuqsonlarining turlari.** Mashinaiarning ishlatilish darajasiga bog'liq holda ulardagi ayrim detallarning ish unumi va boshqa ko'rsatkichlari pasaya boradi, natijada ularda nuqsonlarning paydo bo'lishi jadallahshadi. Nuqsonlaming yuzaga kelishiga loyihalash, ishlab chiqarish va ishlatish jarayonlarining mukammal emasligi sabab bo'ladi. O'z navbatida, ishlatishdagi nuqsonlar ham asosan uch turga bo'linadi.

Detallarning yeyilishi. Detallarning tekis yeyilishi kam uchraydi, chunki ular, asosan, o'zgarib turadigan yuklanishlarda ishlaydi. Detallarning notekis (ovalsimon, konussimon) yeyilishi ancha keng tarqalgan. Detallarning tirnalishi va yulinishi moyning begona qo'shimchalar bilan ifloslanishi natijasida sodir bo'ladi.

Mexonik buzilishlar kuchli zarbalar yoki boshqa ta'sirlar (issiqlik) natijasida sodir bo'ladi. Ular ko'proq quyma detallarda uchraydi. Masalan, qish mavsumida silindrler blokiga qaynoq suv quyilganda u yorilishi mumkin.

Chuqur tirnalishlar bir detaining ikkinchisiga nisbatan siljishi tufayli sodir bo'ladi. Masalan, qotirilmagan yoki chala qotirilgan porshen barmog'i silindr devorida chuqur chiziq qoldirishi mumkin.

O'yilish, asosan, sementatsiya qilingan detallarda. tishli g'ildiraklarda kuzatiladi. Masalan. uzatmalar qutisidagi ilashuvchi shesternyalarining tishlariga me'yordan ortiq dinamik yuklanish ta'sir etganda ularning sementatsiya qilingan qatlamlari o'yilib tushadi.

Sinish va uzilish birikma detallarining o'zaro dinamik urilishi natijasida sodir bo'ladi. Bunga kiritish va chiqarish kollektorlari planetlarining uzilib tushishi misol bo'ladi.

Detallarning egilishi va bukilishi dinamik urilishlar va qiymati keskin o'zgaruvchan yuklanishlar ta'sirida sodir bo'lishi mungkin. Bunga misol tariqasida mashina haydovchisining ehtiyoitsizligi natijasida oldingi o'q g'ildiraklarining biror to'siqqa urilishi natijasida oldingi to'sinning egilishini ko'rsatish mumkin.

Buralish katta miqdorda burovchi moment uzatuvchi detallarda sodir bo'ladi. Masalan, orqa ko'prik yarim o'qlaridagi buralish traktorni botqoqlikdan chiqarish uchun oldinga va orqaga silkinishlar natijasida sodir bo'ladi.

2-a-jadval

Nuqsonlar va ularning sodir bo'lisch sabablari

| Nuqsonlar | Nuqsonning paydo bo'lish sababi | Misollar |
|--------------------------|--|---|
| Loyihalashdagi nuqsonlar | <p>Detal o'lchamtanning ta'sir qiluvchi yuklanishga mos emasligi.</p> <p>Detal materialini va unga termik ishlov berish rejimini noto'g'ri tanlash.</p> <p>O'tqazishlarni noto'g'ri tanlash.</p> | Tishli g'ildirakka noto'g'ri termik ishlov berish |

| | | | |
|------------------------------|----------------|---|--|
| | | Moylash usullarini noto‘g‘ri tanlash | |
| Ishlab rishdagi sonlar | chiqa- nuq- | <p>Detalni yasashda loyixa chizmalarida ko‘rsatilgan o‘lchamlardan va texnik talablardan chetga chiqish</p> <p>Detalga ishlov berishda va ta‘mirlashda texnologik jarayonning buzilishi</p> <p>Agregat, uzel va mexanizmni yig‘ish uchun belgilangan tartibning buzilishi</p> | Konussimon podshipniklarni noto‘g‘ri yig‘ish va o‘rnatish |
| Ishlatishdagi nuqsonlar | | Detallarning tabiiy yeyilishi Mashinaga noto‘g‘ri texnik xizmat ko‘satish | Tirsakli val bo‘yinlari, podshipniklari va shunga o‘xshash detallar. Brikmalarni sozlash va moylash. |
| | | | |

Kimyoviy va issiqlik ta’sirida sodir bo‘ladigan buzilishlar. Bunday buzilishlar harorat, yoki ichki (qoldiq) kuchlanishlar ta’siri natijasida sodir bo‘ladigan ezilishlardan iboratdir. Bunga misol qilib o‘ta qizigan motor silindlar blokining qiyshayishini keltirish mumkin.

Detallardagi kovaklar haroratning mahalliy ko‘tarilishi ta’sirida detallarniig kuyishi tufayli sodir bo‘ladi. Masalan, chiqarish klapani o‘z uyasiga yaxshi moslashtirilmaganligi sababli ular orasidagi tirqishdan ishlatilgan gazlar yorib o‘tib, qizib, yuzalarida kovaklar hosil qiladi. Detallarning korroziyalanishi esa ularning oksidlanishi natijasida sodir bo‘ladi. Masalan, yaxshi qizimagan motor silindrlarining sovuq devorlariga kislota bug‘lari kondensatsiyalanib (ular yonuvchi aralashmaning yonish jarayonida hosil bo‘ladi), silindr devorlarini kondensatsiyalashi mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha nuqsonlarga solishtirganda detallarning yeyilishi ko‘proq uchraydi. Bunday nuqsonlar o‘z vaqtida aniqlanib, bartaraf qilinmasa, ular avariyyaga sabab bo‘luvchi nuqsonlarga aylanishi mumkin. Ana shu maqsadda mashinalarni ishlatishda rejali-oldini oluvchi TXK va ta‘mirlash tizimi qabul qilingan, buning ma’nosи shundan iboratki, mashinalarga texnik xizmat ko‘rsatish oldindan tuzilgan reja asosida majburiy holda, ta‘mirlash ishlari esa talabga ko‘ra o‘tkaziladi. Nosozliklaming murakkablik darajasiga bog‘liq holda ta‘mirlash ishlari joriy va kapital ta‘mirlashlarga bo‘linadi.

2-b jadval

Detallarda uchraydigan nuqsonlar va ularni kelib chiqish sabablarini o‘rganish jadvali

| Detal nomi | Ishlatish joyi | Bo‘lishi mumkin bo‘lgan nuqsoni | Kelib chiqish sababi | Ta‘mirlash usuli |
|-----------------------|----------------|---------------------------------|----------------------|------------------|
| Shatun | | | | |
| Taxsimlash vali | | | | |
| O‘t oldirish svechasi | | | | |
| Kardan vali | | | | |

Ishni bajarish tartibi

- O‘qituvchi tomonidan berilgan ro‘yhatdagi detallar tashqi yuzasi tekshirilib, o‘lchamlari olinib, chizma o‘lchamlari bilan solishtirish..
- Mavzuni nazariy o‘rganib chiqish.
- Nazariy bilim bilan detal ko‘rsatkichlari asosida jadval to‘lg‘iziladi.

Hisobot shakli va mazmuni

- Ishning nomi va maqsadi.
- Nuqsonlarning turlari va kelib chiqish sabablarini xaqida tushuncha.
- Tajribada olingan natijalar asosida 2-a-jadval to‘lg‘iziladi.

Sinov savollari

- Nuqsonlar necha turga bo‘linadi?
- Ishlab chiqarishdagi nuqsonlar xaqida nima bilasiz?
- Detallarning yeyilishi sababi nimada?

9-Amaliy mashg'ulot

MASHINALARNI TA'MIRLASH USULLARI VA ULARНИ TAHLIL QILISH

Ishdan maqsad. Mashinalarni nuqsondarini aniqlab, ta'mirlash usullarini tahlil qilib, qulay usulini qo'llashni o'rganish.

Ishni bajarish yo'riqlari. Mavzuni nazariy jixatdan adabiyotlardan o'rganib, o'qituvchi tomonidan berilgan detalda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nuqsonlarni ta'mirlash usulini tanlash.

Umumiy tushunchalar. Qishloq xo'jaligi texnikasini ta'mirlashning uch xil usuli ma'lumdir:

- **yakka tartibda** ta'mirlash usulida, ta'mirlash uchun muayyan mashinadan yechib olingan detallar, uzel va agregatlar ta'mirlangandan so'ng, shu mashinaning o'ziga o'rnatiladi. Yakka tartibda ta'mirlash usulining ijobjiy tomoni, ta'mirlash ishlarini tashkil qilishning ancha oddiyligidir, chunki bunda barcha avvaldan moslashgan yaroqli (ta'mirlash talab etilmaydigan) detallar juftligi shu agregat, yoki mashinaning o'ziga o'rnatiladi. Bu esa, qoldiq resursdan foydalanish imkonini beradi. Ta'mirlashning bu usuli ta'mirlash guruhidan, ishida o'zaro bog'liqlik hosil qilishni talab qilmaydi, uni fermer xo'jaliklararo ustaxonalarida tashkil qilish mumkin.

- **tanlamaslik** usuli bilan ta'mirlaganda, yechib olingan detal, uzel va qismlar ta'mirlangandan so'ng ixtiyoriy mashinaga o'rnatiladi. Tanlamasdan ta'mirlash usulida yaroqli yoki ta'mirlangan detallar, uzellar, agregatlarning ta'mirlanadigan mashinaga tegishli ekanligiga e'tibor berilmaydi va yig'ish jarayonida ular shu xildagi ta'mirlanadigan ixtiyoriy mashinaga o'rnatilishi mumkin. Bu usul qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, muayyan mashinadagi birikmaning o'zaro moslashgan yaroqli detallari kompleksizlantiriladi, ya'ni yig'ishda birikma detallari yeyilish darajasi har xil bo'lgan detallar bilan birlashtirilgan bo'lishi, ular esa o'zaro moslashmagan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, yig'ishda hosil bo'lgan birikma moslashish jarayonida nisbatan tez yeyiladi va shu sababli agregat, yoki uzelning resursi pasayadi. Tanlamasdan ta'mirlash usuli katta ustaxonalarda, maxsus zavodlarda keng qo'llaniladi.

- **agregat** usulida ta'mirlashda, mashinadan yechib olingan (ta'mirlashni talab qiluvchi) agregat va uzellar o'rniga avvaldan ta'mirlab qo'yilgan yoki yangilari o'rnatiladi. Agregat usulida ta'mirlashda butun jarayon aggregatni almashlirish bilan bog'liq bo'lgan ajratish-yig'ish operatsiyalarini bajarishga bag'ishlanadi. Bu esa mashinalarni ta'mirlashda turib qolishini keskin kamaytiradi. Mashinadan yechib olingan aggregatlar to'g'ridan-to'g'ri maxsus ta'mirlash korxonalariga ta'mirlash uchun jo'natiladi. Shuning uchun ham ta'mirlashning bu usulini uncha katta bo'limgan fermer xo'jaliklararo ustaxonalarda o'tkazish maqbuldir.

Mashinalarni agregat usulda ta'mirtashni amalga oshirish uchun aggregatlarning aylanma fondi (X_a) bo'lishi zarur. Uni taxminan quyidagicha hisoblash mumkin:

$$X_a = (t_a + t_t)K$$

bunda t_a va t_t — agregat ta'mirlash va ta'mirlash korxonasigicha tashib kelish vaqt, soat; K - mashinadagi bir xil aggregatlarning soni.

Mashinalarni ta'mirlashning quyidagi shakllari mavjud: brigada usuli, yoki universal ish joylarda ta'mirlash, maxsus ish joylarida ta'mirlash mayda konveyer usulida ta'mirlash. Ta'mirlashning u yoki, bu ko'rinishini qo'llash ishlab chiqarish rejasiga, ta'miranadigan mashinalar soniga, mashinaning tuzilishiga bog'liq. Universal ish joylarida (brigada usulida) shunday mashinalar ta'mirlanadiki, bunda mashinaning tuzilish xususiyatlariga bog'liq holda agregat va uzellari ta'mirlangandan so'ng shu mashinaning o'ziga qo'yish talab qilinadi. Bunday usul yillik ta'mirlash rejasi kichik boo'lgani uchun tanlash imkon bo'limgan hollarda ham qo'llaniladi.

3-jadval

Mashinalarni ta'mirlash usulini tanlashni o'rganish bo'yicha jadval

| Ta'mirlanadigan agregat | Nosozlik | Xulosa | Ta'mirlash usulini tanlash |
|----------------------------------|---|--------|----------------------------|
| Dvigatel silinrlar bloki | Porshen xalqalarini almashtirsa xam gazlarni karterga yorib o'tishi | | |
| Uzatmalar qutisi ikkilamchi vali | Egilganligi ruxsat etilgan qiymatdan ortiq | | |

| | | | |
|---|---|--|--|
| Tortuvchi ko‘prik planetar mexanizmi | Satellitlar yeyilishi ruxsat etilgan qiymatdan ortiq | | |
|---|---|--|--|

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuni nazariy jixatdan o‘rganib chiqish.
2. O‘qituvchi tomonidan berilgan vazifadagi agregatlar nosozliklarini o‘rganib, uchrashi mumkin bo‘lgan nosozliklarni tahlil qilish.
3. Bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozlikga qarab ta’msirlash usulini tanlash.

Hisobotning shakli va mazmuni

1. Ishning nomi ma mazmuni.
2. Nosozliklar turlari va ularni bartaraf qilish uchu ta’mirlash usulini tanlash.
3. O‘rganish natijalari bo‘yicha 3-jadvalni to’ldirish.

Nazorat savollari

1. Mashinalar ishonchliligi nima va u qanday ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi?
2. Mashinani buzilmasdan ishlashining ma’nosini nimalardan iborat?
3. Xizmat muddati, ta’mirlashga yaroqlilik va saqlanuvchanlik mashinaning qanday xususiyatlarini xarakterlaydi?
4. Issiq iqlim sharoiti mashina detallarining puxtaligiga ta’sir etuvchi omillar nimalardan iborat?

10-Amaliy mashg’ulot

DETALLARNI TA'MIRLASH USULLARINI TASNIFINI TAHLIL QILISH

Ishdan maqsad. Detallarni ta’mirlash usullarini tasnifini tahlil qilishni o‘rganish va qulay usulini qo‘llashni o‘rganish.

Ishni bajarish yo‘riqlari. Mavzuni nazariy jixatdan adabiyotlardan o‘rganib, o‘qituvchi tomonidan berilgan detalda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nuqsonlarni ta’mirlash usulini tanlash.

Umumiy tushunchalar. Ta’mirlash usulining tasnifi. Detallarda uchraydigan nuqsonlarni uch turga bo‘lish mumkin, ya’ni tabiiy yeyilish, mexanik shkastlanish va detal yuzasidagi karroziyaga qarshi qoplamaning shikastlanib va uning oqibatida paydo bo‘lgan nuqsonlar.

Ushbu nuqsonlarning turiga va ularni qayta tiklash qulay uslublariga qarab quyidagicha usullarni tanlash mumkin.

5-jadval

Detallarni ta’mirlash usullari jadvali

| Payvandlash | Dastali elektr yoyi | Darzlarni, singan joylarni, ust-o‘yimlarini chidamli materiallar bilan qoplash. |
|-------------|---|--|
| | Avtomatlashtirilgan va mexaniziyalashtirilgan yoyli | Darzlarni, singan joylarni, ust-qo‘yimlarini, yupqa list materiallarini payvandlash |
| | Argon yoyli | Alyuminiy va korroziyaga turg‘un po‘latlarni payvandlash va eritib qoplash. |
| | Gazli | Darzlarni, singan joylarni va yupqa list materiallarini payvandlash |
| | Tutashuvli ishqalanish bilan | Yupqa list materiallarini payvandlash, payvand choki sifatiga yuqori talab qo‘yilgan turli shakldagi detallarning elementlarini uchma-uch payvandlash. |
| | Termitli | Katta o‘lchamli va massali bo‘lgan detallarni payvandlash |
| | Elektr shlakli | Detallarning singan joylarini payvandlab quyish, katta o‘lchamdagisi detallarni payvandlash |
| | Elektron nurli | Qat’iy talab qo‘yiladigan detallarni yuqori aniqlikda payvandlash |
| | Ultratovushli | Rangli metalni, po‘latlarni, uncha katta bo‘limgan detallarni |

| | | |
|-------------------------|---|--|
| | payvandlash | |
| Yuqori chastotali | Korroziyaga turg'un po'latlarni payvandlash | |
| Magnit- impulsli | Turli tarkibdagi materiallani payvandlash | |
| Portlatish bilan | Turli tarkibdagi materiallani payvandlash | |
| Bosim ostida | Shakli turlicha bo'lgan detallarni va ularning elementlarini payvandlash | |
| Vakuumda diffuzion | O'chamlari kichik va sifatiga qat'iy talab qo'yiladigan detallarni yukori aniqlikda payvandlash | |
| Temirchilik usuli bilan | Payvand brikma mustaxkamligiga yuqori talab quyilgan, sifatiga qat'iy talab qilinmaydigan detallarni payvandlash | |
| Eritib kopplash | <p>Flyus ostida elektr yoyli</p> <p>Karbonat angdrid gazi muxitida elektr yoyli</p> <p>Gaz alangasi ximoya-sida elektr yoyli</p> <p>Tebranma yoyli</p> <p>Kukun yoki lentali sim bilan elektr yoyli</p> <p>Argon muxitda elektr yoyli</p> <p>Tutashuvli</p> <p>Gazli</p> <p>Plazmali</p> <p>Kup elektrodli flyus ostida</p> <p>Yotgan elektrod bilan</p> <p>Elektr impulsli</p> <p>Elektr uchqunli</p> <p>Elektrshlakli</p> <p>Suyuq metall bilan</p> <p>Bir yula deforma-siyalash bilan</p> <p>Bir yula kesish bilan</p> <p>Lazerli</p> <p>Yukori chastotali tokda</p> | <p>Eritib qoplangan qatlamning qalinligi 1 mm dan ortiq bo'lgan suyuqlantirib, qoplangan materialarning sifatiga, yuqori talab qo'yilgan, diametri 50 mm dan yuqori bo'lgan detallarni eritib qopplash.</p> <p>Turli sharoitda ishlovchi diametri 16 mm dan kata bo'lgan keng nomdagi po'lat detallarni eritib quyish</p> <p>Turli sharoitda ishlovchipulat va chuyan detallarni eritib qopplash</p> <p>Toliqishga karshiligiga yukori talab quyilgan turli sharoitda ishlovchi po'lat detallarni eritib quyish</p> <p>Jadal abraziv yeyilishdaishlovchi ishkalanish tugunlaridagidetallarnieyilish bardoshliligi yukori bulgan katlam bilan eritib kopplash</p> <p>Alyuminiy va korroziyaga karshi pulatlardan yasalgan detallarni eritib kopplash</p> <p>yeyilishi 1 mm dan ortik bulmagan sillik silindrik ichki va tashki sirtlarni eritib kopplash</p> <p>yeyilish bardoshlikka yukori talab kuyilgan slidrik va profili sirtlarni eritib kopplash</p> <p>yeyilish bardoshlikka va toliqishga qarshiligi yuqori bo'lgan,xususiy talab qo'yilgan detallarni suyultirib qopplash</p> <p>yeyilish mikdori va maydoni sezilarli darajada bulgan detallarni eritib qopplash</p> <p>Sezilarli yeyilishga ega bulgan tekis sirtlarni va murakkab shaklga ega bulgan sirtlarni eritib qopplash</p> <p>Qizitish xaroratichegaralangan, uyilishi 0,5 mm bulgan tashki silindrik sirtlarni eritib qopplash</p> <p>Qoplamaning yalpililiga yukori talab kuyilgan, yeyilishi 0,2 mm gacha bulgan detallarni kattalashtirish va sirtini mustaxkamlash</p> <p>Qalinligi 6 mm dan ortik bulgan, sezilarli yeyilishga ega bulgan detallarni eritib kopplash.</p> <p>Uyilish bardoshlikka yukori talab va zarb yuklamalariga katta talab kuyilmagan sezilarli darajada yeyilishga ega (3 mm dan kam emas) bulgan detallarni eritib kopplash.</p> <p>Asosan tashki shlitsali profilga ega bulgan detallarni eritib kopplash</p> <p>Sovuq xolatda ishlov berish kiyin bulgan materiallarni eritib kopplash va yeyilishga bardoshli materiallarga kizitilgan xolatda ishlov berish</p> <p>Yukori talab kuyilgan detallarni murakkab profilga ega bulgan detallarni yeyilishga bardoshli materiallar bilan eritib kopplash</p> <p>Ishchi organlar va keskichlarni yeyilish bardoshligi yukori bulgan materiallar bilan kopplash</p> |

| | | |
|--|---|---|
| | O‘tga chidamli muxitda YuChT da | Gusenetsa zanjiri teshiklarini eritib koplash |
| Detallarni gazotermik koplamalar bilan koplash | Eritilmagan (atset. yoki propan) kukun materiallari bilan | Asosiy material bilan yopishuvchanligiga yukori talab kuyilmagan kuzgalmas brikmalarning ichki va tashki silindrik sirtlari |
| | Eritilgan (atset. yoki propan) kukun materiallari bilan | Asosiy material bilan yeyiluvchanligi va yopishuvchanligiga yukori talab kuyilgan tashki va ichki silinrik va shakldor sirtlar |
| | Plazmali kukun materiallar bilan | Ichki va tashqi silindrik sirtlar. |
| | Yalpi kesishli, plazmali simlik | brikmalarning ichki va tashqi silindrik sirtlari |
| | Ion plazmali | Qalinligi 0,9dan 2 mm gacha bulgan yeyilishga bardoshli va ximoya xususiyatlari ega bo‘lgan xususiy katlam koplash |
| | Detanatsion | Xususiy xususiyatlarga ega bulgan yeyilishga bardoshli koplama koplash |
| | yoyli | Yopishish mustaxkamligiga yukori talab kuyilmagan ichki va tashki silindrik sirtlar. |
| Sovuq plastik deformatsiyalash | Yuqori sifatli sovuq plastic eformatsiyalash | Yopishish mustaxkamligiga yukori talab kuyilmagan ichki va tashki silindrik sirtlar. |
| | Siqib chikarish | Ichki ulchamiga kat‘iy talab kuyilmagan ichi teshik detallarning tashki sirtlarini tiklash |
| | Siqib chikarish va bir yula chuzish | Ichki ulchamiga qat‘iy talab qo‘yilmagan ichi teshik detallarning tashqi sirtini va uzunligini maxsus deformatsiyalovchi asbob bilan ta‘mirlash |
| | Cho‘zish | Tashqi ulchamiga talab kuyilmagan detallarning uzunligini tiklash. |
| | Dumalatish | Teshiklarga qo‘shimcha ta‘mirlovchi detallarni qotirish. Mustaxkamlash |
| | Damlash va kalibrlash | Termik tasirdan yoki chuktirishdan sung texnik tiklash. Mustaxkamlash va tekislash. |
| | To‘g‘irlash | Shaklini to‘g‘irlash |
| Kizitib plastik deformatsiyalash | Nakatkalash | Qat‘iy talab qo‘yilmagan detallarning sirtlarini tiklash, shlitsalarini sirtlarini tiklash. |
| | Siqish | Tashqi sirtlariga qat‘iy talab quyilmagan detallarning ichki sirtlarini tiklash. |
| | Urib chiqarish | Detallarning shaklini to‘g‘irlash, payvand choklarini mustaxkamlash. |
| | Yupqa shtampda bosish | Detallarni shakli va elementlari va metall yeyilishini kompensatsiya kilish uchun ishlamaydigan joylaridan ishlaydigan joylariga qayta taxsimlanish xisobiga tiklash |
| | Gidrotermik siqib chiqarish | Ichki o‘lchami qat‘iy talab qo‘yilmagan ichi bush detallarini tashki sirtlarini tiklash uchun. |
| | Termotsikllash | Asosan ichi bush detallarni ichki sirtlarini tiklash |
| | Termoplastik siqish | Ichi bush detallarning ichki sirtlarini tiklash |
| Kizitib plastik deformatsiyalash | Nakatkalash | Shesternya va zanjirli uzatma yulduzchalarining tish profilini tiklash. |
| | Rotatsion daformatsiyalash | Shesternya va zanjirli uzatma yulduzchalarining tish profilini tiklash. |
| | Siqib chiqarish | Tishli va shlitsali sirtlarni tiklash. Ichki sirtlar profili va o‘lchamlarini tiklash uchun maxalliy deformatsiya |
| | To‘g‘irlash | Tashqi o‘lchamlariga qat‘iy talab quyilmagan xollarda tiklash. Detal shaklini tiklash. |
| | Cho‘zish | Tashqi o‘lchamlariga qat‘iy talab qo‘yilmagan xollarda tiklash. Detal shaklini tiklash. Ishchi organlarning ish sirtlarining kesuvchi qirralarining shaklini tiklash. |

| | |
|----------------------------|--|
| Cho'ktirish | Uzunligiga qat'iy talab quyilmagan detallarning tashqi va ichki sirtlarini tiklash. |
| Kengaytirish | Ichki o'lchamiga qat'iy talab quyilmagan ichi bush detallarning tashqi sirtlarini tiklash. |
| Termomexanik ishlov berish | Materialning fizik-mexanik xususiyatlarini tiklash, mustaxkamlash. |

5-a jadval

Detallarni qayta tiklash usullarini tasnifini tahlil jadvali

| Operatsiya nomi | Ish eskizi | Ishlash dastgoxi yoki asbobi | Texnik sharoit |
|-----------------|------------|------------------------------|----------------|
| Cho'zish | | | |
| Yo'nish | | | |
| Xromlash | | | |

Ishni bajarish tartibi

1. Mavzuni nazariy jixatdan o'rganib chiqish.
2. O'qituvchi tomonidan berilgan vazifa bo'yicha nazariyasini o'rganish.
3. Bo'lishi mumkin bo'lgan operatsiyalarni yozish.

Hisobotni shakli va mazmuni

1. Ishni nomi va mazmuni.
2. Texnologik jarayon tuzishni yozish.
3. O'rganilgan ma'lumotlar bilan 5-a jadvalni to'ldirish.

Nazorat savollari


1. Detallarni qayta tiklash usuli tasnifini qanday guruxlanadi?
2. Sovuq va issq xoldagi deformatsiyalashni farqi nimada?
3. Nakatkalash deganda nimani tushunasiz?

11-Amaliy mashg'ulot

DETALLARNI PLASTIK DEFORMATSIYA BILAN TA'MIRLASH USULLARINI TAHLIL QILISH

Ishdan maqsad. Detallarni plastik deformatsiya bilan ta'mirlash usullarini tahlil qilishni o'rganish va qulay usulini qo'llashni o'rganish.

Ishni bajarish yo'riqlari. Mavzuni nazariy jixatdan adabiyotlardan o'rganib, o'qituvchi tomonidan berilgan detalda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan plastik deformatsiya yo'li bilan ta'mirlash usulini tanlash.



Umumiy tushunchalar.

Detallarni plastik deformatsiyalash usulida (bosim ostida) ta'mirlash detal malerialining plasliklik xususiyatidan foydalaiishga asoslangan. Metallarning plastikligi deganda, ma'lum sharoitda va kuch ta'sir ida butunligi buzilmasdan qoldiq deformatsiyani qabul qila olish xususiyati tushuniadi.

6.1-rasm. Detallarni cho'ktirish usulida ta'mirlash sxemasi

Detallarni bosim ostida ta'mirlashda deformatsiyalanadigan detalning hajmi o'zgarmaydi, ammo uning shakli hamda detal tayyorlangan metallning strukturasi va mexanik xossasi o'zgaradi. Bunday xodisa *ch'ktirish* deyiladi (6.1-rasm). Undan ko'rinish turibdiki, V dyetallarga bosim ostida ishlov berishning quyidagi turlari mavjud: cho'ktirish, botirish, kengaytirish, toraytirish, nakatkalash va to'g'rilash. Detalni cho'ktirish va botirish

usulida ta'mirlarda detalning uzunligini hisobiga uning tashqi diametrini kattalashtirish jarayoni detallarni cho'ktirish sxemasida ta'sir etuvchi P , kuchning ishi, detalning deformatsiyalanish yo'naliishi bilan mos tushmaydi. Bu detallarni cho'ktirishga xos bo'lgan xususiyatdir.

6.2-rasmda shatunning yuqori kallagidagi bronza vtulkani cho'ktirish sxemasi.

Uni / va 2 tiqmlar yordamida detaldan chiqarib olmasdan cho'ktirish mumkin. Uzunligining qisqarishi hisobiga vtulkantng ichki diametri kichiklashadi: Vtulkaga razvyortka bilan ishlov berilgandan so'ng, u yana ishlatish uchun yaroqli holga keladi.

Vtulka uzunligining qisqarishi natijasida porshen barmog'idan vtulkaga uzatiladigan nisbiy bosim ortadi, ammo bu bosimning ko'payishi detalning keyingi ishiga deyarli ta'sir qilmaydi. Bunday usul bilan vtulkani bir marotaba ta'mirlash mumkin.

Detalning metallini cheklangan oralig'ida surish hisobiga uning o'lchamini kattalashtirish jarayoni **botirish** deyiladi. 6.3-rasmda detalni botirish usulida ta'mirlash sxemasi ko'rsatilgan. Bunday ishlov berish turida ta'sir qiluvchi P_d kuchining yo'naliishi biian talab qilinadigan deformatsiyaning yo'naliishi mos kelmaydi. Bu usul detaining ishlamaydigan qismining chegaralangan qismidagi metalini **siqib** chiqarish hisobiga, detalning o'lchamini katalashtirishda qo'llaniladi.

6.3-rasm. Detallarni botirish usulida tamirlash sxemasi.

Botirish usuli bilan klapanlar, vallardagi va teshiklardagi shlitsalar tiklanadi. Klapanlarni botirish usuli bilan ta'mirlash yopiq shtamplarda, metallni klapanning silindrsimon qismidan konussimon ish sirti tomon siljitim natijasida amalga oshiriladi. Klapanlarni botirish usulida ta'mirlash texnologiyasi ketma-ketligi quyidagidan iborat: Klapanlarni kallagining diametri va silindrsimon qismining balandligi bo'yicha turlarga ajratish; klapan kallagining materialiga bog'liq holda elektr pechda taxminan $820...890^{\circ}\text{S}$ gacha qizitish; klapan kallagini halqali yopiq shtampda siqib chiqarish, qizigan klapanni dastlab havoda $200...300^{\circ}\text{S}$ gacha, so'ngra issiq qumda sovitish; klapanning radial urishini tekshirish; toplash va bo'shatish; klapanning ish yuzasini jilvirlash.



Detallarni kengaytirish. Vtulkaning ichki diametrini kengaytirish hisobiga tashqi diametrini kattalashtirish **kengaytirish** deyiladi (6.4-rasm). Bunda kengaytiruvchi kuch R_d ning yo'naliishi kerakli bo'lgan deformatsiya yo'naliishiga mos keladi.

6.4-rasm. Vtulkani kengaytirish sxemasi

Kengaytirish, asosan, ichi teshik detallarning o'lchamlarini saqlagan holda, yoki ularning balandligini sezilarli o'zgartirmasdan tashqi o'lchamlarini kattalashtirishda qo'llaniladi. Chunonchi, sferik va konussimon proshivkalarni qo'llab, porshen barmoqlarining ishlash imkoniyatini tiklash mumkin. Porshen barmoqlarini qizitib ham, sovuq holda ham kengaytirish mumkin.


Porshen barmoqlarini qizitib kengaytirish texnologik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: barmoq sirtini 2-3 soat davomida $900-1000^{\circ}\text{S}$ da (po'latning markasiga bog'liq holda) sementatsiya qilish, agar sementatsiya qatlami ko'proq yeyilgan bo'lsa, porshen barmog'ini $900...1000^{\circ}\text{S}$ haroratda kengaytirish; toplash va past bo'shatish o'tkaztsh (harorat po'latning markasiga bog'liq); nominal diametrga keltirish uchun jilvirlash va jilolash; o'lchamini, qattiqligini, darz bor-yo'qligini tekshirish.

Porshen barmog'ini sovuq holda kengaytirish texnologik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: $650...670^{\circ}\text{S}$ da (materialning markasiga bog'liq holda) 1,5-2 soat davomida bo'shatish; barmoqni sharsimon yoki sferik sirtli proshivka bilan, jilvirlash uchun $0,15...0,2$ mm qo'yim qoldirib, sovuq holda kengaytirish; barmoqni toplash yoki bo'shatish; barmoqni nominal o'lcham bo'yicha



mumkin. Porshen barmoqlarini qizitib ham, sovuq holda ham kengaytirish mumkin.

Porshen barmoqlarini qizitib kengaytirish texnologik jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi: barmoq sirtini 2-3 soat davomida $900-1000^{\circ}\text{S}$ da (po'latning markasiga bog'liq holda) sementatsiya qilish, agar sementatsiya qatlami ko'proq yeyilgan bo'lsa, porshen barmog'ini $900...1000^{\circ}\text{S}$ haroratda kengaytirish; toplash va past bo'shatish o'tkaztsh (harorat po'latning markasiga bog'liq); nominal diametrga keltirish uchun jilvirlash va jilolash; o'lchamini, qattiqligini, darz bor-yo'qligini tekshirish.




jilvirlash va jilolash; o'lchamini, qattiqligini va darz borligini tekshirish.

6.5-rasm. Vtulkani toraytirish sxemasi

Detallarni toraytirish. Vtulkaning ichki diametrini tashqi diametri hisobiga kichraytirish **toraytirish** deyiladi. Toraytirishda ta'sir qiluvchi kuchning yo'nalishi kerakli deformatsiyaning yo'nalishiga mos keladi (6.5-rasm). Toraytirish kengaytirishdan detal o'lchamlarining kichrayishi bilan farq qiladi, kengaytirishda esa detallarning o'lchami kattalashadi. Toraytirishda kuch va deformatsiya yo'nalishi kengaytirishdagiga nisbatan teskari yo'nalishda bo'ladi. Detal ichki o'lchamining kichrayishi tashqi diametrning kichiklashuvi hisobiga bo'ladi. Bunga bronzadan yasalgan vtulkani toraytirish misol bo'la oladi. Toraytirishdan so'ng vtulkaning tashqi diametri ishlatalish uchun moslanadi yoki uni po'lat vtulkaga presslanadi. Vlulkaning ichki diametri talab qilingan o'lcham bo'yicha razvyortka qilinadi. Detallarni toraytirish jarayonidan foydalanish rangli metall sarfini kamaytiradi.

Detallarni cho'zish. Detal uzunligini uning ko'ndalang kesimidagi ma'lum joyni toraytirish hisobiga uzaytirish **cho'zish** deyiladi. 6.6-rasmdan ko'rinish turibdiki, cho'zish cho'ktirishning xususiy holi hisoblanadi va u kuch R_d yo'nalishining kerak bo'lgan deformatsiya yo'nalishiga mos kelmasligi bilan xarakterlanadi. Bunda detal kesimining mahalliy torayishi hisobiga uncha katta bo'limgan uchastkada uning uzunligi ortadi. Cho'zish. Odatda, har xil tortqilarni uncha katta bo'limgan uzunlikka uzaytirish uchun qo'llaniladi.



6.6-rasm. Detallarni cho'zilish sxemasi


Detallarni to'g'rilash. Detalning buzilgan shaklini tiklash jarayoni **to'g'rilash** deyiladi. Bunday usulda egilgan va buralgan detallar to'g'rilanadi. To'g'rilashda ta'sir etuvchi kuch R_d ning yo'nalishi kerakli bo'lgan deformatsiyaning yo'nalishiga mos keladi.

Odatda, vallar, shatunlar, oldingi balkalar va shunga o'xshash detallar to'g'rilanadi. To'g'rilashning ikki xil usuli mayjud: tashqi kuchlar bilan to'g'rilash (valni to'g'rilash, sovuq va qizitilgan holda), hamda mahalliy naklyop sxemasi bilan to'g'rilash. Tashqi kuchlar yordamida qizitib to'g'rilash ta'mirlash korxonalarida nisbatan kam qo'llaniladi. Ularda, asosan, tashqi kuchlar bilan sovuq holda to'g'rilashdan foydalaniladi. To'g'rilash natijasi turg'un bo'lishini ta'minlash uchun to'g'rilashni $400\text{--}450^{\circ}\text{S}$ haroratgacha qizitib bajarish lozim. Bunday qizitishda qoldiq ichki kuchlanishlar kamayib, detalning ishlash qobiliyatini 90% gacha tiklanadi.

Mahalliy naklyop bilan to'g'rilash tirsakli valning urishi valning butun uzunligi bo'yicha $0.03\text{--}0.5\%$ dan ortiq bo'limgan hollarda qo'llaniladi. Naklyop tirsakli valning o'zak va shatun bo'yincharini tutashtiruvchi yuzaga zarb berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tirsakli val bo'yinlarini jilvirlashdan oldin valni to'g'rilash yaxshi natija beradi, chunki bunda yo'nildigan metall qatlamini kamaytirish mumkin. Valni sovuq holda to'g'rilagandan so'ng, uni 100° gacha qizitib, shu haroratda 3 soat ushlab turiladi. So'ngra darz bor-yo'qligini defektoskopda tekshirib ko'rish tavsiya etiladi.

6.7-rasm. Detallarni nakatkalash.

Detal metallni rolikning tishlari yordamida siqib chiqarish yo'li bilan uning tashqi diametrini kattalashtirish jarayoni **nakatkalash** deyiladi. Nakatkalashda ta'sir qiluvchi kuch yo'nalishi talab qiiingan deformatsiyaga qarama-qarshi bo'ladi (6.7-rasm). Bu usulda detalning o'lchami uning ish qismlaridan metallni siqib chiqarish hisobiga o'zgaradi.



6-jadval

Detallarni plastik tiklash usullarini tahlil jadvali

| Operatsiya nomi | Ish eskizi | Ishlash dastgoxi yoki asbobi | Texnik sharoit |
|-----------------|------------|------------------------------|----------------|
| | | | |

| | | | |
|---------------------------|--|--|--|
| Porshen barmog‘i | | | |
| Gaz taxsimlash klapani | | | |
| Oldingi ko‘prik | | | |

Ishni bajarish tartibi

- 1.Mavzuni nazariy jixatdan o‘rganib chiqish.
- 2.O‘qituvchi tomonidan berilgan vazifa bo‘yicha nazariyasini o‘rganish.
- 3.Bo‘lishi mumkin bo‘lgan operatsiyalarni yozish.

Hisobotni shakli va mazmuni.

- 1.Ishni nomi va mazmuni.
- 2.Texnologik jarayon tuzishni yozish.
- 3.O‘rganilgan ma'lumotlar bilan 6-jadvalni to’ldirish.

Nazorat savollari:

- 1.Detallarni plastik usulda tiklashning qanday usullarini bilasiz?
- 2.Kengaytirish operatsiyasi nima?
- 3.Cho‘zish operatsiyasi nima?
- 4.To‘g‘rilashg operatsiyasi nima?

12-Amaliy mashg‘ulot

TRAKTORLARNING TIPAVOY DETALLARINI TA'MIRLASH USULLARINI O'RGANISH

Mashg‘ulotning maqsadi: Traktor agregatlari tipavoy detallarini ta'mirlash usullarini o‘rganish.

Keraklik jixoz va moslamalar: Traktor agregatlari tipavoy detal-lari, asboblar jamlamasi, texnika xavfsizligi bo‘yicha plakatlar, o‘lchash asboblari, ko‘rilayotgan detallarning ishchi chizmalari va boshqalar.


Nazariy qism: Traktor agregatlari tipavoy detallaridan korpus detallarini – traktorlarning silindrlar bloki, uzatmalar qutisi korpusi va orqa ko‘priklarini ta'mirlashdagi xususiyatlarini o‘rganiladi.

Dvigatelning silindrlar bloki quyidagicha xollarda brakga chiqari-lishi mumkin: tayanch podshipniklari vtulkasi tushadigan joydagi, shuning-dek taxsimlash vali vtulkasi o‘rnashadigan joydagi, moy kanallarida yoriqlar, siganligi, uchganligi bo‘lsa. Klapan uyalari va silindrlar (gilza) orasida ikkitadan ortiq yoriq bo‘lsa. Suv g‘ilofida (rubashka) to‘ttadan ortiq yoriq, silindrning gilzasi mustaxkamlanadigan xalqasi tushadigan joyning bittasi yoki uning perimetringi 1/3 qismi singan bo‘lsa xam brakka chiqariladi. Silindrlar blokidagi yoriqlar, cho‘kanliklar, singan joylari gazli yoki elektr yoyli payvandlash moslamalarida metall suyuqlan-tirib qoplanadi. Shuningdek bolt yoki payvandlab yamoqlar yordamida, xamda polimer (epoksid smolasi) materiallari qo‘llab, ta'mirlash mumkin.

Uzatmalar qutisi va orqa ko‘prik bosh uzatmasi korpuslari esa, asosan avariya xolatigacha buzilguncha va ta'mirlaydigan korxona iqtisodiy imkoniyatlariga ko‘ra, ya’ni tiklashning iqtisodiy mutanosibligi bo‘yicha amalga oshiriladi. Uzatmalar qutisi korpusidagi (transmissiya yoki orqa ko‘prik) yoriqlar, cho‘kanliklar, singan joylari esa elektr yoyli payvandlash moslamasida kuydirmaydigan valik yotkizish bilan metall suyuqlantirib qoplanadi. Bu esa korpus materiali bo‘lgan cho‘yanni oqarib ketishini kamaytiradi, xamda payvand choki va uning atrofida ichki kuchlanishlar paydo bo‘lishini oldini oladi. Bu usulning asli muddaosi shundaki, 35...50 mm uzunlikda payvand valiki yotkazilgandan so‘ng, uning ustidan ketma-ket ikkinchi kuydirmaydigan valik suyuqlantirib yotkazilinadi, so‘ngra detal sovitiladi. Ikkinchi valikni birinchi valik yotkazilganda, ustidan qo‘yganda, payvand choc juda qizib ketadi, natijada sementitning ancha

qismi tarqalib, chokning toblangan qismi bo'shashadi. Bu esa birdaniga musxkamligini pasaytirib, qoldiq kuchlanishlarni yo'q bo'lishiga sabab bo'ladi.. Silindrlar bloki suv g'ilofi tashqi yuza tomonidan yamoqlar qo'yib ta'mirlanadi, ba'zi xolatlarda epoksid smola yelimi asosidagi yoki BF yelimi yordamida qo'yiladi.

Silindr va gilzalarning asosiy nosozliklari uning ichki (ishchi) yuzalarini yeyilishidir. Ular ishlash jarayonida porshen xalqalari, abraziv donachalar, gazli zanglash va yuqori xaroratdan sirpanib ishlaganda yeyiladi. Ishchi aralashmani alangananishida xalqalar tagiga gaz yorib o'tadi, ayniqsa yuqori xalqadan, natijada porshen xalqalarining silindr devorlariga bosimi ortib, moylash sharoiti buziladi, ya'ni moyning qovushqoqligi va uning silindr yuzasidagi plenkasini mustax-kamligi pasayadi.



o'lchamidagi porshenga loyiq o'lchamda tiklanadi. Shuni bilib qo'yish kerakki, YaMZ, A-01M, A-41 va D-37 dvigatellari silindr gilzalari ta'mirlash o'lchamlariga ega emas. Ularning silindr-larini yo'nish maxsus ko'chma yoki statsanar (277N rusumli) xolatdagi dastgoxlarda amalga oshirilishi mumkin. Silindrlarni yuzasini yo'nishda bazali yuza bo'lib, ostki yopishtirish tekisligi va silindrning yuqori qismidagi faska xisoblanadi. Gilzalarni yo'nish va silliqlashda esa, uning tashqi tomonidan yo'nilgan belbog'i va gilzaning yuqori chekkasi baza bo'lib xizmat qiladi.

Silindrlarni markazlashtirishda markazlashtiruvchi qoliplar va indi-kator moslamalaridan foydalaniladi. Dastgox stoliga silindrlar bloki qo'yilgandan so'ng, shpindelning past darchasiga markazlashtiruvchi moslama qo'yiladi. Qolipni shunday o'rnatiladiki, uning sharli uchi shpin-del markazidan D/2 masofada bo'lishi yoki qulaylik uchun qarama-qarshi tomondagи qolipning sharli uchi shpindeldan

$$l = (d + D)/2.$$

masofada bo'lishi kerak. Shundan so'ng qolipni maxkamlab, blokning silindri ichiga shpindelni shunday kirgaziladiki, markazlashtiruvchi qolipning sharli uchi blok yuzasidan 3...4 mm chuqurlikda bo'lishi va shpindelni burash bilan markazlashtirish amalga oshiriladi.

12-jadval

Tipavoy detallarni tiklash bo'yicha aniqlash jadvali.

| Tipavoy detal nomi | Bo'lishi mumkin bo'lgan nuqsonlar | Tiklashning qisqacha mazmuni |
|---------------------------------------|-----------------------------------|------------------------------|
| Uzatmalar qutisi korpusi | | |
| Tirsakli val | | |
| Asosiy uzatmaning quyosh shesternyasi | | |

Hisobot shakli va mazmuni

- Ishning nomi va maqsadi.
- Transmissiya agregat detalini tiklash jaryonini tushuntirib yozib berish.
- Berilgan detallarni nuqsoniga qarab, ularni tiklashni qisqacha mazmunini 12-jadvalga to'ldirish.

Sinov savollari.

- Tipavoy detallarga qanday detallar kiradi?
- Silindrlar blokini ta'mirlash qanday tartibda kechadi?
- Silindrlar bloki qanaqa dastgoxda yo'niladi?

4.Korpus detallarida qanday nuqsonlar uchrashi mumkin?

5.Korpus detallari qanday sharoitlarda brakga chiqariladi?

MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI

Mustaqil ta`lim tashkil etishning shakli va mazmuni

«Transport vositalari detallarining ish qobiliyatini qayta tiklash texnologiyalari » fani bo`yicha talabaning mustaqil ta`limi uni o`rganish jarayonining tarkibiy qismi bo`lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to`la ta`minlangan.

Talabalar auditoriya mashg`ulotlarida professor-o`qituvchilarining ma`ruzasini tinglaydilar, tajriba mashg`ulotlarini bajaradilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, mustaqil ta`lim mavzulari bo`yicha internet orqali zamonaviy chet el tajribalari va texnologiyalari bilan tanishib ularni o`raganadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o`rganish maqsadida qo`shimcha adabiyotlarni o`qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo`yicha testlar yechadi. Mustaqil ta`lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo`shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o`rganish, kerakli ma`lumotlarni izlash va ularni topish yo`llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma`lumotlar to`plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to`garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma`ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta`limsiz o`quv faoliyati samarali bo`lishi mumkin emas.

Mustaqil ta`lim mavzularini talabalar o`zbek, rus va ingлиз tillarida topshirishlari mumkin.

« Transport vositalari detallarining ish qobiliyatini qayta tiklash texnologiyalari » fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan

| Mstaqil ta`lim mavzulari | Olganligi haqida imzo |
|---|------------------------------|
| 1. Cho`yan detallarni payvandlash xususiyatlari va usullari. | |
| 2. Alyumin detallarni payvandlash xususiyatlari va usullari | |
| 3. Flyus turlari va ularga qo`yilayotgan talablar. | |
| 4. Detallarni tiklashda lazer texnologiyasi. | |
| 5. Detallarni tiklashda elektron nur texnologiyasi. | |
| 6. Detallarni tiklashda magnit impuls usuli | |
| 7. Detallarni tiklash plazma texnologiyasi. | |
| 8. Blok slindrlarni tiklashning zamonaviy chet el usullarları | |
| 9. Gilza slindrlarini tiklashning zamonaviy usullari | |
| 10.Tirsakli vallarni tiklashning zamonaviy usullari | |
| 11.Shatunlarni tiklashning zamonaviy usullari | |
| 12.Blok kallagini tiklashning zamonaviy usullari | |
| 13.Taqsimlash vallarini tiklashning zamonaviy | |

| | |
|--|--|
| usullari | |
| 14.Moy nasosini korpusini tiklashning zamonaviy usullari | |
| 15.Radiatorlarni tiklashning zamonaviy usullari | |
| 16.Kiritish kollektorini tiklash | |
| 17.Uzatmalar qutisi karterini tiklash | |
| 18.Orqa ko'priq karterini tiklash | |
| 19.Plastik materiallarni tiklashning zamonaviy usullari | |
| 20.Zamonaviy yuvish vositalari va ularni ishlatilishi. | |
| 21.Avtomobil va agregatlarni ta'mirlashga qabul qilishning zamonaviy usullari. | |
| 22.Detallarning yemirilish turlari. | |
| 23.Ishqalanish va yeyilish turlari. | |
| 24.Ishonchlilikning umumiy tushunchalari va ko'rsatkichlari. | |
| 25.Avtomobillar va ular tarkibiy qismlarining ishonchliligi. | |
| 26.Galvanik qoplamlalar bilan detallarni tiklashning zamonaviy usullari | |

Keyslar banki **Mavjud vaziyat**

Mashinalardan foydalanishda ularning tarkibiy qismlari detallariningish tavsif (xarakteristika)larining yomonlashuvi yuz beradi, buni detallarning eskirishi deyiladi.

Muammoli savol: *Detallarning ish tavsiflarining yomonlashuvi mashinalarda sodir bo'ladigan qaysi jarayonlarga bog'liq?*

Mavjud vaziyat

TXK va ta'mirlash tizimi deganda ilmiy asoslangan tashkiliy, texnologik va iqtisodiy tadbirdilar majmui, shuningdek, qishloq xo'jalik mashinalarining ishga yaroqli xolatda tutib turish xamda tiklashni ta'minlaydigan vositalar tushiniladi.

Muammoli savol: TXK va ta'mirlash ning rejali-oldini olish tizimi nima maqsadda xizmat qiladi?

Mavjud vaziyat

Metalldan yasalgan detallarning ma'lum qismini suyuqlanish temperaturasigacha qizdirib, molekulyar tishlashish kuchlaridan foydalangan holda ajralmas birikma hosil qilish jarayoni payvandlash jarayoni deyiladi.

Muammoli savol: detallani tiklashda qo'llaniladigan payvandlashni qaysi turlarini bilasiz?

Mavjud vaziyat

Avtotransport vositalarini ishlatish jarayonida buzilish va nosozliklar paydo bo'ladi, ular texnik xizmat ko'rsatish (TXK) va ta'mirlash (T) orqali bartaraf etiladi. TXK va T tizimining asosi uning tuzilmasi va me'yorlaridan iborat.

Muammoli savol: avtomobilgarga TXK va ta'mirlashning asosiy vazifasi nimadan iborat? Avtomobilgarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning rejaviy-ogohlantiruv tizimi haqida nimalar bilasiz? TXK va ta'mirlashni davlat va tarmoqlar doirasida qanday darajalari mavjud?

Mavjud vaziyat

1984 yilda sobiq Ittifoq avtomobilsozlik sanoati va sobiq RSFSR avtomobil transporti vazirliklari tomonidan yangi "Avtomobil transporti harakatdagi tarkibiga TXK va T haqidagi Nizom" da avtomobil ishlab chiqaruvchilari va avtotransportchilar tomonidan hamkorlikda yangi avtomobillar darajasini baholash, ishlash sharoitini hisobga olgan holda avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi (ATE) me'yorlarini resurslar bo'yicha va tezkor to'g'rlash masalalari aniq keltirilgan.

Muammoli savol: Avtomobilgarga TXK va T to'g'risidagi nizom necha qismdan iborat va uning qismlarida qanday me'yorlar va texnologiyalar keltirilgan.

Mavjud vaziyat

Biror usulda juda mayda (3300 mikron o'lchamli) zarralarga aylanguncha suyuqqlantirilgan metallni detalning oldindan tayyorlab qo'yilgan yuzasiga siqilgan havo oqimi yordamida katta (140300 mG'sek) tezlik bilan purkash jarayoni metallash deyiladi. Metallni suyuqqlantirish va purkashda foydalaniladigan mexanizm metalizator deyiladi.

Muammoli savol: qoplovchi metallni suyuqqlantirishda foydalanilgan issiqlik manbaiga ko'ra, metallash nechta turga bo'linadi?

Mavjud vaziyat

Avtomobil zavodining kafolat majburiyatları "Avtomobilgarga kafolatli texnik xizmat ko'rsatish Nizomi"da va uning servis kitobchasida keltirilgan bo'lib, avtomobilning texnik soz holatini ta'minlash bo'yicha bajariladigan amallar majmuasidan iborat.

Avtomobil zavodlari kafolatli texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga katta ahamiyat beradilar, chunki bu ularning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, dunyo bozoridagi mavqeyini belgilaydi. Kafolat davri avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan, oylarda yoki avtomobilning bosib o'tgan masofasi bilan belgilanadi. Misol uchun, "GM Uz" avtomobillari uchun kafolat davri 12 oy yoki 20 ming km belgilanib, ulardan qaysi biri oldin tugasa, bunda kafolat davri tugagan hisoblanadi. Ammo kafolat davri avtomobil zavodidan jo'natilgan sanadan boshlab 18 oydan oshmasligi lozim.

Muammoli savol: avtomobilsozlik zavodlari tomonidan avtomobilarni qaysi agregat va qismlariga kafolat beriladi va qaysilariga kafolat berilmaydi? Avtomobilarni qaysi agregat va qismlari avtomobillar ehtiyyot qismlari sirasiga kirmaydi? Kafolat davrida avtomobilga nechta xizmat ko'rsatish turi o'tkaziladi va ular qaysilar? Kafolat davrida avtomobil ustida texnik servisda bajariladigan amallar.

Mavjud vaziyat

“DGM Uz” avtomobilari uchun kafolat davrida navbatdagi texnik xizmat ko’rsatish davriyligi me’yorda belgilangandan 250 kmdan yoki 7 kundan oshmasligi lozim. Kafolat davrida o’tkaziladigan texnik xizmat ko’rsatishning profilaktik ishlaridan tashqari agregat, tizim va uzellarni texnik holati ham tekshiriladi, uchragan nosozliklar bartaraf etiladi. Bu nosozliklarni bartaraf etish kafolatli ta’mirlash yo’li bilan bajariladi. Avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan belgilangan ekspluatatsiya qoidalari buzilmagan taqdirda kafolatli ta’mirlash zavod hisobidan, aks holda mijoz hisobidan amalga oshiriladi.

Muammoli savol: avtomobilarga qaysi hollarda kafolat berilmaydi? Kafolatni buzilishiga nimalar sabab bo’ladi?

Mavjud vaziyat

Avtomobillar servisida quyidagi me’yoriy hujjatlar mavjud: Avtotransport vositalariga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash bo'yicha qator davlat standartlari ishlab chiqilgan. *O’zbekiston Respublikasining O’zDSt 1049:2003 standartida* avtotransport vositalariga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash bo'yicha umumiyl talablar keltirilgan. Ushbu standart avtomototransport vositalariga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash bo'yicha xizmat ko’rsatishga bo’lgan umumiyl talablarni o’rnatadi, belgilangan muddatlarda va yetarli sifatli xizmatlarga foydalanishga, xizmatlar va ularni bajaruvchilar haqida ma'lumotlarni olishga foydalanuvchilarning huquqlarini o’rnatadi.

Muammoli savol: Avtoservis tarmog’i bo'yicha ishlab chiqilgan qaysi Nizomlar asosida servis xizmati amalga oshiriladi? Avtomobilsozlik kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda qo’llanilayotgan qanday me’yoriy hujjatlarni keltirish mumkin? Avtoservis korxonalari faoliyati bo'yicha qaysi me’yoriy hujjatlarni keltirish mumkin?

Mavjud vaziyat

Firma usulida xizmat ko’rsatish – bu avtomobil ishlab chiqaruvchi firmanın o’z avtomobillariga texnik xizmat ko’rsatish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirishdir. Har qaysi avtomobil ishlab chiqaruvchi firma yoki kompaniya o’z avtomobillarini sotish va ularga servis xizmati ko’rsatish uchun “Diler” yoki “Distribyutor” bilan savdo shartnomasi tuzadi. Amalda avtomobilsozlik kompaniyalari firma usulida xizmatni tashkil etishning bir yoki bir necha variantlardan iborat kombinatsiyalarni qo’llaydilar. Masalan, Frantsiyaning “Reno” firmasiga qarashli avtomobilarga firma usulida xizmat ko’rsatuvchi tarmoqlarda 13 ming atrofida “Dilerlar” faoliyat ko’rsatadi, Italiyaning “Fiat” kompaniyasida esa, ularning soni 11 mingni tashkil etadi. O’zbekistonda ham firma usulida xizmat ko’rsatish shakllangan va oxirgi vaqtida tez suratlar bilan rivojlanib bormoqda.

Muammoli savol: Firma usulida xizmat ko’rsatilganda qaysi tadbirlar to’liq bajarilishi lozim? Dunyo avtoservisi amaliyotida avtomobilarga firma usulida xizmat ko’rsatishning qanday shakllari mavjud? O’zbekistonda firma usulida xizmat ko’rsatishni qanday shakllarini bilasiz?

Mavjud vaziyat

Avtotransport vositalari texnik servisi texnik ta'minlashning jahon bo'yicha keng tarqalgan usuli hisoblanib, ishlashga yaroqliligi, ishonchliligi, xavfsizligi, tejamkorligi va zaruriy tashqi ko'rinishini ta'minlash uchun bajariladigan bir qancha xizmatlar majmuidir. Avtoservis xizmatining asosiy vazifasi mamlakatdagi avtomobil transporti, qaysi mulk shaklida bo'lismidan kat'i nazar, beto'xtov, xavfsiz, tejamkor va ishonchli ishslashini ta'minlashdir. Deyarli har kuni ishga chiquvchi avtomobillarni yonilg'i-moy mahsulotlari bilan ta'minlash, ularni yuvish tozalash va nazorat qilish, xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash talab etiladi.

Muammoli savol: avtoservis tizimining rivojlanishi ko'rsatiladigan xizmatlarning qanday xususiyatlarga ega bo'lismini taqozo etadi? Texnik xizmat ko'rsatishda qanday ishlar bajariladi? Tijoriy ishlar mazmuni nimalardan iborat? Mijozlar bilan ishslash mazmuni nimalardan iborat?

Mavjud vaziyat

Servis ko'rsatishning texnologiyasi, ya'ni ishlarning bajarilish ketma-ketlik tartibi ishlab chiqilar ekan, bu texnologiya maqsadga muvofiq, kam chiqimli va samarali bo'lishi talab etiladi. SHu bilan bir vaqtda ishlab chiqilgan.

Muammoli savol: texnik servis texnologik jarayon qanday talablarga javob berishi lozim? Avtoservis korxonalarida texnik servisni tashkil qilishning texnologik jarayoni.

Mavjud vaziyat

TXK va ta'mirlash ishlari ishlab chiqarish binosining maxsus jihozlangan ishchi postlari va ustaxonalarida bajariladi. Avtomobillarning o'zida bajariladigan ishlar post ishlari deb ataladi va maxsus postlarda bajariladi. Ayrim ishchi postlar ba'zi ishlarni bajarishga ixtisoslashgan bo'lislari mumkin, masalan, moylash va moylarni almashtirish posti, tormozlarni tekshirish va sozlash, oldingi g'ildiraklarni o'rnatish burchaklarini nazorat qilish va sozlash postlari va h.k. TXK va ta'mirlashning barcha umumiyligi ishlari (sozlash, qotirish, agregatlar, qismlarni o'rnidan ajratib olish va o'rniga qo'yish va h.k.) universal postlarda bajariladi va bu ishlar katta hajmi tashkil etadi.

Muammoli savol: Universal postlar, maxsus postlar va maxsuslashtirilgan postlar texnik servis ishlari qanday amalga oshiriladi? ularni mazmunini tushuntirib bering. Postlarda avtomobilarga texnik servisni ta'minlash uchun qanday texnologik jihozlardan foydalanish maqsadga muvofiq? Texnologik jihozlarni xarkteristikasini aytib bering. TXKga kelgan avtomobillarda bajariladigan ishlar davriyiligi va hajmi kim tomonidan o'rnatiladi?

Mavjud vaziyat

Avtoservis korxonasining raqobatbardoshligini ta'minlaydigan omillardan asosiysi ko'rsatiladigan xizmat sifatidir. Avtoservis sifatiga mijozlar qo'yadigan talablar davlat qonunlarida aks ettirilsa, ularning bajarilishiga huquqiy asos yaratiladi.

Muammoli savol: Avtoservis korxonasi raqobatbardoshlik darajasini oshirishning qanday asosiy yo'naliшlarini bilasiz? Avtomobillar servisi sifatini ta'minlovchi qanday huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud?

Mavjud vaziyat

So'nggi yillarda avtomobilarning detallarini ta'mirlashda sintetik materiallar ko'p ishlatalmoqda. sintetik materiallar ishlatalganda mehnat unumi oshadi, detallarni ta'mirlashiga ketadigan mehnat va ta'mirlashning tannarxi pasayadi.

Muammoli savol: Yuqoridagilardan tashqari , sintetik materiallar qaysi ko'rsatkichlari sababli qimmatbaho rangdor metallardan afzallikka ega?

Mavjud vaziyat

Avtoservis korxonasi o'zining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, mijozlarni jalg qilish, o'zining raqobatbardoshlik afzalliklarini oshirish uchun ishlab chiqarishni rivojlantiradi, ilg'or texnologiyani qo'llaydi, xizmat ko'rsatishning yangi shakllarini taklif etadi.

Muammoli topshiriq: Avtoservis korxonasi o'zining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, mijozlarni jalg qilish uchun sizning fikringizcha qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

Mavjud vaziyat

Avtomobilarga TXK va ta'mirlash xizmati sifatini ta'minlash maqsadida avtmobilsozlik kompaniyalari o'z avtomobilari bo'yicha zarur bo'lgan barcha texnik-texnologik hujjatlarni o'z vaqtida tayyorlab, xaridorlarga, avtoservis korxonasi dilerlariga yetkazib beradi.

Muammoli topshiriq: Avtomobilsozlik kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan texnik-texnologik hujjatlarni avtoservis korxonalaridagi holatini tahlil qiling va ular asosida xulosalar bering. Bu texnik-texnologik hujjatlar nimaga yo'naltirilgan?

Mavjud vaziyat

Avtomobilarga TXK va ularni ta'mirlash miqyosida bajariladigan ishlar texnik hujjatlarda ko'rsatilgan texnologik tartibda, texnik talablar va shartlarga rioya qilingan holda bajarilsagina sifatli bo'ladi.

Muammoli topshiriq: TXK va ta'mirlash sifatiga qanday omillar ta'sir ko'rstadi va ularni yaxshilash uchun chora-tadbirlarni taklif qiling. ISO nima? Kim tomonidan o'rnatiladi, o'z ichiga nimalarni oladi?

Mavjud vaziyat

Avtomobilarga to'la ravishda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda quyidagi ishlab chiqarish bo'linma va ustaxonalar tashkil etiladi: bular avtomobilarni yuvish va quritish, avtomobilarni xizmatga qabul qilish va ularni egasiga topshirish, maxsus diagnostika, texnik xizmat ko'rsatish postlari, ta'mirlash, agregatlarni almashtirish postlari, kuzov elementlarini ta'mirlovchi postlar, avtomobil, agregat, asbob va jihozlarini ta'mirlovchi maxsus ustaxonalar kiradi.

Muammoli topshiriq: guruhdagi talabalarni 3 ta yoki 4 ta kichik guruhlarga bo'lib Namangan shahridagi avtoservis korxonasi bo'lim va ustaxonalar faoliyatini tahlil qilish va ular asosida xulosalar yozish. Bo'lim va ustaxonalarini tahliliy chizmasini chizib namunaviy loyihamalar bilan solishtirish. Bo'lim va ustaxonalarda bajarilayotgan ishlar texnologiyasi bilan tanishish, tahlil qilish va solishtirma texnologik xarita tuzish.

Mavjud vaziyat

Ekspluatatsiya jarayonida sodir bo'ladigan buzilishlarni aniqlash va oldini olish, avtomobilarning ishonchligini va yuqori samaradorligini saqlab turish uchun diagnostika ishlari o'tkaziladi. Avtomobil, uning tarkibiy qismlari ma'lum ekspluatatsiya sharoitlarida namoyon bo'ladigan, xususiyatlar deb ataladigan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Xususiyatlar majmui avtomobil yoki uning elementini ishlatish uchun yaroqlilik darajasini aniqlaydi va boshqa avtomobil (element)lardan farqi va o'ziga xosligini ifoda etadi.

Muammoli topshiriq: avtomobillarni diagnostikalash deganda nimani tushunasiz, texnik diagnostika nima uchun yo'naltirilgan. Diagnostik parametrlar, me'yorlar va ko'rsatkichlarni aniqlash usullarini aytib bering. Diagnostik parametrlar formulasini tahlil qiling. Avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda diagnostikani o'rni. Avtoservis korxonalarida avtomobillarni diagnostikalashni tahlil qiling va avtomobillarni diagnostikalash bo'yicha o'zingizni fikringizni bildiring. Avtoservis korxonasida diagnostika mintaqasi faoliyatini tahlil qiling va mintaqqa qiyosiy chizmasini chizing, diagnostikalash texnologik xaritasini tuzing.

Mavjud vaziyat

Detallarni ish qobiliyatini ushlab turishda, texnologik jarayonini tashkil etishda avtomobillarni texnik holatini diagnostikalash katta ahamiyatga ega.

Muammoli topshiriq: guruhdagi talabalarni 3 ta yoki 4 ta kichik guruhlarga bo'lib Namangan shahridagi avtoservis korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan diagnostika turlarini tahlil qiling va ularni amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha xulosa qiling.

Mavjud vaziyat

Detallarni tiklash sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalarga kelsak, avtoservis Yevropa, AQSH va boshqa mamlakatlarda avtomobil sanoati va transporti bilan teng tarixga ega, u bilan birga tug'ilib, birga hamkorlikda rivojlanib kelayapti. SHuning uchun bu mamlakatlarda ko'rsatayotgan xizmatlarning sifati ham, madaniyati ham yuqori va ko'lami kengdir. Rivojlangan mamlakatlar hududlarining barcha shaharlari, qishloqlari va boshqa aholi yashovchi punktlari, shaharlararo yo'l bo'yłari, dam olish zonalari turli darajada va xildagi texnik xizmati ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'i bilan qoplangan.

Muammoli topshiriq: mavjud texnik xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatini tahlil qilib, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanib, bu korxonalarini rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar taklif qilasiz?

Mavjud vaziyat

Avtomillardan turli maqsadlarda, turli yo'l va iqlim sharoitlarida foydalanish, ularning turli xil ifloslanishiga olib keladi. Yuk avtomobili kuzovlarining ifloslanishi tashiladigan yuk turiga bog'liq bo'lib, ular qum, tuproq, ko'mir, qurilish materiallari va iste'mol mollari bo'lishi mumkin. Tashqi muhit, ya'ni harorat, yog'ingarchilik va kuzovga yopishib qolgan iflosliklar ta'sirida bo'lган

joylardagi bo'yoqning ximik va fizik xususiyatlari o'zgarib, yuza asta sekin eskiradi. Bularni oldini olish va TXK ishlarni sifatli bajarish maqsadida tozalash, yuvish va quritish ishlari olib boriladi.

Muammoli topshiriq: avtomobillarni kuzovini tozalash va yuvish ishlari qachon bajariladi va ularga qanday talablar qo'yiladi? Kuzovlarni tozalash va yuvish ishlarida qanday texnologik jihozlardan foydalinaladi? Avtomobillarni tozalash va yuvish texnologiyasi asosida texnologik xarita tuzing. Kuzovlarni ishlov berish ishlarni maqsad va mohiyatini tushintirib bering.

Mavjud vaziyat

Avtomobilarning kuzov, kabina va tayanchlarining asosiy nosozliklari: ularning qiyshayishi, pachoqlanishi, uzelishi, zanglashi, chirishi, boltli va parchinmixli birikmalarining bo'shashib ketishidan iborat.

Muammoli topshiriq: avtomobillar kuzovidagi nosozliklarni aniqlang va ularni bartaraf qilish texnologiyasini tuzing. Texnik xizmat ko'rsatish korxonasida kuzovlarni ta'mirlash texnologiyasini tahlil qiling va qiyosiy texnologik xarita tuzing. Texnik xizmat ko'rsatish korxanalarida kuzovlarni ta'mirlashda ishlatilayotgan texnologik jihozlarni qiyosiy tahlil qiling va xulosa qiling.

Mavjud vaziyat

Ekspluatatsiya jarayonida detallarning tabiiy yeyilishi, to'satdan ishdan chiqishi va ish qobiliyatini yo'qotishi natijasida tsilindr porshen guruhi (TSPG), KSHM, GTM, birikma va agregatlarda turli nosozliklar paydo bo'ladi.

Muammoli topshiriq: guruhdagi talabalarni 3 yoki 4 ta kichik guruhlarga bo'lib, ularni 2ta kichik guruhiga KSHM ni va 1 ta guruhiga GTM da uchraydigan nosozliklarni va ularni kelib chiqish sabablarini o'rganish va tahlil qilish asosida ularni texnik holatini aniqlash lozim. Avtoservis korxonalarida KSHM va GTMni diagnostikalash, TXK va ta'mirlashda ishlatiladigan jihozlarni tahlil qilish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun chora-tadbirlar taklif qilish. KSHM va GTM ga TXK va ta'mirlash bo'yicha texnologik xarita tuzish. Issiqlik tirqishini sozlashni o'rganish.

Mavjud vaziyat

Avtomobilarni ta'mirlash qilishda korpus detallaridagi yoriqlarni berkitish va korpus detallaridagi dumalash podshipniklari bor tutashmalarining va sirpanish podshipniklarning ishlash imkoniyatini tiklash, shuningdek kuzovlardagi yoriqlarni berkitish va ezilgan joylarni tekislash ishlarida sintetik materiallar keng ko'lamda ishlatiladi.

Muammoli topshiriq: Korpus detallaridagi darzlarni berkitish va teshiklarni tiklashda yana qaysi yelimli kompozitsiyalar ishlatiladi.

GLOSSARY

GLOSSARY

| O'zbek tilida | Rus tilida | Ingliz tilida | Mazmuni |
|---|---|-------------------------------------|--|
| Amortizator | Amortizator | Shock-absorber | Avtomobil tekis bo`lmasi yurganda g`ildirakning yo`ldan sapchishini yuqotib, avtomobil ramasi va kuzovning tebranishiga to`sinqinlik qiladi |
| Avtobus | Avtobus | Bus | SHahar atrofida, shahar ichida, shaharlariaro, ma'lum joylarga qatnaydigan va umumiy ishlarda foydalaniladigan bo`ladi. |
| Avtomobil | Avtomobil | Automobile | Quruqlikda harakatlanuvchi transport vositasi bo`lib, mustaqil energiya manbaiga ega bo`l mustaqilgan dvigatel bilan jihozlangan va xavfsizlikka ega bo`lgan g`ildirakli mashinadir. |
| Avtomobil shassisi | SHassis avtomobil ya | Automobile chassis's | Dvigatelning tirsakli validagi burovchi momentni yetakchi g`ildiraklarga uzatish avtomobilni harakatlantirish va boshqarishga mo`ljallangan mexanizmlardan tuzilgan. |
| Avtomobilni boshqarisht mexanizmlari | Avtomobilnye upravleniya mexanizmy | Automobile drives mechanisms | Hydovchi avtomobilni belgilangan yo`nalishda harakatlantirish uchun zarur bo`lgan rul boshqarmasi va tormoz boshqarmalardan tuzilgan. |
| Bosh dozalovich qurilma | Osnovnoe izmeritelnoe ustroystvo | Main metering device | O`rtacha yuklanish diapozonida tejamkor tarkibli yonuvchi aralashmani tayyorlaydi. |
| Dag`al Tozalagich | syroy chistyy | Crude clean | Tozalagich g`ilof ip gazlamadan to`qilgan o`nga to`r qovirg`a o`ralgan tozalagich o`rnatilgan |
| Differensial | Differensial | Differential | Avtomobil harakatlanib burilganda va yo`lning notekis joylaridan yurganda yetakchi g`ildiraklarning har-xil burchakli tezlikda aylanishganda imkon beradi. |
| Ekologik muammo | problema ekologii | Ecology problem | Y`l muammosi va ekspluatatsiya muammosini o`z ichiga oladi |
| Ekonomayzer | Ekonomayzer | Economizer | To`la quvvat olish uchun boyitilgan aralashma tayyorlashga xizmat qiladi. |
| Elastik element | Elastichnyy element | Elastic element | Yo`l notekisligi zarbalarini yumshatadi |
| G`ildirak | Koleso | Wheel | Avtomobilning shinasi va o`qi o`rtasidagi bog`lovchi zveno hisoblanib, u shinani o`rnatish uchun kerak |
| Ishga tushirish qurilmasi | puskovoe ustroystvo | Starting device | Sovuq dvigateli ishonchli o't oldirish rejimiga mos yonilg'i aralashmasi tayyorlaydi. |
| Jalyuzi | Jalyuzi | Blind | Sovuq ob-havo sharoitida radiatordan o'tayotgan havo oqimi miqdorini kamaytiradi. Dvигatel harorating ortiqcha tushib |

| | | | |
|-------------------------------------|-------------------------------------|-----------------------------------|--|
| | | | ketmasligini ta'minlaydi. |
| Kamera | Kamera | Tube | Tutashtirilgan rezinali quvur-halqa. Unda havo damlash uchun vintel bo'ladi. |
| Kardan sharniri | Kardannыу sharnir | The cardan joint | O'qlari orasidagi burchak o'zgaruvchan bo'lgan vallarni sharnirligi biriktirib, harakat uzatishga hizmat qiladi. |
| Klapan prujinalari | Klapanniye prujiniy | The valve springs | Klapanni o'rindiqqa zinch o'tirishini ta'minlaydi va uni yopiq holatda ushlab turish uchun hizmat qiladi. |
| Koromislo | Koromislo | The rocker arm | Ikki yelkali richag bo'lib, turtkich harakat yo'nalishini klapanning ochilish yo'nalishiga o'zgartirish uchun xizmat qiladi. |
| Krivoshisp shatunli mexanizm | Krivoshisp shatun mexanizmov | Krivaship shatun mechanizm | sindrlarda ishchi aralashmaning yonishidan hosil bo'lgan gaz bosimini porshen orqali qabul qilib, porshenning-ilgarilanma-kaytma harakatini tirsakli valning aylanma harakatiga aylantirib beradi. |
| Maxovik | Maxovik | The flywheel | Inersion disk, tirsakli val ortiga biriktiriladi |
| Maxsus avtomobililar | Spets avtomobili | Special automobiles | Ma'lum ishlarni bajarishga imkon beradigan mexanizm-qurilma va uskunalar bilan jihozlangan. |
| Mayin tozalagich | Myagkaya ochistka | Soft cleaning | Aozalagich markazida to'r qovirg`ali po`latdan tayyorlangan to`rsimon tozalagich sterjenga o`rnatilgan. |
| Mushtchalar | Kulachok | Cams | Mushtchalar klapanni harakatlantiradi va ularning soni klapanlar soniga mos va holati dvigatelning ishlash tartibi bilan belgilanadi |
| Oldingiko`prik | peredniy most | Front bridge | Atomobilning rol boshqarmasi qismlarini osmalar va yetaklovchi g`ildiraklarni o`rnatish uchun hizmat qiladi. |
| Orqa ko`prik | Zadniy most | Back bridge | Asosiy uzatma differentsiyal yarim o`qlar osmalar va yetakchi g`ildiraklarning o`rnatish uchun hizmat qiladi. |
| Pnevmatik osmalar | Pnevmaticheskie podveski | Pneumatic suspensions | Elastik element vazifasini ballonga siqilgan havo bajaradi. Bunday osmalarda elastikklikni siqilgan havo ta'minlaydi. |
| Porshen | Porshen | Piston | Ichki aralashmaning silindr ichida yonishi natijasida hosil bo'lgan gaz bosimini qabo'l qilib uni o`z barmog'i hamda shatun orqali tirsakli valga uzatish uchun hizmat qiladi. |
| Poyga avtomobilari | Gonyichnye avtomobili | Motor rally automobiles | Sport avtomobillari bo'lib, avtomobil sport poygasida qatnashish uchun mo`ljallangan. |
| Rezinali tayanch | Rezinova ya baza | Rubber stop | Osma harakatini chegaralaydi. |
| Rul boshqarmasi | Rulovoy upravleniya | Rule steer | Atomobilning harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun hizmat qiladi. |
| Salt ishlash tizimi | Xolostoy rejim sistemi | Idle mode system | Tirsakli valning minimal aylanish chastotasida turg'un ishlashi uchun aralashma tayyorlaydi. |

| | | | |
|---|---|--|---|
| | | | |
| Shinalar | SHina | Tyres | G`ildirakning yo`l notekisliklaridan qabul kilgan turtqilarni yumshatib va so`ndirib, avtomobilning yurishidagi ravonligini yaxshilaydi |
| Shtanga | SHtanga | The rod | Turtkichdan koromisloga kuch uzatish uchun xizmat qiladi |
| Silindrlar bloki | Blok tsilindr | Cylinder block | Dvigatelning korpus qismi bo`lib unda silindrlar joylashgan |
| So`ndiruvchi element | poglouay uchciy element | Absorbing element | Kuzov tebranishini so`ndiradi |
| Sovitish tizimi | Sistema oxlojdeniya | Freeze system's | Aigateining qizigan qismlardan ajralgan issiqlikni tashqi muhitga tarqatadi va uni eng qulay issiqlik maromda ishlashni ta`minlaydi. |
| Stabilizator | stabilizator | Stabilizer | Kuzovni yonga og'ishini kamaytiradi |
| Suyuqlik nasosi | Pompa | Water pump | Tizimdagи suyuqliknинг tinimsiz aylantiradi. Sovutish tizimidan markazdan qochma nasoslar keng qo'llaniladi. |
| Termostatt | Termostaт | Termos | Dvigatelni qizdirishni tezlatib, sovitish tizimida qulay haroratni avtomatik ravishda saqlab turish uchun hizmat qiladi. |
| Tezlatish nasosi | Uskorenienie nasosa | Acceleration pump | Avtomobilning keskin dinamik harakatini ta'minlash uchun aralashmani tezkor boyitib berishga xizmat qiladi. |
| Turtkich | tolkatelъ | The tappet | Taqsimlash vali mushtchasidan klapan sterjeniga yoki shtanga (koromislo)ga o'q bo'ylab kuch uzatish uchun xizmat qiladi. |
| Ventilator | Ventilyator | Fan | Radiatordan o'tayotgan havo miqdorini va tezligini oshirish uchun xizmat qiladi. |
| Yarim o`qlar | Polovos | Half axles | Burovchi momentni diffensialdan yetakchi g`ildiraklarga uzatish uchun hizmat qiladi. |
| Yengil avtomobili | Lyogkovo y avtomobilъ | Light automobile | O'rnatilgan dvigatellarni ishchi hajmiga qarab: 1, 2 l.gacha o`rta kichik; 1,2...1,8 l kichik; 1,8...3,5 l o`rta va 3,5 litrdan ortiq katta litrajli bo`ladi. |
| Yo`lovchi avtomobillar | Possajырные avtomobili | Passenger Automobiles | Yo`lovchilarni tashishga mo`ljallangan. |
| Yonilg`i so`rish va haydash nasosi | Goryuchi y sosat'i privod nasosa | Inflammable suck and drive pump's | Yonilg`ini bakdan dag`al tozalagich orqali so`rib, keyin uni mayin tozalagichlar orqali yuqori bosim nasosiga haydaydi |

Bosim ostida payvandlashda tanavorlarni biriktirishga biriktiriladigan yuzalarini tashqi quch qo'yish hisobiga birgalikda plastik deformatsiyalash yo'li bilan erishiladi.

Chokli kontakli payvandlash bir-birni berkitib turuvchi nuqtalar qatorini hosil qilish yo'li bilan zinch birikma (chok) olish usulidir.

Diffuzion payvandlash bosim ostida payvandlash usullari guruhiba kiradi, bunda payvandlanayotgan qismlarning plastik deformatsiyalanish evaziga birikishi erish haroratidan past haroratda, ya'ni qattiq fazada amalga oshadi. Mazqur usulning o'ziga xos xususiyati shundaki, nisbatan uncha katta bo'lмаган qoldiq deformatsiya yuqori haroratdan foydalilanadi.

Elektr-shlak payvandlash – bu eritib payvandlash usuli bo‘lib, bunda chokni qizdirish uchun, issiqlik, erigan shlak orqali o‘tayotgan elektr tok yordamida qizdirladi.

Elektron-nurli payvandlash – bu eritib payvandlash usuli bo‘lib, bunda metall qizishi elektr maydon ta’sirida tez harakatlanuvchi elektron nurlar oqimi natijasida qiziydi.

Eritib uchma-uch payvandlashda dastlab detallarga payvandlash transformatoridan quchlanish beriladi, keyin ular bir-biriga yaqinlashtiriladi. Detallar bir-biriga tekkanda tokning zichligi kattalagi tufayli tegish joyining ayrim joylaridagi metall tez qiziydi va portlashsimon yemiriladi. Tegish joylari, ya’ni ulagichlar uzlusiz hosil bo‘lishi va yemirilishi, ya’ni uchlarning erishi hisobiga detallarning uchlari qiziydi. Jarayon oxiriga kelib, uchlarda uzlusiz suyuq, metall qatlami yuzaga keladi. Bu paytda yaqinlashtirish tezligi va cho‘ktirish kuchi keskin oshiriladi; uchlар bir-biriga tutashadi, suyuq metallning ko‘p qismi sirtdagи pardalar bilan birga payvandlash joyidan siqilib chiqib, qalinlashgan joy - grat hosil qiladi.

Himoya gazlar muhitida payvandlash – bu yoyli payvandlash, bunda yoy va erigan metall, ayrim hollardasovuyotgan chok, payvandlash zonasiga maxsus ko‘rlma bilan yetkazib berilayotgan himoya gazlar ta’sirida bo‘ladi ya’ni havo ta’siridan himoyalanadi.

Flyus ostida yoyli payvandlash – bu yoyli eritib payvandlashdir, bunda yoy payvandlash flyusi ostida yonadi.

Ishqalab payvandlash deb, bir-biriga siqilib turgan va nisbiy harakatda ishtirok etadigan ikkita tanavorning tegish yuzasida hosil bo‘luvchi issiqlikdan foydalanish hisobiga amalga oshiriladigan ajralma birikma hosil qilish texnologik jarayonini aytildi.

Kontaktli payvandlash detallarni ular orqali o‘tuvchi elektr toki bilan qisqa muddat qizdirish va siqish kuchi yordamida plastik deformatsiyalash natijasida detallarning ajralmas metall birikmalarini hosil qilish texnologik jarayonidir.

Legirlovchi komponentlar qoplama tarkibiga chok metaliga issiq-bardoshlik, yeyilishga chidamlilik, korroziya bardoshlik kabi mahsus xossalar berishi va mexanik xossalarini yaxshilash uchun zarur.

Magnit-impulslı payvandlash – bosimni qo‘llash bilan payvandlash, bunda impulsli magnit maydon ta’siri oqibatida hosil bo‘lgan payvandlanayotgan qismlarning to‘qnashishi hisobiga bajariladi.

Payvandlash – metallar, qotishmalar va turli materiallarni plastik deformatsiyalash yoki birikilayotgan qismlar orasini qizdirish bilan atomlararo birikish natijasida ajralmas birikma hosil qiluvchi texnologik jarayondir.

Plazmali payvandlash – bu eritib payvandlash usuli bo‘lib, bunda metall qizishini siqilgan yoy ta’minlaydi. Plazmali payvandlashda issiqliq manbayi sifatida elektr yoy qo‘llaniladi, uning ustuni ishlov berilayotgan buyumning issiqliq energiyasining tarkibini oshirish maqsadida iloji boricha qisilgan.

Portlatib payvandlash – bosim bilan payvandlashning portlovchan modda zaryadi portlaganda ajralib chiqadigan energiya ta’sirida amalga oshiriluvchi bir turidir.

Prokatlab payvandlash yo‘li bilan turli vazifalarni bajaruvchi ikki va undan ortiq qatlamlar (tarkibiy qismlar)dan tashkil topadigan metall konstruksiyalar hosil qilinadi.

Shlak hosil qiluvchi komponentlar suyuqlangan metallni havoning kislороди va azoti ta’siridan muhofaza qiladi va uni qisman tozalaydi. Ular yoy oralig‘idan o‘tayotgan elektrod metali tomchisi atrofida shlakli qobiqlar, chok metali sirtida shlakli qatlam hosil qiladi. Shlak hosil qiluvchi komponentlar metallning sovish tezligini kamaytiradi va undan metall bo‘lmagan qo‘silmalarining ajralishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.M.Qodirov, O.V.Lebedev, A.M.Xakimov, «Mashina detallarini tiklash texnologiyasi», olyi o`quv yurtlari uchun darslik, T.: O`zbekiston, 2001-y.-248b.
- 2.F.P.Gurin, V.D.Klepikov, V.V.Reyn. Avtomobilsozlik texnologiyasi. 1-11 kitob. Toshkent,2001
3. Л.В.Дехтеринский «Ремонт автомобилей» Москва «Транспорт» 1992 г . -296 с.
4. С.И.Румянцев «Ремонт автомобилей» Москва «Транспорт» 1981 г. -462 с.
5. Abralov M.A., Dunyashin N.S., Abralov M.M., Ermakov Z.D. Eritib payvandlash texnologiyasi va jihozlari – T.: Voris, 2007
6. Abralov M.A., Dunyashin N.S., Ermakov Z.D. Gaz alangasi yordamida metellarga ishlov berish texnologiyasi va jihozlari – T.: Ilm ziyo, 2007
7. Abralov M.A., Dunyashin N.S. Kontaktli payvandlash texnologiyasi va jihozlari – T.: Turon-iqbol, 2006
8. Abralov M.A., Ermakov Z.D., Dunyashin N.S. Qo`lda yoyli payvandlash jihozlari – T.: O`zbekiston faylsuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012
9. Аbralов М., Дуняшин Н. Оборудование и технология газопламенной обработки металлов – Т.: Iqtisod-moliya, 2010
10. Виноградов В.С. Оборудование и технология дуговой автоматической и механизированной сварки – М.: Высшая школа, 1997
11. Герасименко А.И. Основы электрогазосварки – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004
12. Григорьянц А.Г. Основы лазерной обработки материалов. М.: Машиностроение, 1989
13. Думов С.И. Технология электрической сварки плавлением. Л.: Машиностроение. Ленинградское отделение, 1987
14. Лупачев В.Г. Сварочные работы – М.: Высшая школа, 1998
15. Колганов Л.А. Сварочные работы – М.: «Дашков и К», 2004
16. Козулин М.Г. Технология электрошлаковой сварки в машиностроении: Учебное пособие. Тольятти: ТолПИ, 1994
17. Маслов В.И. Сварочные работы. М.: Издательский центр «Академия», 1999
18. Николаев А.А. Электрогазосварщик – Ростов на Дону: Феникс, 2000
19. Никифоров Н.И. Справочник газосварщика и газорезчика – М.: Академия, 1997
20. Оборудование для дуговой сварки: Справочное пособие / Под ред. В.В. Смирнова. Л.: Энергоатомиздат, 1986
21. Подгаецкий В.В., Люборец И.И. Сварочные флюсы. Киев.: Техніка, 1984
22. Сварка в машиностроении: Справочник в 4-х т. М.: Машиностроение. 1978- 1979
23. Сварка и резка в промышленном строительстве. /Б.Д. Малышев, А.И. Акулов, Е.К. Алексеев и др.; Под ред. Б.Д. Малышева. М.: Стройиздат, 1989
24. Сварка и резка материалов: Учеб. пособие/ М.Д. Банов, Ю.В. Казаков, М.Г. Козулин и др.; Под ред. Ю.В. Казакова. М.: Издательский центр «Академия», 2001
25. Сварка и свариваемые материалы: В 3-х т. Т. II. Технология и оборудование. Справ. изд./Под. ред. В.М. Ямпольского. М.: Издательство МГТУ им. Н.Э. Баумана, 1998
26. Стеклов О.И. Основы сварочного производства. М.: Высшая школа, 1986
27. Технология и оборудование сварки плавлением/ Г.Д. Никифоров, Г.В. Бобров, В.М. Никитин, В.В. Дьяченко; Под общ. ред. Г.Д. Никифорова. М.: Машиностроение, 1986
28. Чебан В.А. Сварочные работы. Ростов на Дону: Феникс, 2004
29. Чернышев Г.Г. Сварочное дело: Сварка и резка металлов – М.: Академия, 2004 – 496c

ILOVALAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

Ro'yhatga olindi: «Tasdiqlayman»
№ BD-5310600-18 O'quv ishlari bo'yicha prorektor
“___” _____ M.Dadamirzayev
2021 yil. «___» _____ 2021 yil.

**Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari
fanining**

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 600000 – Xizmatlar

Ta'lif sohasi: 610000 – Xizmat ko'rsatish sohasi

Ta'lif yo'naliishi: 5610100 – Xizmatlar soxasi (avtomobil transporti)

Fanning o'quv dasturi OO`MTV ning BD 5310600-18 o`quv rejasi va NamMQI ilmiy Kengashining _____.2021 yildagi № ____ sonli yig`ilishida tasdiqlangan ishchi o`quv reja asosida tuzilgan.

Tuzuvchi (lar) A.Polvonov NamMQI Yerusti transport tizimlari kafedrasi dotsenti.

A. Madraximov NamMQI Yerusti transport tizimlari kafedrasi katta o'qituvchisi.

A. Razokov NamMQI Yerusti transport tizimlari kafedrasi katta o'qituvchisi.

S. Imomazarov NamMQI Yerusti transport tizimlari kafedrasi o'qituvchisi.

Taqrizchilar A.Normirzayev NamMQI Transport logistikasi va xizmatlar soxasi kafedrasi mudiri dotsenti.

A.Abduraxmonov–Firdavstrans servis MChJ korxona rahbari.

Fanning o'quv dasturi Yerusti transport tizimlari kafedrasining 2021 yil “____” dagi “____” - son yig`ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **M.Boydadayev**

Fanning o'quv dasturi “Transport” fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021 yil ____ iyundagi ____-sonli bayonnomma).

Fakultet kengashi raisi: _____ **B.Maxmudov**

Kelishildi: O'quv uslubiy bo'lim boshlig'i_____ dots. T.Jo'rayev

So'z boshi

Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 maydagi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorda Respublika transport sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida tubdan takomillashtirish, o'quv jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va metodlari hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, tarmoq ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ilmiy salohiyatini yanada oshirish masallari belgilab berildi.

Dasturda transport vosita detallarining ish qobiliyatini qayta tiklashning iqtisodiy samaradorligi, bozor iqtisodiyotidagi o'rni, uni tashkil etish va rivojlantirish omillari, detallarni tiklash nazariyasi va ta'mirbopligi, mashina va ulardagi sodir bo'layotgan eskirish jarayonlari, ish qobiliyatini yuqotishga olib keluvchi omillar, tiklash hajmi va davrlarini bashorat etish, hamda detal tiklash bilan bog'liq bo'lган masalalar yoritilgan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari.

Fanni o'qitishdan maqsad bu bo'lg'usi bakalavrлarga transport vosita detallarining loyihalashtirilgan ishslash potensiali va ularning ta'mirmobligini inobatga olgan holda transport vositalarini ishlatish jarayonida nuqsonlar bilan turib qolishini kamaytirish, ihtiyoq qismlarga ketayotgan valyuta sarflarini tejash, mexnat va material resurslaridan, hamda mashinasozlik va tiklash korxonalarining asosiy fondlaridan unumli foydalanish maqsadida transport vositalarining detallarini tiklash, bo'yicha yo'naliш profiliga mos chuqur bilim va kunikmalar ularning kelgusi ish faoliyatiga va magistraturada tahsil olishi uchun zamin bo'lib hizmat qiladi.

Fanni o'rganish vazifasi bu talabalarga :

- Transport vosita detallaridagi noxush jarayonlar, ishslash qobiliyatini yo'qatuvchi omillar, nuqsonlar, ta'mirni shakillantirish va detallarini tiklash bo'yicha zaruruiy bilimlarni berish;
- Transport vosita detallarini tiklash imkoniyatlarini, samaradorligini va uni bozor iqtisodi davridagi ishlab chiqarishdagi o'rmini ochib berish;
- Ilmiy texnikaviy taraqqiyot yutuqlari asosida tiklash texnologiyalarini takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish, transport vositalaridan foydalanilayotgan va maxsus korxonalar sharoitida tiklash ishlarini tashkil etish bo'yicha bilim va ko'nikmalar berish ;
- Tiklash texnologik jarayonlarini ishlab chiqish va ularni rasmiylashtirishga bog'liq bo'lган masalarni yechishga o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko`nikma va malakasiga qo'yilayotgan talablar

"Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiraladigan masalalar doirasida bakalavr:

– avtomobilarni tiklash nazariyasi va ta'mirbopligi, tiklashning iqtisodiy samaradorligi, bozor iqtisodi davridagi o'rni va uning tashkiliy shakillari, hamda chet el tajribalari bo'yicha to'liq tasavvurga ega bulishi kerak;

– transport vositalari detallarini ishlash sharoitiva ularda sodir bo'layotgan jarayonlar, detallarni ishlash qobiliyati va chegaraviy holatlarini belgilovchi omillar va ularni bashoratlash, tiklash hajmi va davrlarini modellashtirish, eskirish va tiklash modellarni shakillantirish, tiklash strategiyasi, turlari va usullari, vositalari va tiklashning texnologik jarayoni, uni shakillantirish va optimallashtirish bo'yicha tushunchaga ega bo'lishi kerak;

– transport vositalari detallarini sochish yuvish va tozalash, nuxson turlari va ularni aniqlash, detallarni tiklash usullarini bilishi kerak;

– talaba transport vosita detallarini ishlash sharoiti va undagi nuxsonlarning o'gangan xolda ularni tiklash uslublari tug'ri tanlash, tiklash jarayonini ishlab chiqish va baholash bo'yicha kunikmalarga ega bo'lishi kerak;

– talaba transport vosita detallarini ishlash sharoitini, ularga ta'sir etuvchi omillarni, hamda detallarni ish qobiliyatini yo'qotishga olib keluvchi salbiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, nuqsonlarni aniqlash va tiklash uslublarini belgilash xamda tanlangan tiklash uslubi asosida detallarning tiklash texnologik jarayonini ishlab chikish va uni iqtisodiy baholash malakasiga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, uslubiy jihatdan ketma-ketligi.

"Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari" ixtisoslik fani bo'lib o'quv reja boyicha 7-8-semestrda o'qitiladi. Ushbu fan davlat ta`lim standartiga muvofiq tegishli bakalavratura ta`lim yo'naliшhlarida o'tilgan umumta'lim va umummuhandislik-oliy matematika, fizika, mexanika nazariyasi, mashina va mexanizmlar nazariyasi, materiallar qarshiligi, gidravlika va xavoli uzatmalar, mashina qismlari, metrologiya, standartlash va o'zaro almashuvchanlik asoslari, transport vositalari tuzilishi va nazariyasi, konstruktsion materiallar texnologiyasi va materialshunoslik kabi fanlar bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning o'qitish jarayonida mazmun jihatdan ularni uslubiy ketma ketligi, hamda yo'naliшhning mohiyatidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv reja tomonidan ta'minlangan.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.

"Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari" fani ishlab chiqarish amaliyotida Respublikamizda mehnat va material resurslaridan hamda mashinasozlik va ta`mirlash korxonalarining asosiy fondlaridan umumiyl foydalanish samarasini keskin oshirishga ijobjiy ta'sir etadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarishda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish, xamda transport vositalarin ishlash qobiliyatini ta'minlashdagi ehtiyyot qismlariga ketayotgan valyuta sarflarini kamaytirishga zamin yaratadi.

Fanning o'qitishdagi zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar:

"Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari" fani ma'ruza o'qitish va laboratoriya hamda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ma`ruzalar innovatsion ta`lim texnologiyalar asosida texnikaviy vositalardan tashqari guruqlar to`plami uchun o`qitishning texnikaviy vositalaridan va tarqatish materiallaridan foydalanilgan holda o`qitiladi. Ma`ruzalarda ma`ruzaning progressiv binar, moammoli sharxlovchi shakillari, o`qitishning interfaol, baxs, o`yin, keys-stadi, aqliy xujum usullaridan foydalanish shart.

Ma`ruzalar faning asosiy mazmuni bayon etiladi, xodisalarning fizikaviy mohiyatlari ochiladi va ularning yechimlari ko`rsatib o`tiladi. Ma`ruzalar transport vositalarini tiklashva bu fanning muammolari, rivojlantirishga oid aniq professional bilimlarni olishga imkon beradi.

Laboratoriya va amaliy mashg`ulotlari ma`ruzalardan olingen bilimlarni chuqurlashtirish va ular bo'yicha amaliy ko'nikmalar olish, hamda bakalavr larning ish faoliyati uchun dastlabki ishlab chiqarishga tajribalarin xosil qilish maqsadida o'tkaziladi.

Laboratoriya va amaliy mashg`ulotlar zamon talablariga javob beradigan jixoz va uskunalarda kompyuter texnologiyalarni asosida o'tkazilishi shart.

Talabalarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o`qitishda fan dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularga maxsus o`quv va metodik qo'llanmalar yaratish tavsiya etiladi. Bu qo'llanmalarda eng murakkab nazariy masalalar ko'rib chiqilishi lozim. Bunda masala yechishga oid misollar keltirilishi va adabiyotlardan mustaqil o'rghanish uchun bo'limlarni ko'rsatish kerak.

Talabalarning bilimi fani o'rghanish jarayonida ma`ruzalar, laboratoriya mashg`ulotlarda tezkor so'rov, klaster, ha-yo'q texnikasi orqali nazorat qilib boriladi. Fanni o'rghanish joriy va oraliq baholash, hamda yakuniy nazorat o'tkazish bilan yakunlanadi.

ASOSIY QISM Maruza mashg`ulotlari

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislari orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak.

Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularining dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngti yutuqlari ehtiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma`ruza mashg`ulotlarining asosiy tarkibi.

Avtotransport vositalari detallarini qayta tiklash metodlari fanining maqsadi va vazifalari. Tiklashning iqtisodiy samaradorligi va bozor iqtisodidagi o'rni. Transport vositalarining tiklashni tashkil etish va rivojlantirish omillari. Transport vositalarining tiklash nazariyasi va ularning ta'mirbopligi. Tiklashning chet el tajribalari va uning tashkiliy shakillari.

Transport vositalari detallarini ishlash sharoitlari va ulardagi sodir bo'layotgan jarayonlar. Transport vosita detallarining turlari va ishlash sharoitlari. Tashqi va ichki sharoitlar, ularni sinflanishi va tasnifi. Transport vosita detallarini

ishlashidagi sodir bo'layotgan jarayonlar. Yemirilish, deformatsiya va mexanik buzilish, materiallarni eskirishi va charchashi. Yeyilish, yemiirilish va buzilish turlari. Korroziya va korroziya turlari. Yuklanish va uning turlari. Yuklanishning taqsimlanishi va kenentratsiyalanishuvi. Transport vosita detallarini ishlash qobiliyati va ishonchliligi, hamda ularning baholovchi ko'rsatkichlari. Transport vosita detallarini chegaraviy holati. Ishlash qobiliyati va chegaraviy holatlarni bashoratlash. Tiklash hajmi va davrlarini modellashtirish. Eskirish va tiklash modellarini shakillantirish.

Transport vositalari detallarini tiklash tizimi va vositalari. Tiklash strategiyasi va uning ko'rinishlari. Ishlatilish vaqt va texnik holat bo'yicha tiklash. Tiklash turlari va usullari. Tiklashning ishlab chiqarish strukturasi. ularning maxsuslashtirish shakllari texnologik jarayonlarning sxemalari va ularning tasnifi. Tiklash ishlab chiqarishni tashkillashtirishva optimallashtirish. Tiklash jarayonini tayyorlash tizimi, ularning texnologik ta'minoti. Tiklash fondi, uni ishlab chiqarishga qo'yish va tiklagan maxsulotni olish tizimlari.

Transport vositalari detallarini yuvish va tozalash. Transport vosita detallarini yuvish va tozalash ishlarining ahamiyati. Texnologiya va ekspluatatsion iflosliklar, ularning ko'rinishlari va tabiat. Iflosliklarning kimyoviy tarkibi va ifloslanish jarayonining tasnifi bo'yicha sinflanishi. Yuvish vositalari, ishqoriy va sintetik. Erituvchi emulsiyalar. Kimyoviy faol moddalar va ishqoriy eritmalar. Ularni tozalash imkoniyatlari. Yuvish uslublari. Oqava va botirib yuvish. Yuvish texnologik jihoz va moslamalari. Yuvish iflosliklarni ketakazish jarayoni, undagi omillar va qo'yilayotgan talablar. Yuvish vositalari va yuvish uslublarini tanlash. Tozalash usullari. Mexanik kimyoviy termokimyoviy, kombinatsiyalashtirilgan va biologik usullar. Tozalash texnologik jihoz va uskunalari. Tozalash satxilari va nazorat usullari. Lak bo'yoq va konyervatsion moy qoldiqlaridan tozalash. Yuvish va tozalash jarayonida ish joylarini tashkillashtirish va mehnat muhofazasi.

Transport vositalari detallarini detallarining texnik holatini aniqlash. Detallarning texnik holatini aniqlash mohiyati. Nuqson, nuqson turlari, kritik, ahamiyatli va kam ahamiyatli, tashqi va ichki, to'g'rilanadiganva to'g'rilib bo'lmaydigan, yashirin va yaqqol, konstruktsion, ishlab chiqarish va ekspluatatsion nuqsonlar. Ishlab chiqarish va ekspluatatsion nuqsonlarning guruhanishi va ularning tasnifi. Defektatsiyalash jarayonining mohiyati. Texnikaviy shartlar va defektattsiyalash xaritasi. Nuqsonlarni aniqlash usullari va vositalari vizual, instrumental, suyuqlik yoki havo bosimi ostida, bo'yoq, lyumenetsent, magnit, ultrazvuk va radiattsion usullar, hamda ularning texnologik jihoz, uskuna va instrumental ta'minoti. Nuqsonlarni aniqlash uslubi va vositalarini tanlash.

Transport vositalari detallarining tiklash uslublari. Detallarni tiklash uslublari va ularni klasifikatsiyalanishi. Detallarni tiklash o'lchamlari bo'yicha tiklash. Tiklash o'lchamlarini va ularning sonini aniqlash. Qo'shimcha tiklash detallarni o'rnatish yo'li bilan tiklash. Detallarni bosim ostida (plastik deformatsiyalash) tiklash. Yeyilgan yuza o'lchamlarini bosim ostida tiklash turlari. Detallarni shaklini tiklash (to'g'rakash). Sovuq va issiq holatda to'g'rakash. Detal materiallarining xususiyatlarini tiklash, uni amalga oshirish yo'llari. Detallarni payvandlash va eritib qoplash yo'li bilan tiklash. Umumiyl tushuncha va ma'lumotlar. Payvandlashda hosil bo'layotgan noxush jarayonlar-metallurgik jarayonlar, tarkibiy o'zgarishlar, ichki kuchlanishlar va deformatsiyalar. Elektr yoy bilan qo'lida

payvandlash va eritib qoplash. Qoldiq kuchlanishlar va deformatsiyalarni bartaraf qilish uchun payvandlashdagi qo'llaniladigan ishlov turlari va texnologik usullar. Elektrodlar. Payvandlash rejimi va uni tanlash. Po'lat cho'yan va alyumniy qotishmalaridan tayyorlangan detallarni payvandlash xususiyatlari. Cho'yan detallarni issiq va sovuq xolatda payvandalash. Flyus qatlami ostida avtomatik tarzda eritish qoplash. Elektrodlar. Qo'llaniladigan flyuslar. Eritib qoplangan metalni legirlash uslublari. Qoplash rejimi va uni belgilovchi omillar. Titrama yoy usuli bilan avtomatik tarzda eritib qoplash. Elektrodlar va qoplash rejimlari. Himoya gaz muhiostida payvandlash va eritib qoplash. Induktsion eritib qoplash va uning mohiyati. Qoplash usullari. Materiallar va qoplash rejimi. Elektroshlak usulida eritib qoplash. Qo'llaniladigan elektrodlar va materiallar. Gaz alangasida payvandlash va eritib qoplash. Po'lat, cho'yan va alyumniy qotishmalaridan tayyorlangan detallarni gaz alangasida payvandlash. Kavsharlash. Pripoylar. Pastva yuqori haroratli pripoylar bilan detallarni kavsharlash.

Transport vositalari detallarini tiklash. Dvigatel va uni sovutish yog'lash ozuqlash, hamda o't oldirish-elektr jihoz tizimlarini, transmissiya va yurish qismi, boshqarish mexanizm detallarini tiklash. Texnikaviy talablar va texnologik zaminlash. Tarkibiy qism, tizim va detallarning o'ziga nosozlik va nuqsonlarini nazorat va nuqsonlarni bartaraf etish usullari. Tiklashning texnologik marshrutlari, jihoz, uskuna va materiallar bilan ta'minoti, hamda tiklash talablari va rejmlari.

Transport vositalari detallarini tiklashdagi texnologik jarayonlarni loyihalash. Tiklashdagi texnologik jarayon turlari va ularni xususiyatlari. Jarayonlarni loyihalashdagi boshlang'ich ma'lumotlar, umumiyl qoida, texnikaviy talablar va texnologik zaminlar, hamda loyihalashning ketma-ketligi va undagi ko'rildigan masalalar-usullar, ishlov va sinov rejimini optimallashtirish. Texnologik xujjatlarni me'yorlash va rasmiylashtirish.

7-semestr uchun

Transport vosita detallarini tiklash.

Dvigatel va uni sovutish yog'lash ozuqlash, hamda o't oldirish-elektr jihoz tizimlarini, transmissiya va yurish qismi, boshqarish mexanizm detallarini tiklash. Texnikaviy talablar va texnologik zaminlash. Tarkibiy qism, tizim va detallarning o'ziga nosozlik va nuqsonlarini nazorat va nuqsonlarni bartaraf etish usullari. Tiklashning texnologik marshrutlari, jihoz, uskuna va materiallar bilan ta'minoti, hamda tiklash talablari va rejmlari.

Uzel va mexanizmlarni komplektlash. Mashinalarni yig'ish texnologiyasi. Uzel va mexanizmlarni komplektlash. Mashinalarni yig'ish texnologiyasi. Detal va uzellarni muvozanatlash. Detallarni dinamik muozzanatlash.

Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash. Detallarni plastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash. Detallarni mexanik ishlov berish yo'li bilan ta'mirlash. Detal qismini almashtirish. Detallarni plastik deformatsiyalash usulida ta'mirlash.

Detallarni elektr yoyi vositasida payvandlash yo'li bilan ta'mirlash. Elektr yoyi vositasida payvandlash yo'li bilan ta'mirlash. Detallarni payvandlash va eritib qoplash jarayonlarini avtomatlashirish. Flyus qatlami ostida avtomatik va yarim avtomatik payvandlash

Payvandlashdagi termik ta'sir va unga qarshi kurashishning texnologik usullari. Detalning qizdirilish darajasi. Normallanish.

Detallarni payvandlash va suyuqlantirib qoplash jarayonlarini avtomatlashtirish. Suyuqlantirib qoplash jarayonlari. Tebranma yoy vositasida erilib qoplash. Karbonat angidrid muhitida suyuqlantirib ta'mirlash.

Detallarni metallash yo'li bilan tamirlash. **Metallash turlari.** Yeyilgan detallarni sirtiga metal kukunlarini purkash. Gaz alangasida purkash. Plazmali purkash.

Metallangan qatlamning strukturasi qattiqligini yeyilishga chidamliligi va mustaxkamligi. Plazma vositasida metallash usuli. Metallash texnologiyasi. Metallangan qatlamning strukturasi, qattiqligi yeyilishga chidamliligi va mustahkamligi.

Detallarni galvanik qoplama qoplash yo'li bilan ta'mirlash. Galvanik qoplama qoplash yo'li bilan ta'mirlash. Temirlash. Po'latlash.

Polimer materiallar. Yelimli materiallar. Zamonaviy mashinalarni ta'mirlash. Polimer materiallar. Yelimli tarkiblar.

Detallarni ta'mirlashning qulay usullarini tanlash. Detallarni ta'mirlash jihatidan guruhlarga bo'lish. Detallarni ishlash muddati koeffisiyenti.

Val va o'qlarni ta'mirlash. Val va o'qlarni to'g'rilash. Tishli uzatmalarni ta'mirlash. Zanjirli uzatmalar

Labaratoriya mashg'ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari.

1. Gilza tsilindrлarining nuqsonlarini aniqlash. Gilza tsilindrлarini ta'mir o'lchamlarga tiklash.
2. Tirsakli vallarning nuqsonlarini aniqlash.
3. Taqsimlash vallarining nuqsonlarini aniqlash.
4. Shatunlarining nuqsonlarini aniqlash.
5. Tirsakli vallarning shatun va tayanch bo'yinlarini ta'mir o'lchamlarga tiklash.
6. Tirsakli vallarni elektroyoy yordamida metal eritib flyus qatlami ostida tiklash

Amaliy mashg'ulotni tashkiletish bo'yicha ko'rsatmalar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar avtomobilning ekspluatatsion xususiyatlariga bog'liq bo'lган parametrlarni xissoblash asoslarini o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. SHuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

1. Er usti transport tizim detallarining konstrukg'ion – texnologik xususiyatlari.
2. Transport tizim detallarining ishlash sharoitlari, ishlashdagi sodir bo'laetgan jaraenlar va ularni ish qobiliyatini belgilovchi omillar.
3. Detallarni ta'mrbopligi va chegaraviy xolatlari.
4. Detallarni yuvish va tozalash jaraenlari.
5. Detallarni texnik xolatini aniqlash.
6. Detallarni tiklash usullari va ularni tanlash.
7. Detallarni tiklashda mexanik ishlov berish.

8. Tiklashda texnologik operag'iyalarni me'rlash va rasmiylashtirish 7-semestr uchun

- 1.** Detallarni flyus oqimi ostida eritib va himoya gazlari muhitida changlatib qayta tiklash.
- 2.** Elektrod va uning qoplamasи, qoplama ga qo'yilgan talablarni o'rganish
- 3.** Payvandlash va suyuqlantirib qoplash uchun mo'ljallangan elektrodlarni tanlashni o'rganish
- 4.** Karbonat angidrid gazi muhitida suyuqlantirib qoplash jarayonini o'rganish
- 5.** Cho'yan va alumin qotishmalarini payvandlashdagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish
- 6.** Detallarni sintetik materiallardan foydalanib ta'mirlash texnologiyasini o'rganish
- 7.** Hosilni yig'uvchi mashinalarning asosiy ishchi organlarini ta'mirlash
- 8.** Mashinalardagi nuqsonlar va ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish
- 9.** Mashinalarni ta'mirlash usullari va ularni tahlil qilish
- 10.** Detallarni ta'mirlash usullarini tasnifini tahlil qilish
- 11.** Detallarni plastik deformatsiya bilan ta'mirlash usullarini tahlil qilish
- 12.** Traktorlarning tipavoy detallarini ta'mirlash usullarini o'rganish

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaql ishni bajarishdan maqsad:

- Fan bo'yicha ma'ruza, labaratoriya va amaliy mashg'ulotlarda olingan bilimlami yanada chuqurlashtirish;
- Adabiyot, jurnal va internet axborot informatsion resurslar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish;
- Ko'rيلayotgan mavzu asosida olingan information ma'lumotlarni tahlil eta bilish, tartiblash va xulosa qilish bo'yicha ko'nikmalarga erishish.
